

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

9-son (avgust 2024)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2024

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),
AHMEDOV Oybek Saporbayevich, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (Ma'mun universiteti),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),
MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zZMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zZMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SATIPOV G'oiqnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 9-son (sentabr 2024)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti •Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

27-OKTABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI

Sapayev G‘ulomjon Baxtiyarovich (Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Xorazm hududiy bo‘linmasi rahbari, f.f.d. (PhD))

VAKILLIK ORGANLARI SAYLOVLARINING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi saylov tizimi va qonunchiligi, Saylov kodeksining muhim jihatlari yoritilgan. Shuningdek, vakillik organlarini shakllantirishda demokratik saylovlarning o‘rni, ularning davlat hokimiyati boshqaruvi va jamiyatni demokratlashtirishda roli bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: saylov, demokratiya, konstitutsiya, qonun, Saylov kodeksi, siyosiy partiya, vakillik organi, deputat, davlat hokimiyati.

Сапаев Гуламжон Бахтиярович (руководитель Хорезмского областного отделения Центра анализа демократических процессов, д.ф.н. (PhD))

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА ВЫБОРОВ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ

Аннотация. В статье освещена избирательная система и законодательства Республики Узбекистана, важные аспекты Избирательного кодекса. Также в статье описывается роль демократических выборов в формировании представительных органов, их роль в управлении и демократизации общества.

Ключевые слова: выборы, демократия, конституция, закон, избирательный кодекс, политическая партия, представительный орган, депутат, государственной власть.

Sapayev Gulamjan Baxtiyarovich (Head of the Khorezm Regional Branch of the Center for analysis of democratic processes, PhD)

ORGANIZATIONAL AND LEGAL BASIS FOR ELECTIONS OF REPRESENTATIVE BODIES

Annotation. The article highlights important aspects of the electoral system and legislation of the Republic of Uzbekistan, as well as the newly adopted Electoral Codex. It also outlines the role of fair elections in the formation of representative bodies, their role in the governance and democratization of society.

Key words: elections, democracy, constitution, law, electoral codex, political party, representative bodies, deputy, government.

Kirish (Introduction). Bugun O‘zbekiston Respublikasida kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo‘lida bugun ulkan islohotlar amalga oshirilayotgan ekan, bunda, albatta, xalqning xohish-irodasi va orzu-intilishlari ifoda bo‘ladigan saylovlarning ahamiyati muhimdir. Chunki saylov – bu fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatning ajralmas belgisi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishning asosiy shakli.

Saylov – xalq hokimiyatchiligining timsoli bo‘lib, eng avvalo, o‘zida jamiyat a‘zolarining, qolaversa, saylovchi – fuqaro manfaatini ifoda etadi. Zero, saylovlar fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan demokratiyaning muhim ko‘rsatkichi va darajasidir.

Darhaqiqat, saylovlarda xalq hokimiyati va so‘z erkinligi namoyon bo‘lib, davlat hokimiyatini demokratlashtirish va boshqarishda xalq tomonidan meritokratik [1;257-b.] hokimiyatni tanlashga imkoniyat yaratadi. Zero, “Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir” [2;6-b.].

O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini shakllantirishda fuqarolar saylash va saylanish huquqlaridan foydalangan holda, o‘zlari saylaydigan Parlament va mahalliy vakillik organlaridagi deputatlar orqali bevosita ishtirok qiladilar. Deputatlar xalq bilan hokimiyat o‘rtasidagi siyosiy ko‘prik bo‘lib, xalqning orzu-maqсадlari, intilishlar va xohish-istaklari ular orqali namoyon bo‘ladi. Adolatli saylovlar orqali demokratik mezonlar amalga tatbiq etiladi, xalqning ishonchli vakili hokimiyat tepasiga keladi, barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanadi, orzu-umidlari ro‘yobga chiqadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda saylov tizimida katta islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, saylovlarni tashkil etish, o‘tkazish, fuqarolarning saylov huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov kodeksi bilan tartibga solingan. Fuqarolarning saylovga oid huquqlarining kafolatlanganligi, saylovlarning erkin va mustaqil o‘tkazilishi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida alohida moddalar bilan belgilanganligini aytish o‘rinli.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Asosiy Qomusimizning 128-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligi va davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar, ularning mud-

datlari, shuningdek, fuqarolarining saylash, saylanish, ovoz berish huquqlari va boshqa saylov bilan bog‘liq muhim normalar ko‘rsatilgan. 129-moddasida esa O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga boshqa hokimiyat organlarining aralashuvizsiz saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazishni ta‘minlaydigan davlat hokimiyati organi tizimidagi konstitutsiyaviy mustaqil organ maqomi berilgan. U o‘z faoliyatini mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilik prinsiplari asosida amalga oshirishi belgilangan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda saylovlarning tashkiliy-huquqiy asoslari umume‘tirof etilgan xalqaro prinsip va normalarga mos holda rivojlantirildi va qator islohotlar amalga oshirildi.

2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining qabul qilinishi bilan O‘zbekistonda saylov qonunchiligi yaxlit shaklga keltirilib, saylov bo‘yicha qonun va qonunosti hujjatlarni hamda barcha normalarni o‘zida mujassamlashtirdi.

2023-yil 18-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun saylov tizimini yanada takomillashtirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Bu O‘zbekistonda saylovlarni yanada demokratlashtirib, yangi sifat bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Mazkur Qonun bilan ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi aralash, ya‘ni majoritar-proporsional saylov tizim asosida o‘tkazilishi belgilandi.

Bunda Qonunchilik palatasidagi 150 nafar deputatning 75 nafari majoritar tizim asosida, ya‘ni saylovchilar o‘zlariga maqbul nomzodlarga to‘g‘risidan to‘g‘ri ovoz berishi yo‘li bilan, qolgan 75 nafari esa proporsional tizim bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylanishi belgilab qo‘yilgan [3].

Proporsional saylov tizimi (lot. proportio – nisbat, mutanosiblik) – ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi bo‘lib, bunda mandatlar o‘z nomzodlarini vakillik organlariga qo‘ygan siyosiy partiyalar o‘rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi [4;24-b.]. Ya‘ni, bu tizimda katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o‘z vakillarining ro‘yxatini tuzadi, saylovchilar esa tegishli partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan vakillar uchun ovoz beradi.

Majoritar saylov tizimi (fransuzcha “majorite” ko‘pchilik) – vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko‘p ovozni olgan nomzod muayyan okrug bo‘yicha saylangan hisoblanadi [4;25-b.]. Shuningdek, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlarni ko‘rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo‘lishi, deputatlikka nomzod saylanishi uchun saylovchilarning nisbiy ko‘pchiligi ovozini olishi belgilandi. Unga ko‘ra, nomzod tegishli saylov okrugida boshqa nomzodlarga nisbatan ko‘proq ovoz to‘plagan taqdirda deputat bo‘lib saylanishi mumkin va shu orqali takroriy ovoz berish tashkil etilmaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). 2024-yil 27-oktabrda bo‘lib o‘tadigan O‘zbekistonda Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlar mamlakatimiz kelajagi uchun ahamiyatlidir. O‘zbekiston tarixida ilk bor saylovlar majoritar-proporsional tizimda o‘tkazilishi siyosiy partiyalar va deputatlar o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga, siyosiy partiyalarning mavqeyi va saylov organlarining professionallik darajasi oshishiga xizmat qiladi. Zero, “Kuchli parlament va xalq vakillik organlari – Yangi O‘zbekistonning tayanchidir” [5;88-b.].

Ushbu saylovlarda O‘zbekistonning yaqin 5 yillik istiqboli va rivojlanishida muhim rol o‘ynovchi parlament va mahalliy vakillik organlari shakllantiriladi. Ular davlat va jamiyat hayoti uchun zarur qonunlarni ishlab chiqadi, hayotga tatbiq qilinishini nazorat qiladi va davlat hokimiyatini shakllantiradi, jamiyatdagi eng dolzarb masalalar va fuqarolar muammolarini o‘rganib, ularni hal qilish choralarini ko‘radilar. Chunki vakillik organlari jamiyat va davlat hayotining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy masalalarni hal qiluvchi organdir.

Bugun O‘zbekistonda yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor va faol deputatlarni, samarali va progressiv Parlament hamda mahalliy vakillik organlarini shakllantirish juda muhimdir. Bu masalada siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka munosib nomzodlar ko‘rsatishi, saylovchilarning faol bo‘lishlari va nomzodlarning to‘g‘ri tanlovi katta rol o‘ynaydi. Saylovlar nafaqat hokimiyatni demokratik yo‘l bilan shakllantirish va boshqarishga, balki fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyatining yanada yuksaltirish va jamiyatda siyosiy faolligining oshishiga xizmat qiladi.

Yangi saylov tizimining oldingisidan farqli o‘laroq, davlat va jamiyat hayotini yanada demokratlash-tirish qaratilgan yangi normalar kiritilganligi bilan ahamiyatlidir. Birinchidan, Qonunchilik Palatasi deputatlarining bir qismi uchun proporsional tizim orqali ovoz berish yo‘li bilan shakllantirilishi siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvidagi rolini hamda saylovchilar oldidiga mas‘uliyatini oshiradi. Zero, Bosh Qomusimzning 74-moddasida belgilanganidek, “Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarining siyosiy

irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar" [2;21-b.].

Ikkinchidan, proporsional tizim orqali saylangan deputatlarning siyosiy partiya bilan aloqalari mustahkamlanadi, qolaversa, endilikda faqat o'z nufuzi va obro'yi uchun emas, balki siyosiy partiyaning jamiyat hayotidagi rolini oshirish va elektorat oldidagi ishonchini yuksaltirish uchun xizmat qiladi. Bu esa saylovchilarning siyosiy partiyalar faoliyatiga adolatli baho berishiga, shu asosda ishonch bildirib, ular atrofida birlashishga va nomzodlarga emas, balki o'zlari ishongan, dasturi ma'qul bo'lgan siyosiy partiya ovoz berishga zamin yaratadi.

Uchinchidan, saylov komissiyalari tuzilmasiga ham o'zgarishlar kiritilib, ular faoliyati takomillashtirildi. Masalan, viloyatlar va Toshkent shahar saylov komissiyalari o'rniga, hududiy saylov komissiyalari tuzilishi belgilandi. Endi ushbu saylov komissiyalariga, xalq deputatlari viloyat yoki Toshkent shahar Kengashlariga saylovni tashkil etish va o'tkazish vazifasi bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi hamda Referendumni tashkil etish va o'tkazish vazifasi yuklatildi. Ushbu organ saylovlarni o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyalarini tuzish amaliyoti bekor qilindi.

To'rtinchidan, saylov byulletenlari bilan bog'liq o'zgartishlar kiritilgan bo'lib, oktabrda bo'lib o'tadigan saylovlarda saylovchi 3 ta vakillik organi uchun 4 ta byulleten orqali ovoz beradi. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi deputatligi uchun proporsional saylov tizim bo'yicha siyosiy partiya uchun bitta, bir mandatli saylov okruglari bo'yicha siyosiy partiya ko'rsatgan nomzodlar uchun yana bitta byulletenda ovoz beradi. Qolgan 2 ta byulletenda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri Kengashiga hamda tuman (shahar) Kengashlariga ko'rsatilgan nomzodlar uchun ovoz beriladi. Adashmaslik uchun byulletenlarning turli rangda (ko'k, yashil, sariq va oq) bo'lishi, saylovchi va saylov komissiyalariga qulaylik yaratadi.

Shuni ham esda tutish kerakki, saylov kuni ovoz berish soat 8.00 dan boshlanadi va 20.00 gacha davom etib, saylovchilar ushbu vaqt oralig'ida saylov uchatkalarida o'z tanlovlarini byulletenda aks ettirishlari lozim.

Albatta, bu jarayonda har bir saylovchining tanlovi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun har bir fuqarodan ushbu saylovlarda faol bo'lishni, loqayd bo'lmaslikni va munosib nomzodlarga ovoz berib, mamlakat kelajagi uchun o'z hissasini qo'shishi lozim. Chunki davlat hokimiyatini shakllantirish va boshqarishda xalq vakillik organlari bo'lgan Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyaning 2-moddasida "Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar", deyilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu norma davlat organlari mansabdor shaxslarining xalq va uning vakillari bo'lgan deputatlar oldida hisobdorligini, ular faoliyati ustidan nazorat olib borishini anglatadi. Albatta, bu davlat va ijro hokimiyati organlarining o'z vazifa va majburiyatlarini bajarishda mas'uliyatini oshiradi. Bu haqda Prezidentimiz aytganidek, "Deputatning qalbi, vijdoni uyg'oq bo'lsa, vazirlar ham, hukumat ham, parlament ham uyg'oq bo'ladi, butun jamiyatimiz uyg'oq bo'ladi" [6;58-b.].

Shu o'rinda aytish joizki, Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy Kengashlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, mavjud muammolarni hal etishdagi ta'siri kuchli bo'lib, davlat hokimiyati va ularning mansabdor shaxslari ustidan jamoatchilik va deputatlik nazoratini o'rnatishda muhim mexanizmi hisoblanadi. Vakillik organlarining a'zosi bo'lgan deputatlar, saylovchilar bergan ishonchni va deputatlik huquqiy maqomidan foydalanib, davlat qonunlari, Prezident va hukumat qarorlari, farmoyishlari ijrosini ta'minlashda, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda faoliyat yuritadilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Hokimiyat tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish, ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini ta'minlovchi institutni tashkil qilishda saylovlarning o'rnini juda muhim. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Odamlarimiz davlat organlari, shuningdek, o'zlari saylagan vakillar nima bilan shug'ullanayotganini bilishlari, ularning faoliyatiga xolisona baho bera olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratishimiz darkor" [7;34-b.].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugun O'zbekistonda odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, ro'ebga chiqarish va himoya qilish uchun zarur shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratilgan. Bo'lajak saylovlar mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada mustahkamlashga, davlat va jamiyat hayotida fuqarolarning faolligiga, ular saylab qo'yadigan samarali vakillik organlari hamda munosib siyosiy hokimiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Rahbarlik lavozimlariga ijtimoiy va moliyaviy ahvolidan kat'iy nazar, eng munosib, yuqori intellektual shaxslarning tayinlanish tamoyili. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. T., "Sharq".
- (2). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2023.
- (3). <https://lex.uz/docs/6697581>
- (4). Saylov qonunchiligi va amaliyoti bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, "Adolat" milliy-huquqiy axborot markazi. Toshkent, 2024.
- (5). Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T., "O'zbekiston", 2021.
- (6). Sh.Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. T., "O'zbekiston", 2020.
- (7). Sh.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T., "O'zbekiston", 2018.

FIZIKA-MATEMATIKA

Baltaeva Umida Ismoilovna (Xorazm Ma'mun Akademiyasining bosh ilmiy xodimi, f.-m.f.d., umida_baltayeva@mail.ru; УДК 517.956),

Egamberganova Zebo Anvar qizi (Xorazm Ma'mun Akademiyasi stajor-tadqiqotchisi, z.egamberganova24@gamil.com),

Hayitbayev Hamro Shavkatovich (Ma'mun Universiteti axborot texnologiya bo'lim boshlig'i, hamrohavitboev073@gmail.com)

O'ZGARUVCHI KOEFFITSIYENTLI HOSILA QATNASHGAN YUKLANGAN ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASI UCHUN QO'YILGAN TO'G'RI MASALA

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zgaruvchi koeffitsiyentli hosila qatnashgan yuklangan issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo'yilgan to'g'ri masalaning yechimining mavjudligi va yagonaligi matematik jihatdan isbotlanadi. Tadqiqot davomida ketma-ket yaqinlashish prinsipi asosida yechim topish metodikasi qo'llanilib, bu usul orqali Volterra tipidagi integral tenglamaga ekvivalentligi isbotlangan. Shuningdek, Grin funksiyasi va rezolventa usuli yordamida tenglamaning yechimi topilgan va bu yechimning yagonaligi isbotlangan. Maqolada keltirilgan yondashuvlar matematik modellashirish va fizik jarayonlarni aniq ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: hosila qatnashgan yuklangan tenglama, issiqlik tarqalish tenglamasi, integral tenglama, ketma-ket yaqinlashish prinsipi.

ЗАДАЧА С ПРАВИЛЬНЫМИ УСЛОВИЯМИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТЕПЛОПРОВОДНОСТИ С ПЕРЕМЕННЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ, ВКЛЮЧАЮЩАЯ ПРОИЗВОДНЫЕ ЧЛЕНЫ

Аннотация. В данной статье доказано существование и единственность корректной задачи для интегро-дифференциального уравнения теплопроводности с переменными коэффициентами. В ходе исследования использовался метод нахождения решения, основанный на принципе последовательных приближений, и доказана эквивалентность этого метода интегральному уравнению типа Вольтерра. Также решение уравнения найдено с использованием функции Грина и метода резольвенты. Представленные в статье подходы важны при математическом моделировании и точном представлении физических процессов.

Ключевые слова: уравнение с производной и нагруженными членами, уравнение теплопроводности, интегральное уравнение, метод последовательных приближений.

THE WELL-POSED PROBLEM FOR THE HEAT EQUATION WITH VARIABLE COEFFICIENTS INCLUDING DERIVATIVE AND LOADED TERMS

Annotation. In this article the existence and uniqueness of the well-posed problem for the integro-differential heat equation with variable coefficients is proved. During the research, the method of finding a solution based on the principle of successive approximation was used, and the equivalence of this method to the integral equation of the Volterra type was proved. Also, the solution of the equation was found using the Green's function and the resolvent method. The approaches presented in the article are important in mathematical modelling and accurate representation of physical processes.

Keywords: loaded equations, heat conduction equation, integral equation, method of successive approximations.

Kirish (Introduction). Maqolada issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun qo'yilgan to'g'ri masalaning analitik yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan. Bunday masalalar matematik modellashirishning muhim qismi bo'lib, ular orqali real dunyodagi fizik jarayonlarni aniqlik bilan ifodalash mumkin. Maqolada keltirilgan natijalar, o'zgaruvchi koeffitsiyentli hosila qatnashgan yuklangan issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo'yilgan to'g'ri masalaning yechimini topishda qo'llaniladigan usullar va metodlarni o'z ichiga oladi. Bu masalalar issiqlik tarqalishi, suyuqlik harakati va boshqa fizik jarayonlarning matematik modellari uchun dolzarb hisoblanadi. Maqolada isbotlangan teoremlar va ularning natijalari ilmiy tadqiqotlarda va amaliy masalalarni yechishda foydalanish uchun katta ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida, asosan, yuklangan hadli issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamalari va ular bilan bog'liq masalalar bo'yicha o'rganishlar keltirilgan. Bunda Расулов Т.Х., Нуриддинов Ж.З., Хидиров У.Б. "Алгоритм решения задачи Коши для уравнения теплопроводности с переменным коэффициентом" maqolasida foydalanilgan metod va yondashuvlar asosida shakllangan. Bundan tashqari, qo'yilgan masalaning ya-

gonaligini isbotlashda, M.Salohiddinov matematik fizika tenglamalari kitobidagi 2-tur volterra tipidagi integral tenglamalar mavzusida keltirilgan teoremlardan keng foydalandik.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqoladagi tadqiqot metodologiyasi matematik modellashtirish va analitik yondashuvlarga asoslangan. Asosiy metod sifatida ketma-ket yaqinlashish prinsipi qo'llanilgan bo'lib, bu usul orqali yuklangan hadli issiqlik tarqalish tenglamasining integral tenglamaga ekvivalentligi isbotlanadi. Volterra integral tenglamasi yordamida yechim topilib, uning yagonaligi Grin funksiyasi va boshqa yordamchi funksiyalar orqali baholanadi. Rezolventa usuli bilan integral tenglamaning yagona yechimi topiladi va bu yechim yordamida Koshi masalasining yechimi aniqlanadi. Ushbu yondashuvlar issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamalarining analitik yechimlarini topishda qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maqolada o'zgaruvchi koeffitsiyentli hosila qatnashgan yuklangan hadli issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo'yilgan to'g'ri masalaning yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu turdagi tenglamalar uchun yechimni topish uchun ketma-ket yaqinlashish usuli muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, maqolada taklif etilgan yondashuvlar amaliy masalalarni hal qilishda foydali bo'lishi mumkin.

$u(x, t)$ funksiyani $(x, t) \in R^1_T$ sohada quyidagi hosila qatnashgan yuklangan [1] tenglamalardan aniqlash masalasini qaraymiz:

$$\begin{aligned} u_t - a(t)\Delta u &= \lambda D_{ot}^{-\alpha} U_x(0, t) \\ u(x, t)|_{t=0} &= \varphi(x), \quad x \in R^1 \end{aligned} \quad (1)$$

bu yerda:

$$a(t) \in E := \{a(t) \in C^1[0, T], 0 < a_0 < a(t) \leq a(t) \leq a_1 < \infty\},$$

$$\Delta := \frac{\partial^2}{\partial x_1^2} - \text{Laplas operatori.}$$

Berilgan a funksiya uchun (1) integrodifferensial tenglamadan $u(x, t)$ funksiyani (2) boshlang'ich shart orqali topish masalasiga Koshi masalasi deyiladi. Bunday masalalar teskari masalalar nazariyasida to'g'ri masala deb ataladi.

(1) va (2) Koshi masalasining yechimi Volterra tipidagi integral tenglamaga ekvivalent bo'ladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanamiz [2]:

$$\begin{aligned} p(x, t) = \int_{R^n} \varphi(\xi) G(x - \xi, \theta(t)) d\xi + \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))} \int_{R^n} F(\xi, \theta^{-1}(\tau)) \cdot \\ \cdot G(x - \xi, \theta(t) - \tau) d\xi \end{aligned} \quad (3)$$

Ushbu (3) formula quyidagi:

$$\begin{aligned} p_t - a(t)\Delta p &= F(x, t), \quad x \in R^1, \quad t > 0 \\ p(x, 0) &= \varphi(x), \quad x \in R^1. \end{aligned}$$

o'zgaruvchi koeffitsiyentli issiqlik tarqalish tenglamasi uchun Koshi masalasini yechimini ifodalaydi.

(3) formulada $\theta(t) = \int_0^t a(\tau) d\tau$ va $\theta^{-1}(t)$ funksiya $\theta(t)$ funksiyaning teskari funksiyasidir [3].

$G(x - \xi, \theta(t) - \tau) = \frac{1}{(2\sqrt{\pi(\theta(t)-\tau)})^n} e^{\frac{-|x-\xi|^2}{4(\theta(t)-\tau)}}$ funksiya $\frac{\partial}{\partial t} - a(t)\Delta$ o'zgaruvchi koeffitsiyentli differensial operatorining fundamental yechimi.

(3) formuladan foydalanib (1), (2) Koshi masalasini quyidagicha ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\begin{aligned} u(x, t) = \int_{R^1} \varphi(\xi) G(x - \xi, \theta(t)) d\xi + \frac{\lambda}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} (\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1} \cdot \\ \cdot u_x(0, s) G(x - \xi, \theta(t) - \tau) d\xi ds \end{aligned} \quad (4)$$

$u_x(x, t)$ bo'yicha hosilani quyidagicha hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} u_x(x, t) = \int_{R^1} \varphi(\xi) G_x(x - \xi, \theta(t)) d\xi + \frac{\lambda}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} (\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1} \cdot \\ \cdot u_x(0, s) G_x(x - \xi, \theta(t) - \tau) d\xi ds, \end{aligned}$$

Hosil bo'lgan tenglikni $x = 0$ nuqtada aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} u_x(0, t) = \int_{R^1} \varphi(\xi) G_x(-\xi, \theta(t)) d\xi + \frac{\lambda}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} (\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1} \cdot \\ \cdot u_x(0, s) G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) d\xi ds \end{aligned} \quad (5)$$

Grin funksiyasining x bo'yicha hosilasi

$$G_x(x - \xi, \theta(t) - \tau)|_{x=0} = \frac{\partial}{\partial x} \left(\frac{1}{2\sqrt{\pi(\theta(t) - \tau)}} e^{-\frac{|x-\xi|^2}{4(\theta(t)-\tau)}} \right) |_{x=0} = \frac{\xi}{2(\theta(t) - \tau)} G(-\xi, \theta(t) - \tau),$$

teng ekanligidan va $v(0, t) = u_x(0, t)$ belgilash orqali (5) integral tenglamani quyidagicha yozib olamiz:

$$v(0, t) = \int_{R^1} \varphi(\xi) G_x(-\xi, \theta(t)) d\xi + \frac{\lambda}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(t))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(t)} (\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1} v(0, s) \cdot \frac{\xi}{2(\theta(t)-\tau)} G(-\xi, \theta(t) - \tau) ds d\xi \quad (6)$$

Teorema. Faraz qilaylik, $\varphi(x) \in H^{l+2}(R^1)$, $\varphi'(x) \in H^{l+3}(R^1)$ va $a(t) \in E$ bo'lsin. U holda (6) integral tenglamaning $H^{l+2, (l+2)/2} \in R_T^1$ sinfga tegishli yagona $u(x, t)$ yechimi mavjud.

Isbot. Mazkur lemmani isbotlashda ketma-ket yaqinlashish usulidan foydalanamiz, (6) integral tenglama uchun ketma-ket yaqinlashish prinsipini quyidagicha quramiz (umumiylikka zarar yetmagan holda, $\lambda = 1$ deb faraz qilamiz):

$$\begin{aligned} v_0(0, t) &= \int_{R^1} \varphi(\xi) G_x(-\xi, \theta(t)) d\xi \\ v_1(0, t) &= \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(t))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(t)} (\theta^{-1}(t) - s)^{\alpha-1} v_0(0, s) G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) ds d\xi \\ v_2(0, t) &= \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(t))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(t)} (\theta^{-1}(t) - s)^{\alpha-1} v_1(0, s) G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) ds d\xi \\ &\dots\dots\dots \\ v_k(0, t) &= \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(t))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(t)} (\theta^{-1}(t) - s)^{\alpha-1} v_{k-1}(0, s) G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) ds d\xi \quad (7) \\ &(x, t) \in R_T^1 \quad k = 1, 2, \dots; \varphi_1 = \max |\varphi'(x)| \end{aligned}$$

belgilashdan foydalanib, R_T^1 da (6) integral yordamida aniqlangan $v_k(x, t)$ funksiyalarni modul jihatdan baholaymiz:

$$|v_0(0, t)|_T^{l+2, (l+2)/2} \leq \int_{R^1} |\varphi(x)|_T^{l+2, \frac{l+2}{2}} |G_x(x - \xi, \theta(t) - \tau)|^{l+2, \frac{l+2}{2}} d\xi \leq \varphi_1.$$

Xuddi shunday

$$\begin{aligned} |v_1(0, t)|_T^{l+2, \frac{l+2}{2}} &\leq \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{|a(\theta^{-1}(t))|} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(t)} |(\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1}|^{l+2, \frac{l+2}{2}} \cdot \\ &\cdot |G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) v_0(0, s)|^{l+2, \frac{l+2}{2}} ds d\xi \leq \frac{\varphi_1 2\sqrt{a_1 T}}{a_0 \sqrt{\pi}} \cdot \frac{t^\alpha}{\alpha!} \end{aligned}$$

Baholashni $v_2(0, t)$ uchun ham amalga oshiramiz:

$$\begin{aligned} |v_2(0, t)|_T^{l+2, \frac{l+2}{2}} &\leq \frac{\varphi_1 2\sqrt{a_1 T}}{a_0 \Gamma(\alpha) \Gamma(\alpha + 1)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{|a(\theta^{-1}(t))|} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(t)} |(\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1} \cdot s^\alpha|^{l+2, \frac{l+2}{2}} \cdot \\ &\cdot |G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) v_0(0, s)|^{l+2, \frac{l+2}{2}} ds d\xi \leq \frac{\varphi_1 (2\sqrt{a_1 T})^2}{(a_0 \sqrt{\pi})^2} \cdot \frac{t^{2\alpha}}{(2\alpha)!} \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} |v_k(0, t)|_T^{l+2, \frac{l+2}{2}} &\leq \frac{\varphi_1 (2\sqrt{a_1 T})^{k-1}}{\sqrt{\pi}^{k-1} a_0^{k-1} \Gamma(\alpha) \Gamma((k-1)\alpha + 1)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{|a(\theta^{-1}(t))|} \cdot \\ &\cdot \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(t)} |(\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1} \cdot s^\alpha|^{l+2, \frac{l+2}{2}} |G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) v_{k-1}(0, s)|^{l+2, \frac{l+2}{2}} ds d\xi \\ &\leq \frac{\varphi_1 (2\sqrt{a_1 T})^k}{(a_0 \sqrt{\pi})^k} \cdot \frac{t^{k\alpha}}{(k\alpha)!} \end{aligned}$$

yuqoridagi baholarda biz quyidagi tenglikdan foydalandik: $\int_{R^1} G(x - \xi, \theta(t) - \tau) d\xi = 1$.

Quyidagi funksional qatorni tuzib olamiz: $\sum_{j=0}^{\infty} v_k(0, t)$.

Yuqoridagi olingan baholardan foydalanib, hosil bo'lgan funksional qatorni $(x, t) \in R_T^1$ sohada sonli qator bilan quyidagicha mojarantlaymiz:

$$\sum_{k=0}^{\infty} |v_k(0, t)| \leq \sum_{k=0}^{\infty} \varphi_1 A^k \frac{t^{k\alpha}}{(k\alpha)!} \leq \varphi_1 \sum_{k=0}^{\infty} \frac{\left(\frac{1}{A\alpha}\right)^{k\alpha} T^{k\alpha}}{(k\alpha)!} \leq \varphi_1 \sum_{k=0}^{\infty} \frac{\left(\frac{1}{A\alpha T}\right)^{k\alpha}}{(k\alpha)!} \leq \varphi_1 \exp\left(\frac{1}{A\alpha T}\right)$$

Funksional qatorlarning tekis yaqinlashish haqidagi Veyershtross teoremasiga ko'ra, olingan funksional qator tekis yaqinlashuvchiligi kelib chiqadi. Bu natijadan (6) integral tenglama yordamida aniqlangan $\{v_k(0, t)\}$ funksiyalar ketma-ketligi $H^{l+2, (l+2)/2} \in (R_T^1)$ funksiyalar fazosida aniqlangan biror $v(0, t)$ funksiyaga tekis yaqinlashadi.

Shunday qilib, (1)-(2) Koshi masalasining $H^{l+2, (l+2)/2} \in (R_T^1)$ sinfga tegishli yechimi mavjudligini aniqladik. (6) integral tenglama yechimga ega ekanligini ifodalaydi.

Endi bu yechimning yagonaligini ko'rsatamiz. Faraz qilaylik, (6) integral tenglama ikkita $v^{(1)}(0, t)$ va $v^{(2)}(0, t)$ uzluksiz yechimlarga ega bo'lsin [4], ya'ni,

$$v^{(1)}(0, t) = \int_{R^1} \varphi(\xi) G(-\xi, \theta(t)) d\xi + \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} (\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1} G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) v^{(1)}(0, s) ds d\xi$$

$$v^{(2)}(0, t) = \int_{R^1} \varphi(\xi) G(-\xi, \theta(t)) d\xi + \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} (\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1} G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) v^{(2)}(0, s) ds d\xi$$

$v^{(1)}(0, t)$ va $v^{(2)}(0, t)$ funksiyalar ayirmasini qarab, ularning farqini

$w(0, t) = v^{(1)}(0, t) - v^{(2)}(0, t)$ bilan belgilaymiz. Natijada ushbu funksiyaga nisbatan

$$w(0, t) = \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{a(\theta^{-1}(\tau))} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} (\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1} G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) w(0, s) ds d\xi \quad (7)$$

bir jinsli ikkinchi tur Volterra integral tenglamasini olamiz:

$w^*(0, t) = \max_{t \in [0, T]} |w(0, t)|$ deb belgilab olsak, (7) dan darxol

$$|w(0, t)| \leq \frac{1}{|\Gamma(\alpha)|} \int_0^{\theta(t)} \frac{d\tau}{|a(\theta^{-1}(\tau))|} \int_{R^1} \int_0^{\theta^{-1}(\tau)} |(\theta^{-1}(\tau) - s)^{\alpha-1}| |G_x(-\xi, \theta(t) - \tau) w(0, s)| ds d\xi$$

$$\leq w^* \frac{2}{a_0} \sqrt{\frac{a_1 T}{\pi}} \frac{t^\alpha}{\alpha!}$$

tengsizlikni hosil qilamiz. Bu jarayonni davom ettirib, ixtiyoriy natural k uchun

$$|w(0, t)| \leq w^* \left(\frac{2}{a_0} \sqrt{\frac{a_1 T}{\pi}} \right)^k \frac{t^{k\alpha}}{(k\alpha)!} \leq \frac{C^k}{(k\alpha)!}$$

tengsizlikni hosil qilamiz, bu yerda $C = \frac{2}{a_0} \sqrt{\frac{a_1 T}{\pi}} T^\alpha$. Bu tengsizlikdan $k \rightarrow \infty$ da $w(0, t) = 0$ yoki

$v^{(1)}(0, t) = v^{(2)}(0, t)$ ekanligi kelib chiqadi. Shunday qilib, (6) integral tenglama yagona yechimga ega ekan. Natijada (6) integral tenglamaning yechimi $v(0, t) = u_x(0, t)$ ning yagona yechimini rezolventa orqali aniqlashimiz mumkin. Aniqlangan yechimni (4) ifodaga qo'yib, (1)-(2) Koshi masalasining yagona yechimi aniqlanadi. Teorema isbotlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu maqolada, yuklangan hadli hosila qatnashgan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun qo'yilgan to'g'ri masalaning analitik yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlandi. Bunday yechimlarning mavjudligi va yagonaligi, matematik modelning ishonchligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Islomov B., Baltaeva U.I. Boundary value problems for a third-order loaded parabolic-hyperbolic equation with variable coefficients. *Electronic Journal of Differential Equations*. 2015; 221(2015), p. 1–10.
- (2). Durdiev D.K., Nuriddinov J.Z. On investigation of the inverse problem for a parabolic integrodifferential equation with a variable coefficient of thermal Conductivity. *Vestnik Udmurtskogo Universiteta*. 2020.
- (3). Расулов Т.Х., Нуриддинов Ж.З., Хидиров У.Б. Алгоритм решения задачи коши для уравнения теплопроводности с переменным коэффициентом журнал “Наука, техника и образование“, 2020; 108 (2020), p. 77–80.
- (4). M.Salohiddinov. Matematik fizika tenglamalari. “O‘zbekiston”, Toshkent, 2002.

Vaisova Moxira Davlatboyevna (Urganch davlat universiteti “Matematik tahlil” kafedrası dotsenti;
E-mail: v_mohira@mail.ru)

KOMBINATORIK MASALALARNI YECHISHDA STIRLING SONLARINING TATBIQLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kombinatorikaning muhim tushunchalaridan bo‘lgan doiraviy o‘rin almashtirishlar va siklli o‘rin almashtirishlar, birinchi tur Stirling sonlari va ular orqali hisoblanadigan turli kombinatorik masalalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: kombinatorika, o‘rin almashtirish, o‘rinlashtirish, guruhlash, bo‘laklashlar.

Вайсова Мохира Давлатбаевна (доцент кафедры “Математический анализ” Ургенчского государственного университета)

ПРИЛОЖЕНИЯ ЧИСЕЛ СТИРЛИНГА К РЕШЕНИЮ КОМБИНАТОРНЫХ ЗАДАЧ

Аннотация. В этой статье представлены важные понятия комбинаторики: круговые перестановки и циклические перестановки, числа Стирлинга первого рода и различные комбинаторные задачи, вычисляемые с их помощью.

Ключевые слова: комбинаторика, перестановка, размещение, сочетание, разбиение числа.

Vaisova Moxira Davlatboyevna (Associate Professor, Department “Mathematical Analysis”,
Urgench State University)

APPLICATIONS OF STIRLING NUMBERS IN SOLVING COMBINATORIAL PROBLEMS

Annotation. This article presents the important concepts of combinatorics: circular permutations and cyclic permutations, Stirling numbers of the first kind, and various combinatorial problems calculated through them.

Key words: combinatorics, permutation, k – permutation of n , combination, partitions.

Kirish. Kombinatorika – matematiklarga turli narsalarni sonini hisoblashda yordam beradigan matematikaning juda muhim bo‘limi bo‘lib, matematika, kimyo, fizika, biologiya, lingvistika, axborot texnologiyalari va boshqa sohalar bilan ish ko‘ruvchi mutaxassislar kombinatorikaning xilma-xil masalalariga duch keladilar. Bugungi kunda kombinatorika masalalari maktab darsliklariga kiritilishi ham bolalarning bu fanni o‘rganishlari davr talabi ekanidan dalolat beradi. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni turli xalqaro olimpiadalarga tayyorlash va ularni rag‘batlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O‘quvchilarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlashda ularga kombinatorik masalalarni yechishni o‘rgatish ularning bunday musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirokiga hissa qo‘shadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot metodologiyasi. O‘quvchilarni turli kombinatorik tushunchalar bilan tanishtirish, kombinatorik masalalarni yechish uslubiyatini o‘rgatish ularning olimpiadalarga tayyorgarlik darajasini oshishiga xizmat qiladi (4,5). Matematikada Stirling sonlari turli xil analitik va kombinatorik masalalarda paydo bo‘lib, bu sonlar ilk bor Jeyms Stirlingning “Methodus differentialis” kitobida sof algebraik ko‘rinishda kiritilgani uchun uning sharafiga nomlangan. Bu sonlarga 1782-yilda Masanobu Saka tomonidan kombinatsion ma‘no berilgan (2). Kombinatorikada qo‘llaniladigan Stirling nomi bilan atalgan ikki xil sonlar to‘plami mavjud (1): birinchi turdagi Stirling sonlari va ikkinchi turdagi Stirling sonlari bo‘lib, ushbu maqolada birinchi turdagi Stirling sonlari haqida ma‘lumot keltiriladi.

Tahlil va natijalar. Biz oldin doiraviy va siklli o‘rin almashtirishlar haqida ma‘lumotlar keltiramiz.

1-ta‘rif (doiraviy o‘rin almashtirishlar). n butun musbat son bo‘lsin. Bu elementlarni doira atrofida tartiblashga n ta elementning doiraviy o‘rin almashtirishlari deyiladi.

Doiraviy o‘rin almashtirishda istalgan element boshlang‘ich element sifatida qaraladi, shuning uchun unda “birinchi” element bo‘lmaydi va har bir elementning o‘rni emas, qaysi elementning o‘ng tomonida joylashganligi muhim hisoblanadi. Masalan, 123456 va 234561lar aynan bir xil o‘rin almashtirishlardir, chunki agar ularni doira atrofiga joylashtirsak, aynan bir xil o‘rin almashtirishlar hosil bo‘ladi.

1-misol. 3 ta elementning faqat 2 ta doiraviy o‘rin almashtirishlari mavjud. Bu yerda 123 va 132 laringa turli o‘rin almashtirishlarni hosil qiladi.

1-teorema. $0 < m \leq n$ butun sonlar bo‘lsin. n ta elementning doiraviy m -o‘rin almashtirishlari (n ta elementdan m tadan o‘rinlashtirishlar) soni $\frac{A_n^m}{m} = \frac{n!}{m(n-m)!}$ ga teng. Xususan, n ta elementning doiraviy o‘rin almashtirishlari soni $(n-1)!$ ga teng.


Isbot. n ta elementdan m tadan o‘rinlashtirishlar soni A_n^m ga teng. Har bir o‘rinlashtirish doiraviy m -o‘rin almashtirishlarini beradi, lekin ulardan m tasi aynan bir xil doiraviy m -o‘rin almashtirishlardir. Shuning uchun n ta elementning doiraviy m -o‘rin almashtirishlari soni $\frac{A_n^m}{m} = \frac{n!}{m(n-m)!}$ ga teng.

Xususan, bu tenglikdan $m = n$ da $(n-1)!$ kelib chiqadi.

2-misol. 8 nafar do‘st uchrashuvga kelib, dumaloq stolda o‘tirib shuhbatlashdilar. Bu do‘stlarni egizaklar Oysha va Fotima bir-birining yonida o‘tirmaydigan qilib necha xil usulda joylashtirish mumkin. Bu yerda o‘tirish o‘rni muhim emas, kim kimning qaysi tomonida o‘tirgani ahamiyatga ega.

Yechish. Agar egizaklar bir joyda o‘tirmasin, degan shart bo‘lmasa, 8 nafar kishini dumaloq stol atrofida o‘tirishlar soni $7!$ ga teng. Endi bu o‘rin almashtirishlardan egizaklarni yonma yon o‘tirish usullar sonini ayiramiz. Buning uchun egizaklarni bitta odam sifatida qarab, 7 kishini dumaloq stol atrofida joylashishlar sonini topamiz, ya‘ni, $6!$ ga teng, lekin bunda Oysha va Fotimaning o‘rnini almashtirsak yangi o‘rin almashtirishlar hosil qiladi. Shuning uchun izlanayotgan o‘tirishlar soni $7! - 2 \cdot 6! = 3600$ ga teng.

Siklli o‘rin almashtirish – bu matematikada ham, kundalik hayotda ham tez-tez uchrab turadigan almashtirishning o‘ziga xos turi. U elementlarni aylana shaklida joylashtirilganda bir elementni o‘rnini o‘zgarimasdan qoldirib, qolganlari esa shu elementdan foydalangan holda uning atrofida joylashtirilishlar sonini bildiradi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, to‘plamdagi boshqa elementlar belgilangan elementga nisbatan tartibga solinadi. Masalan, 1,2,3 elementlarni 1 siklli o‘rin almashtirishi (1 2 3) va (1 3 2)dan iborat. Masalan, 1,2,3,4,5 elementlarning 2 ta siklli o‘rin almashtirishlaridan biri (134) (25) ko‘rinishda yoziladi va quyidagicha tasvirlanadi:



Endi yangi sonlar to‘plami – birinchi turdagi Stirling sonlari deb ataluvchi tushunchani kiritamiz. Bu yerda ham n ta elementni k ta bo‘sh bo‘lmagan qismlarga ajratamiz va har bir bo‘lakni doiraviy o‘rin almashtirish sifatida tartiblaymiz. Eslatib o‘tamizki, n ta elementning o‘rin almashtirishlar soni $n!$ ga, n ta elementning doiraviy o‘rin almashtirishlar soni esa $(n-1)!$ ga teng edi. Doiraviy o‘rin almashtirishlar elementlarning bitta doira atrofida joylashuvini bildirib, bunda elementning o‘zining joylashuv o‘rni emas, boshqa elementlarga nisbatan nisbiy joylashuvi muhim edi. Bu yerda bizni n ta elementni faqat bitta doira atrofida emas, balki k ta doira atrofida joylashuvlar soni qiziqtiradi.

2-ta‘rif (birinchi tur Stirling sonlari (q. [1]). n va k nomanfiy butun sonlar bo‘lsin. $\left[\begin{matrix} n \\ k \end{matrix} \right]$ bilan n elementni k ta siklli o‘rin almashtirishlar yoki n ta kishini k ta aynan bir xil (bo‘sh bo‘lmagan) doiraviy stolga joylashtirishlar sonini belgilaymiz. $\left[\begin{matrix} n \\ k \end{matrix} \right]$ soni birinchi tur (ishorasiz) Stirling soni deb aytiladi.

Bu sonlarni $c(n, k)$ ko‘rinishda belgilash ham qabul qilingan.

Birinchi tur (ishorasiz) Stirling sonlari algebraik tarzda o‘svuvchi faktorialning koeffitsientlari sifatida ham aniqlanadi, ya‘ni

$$x^{(n)} = x^{\bar{n}} = \sum_{k=0}^n c(n, k) x^k$$

ko'phadning koeffitsiyentlariga aytiladi, bu yerda $x^{(n)}$ – Poxgammer belgisi bo'lib, $x^{(n)} = x(x+1)(x+2)\dots(x+n-1)$ ga teng.

Masalan, $n = 3$ da $x^{(3)} = x(x+1)(x+2) = 1 \cdot x^3 + 3 \cdot x^2 + 2 \cdot x$ bo'lib, bu yerda x^k daraja oldidagi koeffitsiyentlar $c(3, k)$ - Stirling sonlari. Demak, ta'rifga ko'ra,

$$c(3, 3) = 1, \quad c(3, 2) = 3, \quad c(3, 1) = 2.$$

Birinchi tur ishorali Stirling sonlari deb kamayuvchi faktorial deb ataluvchi

$$(x)_n = x^{\underline{n}} = \sum_{k=0}^n s(n, k) x^k$$

ko'phadning koeffitsiyentlariga aytiladi, bu yerda $(x)_n$ – Poxgammer (inglizcha Pochhammer) belgisi bo'lib, $(x)_n = x(x-1)(x-2)\dots(x-n+1)$ ga teng. Masalan, $n = 3$ da $x^{(3)} = x(x-1)(x-2) = 1 \cdot x^3 - 3 \cdot x^2 + 2 \cdot x$ bo'lib, bu yerda x^k daraja oldidagi koeffitsiyentlar $s(3, k)$ - Stirling sonlari. Demak, ta'rifga ko'ra,

$$s(3, 3) = 1, \quad s(3, 2) = -3, \quad s(3, 1) = 2.$$

Birinchi tur ishorali va ishorasiz Stirling sonlari quyidagi tengliklar orqali o'zaro bog'lanadi:

$$c(n, k) = (-1)^{n-k} s(n, k), \quad c(n, k) = |s(n, k)|.$$

3-misol. 1, 2, 3 tartiblangan ro'yxatni 2 siklli o'rin almashtirishlar sonini toping.

Yechish. 1, 2, 3 elementlardan tuzilgan 123 zanjirning uzunligi 3 ga teng bo'lgani uchun, 2 siklli o'rin almashtirishlar sonini topish uchun uzunligi 2 ga va uzunligi 1 ga teng 2 ta siklli barcha o'rin almashtirishlarini topamiz:

$$(1 \ 2) \ (3), \ (1 \ 3) \ (2), \ (1) \ (2 \ 3).$$

Siklli o'rin almashtirishda sikllar o'rnini almashtirish yoki uzunligi 2 ga teng sikl ichidagi elementlarni o'rnini almashtirishdan hosil bo'lgan almashtirishlar bir xil o'rin almashtirish hisoblanadi, masalan, $(1 \ 2) \ (3)$, $(3) \ (1 \ 2)$, $(2 \ 1) \ (3)$ va $(3) \ (2 \ 1)$ bir xil o'rin almashtirishni ifodalaydi. Shunday qilib, 3 ta elementning 2 siklli o'rin almashtirishlari 3 ta o'rin almashtirishni hosil qilgan ekan:

$$\begin{aligned} (1 \ 2) \ (3) &\sim (3) \ (1 \ 2) \sim (2 \ 1) \ (3) \sim (3) \ (2 \ 1) \\ (1 \ 3) \ (2) &\sim (3 \ 1) \ (2) \sim (2) \ (1 \ 3) \sim (2) \ (3 \ 1) \\ (2 \ 3) \ (1) &\sim (3 \ 2) \ (1) \sim (1) \ (3 \ 2) \sim (1) \ (2 \ 3) \end{aligned}$$

Bundan $c(3, 2) = 3$ ekanini topamiz.

Demak, 3 ta elementli to'plam uchun 1 siklli o'rin almashtirishlari $(1 \ 2 \ 3)$ va $(1 \ 3 \ 2)$ bo'lgani uchun $c(3, 1) = 2$; 2 siklli o'rin almashtirishlari $(1) \ (2 \ 3)$; $(2) \ (1 \ 3)$; $(3) \ (1 \ 2)$ bo'lgani uchun $c(3, 2) = 3$ va 3 siklli o'rin almashtirishi $(1) \ (2) \ (3)$ bo'lgani uchun $c(3, 3) = 1$ bo'ladi.

Birinchi tur ishorasiz Stirling sonlarining xossalari:

$$1^0. \ c(0, 0) = 1;$$

$$2^0. \ \forall n > 0 \text{ uchun } c(n, 0) = 0;$$

$$3^0. \ \forall k > 0 \text{ uchun } c(0, k) = 0;$$

$$4^0. \quad k > n \text{ uchun } c(n, k) = 0;$$

$$5^0. \quad c(n, n) = 1;$$

Yuqoridagi xossalar barchasi bevosita ta'rifdan osongina kelib chiqadi.

$$6^0. \quad c(n, 1) = (n - 1)!$$

Haqiqatan ham, n ta elementdan uzunligi n ga teng 1 siklli $(n - 1)!$ ta o'rin almashtirishini hosil qilish mumkinligini ko'rib chiqamiz. To'plam elementlarini nomerlab yozib chiqamiz: $(a_1, a_2, \dots, a_{n-1}, a_n)$. Bu to'plam elementlarini bitta sikl ichida $n!$ xil usulda joylashtira olamiz, lekin skilli o'rin almashtirishlarda o'xshash almashtirishlar mavjud va ularning sonini aniqlashimiz kerak. Bizning siklda elementlarni tartiblashning barcha usuli turli xil almashtirishlarini hosil qilmaydi, ba'zi sikllarning aylanishlari bir xil o'rin almashtirishlar hosil qiladi. Masalan, $(a_1 a_2 \dots a_{n-1} a_n)$ o'rin almashtirish elementlarini o'rnini almashtirmasdan, shunchaki surish (o'ngga yoki chapga surish) orqali hosil qilingan

$$\left. \begin{array}{l} (a_n a_1 a_2 \dots a_{n-2} a_{n-1}) \\ (a_{n-1} a_n a_1 \dots a_{n-3} a_{n-2}) \\ \dots \quad \dots \quad \dots \\ (a_2 a_3 a_4 \dots a_{n-1} a_n a_1) \end{array} \right\}$$

o'rin almashtirishlar $(a_1 a_2 \dots a_{n-1} a_n)$ bilan aynan bir xil kombinatsiyalar hisoblanadi. Bunday kombinatsiyalar soni esa n ga teng. Demak, n uzunlikdagi bitta sikl uchun elementlarni aylantirish orqali bir xil o'rin almashtirishlarni yozish n xil usulga ega. Endi $n!$ ni n ga bo'lish orqali turli xil o'rin almashtirishlar sonini hosil qilamiz: $\frac{n!}{n} = (n - 1)!$. Shunday qilib, $c(n, 1) = (n - 1)!$ tenglik o'rinli.

$$7^0. \quad c(n, n - 1) = C_n^2, \text{ bu yerda } C_n^2 - n \text{ ta elementni 2 tadan guruhlashlar soni.}$$

O'z navbatida, n ta elementni $(n - 1)$ siklli o'rin almashtirishlari uzunligi 1 ga teng $(n - 2)$ siklli va uzunligi 2 ga teng 1 siklli o'rin almashtirishlaridan iborat bo'ladi, masalan, $\underbrace{(a_1 a_2)}_1 \underbrace{(a_3) (a_4) \dots (a_n)}_{n-2}$

kabi. Uzunligi 2 ga teng $(a_1 a_2)$ shakldagi sikllardagi elementlarining tartibi ahamiyatga ega emas, ular bir xil o'rin almashtirishlarni hosil qiladi. Shuning uchun n ta elementni $(n - 1)$ siklli o'rin almashtirishlari sonini topish uchun n ta elementdan 2 ta elementni tanlab olsak kifoya. Shunday qilib, $c(n, n - 1) = C_n^2$ tenglik o'rinli.

8⁰. Quyidagi rekurent formula o'rinli:

$$c(n, k) = c(n - 1, k - 1) + (n - 1) \cdot c(n - 1, k)$$

Haqiqatan ham, n ta elementni k siklli har bir o'rin almashtirishini quyidagi 2 xilda shakllantirish mumkin:

1) $(n - 1)$ ta elementning k siklli o'rin almashtirishlariga $n - 1$ elementni mavjud sikllardan bittasiga joylashtirish orqali hosil qilish;

2) $n - 1$ elementni uzunligi 1 ga teng 1 ta siklga joylashtirish orqali $(n - 1)$ ta elementni $(k - 1)$ siklli o'rin almashtirishlarini hosil qilish.

1-holatda $(n - 1)$ ta elementning k siklli o'rin almashtirishlarini olib, unga $n - 1$ elementni qo'shish orqali hosil qilingan k siklli o'rin almashtirishini sonini aniqlaymiz. Masalan, a_n elementni

$$\underbrace{\left(a_1 \dots a_{x_1}\right)\left(a_{x_1+1} \dots a_{x_2}\right) \dots \left(a_{x_{k-1}+1} \dots a_{n-1}\right)}_{k \text{ ta sikl}}$$

sikllar ichiga kiritish uchun $n - 1$ ta joy bor. Demak, a_n elementni tayinlab, uni qolgan $(n - 1)$ ta elementning k siklli o‘rin almashtirishlarining sikllariga qo‘shish orqali $(n - 1)$ ta n elementning k siklli yangi o‘rin almashtirishlarini hosil qilamiz. Shunday qilib, 1-holatda jami $(n - 1)$ ta elementning k siklli o‘rin almashtirishlar soni $c(n - 1, k)$ bo‘lsa, n ta elementning k siklli o‘rin almashtirishlari soni $(n - 1)c(n - 1, k)$ ga teng bo‘ladi.

2-holatda esa $c(n - 1, k - 1)$ ta o‘rin almashtirish hosil bo‘ladi. Kombinatorikada qo‘shish qoidasiga ko‘ra (q. [3]) $c(n, k) = c(n - 1, k - 1) + (n - 1) \cdot c(n - 1, k)$ tenglikni olamiz.

$$9^0. \sum_{k=0}^n c(n, k) = n!.$$

4-misol. 4 ta elementning 2 siklli o‘rin almashtirishlar sonini toping.

Yechish. Bu misolni tushunish uchun oldin uni ta‘rif orqali hisoblaymiz, ya‘ni barcha o‘rin almashtirishlarni yozib chiqamiz. Elementlarni 1, 2, 3, 4 raqamlar bilan nomerlaymiz. 2 siklli o‘rin almashtirishlarni quyidagi 2 holatda tuzish mumkin:

1) uzunligi 2 ga teng 2 ta sikldan iborat o‘rin almashtirishlarni tuzish, bu yerda jami 3 ta:

(12) (34); (13) (24); (23) (14);

2) uzunligi 1 ga teng va uzunligi 3 ga teng 2 ta sikldan iborat o‘rin almashtirishlarni hosil qilish, bu yerda jami 8 ta:


(1) (234); (1) (243); (2) (134); (2) (143); (3) (124); (3) (142); (4) (123);

(4) (132).

Demak, 4 ta elementning 2 siklli o‘rin almashtirishlar soni 11 ga teng ekan.

Bu o‘rin almashtirishlarni quyidagicha illustratsiya qilish mumkin (1-rasm).

Endi uni Stirling sonlarining xossalariidan foydalanib, oson hisoblash usulini ko‘rib chiqamiz. 8^0 xossadan foydalanib,



$$c(4, 2) = c(3, 1) + 3 \cdot c(3, 2) = (3 - 1)! + 3 \cdot C_3^2 = 2 + 9 = 11$$

ni olamiz.

5-misol. Uch nafar o‘quvchini necha xil usulda 2 ta (bo‘sh bo‘lmagan) dumaloq stol atrofiga joylashtirish mumkin? Bu yerda kimning qanday o‘ringa o‘tirishi ahamiyatga ega emas, balki har bir o‘quvchining nisbiy o‘tirish holati muhim hisoblanadi.

Yechish. Ikkita stol ham bo‘sh bo‘lmasligidan bitta stolga ikkita kishi, bitta stolga uchinchi kishi yolg‘iz o‘tirishi kerak bo‘ladi. Bu esa 3 ta elementning 2 siklli o‘rin almashtirishining aynan o‘zidir. Demak, uch nafar kishini 2 ta (bo‘sh bo‘lmagan) stol atrofiga $c(3, 2) = 3$ xil usulda joylashtirish mumkin.

6-misol. 6 nafar do‘st birga restoranga bordilar. Olti kishilik stol yo‘q, shuning uchun ularga ikkita bir xil dumaloq stol taklif etildi. Agar ulardan hech biri yolg‘iz o‘tirishni hohlamasa, ular necha xil usulda joylashishlari mumkin? Bu yerda kimning qanday o‘ringa o‘tirishi ahamiyatga ega emas, balki har bir do‘stning nisbiy o‘tirish holati, ya‘ni, qaysi stolga kimlar o‘tirishi va kim kimning o‘ng tomonida o‘tirishi muhim hisoblanadi.

Yechish. 6 kishidan iborat to‘plamni $\{a, b, c, d, e, f\}$ elementlar to‘plami sifatida belgilab olamiz. 6 kishini 2 ta dumaloq stol atrofiga joylashuvi 6 elementni 2 siklli o‘rin almashtirishlari soniga teng:

$$c(6,2) = c(5,1) + 5 \cdot c(5,2) = 4! + 5 \cdot (c(4,1) + 4 \cdot c(4,2)) = 4! + 5 \cdot 3! + 20 \cdot 11 = 274.$$

Lekin masala shartida do'stlardan bu o'rin almashtirishlar orasidan hech biri yolg'iz o'tirishni xohlamagani uchun bitta do'stni bitta stolga, qolgan 5 do'stni ikkinchi stolga joylashuvini ifodalovchi uzunligi 1 ga teng va uzunligi 5 ga teng sikllarni olib tashlashimiz kerak. Bunday o'rin almashtirishlar sonini topish uchun bitta elementni tayinlab, qolgan 5 elementni 1 ta stolga joylashtirishlar sonini topamiz: $c(5,1) = 4!$ Endi tayinlangan element uchun 6 ta holat mavjudligidan, ko'paytirish qoidasiga ko'ra, $6 \cdot 4! = 144$ ni hosil qilamiz. Shunday qilib, 6 kishini 2 ta stolga biror kishi yolg'iz o'tirmaydigan qilib, $274 - 144 = 130$ xil usulda joylashtirish mumkin.

Stirling sonlari va garmonik sonlari orasidagi bog'lanish. Garmonik sonlar deb $H_n = \sum_{k=1}^n \frac{1}{k}$

tenglik bilan aniqlanuvchi sonlarga aytiladi:

$$H_1 = 1 = \frac{1}{1!}; \quad H_2 = 1 + \frac{1}{2} = \frac{3}{2!}; \quad H_3 = 1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} = \frac{11}{3!}, \dots$$

2-teorema. n musbat butun son bo'lsin. U holda

$$H_n = 1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + \dots + \frac{1}{n} = \frac{\begin{bmatrix} n+1 \\ 2 \end{bmatrix}}{n!}$$

tenglik o'rinli.

Isbot. Buni oldin 1-tur Stirling sonlarining 8^0 -xossasidagi rekurrent munosabatdan foydalanib, induktiv isbotini keltiramiz.

Haqiqatan ham, 1-tur Stirling sonlari uchun $\begin{bmatrix} n+1 \\ 2 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} n \\ 1 \end{bmatrix} + n \begin{bmatrix} n \\ 2 \end{bmatrix}$ tenglik o'rinli. Buni sod-

dalashtirib va rekurrent munosabatdan yana bir marta foydalanib,

$$\begin{aligned} \begin{bmatrix} n+1 \\ 2 \end{bmatrix} &= \begin{bmatrix} n \\ 1 \end{bmatrix} + n \begin{bmatrix} n \\ 2 \end{bmatrix} = (n-1)! + n \begin{bmatrix} n \\ 2 \end{bmatrix} = (n-1)! + n \left(\begin{bmatrix} n-1 \\ 1 \end{bmatrix} + (n-1) \begin{bmatrix} n-1 \\ 2 \end{bmatrix} \right) = \\ &= (n-1)! + n(n-2)! + n(n-1) \begin{bmatrix} n-1 \\ 2 \end{bmatrix} \end{aligned}$$

tenglikni hosil qilamiz. Bu jarayonni ketma-ket qo'llay borib,

$$\begin{aligned} \begin{bmatrix} n+1 \\ 2 \end{bmatrix} &= (n-1)! + n(n-2)! + n(n-1)(n-3)! + \dots + n(n-1)\dots 4 \cdot 3 \cdot \left(\begin{bmatrix} 2 \\ 1 \end{bmatrix} + 2 \begin{bmatrix} 2 \\ 2 \end{bmatrix} \right) = \\ &= (n-1)! + n(n-2)! + n(n-1)(n-3)! + \dots + n(n-1)\dots 4 \cdot 3 \cdot 1! + n(n-1)\dots 4 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 1 \end{aligned}$$

va bu tenglikni ikkala tarafdin $n!$ ga bo'lish orqali quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} \frac{1}{n!} \cdot \begin{bmatrix} n+1 \\ 2 \end{bmatrix} &= \frac{1}{n!} \left((n-1)! + n(n-2)! + \dots + n(n-1)\dots 4 \cdot 3 \cdot 1! + n(n-1)\dots 4 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 1 \right) = \\ &= \frac{1}{n} + \frac{1}{n-1} + \dots + \frac{1}{2} + 1 = H_n. \end{aligned}$$

Bu teorema isbotini kombinatorik mulohazalardan foydalanib ham berish mumkin. Ta'rifga ko'ra,

$\begin{bmatrix} n+1 \\ 2 \end{bmatrix}$ bu $n+1$ ta kishini 2 ta bo'sh bo'lmagan aynan bir xil dumaloq stol atrofiga

joylashtirishlar sonini bildiradi. Masalan, Akrom ana shu $n+1$ ta kishining bittasi bo'lsin. Endi masalani

shunday qo‘ya-miz: $n + 1$ nafar kishini t nafar kishini Akrom o‘tirmagan stolga o‘tiradigan qilib 2 ta bo‘sh bo‘lmagan stollar atrofiga necha xil usulda joylashtirish mumkin. Buning uchun oldin t ta kishini (Akromdan tashqari hohlagan bir odamni) tanlab olib, ularni bitta dumaloq stol atrofiga joylashtirib, keyin qolgan $n - t + 1$ ta kishini (Akrom bilan birga) boshqa dumaloq stolga joylashtiramiz. t elementning doiraviy o‘rin almash-tirishlari soni $(t - 1)!$ ga tengligidan yuqoridagi tanlovlarni

$$C'_n(t - 1)!(n - t)! = \frac{n!}{t!(n - t)!}(t - 1)!(n - t)! = \frac{n!}{t}$$

xil usulda amalga oshirish mumkin.

Endi t ni 1 dan n gacha o‘zgarishini hisobga olib, $n + 1$ ta kishini 2 ta bir xil dumaloq stolga o‘tirishlari usullari sonini topamiz:

$$\left[\begin{matrix} n + 1 \\ 2 \end{matrix} \right] = \sum_{t=1}^n \frac{n!}{t} = n! \left(1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + \dots + \frac{1}{n} \right).$$

Shu yerdan biz izlayotgan bog‘lanish kelib chiqadi.

Mustaqil yechish uchun misollar

1. 8 ta elementning 5 siklli o‘rin almashtirishlar sonini toping.
2. 10 ta elementning 6 siklli o‘rin almashtirishlar sonini toping.
3. 5 nafar talabani necha xil usulda 2 ta (bo‘sh bo‘lmagan) dumaloq stol atrofiga joylashtirish mumkin? Bu yerda kimning qanday o‘ringa o‘tirishi ahamiyatga ega emas, balki har bir talabani nisbiy o‘tirish holati muhim hisoblanadi.
4. 10 nafar do‘stlar 3 ta dumaloq stolga necha xil usulda joylashishlari mumkin?
5. n ta elementning uzunligi 3 ga teng bitta siklli, uzunligi 2 ga teng 2 ta siklli va uzunligi 1 ga teng $(n - 7)$ siklli nechta o‘rin almashtirishi mavjud?

6. Mashg‘ilotda 7 nafar talabaga 2 ta guruh bo‘lib ishlash taklif qilindi.

Guruhlardan biri 4 va ikkinchisi 3 a‘zodan iborat bo‘ldi. Ular 2 ta stol atrofiga joylashib, topshiriqlarni bajarishlari kerak. Bu talabalarni stollar atrofiga joylashish usullar sonini toping. Bu yerda kimning qanday o‘ringa o‘tirishi ahamiyatga ega emas, balki har bir talabani nisbiy o‘tirish holati, ya‘ni qaysi stolga kimlar o‘tirishi va kim kimning o‘ng tomonida o‘tirishi muhim hisoblanadi.

7. Siz tushlikka 13 nafar (o‘zingizdan tashqari) mehmon taklif qildingiz va 5 ta doiraviy stolni buyurtma qildingiz. Stollardan bittasi maxsus stol, qolgan to‘rttasi bir xil. Mehmonlardan 2 nafari faxriy mehmon bo‘lib, siz ularni maxsus stolga o‘tirg‘izmoqchisiz. Siz bu stolga yana hohlagan 3 nafar odamni o‘tirishini hohlaysiz. O‘zingiz maxsus stolning ikki yonidagi stollardan biriga o‘tirishni istaysiz. Qolgan barcha mehmonlar qolgan stollarga hech bir stol bo‘sh qolmaslik sharti bilan hohlagancha joylashishi mumkin. Mehmonlarni necha xil usul bilan stollarga joylashtirish mumkin? (Bu yerda ham mehmonlarning nisbiy o‘tirish holati muhim deb qaraladi).

8. $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{c(n, 2)}{c(n, 1)}$ ni hisoblang.

Xulosa. Ushbu maqolada kombinatorikaning muhim tushunchalaridan biri doiraviy o‘rin almashtirishlar va siklli o‘rin almashtirishlar haqida ma‘lumot berilgan hamda ularga doir kombinatorik masalalarni yechishda qo‘llaniladigan birinchi turdagi Stirling sonlari va ularning xossalari yoritilgan va misollarni yechish uslubiyati keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. Shahriari Sh. An Invitation to Combinatorics. Cambridge University Press, 2022.
- [2]. Van Lint J.H., Wilson R.M. A course in combinatorics: second edition. Cambridge University Press, 2001.
- [3]. To‘rayev X. va boshqalar. Kombinatorika va graflar nazariyasi. Toshkent, 2009.
- [4]. Xujamov J., Vaisova M., Otajonova M. Kombinatorikaga oid ba‘zi olimpiada masalalarini yechish usullari. Fizika, matematika va informatika. 202, 4-son, 3 – 12-betlar.
- [5]. M.Vaisova, S.Bekmetova. Kombinatorikada kiritish va chiqarish qoidasi va ularning tadbirlariga oid olimpiada masalalarini yechish usullari haqida, International scientific journal “Interpretation and researches”, Volume 2 issue 6(28), ISSN: 2181-4163, Impact Factor: 8.2, 2024, 112–119-betlar.

**Bozorov Asqar Xaitmurotovich (O'zbekiston Milliy universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti;
asqarbozorov1990@gmail.com; ORCID ID 0009-0005-1534-8258)**
**APPARATDA AMALGA OSHIRILADIGAN SEA128 YANGI OQIMLI SHIFRLASH
ALGORITMI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada 128 bitli kalitdan foydalanib, 2^{64} bit uzunlikkacha bo'lgan tasodifiy bitlar ketma-ketligi, ya'ni, kalit oqimini generatsiyalash imkonini beruvchi, apparatda amalga oshirishga mo'ljallangan SEA128 sinxron oqimli shifrlash algoritmi qurilgan. SEA128 algoritmi Trivium algoritmiga o'xshash va unga nisbatan sodda bo'lib, unda initsializatsilash vektoridan foydalanilmasdan undagi xavfsizlik, tezkorlik va moslashuvchanlik xususiyatlari saqlab qolingan. Mazkur algoritm yordamida generatsiya qilingan psevdotasodifiy ketma-ketliklar tasodifiylik shartlari bo'yicha AQSHning NIST (National Institute of Standards and Technology) talablariga javob beradi.

Kalit so'zlar: eSTREAM tanlovi, oqimli shifrlar, Trivium, SEA128, tasodifiy bitlar ketma-ketligi, SAT kriptotahlili, Gate.

Аннотация. В данной работе построен алгоритм синхронного потокового шифрования SEA128, предназначенный для аппаратной реализации, позволяющий генерировать случайную битовую последовательность длиной до 264 бит, то есть ключевой поток, с использованием 128-битного ключа. Алгоритм SEA128 аналогичен алгоритму Trivium и проще его, который сохраняет свои функции безопасности, скорости и гибкости без использования вектора инициализации. Псевдослучайные последовательности, генерируемые этим алгоритмом, соответствуют требованиям NIST США (Национального института стандартов и технологий) с точки зрения случайности.

Ключевые слова: выбор eSTREAM, потоковые шифры, Trivium, SEA128, случайная битовая последовательность, криптоанализ SAT, Gate.

A NEW SEA128 ENCRYPTION ALGORITHM USED IN DEVICES

Annotation. In this paper, a SEA128 synchronous stream encryption algorithm designed for hardware implementation is built to generate a random bit sequence up to 2^{64} bits long, a key stream, using a 128-bit key. The SEA128 algorithm is similar to and simpler than the Trivium algorithm, which retains its security, speed, and flexibility features without using an initialization vector. Pseudorandom sequences generated by this algorithm meet the requirements of the US NIST (National Institute of Standards and Technology) requirements regarding randomness.

Keywords: eSTREAM selection, stream ciphers, Trivium, SEA128, random bit sequence, SAT cryptanalysis, Gate.

Kirish. Hozirgi kunda konfedensial ma'lumotlarni himoyalashda simmetrik shifrlash algoritmlari keng qo'llanilmoqda. Shu sababli kriptobardoshli simmetrik shifrlash algoritmlarini yaratish hamda keng qo'llanilib kelayotgan mavjud shifrlash algoritmlarini kriptografik xususiyatlarni tadqiq qilishga katta e'tibor qaratilmoqda [1,2,3]. Ayniqsa, oqimli simmetrik shifrlar yuqori kriptobardoshlilik va shifrlash tezligini ta'minlagan holda ma'lumotlarni shifrlangan oqimini aloqaning umumiy kanali orqali uzatishda keng qo'llaniladi. Shu bois oqimli shifrlar konfedensial axborotlarni shifrlashda muhim rol o'ynaydi.

Keng foydalanishga mos keladigan, yangi oqimli shifrlarni aniqlash uchun Yevropa Ittifoqi tomonidan 2008-yilda eSTREAM (The ECRYPT Stream Cipher Project) tanlovi tashkil etilgan. Ushbu tanlovda ko'plab oqimli shifrlash algoritmlari ishtirok etgan bo'lib, ularning ayrimlari xavfsizlik muammolari sabab tanlovni tark etgan bo'lsa, boshqalari apparatda amalga oshirishdagi qiyinchiliklar tufayli tanlovdan chetlatilgan [4].

Umumiy uzunligi 288 bit bo'lgan uchta siljitish registridan foydalanuvchi trivium oqimli shifrlash algoritmi 2006-yilda taklif qilingan [5]. Ushbu shifrlash algoritmi sodda ko'rinishda qurilgan bo'lib, eSTREAM tanlovida ishtirok etib, apparatda amalga oshirishga mo'ljallangan algoritmlar bo'yicha tanlov g'oliblaridan biriga aylangan.

Tanlov natijalariga ko'ra, tanlov talablarini qanoatlantirgan algoritmlar ikki guruhga ajratilgan. Birinchi guruhga yuqori tezlikda dasturiy amalga oshirish mumkin bo'lgan algoritmlar Salsa20/12, Rabbit, HC-128 va SOSEMANUK kiritilgan. Ushbu algoritmlar 128 bitli AES-CTR algoritmiga nisbatan tezkor algoritmlar hisoblanadi. Ikkinchi guruh Grain, Trivium va MICKEY oqimli shifrlaridan tashkil topgan. Ushbu shifrlar apparatda amalga oshirish uchun mo'ljallangan va 80 bitli AES algoritmiga nisbatan ushbu shifrlarni apparatda amalga oshirish qulay bo'lib, ular cheklangan resurslar (kam xotira va quvvat iste'moli) bilan apparatda amalga oshirish imkoniyatlariga ega.

eSTREAM tanlovida ishtirok etgan shifrlardan faqatgina Trivium shifri yengil vaznli oqimli shifr sifatida ISO/IEC 29192-3 (oqimli shifrlar) standartiga kiritilgan [6]. Shu sababli hozirgi vaqtda trivium oilasiga mansub bo'lgan shifrlarni kriptografik xususiyatlarini tadqiq qilish va ular asosida yangi oqimli shifrlarni yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqolada umumiy uzunligi 128 bit bo'lgan 3 ta siljitish registrlaridan, 7 ta AND va 18 ta XOR elementlaridan iborat SEA128 deb nomlangan oqimli shifrlash algoritmi ishlab chiqilgan. SEA128 algoritmi yordamida ishlab chiqilgan ketma-ketliklarning tasodifiylik darajasi va ayrim kriptotahlil usullariga nisbatan bardoshlilikini baholash bo'yicha natijalar, shuningdek, algoritmni apparatda amalga oshirish uchun zarur elementlar soni bo'yicha ma'lumotlar bayon qilingan.

Adabiyotlar sharhi. Hozirgi vaqtda Trivium oilasiga mansub bo'lgan Trivium va Bivium shifrlarining mumkin bo'lgan zaif tomonlari to'liq tahlil qilingan [7]. Shifrlash tenglamalarining xususiyatlaridan foydalangan holda registrlarning ichki holatlarini tiklash algoritmiga asoslangan hujumga nisbatan ushbu shifrlarning bardoshlili o'rganilgan. Natijada bivium shifri uchun ushbu hujumning murakkabligi kalitni to'liq saralash usuliga nisbatan sezilarli darajada pastligi aniqlangan. Shunday bo'lsa-da, ushbu hujumni amalga oshirish amalda katta qiyinchiliklarni tug'diradi va samarasiz hisoblanadi.

[8]da bivium kriptotahlili uchun SAT yondashuvidan foydalanish taklif qilingan. Keyinchalik, bivium shifri uchun SAT kriptotahlilini amalga oshirish vaqtini kamaytirishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar bajarilgan. Parallellashtirish hisobiga SAT kriptotahliliga sarf bo'ladigan vaqtni sezilarli darajada qisqartirish mumkinligi ko'rsatilgan [9].

Ushbu algoritm AES shifrlash algoritmining chiziqsiz almashtirish jadvali, oddiy amallar va katta hajmdagi ichki holatdan foydalanishga asoslangan. Sinov natijasida algoritm kuchli lavin effektiga ega ekanligi aniqlangan, hosil qilingan ketma-ketlik psevdotasodifiyligi bo'yicha barcha NIST statistik testlaridan muvaffaqiyatli o'tgan.

Metodologiya. SEA128 (stream encryption algorithm) shifrlash boshlang'ich holati umumiy uzunligi 128 bit bo'lgan 3 ta siljitish registridan foydalanishga asoslangan (1-rasm).

SEA128 dizayn tamoyillarini tavsiflashimizdan oldin biz polinomlarga tegishli ba'zi standart ta'riflarni qarab o'tamiz.

Ko'phadli $p(x)$ bu har bir ifoda manfiy bo'lmagan butun son darajaga ko'tarilgan va koeffitsiyentga ko'paytiriladigan x o'z ichiga olgan ifodalarlar yig'indisidan iborat matematik ifodadir. Buni quyidagicha yozish mumkin:

$$p(x) := \sum_{i=0}^{n-1} k_i x^i \quad (1)$$

k_i o'zgaruvchisi x_i koeffitsiyentini bildiradi va noldan farq qiladi. n ning qiymati $p(x)$ ning darajasidir. Ushbu munozara uchun biz $p(x)$ ni GF(2) dagi polinomlar bilan cheklaymiz.

GF(2) ga nisbatan n darajali ibtidoiy polinom uchun bu jarayon bir xil ketma-ketlikni takrorlashdan oldin $2^n - 1$ psevdotasodifiy bit hosil qiladi.

Ibtidoiy ko'phad – darajasi $n > 0$ va ko'phad davri $2^n - 1$ bo'lgan takrorlanmas ko'phaddir. Chiziqli fikr almashish registri (LFSR) uchun $f : (0, 1)^n \rightarrow (0, 1)$ funksiyasidan foydalanadigan obyektidir.

$$f(x) := \sum_{i=0}^{n-1} k_i x^i \quad (2)$$

k_i o'zgaruvchisi 0, 1 koeffitsiyenti. Qayta aloqa funksiyasi $2^n - 1$ davriga ega. Qayta aloqa funksiyasi sifatida ibtidoiy ko'phadlardan foydalanish odatiy holdir [11].

Har bir holat o'ngga siklik siljitish registrlaridagi bitlarni chiziqsiz uzatish va teskari aloqa kombinatoriyasi orqali o'zgartiriladi. Shifrni ishga tushirish uchun 128 bit uzunlikga ega K maxfiy kalit berilgan qoida bo'yicha uchta siljitish registrlariga joylashtiriladi va initsializatsiyalash jarayoni 1640 ta iteratsiyada bajariladi. Bu esa boshlang'ich holatning har bir biti kalitning har bir bitiga bog'liqligini ta'minlaydi.

Initsializatsiyalash bosqichidan o'tgandan so'ng, har bir siklda chiquvchi kalit oqimining yangi biti hosil bo'ladi. Ushbu bit ochiq matnning mos biti bilan XOR (2 modul bo'yicha qo'shish) amali yordamida qo'shilishi natijasida shifrmatnning mos biti hosil qilinadi. Shifrmatnni ochish jarayoni teskari tartibda amalga oshiriladi, ya'ni, shifrlangan matnning har bir biti chiquvchi kalit oqimining mos biti bilan XOR amali yordamida qo'shiladi.

Initsializatsiyalash. Initsializatsiyalash jarayoni 128 bitli maxfiy kalitni 128 (47+40+41) bitli boshlang'ich holat registrlariga yuklash orqali amalga oshiriladi. Initsializatsiyalash jarayonini quyidagi psevdokod yordamida tavsiflash mumkin.

$$(K_0, K_1, \dots, K_{46}) \rightarrow (a_0, a_1, a_2, \dots, a_{46}) \tag{3}$$

$$(K_{47}, K_{48}, \dots, K_{86}) \rightarrow (b_0, b_1, b_2, \dots, b_{39}) \tag{4}$$

$$(K_{87}, K_{88}, \dots, K_{127}) \rightarrow (c_0, c_1, \dots, c_{40}) \tag{5}$$

for $i = 0$ to 1640 do

$$a_{10} \oplus a_{16} \cdot a_{22} \oplus a_{28} \oplus a_{40} \cdot a_{46} \oplus b_{38} \rightarrow t_0 \tag{6}$$

$$b_8 \oplus b_{16} \cdot b_{18} \oplus b_{22} \oplus b_{30} \oplus b_{39} \oplus c_{38} \rightarrow t_1 \tag{7}$$

$$c_9 \oplus c_{12} \cdot c_{16} \oplus c_{26} \oplus c_{32} \oplus c_{40} \oplus a_{19} \rightarrow t_2 \tag{8}$$

$$(t_2, a_0, \dots, a_{45}) \rightarrow (a_0, \dots, a_{46}) \tag{9}$$

$$(t_1, b_0, \dots, b_{38}) \rightarrow (b_0, \dots, b_{39}) \tag{10}$$

$$(t_0, c_0, \dots, c_{39}) \rightarrow (c_0, \dots, c_{40}) \tag{11}$$

end for.

Bu yerda:

$a_0, \dots, a_n, b_0, \dots, b_n, c_0, \dots, c_n$ – bitlarning ichki holati;

$chiqish_i$ – t vaqtda yaratilgan kalit oqim bitlarining chiqishi;

\oplus – $GF(2)$ maydonda 2 ning moduli bo'yicha qo'shish;

\cdot – $GF(2)$ maydonda ko'paytirish;

$(a, b, c)_t$ – t vaqtda yaratilgan kalit oqimining biti.

Tasodifiy ketma-ketliklarni generatsiyalash. Oqim generatori holat registrlari qiymatining 3 bitini o'zgartirish va kalit oqimining 1 bitini hisoblash uchun 128 bitli boshlang'ich holat registrlarining 30 bitidan foydalanadi. Lekin 1640 iteratsiyadan iborat initsializatsiya jarayonidan keyin mazkur 30 bitning qiymatiga maxfiy kalitning va qiymatlari to'liq ta'sir qilib bo'ladi. Shifrlash uchun zarur N ($N \leq 2^{64}$) bit psevdotasodifiy kalit bitlarini generatsiya qilish jarayonini quyidagi psevdokod yordamida ifodalash mumkin.

for $i = 0$ to N do

$$a_{18} \oplus a_{30} \cdot a_{36} \rightarrow t_0 \tag{12}$$

$$b_{12} \oplus b_{28} \cdot b_{36} \rightarrow t_1 \tag{13}$$

$$c_{22} \oplus c_{31} \cdot c_{36} \rightarrow t_2 \tag{14}$$

$$t_0 \oplus t_1 \oplus t_2 \rightarrow chiqish_i \tag{15}$$

$$a_{10} \oplus a_{16} \cdot a_{22} \oplus a_{28} \oplus a_{40} \cdot a_{46} \oplus b_{38} \rightarrow t_0 \tag{16}$$

$$b_8 \oplus b_{16} \cdot b_{18} \oplus b_{22} \oplus b_{30} \oplus b_{39} \oplus c_{38} \rightarrow t_1 \tag{17}$$


$$c_9 \oplus c_{12} \cdot c_{16} \oplus c_{26} \oplus c_{32} \oplus c_{40} \oplus a_{19} \rightarrow t_2 \tag{18}$$

$$(t_2, a_0, \dots, a_{45}) \rightarrow (a_0, \dots, a_{46}) \tag{19}$$

$$(t_1, b_0, \dots, b_{38}) \rightarrow (b_0, \dots, b_{39}) \tag{20}$$

$$(t_0, c_0, \dots, c_{39}) \rightarrow (c_0, \dots, c_{40}) \tag{21}$$

end for.



1-rasm. SEA128 algoritmnining funksional sxemasi.

Mazkur algoritm yordamida bitta kalit yordamida 2^{64} bit uzunlikka bo'lgan kalitlarni generatsiya qilish tavsiya qilinadi.

SEA128 algoritmi yordamida generatsiya qilish jarayoni namuna sifatida quyida keltirilgan.

Kiruvchi parametrlar:

Kalit: 00011100000001100011011000011001000010110001001001100000001000110011101100110101

Initsializatsiya jarayonidan avval registrlarning qiymatlari:

a: 00011100000001100011011

b: 00001100100001011000100100110

c: 0000001000110011101100110101

Initsializatsiya jarayonidan so'ng registrlarning qiymatlari: a: 01100110101010110100011

b: 1111001111111100101111001110

c: 1010001010001100000010011000

chiqish: 010001011010010101001011001110001100011010101000011010000100001101110100110101110111010100100000111000001110010110011011000111110110110111100101111000111001101010100100110011101111010110101111001010111001010100111101111001000010001110101100010110010100011100001100111100000010001001110111001100110011111110110111110010000010...

SEA128 shifrlash algoritmi, asosan, apparatda amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lib, undagi gate (element) lar soni bo'yicha cheklovlar bo'lgan hollarda undan foydalanish qulay bo'lishi, cheklangan quvvat manbalariga ega platformalar va yuqori tezlikdagi shifrlashni talab qiladigan ilovalarda tezkorlikni ta'minlashiga e'tibor qaratilgan.

Qulay amalga oshirish talabi bitga yo'naltirilgan yondashuvni talab qiladi. Bundan tashqari, kalit oqimi generatorining chiqishida ichki holat registrlarining chiziqsiz bog'liqliligini hamda energiyani samarali sarflash va tezkor amalga oshirishni ta'minlash imkoni ham mavjud bo'lishi kerak.

[13]da keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib (ya'ni, har bir Flip-flop surish registri elementi) uchun 12 NAND shlyuzi, XOR uchun 2,5 gate va AND uchun 1,5 gate), SEA128 shifrini apparatda amalga oshirish uchun zarur gatellar sonini hisoblash mumkin. Ushbu ma'lumotlarning trivium va [14]dagi NHSA algoritmlarining apparat tatbiqi uchun zarur bo'ladigan gatellar soni bilan qiyosiy tahlili natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

AAOOSHA80, SEA128, NHSA va trivium algoritmlarining apparat tatbiqi uchun zarur gatellar soni

Algoritm	Trivium	NHSA	AAOOSHA80	SEA128
Kalit uzunligi	80	128	80	128
IV uzunligi	80	128	-	-
Ichki holat registry	288*(12)	269*(12)	80*(12)	128*(12)
AND gate	3*(1.5)	6*(1.5)	6*(1.5)	7*(1.5)
XOR gate	11*(2.5)	14*(2.5)	20*(2.5)	19*(2.5)
Jami gate lar soni	3488	3272	1019	1594

SEA128 shifrlash algoritmining davri.

Algoritmning ichki holati chiziqli bo'lmagan tarzda rivojlanishi sababli uning davrini aniqlash qiyin. Shunga qaramay, bir qator kuzatishlar orqali algoritmnning davrini taxmin qilish mumkin. Birinchidan, agar AND eshiklarisiz to'liq chiziqli sxema olinsa, har qanday kalit yordamida kamida $2^{128-3} - 1$ davriga ega oqim hosil qilishini ko'rsatish mumkin. Bu SEA128 uchun bevosita ta'sir qilmaydi, lekin bu registrlarning uzunliklari to'g'ri tanlanganligining belgisi sifatida qaralishi mumkin.

Ikkinchidan, SEA1288 shifri ichki holati teskari tarzda yangilanadi va (c_0, \dots, c_{40}) registrining ishga tushirilishi holatning 40 iteratsiyadan kamroq aylanishining oldini oladi. Agar AAOOSHA80 yetarli miqdordagi iteratsiyadan (bizning holatda 1640 iteratsiya) so'ng tasodifiy almashtirish sifatida harakat qiladi deb hisoblansa, u holda 2^{128} gacha bo'lgan barcha sikl uzunliklari teng ehtimolga ega bo'ladi va shuning uchun berilgan kalit 2^{18} dan kichik siklni keltirib chiqarishi ehtimoliga teng bo'ladi.

Shunday bo'lsa ham, yuqorida generatsiya qilingan kalitlarning ishonchliligini maksimal ta'minlashini kafolatlash maqsadida 128 bit maxfiy kalit yordamida 2^{64} bit uzunlikgacha bo'lgan kalit generatsiya qilish tavsiya qilinadi.[9]

Natija.

SEA128 algoritmi orqali generatsiya qilingan ketma-ketliklarni NIST tasodifiylik testlariga baholash natijalari

Yuqorida keltirilgan kalit yordamida SEA128 algoritmi bilan generatsiya qilingan tasodifiy ketma-ketliklar NIST statistik testlari yordamida tasodifiylik darajasi bo'yicha baholandi [8]. Quyida mazkur test tarkibidagi taxminiy entropiya testi (2-rasm) va umumiy 15 ta test bo'yicha olingan natijalar (3-rasm) keltirilgan.

```
TEST: approximate_entropy_test
n      = 2000000
m      = 3
Pattern 1 of 8, count = 250379
Pattern 2 of 8, count = 249904
Pattern 3 of 8, count = 249643
Pattern 4 of 8, count = 249982
Pattern 5 of 8, count = 249904
Pattern 6 of 8, count = 249721
Pattern 7 of 8, count = 249982
Pattern 8 of 8, count = 250485
phi(3) = -4.382026
Pattern 1 of 16, count = 125345
Pattern 2 of 16, count = 125034
Pattern 3 of 16, count = 124977
Pattern 4 of 16, count = 124927
Pattern 5 of 16, count = 124591
Pattern 6 of 16, count = 125052
Pattern 7 of 16, count = 124869
Pattern 8 of 16, count = 125113
Pattern 9 of 16, count = 125034
Pattern 10 of 16, count = 124870
Pattern 11 of 16, count = 124666
Pattern 12 of 16, count = 125055
Pattern 13 of 16, count = 125313
Pattern 14 of 16, count = 124669
Pattern 15 of 16, count = 125113
Pattern 16 of 16, count = 125372
phi(3) = -5.075172
AppEn(3) = 0.693146
ChiSquare = 4.126219262712283
PASS
P=0.8455596497879783
```

2-rasm. Taxminiy entropiya testi natijasi.

```
SUMMARY
-----
monobit_test          0.8964812595352322 PASS
frequency_within_block_test 0.7389792504014772 PASS
runs_test             0.2888498040682378 PASS
longest_run_ones_in_a_block_test 0.8395155888260253 PASS
binary_matrix_rank_test 0.5861423616940942 PASS
dft_test              0.09158359064946232 PASS
non_overlapping_template_matching_test 0.9999997979957773 PASS
overlapping_template_matching_test 0.7651203355183966 PASS
maurers_universal_test 0.9994912826307576 PASS
linear_complexity_test 0.15773347876396696 PASS
serial_test           0.5796127453682831 PASS
approximate_entropy_test 0.8455596497879783 PASS
cumulative_sums_test 0.6903738937386139 PASS
random_excursion_test 0.04849568510144426 PASS
random_excursion_variant_test 0.12206620662525057 PASS
```

3-rasm. SEA128 algoritmini Nist statistik testi orqali baholash natijalari.

SEA128 shifrlash algoritmini testga baholashning natijalaridan ko'rish mumkinki, SEA128 shifri yordamida generatsiya qilingan ketma-ketliklar tasodifiylik shartlari bo'yicha xavfsizlik talablariga javob beradi.

Xulosa. SEA128 shifrlash algoritmi TRIVIUM va NNSA algoritmlari bilan solishtirilganda bir qator yaxshi ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Mazkur algoritm ham qurilmaviy, ham dasturiy ko'rinishda amalga oshirishga qulay bo'lib, har bir 128 bit uzunlikdagi kalit bilan 2^{64} bit uzunlikdacha bo'lgan psevdotasodifiy bitlar ketma-ketligini hosil qilish imkonini beradi. Hosil qilingan psevdotasodifiy bitlar ketma-ketligi NIST statistik testlar to'plamidan muvaffaqiyatli o'tgan. Kalitni bo'lishi mumkin bo'lgan barcha variantlarini hisoblash murakkabligi sababli SEA128 shifrlash algoritmini xavfsiz deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Abdullaev T., Juraev G., Selection of the Optimal Type of the Gamming Function for Symmetric Encryption Algorithms. AIP Publishing: AIP Conference Proceedings "International Uzbekistan-Malaysia Conference on "Computational models and technologies (CMT2020)", Volume 2365. Melville, New York, 2021, C 040004-1 – 040004-13.

(2). Abdullaev T., Juraev G. Development of a Method for Generating Substitution Tables for Binary and Ternary Number Systems. AIP Publishing: AIP Conference Proceedings “International Uzbekistan-Malaysia Conference on “Computational models and technologies (CMT2020)”, Volume 2365. Melville, New York, 2021, C 040003-1 - 040003-11.

(3). Жураев Г.У., Икрамов А.А. Принципы построения и анализа симметричных поточных алгоритмов шифрования данных. Фергана, 2024, 196 с.

(4). Robshaw M. The eSTREAM project. New stream cipher designs: the STREAM finalists. Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg, 2008, с. 1–6.

(5). Cannier, C.D. Trivium: A stream cipher construction inspired by block cipher design principles. LNCS. 2006. V. 4176, p. 171–186.

(6). ISO/IEC 29192-3:2012. International standard for lightweight cryptographic methods, ISO/IEC, 2012.

(7). Заикин О.С., Отпущенников И.В., Семёнов А.А. Оценки стойкости шифров семейства Trivium к криптоанализу на основе алгоритмов решения проблемы булевой выполнимости, ПДМ. Приложение, 2016, выпуск 9, с. 46–48.

(8). McDonald C., Charnes C., and Pieprzyk J. Attacking Bivium with MiniSat. Technical Report 2007/040. ECRYPT Stream Cipher Project, 2007.

(9). Khudoykulov Z.T., Rakhmatullayev I.R. “A new key stream encryption algorithm and its cryptanalysis”. Scientific and technical journal Namangan Institute of Engineering and Technology, Volume 8, Issue 1, 2023, 146-157, p. 05.00.00; №33).

Razzakov Alijon Shonazarovich (Urganch davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti „Fizika“ kafedراس dotsenti; razzokov.@bk.ru)

Amanboyev Siroj Xamro o‘g‘li (Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti)

GaAs - (Ge₂)_{1-x} - (ZnSe)_x, Ge-(Ge₂)_{1-x} (ZnSe)_x, GaP- (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x,

Si- (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x GETEROSTRUKTURALARNI SUYUQ FAZADAN OLISH

Annotatsiya. (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x epitaksial qatlamlarini GaAs va Ge tagliklariga majburiy dasturiy sovitish asosida o‘stirib olindi. Bunda optimal sovitish tezligi 1–1,5 grad/min ekanligi aniqlandi. Shuningdek, o‘stirilgan qatlamlarning strukturaviy mukammalligi, gorizontal joylashgan tagliklar orasidagi bo‘shliq (δ) hajmiga bog‘liq bo‘lib, tagliklar orasidagi masofa qiymatlari $0.35 < \delta < 1.4$ mm oralig‘ida bo‘lganda, epitaksial qatlamlarning o‘shishi kristallik mukammal bo‘ldi. Kristal panjara doimiylari, qattiq qorishma kimyoviy tarkibiga qarab ($5.655 \div 5.662$) $\pm 0,005$ Å kattaliklarni tashkil etdi.

Kalit so‘zlar: epitaksiya, geterostruktura, taglik, diffraktogramma.

Аннотация. Эпитаксиальные слои (Ge₂)_x(ZnSe)_x выращены на основе программ на подложках GaAs и Ge. Оптимальное соотношение – 1–1,5. град/мин. На расстоянии 0,35 < δ < 1,4 мм рост эпитаксиальных слоев носит кристаллический характер. Константы кристаллической решетки в зависимости от состава твердой смеси составляли ($5,655 \div 5,662$) $\pm 0,005$ «Å».

Ключевые слова: эпитаксия, гетероструктура, подложка, дифрактограмма.

Annotation. (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x epitaxial layers were grown on GaAs and Ge substrates based on forced program cooling. It was determined that, the optimal cooling rate is 1–1.5 degrees/min. Also, the structural perfection of the grown layers depends on the size of the gap (δ) between the horizontally located substrates, and when the values of the distance between the substrates are in the range of $0.35 < \delta < 1.4$ mm, the growth of epitaxial layers is crystalline. The constants of the crystal lattice, depending on the chemical composition of the solid mixture, were ($5.655 \div 5.662$) ± 0.005 Å.

Keywords: epitaxy, heterostructure, substrate, diffractogram.

Kirish. Hozirgi vaqtda C^{IV}, A^{II}B^{VI} tipidagi kimyoviy birikmalar asosida boshqariladigan tarkibga ega va o‘ziga xos elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlarga ega bo‘lgan to‘g‘ri o‘tishli qattiq qorishmalarni olish yarimo‘tkazgich asbobsozligida dolzarb vazifa hisoblanadi [1,2].

Adabiyotlar tahlili. GaAs-(Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x yarimo‘tkazgichli geteroo‘tishlar, o‘ziga xos fotoelektrik xususiyatlarga ega. Ularning, panjara parametrlari kattaliklari yaqin (mos kelmaslik ~ 0,25%) bo‘lib, taglikplyonka chegara interfeysda nuqsonlar va dislokatsiyalar nisbatan kam bo‘ladi [3,4]. (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x qattiq qotishmalar kimyoviy tarkibi o‘zgarishi bilan yarimo‘tkazgich materialining asosiy foto va elektr parametrlari ham ma‘lum diapazonda o‘zgaradi. Bu esa muayyan yarimo‘tkazgich qurilmalarini yaratishda optimal xususiyatlarga ega materiallarni tanlash imkoniyatini beradi [5,6].

Geterostrukturalarning foto va elektr xossalari, birinchi navbatda, ularning kristalli mukammalligi bilan belgilanadi, shuning uchun bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish dolzarbdir [7,8]. Ushbu maqolada geterobo‘tishlarining strukturaviy mukammalligini o‘rganish natijalari keltirilgan. GaAs-(Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x,

Ge-(Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x, GaP (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x, Si- (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x geterostrukturalarni tayyorlash texnologik sharoitlariga bog'liq bo'lib, o'rganilayotgan geterostrukturalar biz tomondan majburiy sovitish usuli yordamida gorizontal joylashgan tagliklarga, chegaralangan hajmdagi qalayli eritmadan o'stirib olingan [9]. Mazkur strukturalar [111] va [100] yo'nalishlarida orientirlangan GaAs, Ge, GaP, Si tagliklarga (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x qattiq qorishma epitaksial qatlamlarini o'stirish orqali olingan [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Tajriba uchun qalay, rux selen, germaniyaning kimyoviy jihatdan toza namunalari (Taizhou ATS Optical Material Co, Ltd.) ishlatildi. Taglik sifatida <100>, <100> yo'nalishidagi GaAs, Ge, GaP, Si yarimo'tkazgich plastinalari ishlatildi. Tajribalar EPOS tipidagi qurilmada (Pd-15T tozalagich) va vodorod atmosferasida 660 °C÷550°C haroratda olib borildi. Haroratni tekshirish uchun 4 kanalli K tipidagi termometrdan foydalanildi. Moddalarning og'irligini o'lchash uchun AE ADAM NBL 214e (Germaniya) analitik tarozi ishlatildi. Kristal sirtini tahlil qilish uchun SEM EVO MA 10 (Zeiss) qurilmasi ishlatildi. Plyonka monokristalligi DRON-3M qurilmasida aniqlandi. МИМ-8М rusumli metallografik mikroskop yordamida epitaksial qatlamlar yuzasining morfologik tadqiqotlari amalga oshirildi va GaAs [100] va Ge [111] tagliklarga kristallik mukammal silliq (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x epitaksial qatlamlari o'sishi aniqlandi.


Tahlil va natijalar. GaP, Si tagliklariga (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x epitaksial qatlamlarini olishda nuqsonlar vujudga kelishi yoki, umuman, plonka o'smasligi ma'lum bo'ldi. Bunga asosiy sabab taglik va plyonka kristall panjara doimiylarining mos kelmasligidir (farqi 4%dan ortiq). Shuningdek, materiallarning chiziqli kengayish koeffitsiyentlari farqi ham ta'sir qiladi. Dastlabki T_{k,i}=660°C (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x epitaksiya qatlamlari o'sishi boshlangan haroratda GaP taglikda faqat o'suvchi orolchalar olingan. O'sish haroratning oshishi orolchalar bir-biri bilan birlashib, uzluksiz qatlamni hosil qiladi. Ammo bunday qatlamlar notekis epitaksial qatlam yuzasiga va ko'plab yoriqlarga ega bo'ladi. Xuddi shu holat (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x qattiq qorishmalarining qatlamlarini kremniy tagliklariga o'stirishda ham kuzatildi.

(Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x epitaksial qatlamlarini GaAs va Ge tagliklariga majburiy sovitish tezligiga bog'liq bo'lib, optimal sovitish tezligi 1–1,5 grad/min ekanligi aniqlandi. Bunda (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x kristallik mukammal epitaksial qatlamlarini olish uchun 0,17–0,2 mkm/min kristallanish tezligiga mos keldi. Shuningdek, o'stirilgan qatlamlarning strukturaviy mukammalligi, gorizontal joylashgan tagliklar orasidagi bo'shliq (δ) hajmiga bog'liq bo'lib, ularning qiymati maxsus grafit tayanchlari yordamida 0,25–2,5 mm oralig'ida o'zgartirilishi mumkin. Tagliklar orasidagi masofa qiymatlari $\delta < 0,35$ mm bo'lganda, epitaksial qatlamlarning o'sishi, umuman, kuzatilmadi, ehtimol, eritma bilan tagliklarning o'zaro kontakti bo'lmasligi tufaylidir. Yuqori va pastki qatlamlarda qattiq qorishmalarining eng strukturaviy mukammal o'zaro farqlanmaydigan qatlamlari $\delta < 1.4$ mmgacha o'stirildi. $\delta > 1.4$ mm bo'lganda pastki va yuqori tagliklarda o'stirilgan epitaksial qatlamlarning sifati juda katta farq qiladi.

Pastki tagliklarda o'stirilgan epitakenal qatlamlarning sifati yuqori tagliklarda o'stirilganga qaraganda har doim yuqori bo'ladi. Bu o'sib chiqqan qatlamlarning sirt dislokatsiyasi zichligida ham o'z aksini topadi. Tagliklar orasidagi masofa ortishi bilan kristallik mukammallik farqi ortadi. Fikrimizcha, bu jarayon molekular diffuziy hodisasi bilan bog'liq bo'lib, kristallanish frontiga komponentlar massa ulushining etib borishi bilan, ya'ni konveksiya oqimlarining ustunligi bilan bog'liq. Chunki erituvchi metall zichligi nisbatan eruvchi komponentlardan katta bo'lib, ularning yuqori qatlamga to'planishiga sababchi bo'ladi.

Scanner elektron mikroskopining yordamida olingan tasvirlar epitaksial qatlamlar strukturasi va sirtining rastri rasmlari K _{α} (Zn), K _{α} (Se), K _{α} (Ge), qatlam interfeysida ham, hajmida ham makroskopik nuqsonlar va metall qo'shimchalar yo'qligini, qattiq qorishma tarkibiy qismlari epitaksial qatlamlarida Zn, Se, Ge elementlarining yuza tekisligida bir xil taqsimlanishini ko'rsatdi. Shuningdek, o'stirilgan qatlamlarning strukturaviy mukammalligi, DRON-UM3 qurilmasi yordamida rentgen nurlari diffraksiyasi bilan o'rganildi. Mis anodining ($\lambda_{\alpha}=1,5418$ Å. $\lambda_{\beta}=1,3922$ Å) uzluksiz nurlanishi yordamida qayd etish orqali diffraksiya spektrlar olindi. Anod kuchlanishi va oqimi mos ravishda 30 kV va 10 mA edi. Ta'sir qilish vaqti 1-3 soat oralig'ida o'zgartirildi. Spektrdagi diffraksiya bo'shliqlarining shakli va joylashishi qattiq qorishmaning o'sish sharoitlariga bog'liqligi aniqlandi (1 a,b-rasm). Kristal panjara doimiylari, diffraksiya maksimumlarining burchaklari bo'yicha hisoblandi va $5.655 \div 5.662 \pm 0,005$ Å kattaliklarni tashkil etdi. Agar Vegard qonunidan foydalansak, u holda qattiq qorishma (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x, tarkibi x=0,5 bo'lgan a=5,662 Å ni olamiz.

GaAs tagligining (5,654 Å) va (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x qattiq qorishmasining panjara doimiylari, o'lchov xatoligi doirasida deyarli mos kelganligi sababli, taglik va epitaksial qatlamning kristall panjaralariga mos keladigan individual maksimumlar, ustma-ust tushadi deb taxmin qilish mumkin.



1-rasm. Yuqori (a) va pastki (b) tagliklarda o‘stirilgan GaAs-(Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x geterostrukturalarining diffraktogrammasi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, yuqori tagliklarda o‘stirilgan qattiq qorishma larning epitaksial qatlamlari (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x yaxshi monokristallik va eng past strukturaviy ichki kuchlanishlar bilan ajralib turadi, bu fazalarga mos keladigan cho‘qqilarning diffraksiya chizig‘ida yo‘qligidan ko‘rinadi. Shu bilan birga, diffraksiya spektri bo‘yicha (1-rasm) yuqori tagliklarda o‘stirilgan qatlamlarning (ya’ni, tezlashtirilgan o‘sishi bilan) tekisliklararo masofalarga mos keladigan qo‘shimcha $d_1=1.81 \text{ \AA}$. $d_2=3.55 \text{ \AA}$. cho‘qqilar, shuningdek, simmetrik ravishda joylashgan tekis maksimumlar namoyon bo‘ldi (400) α va (400) β .

Ko‘rinib turibdiki, qo‘shimcha cho‘qqilar qattiq eqorishmalarning vyuritsit modifikatsiya fazalari ning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu holat ko‘p qatlamli GaAs-ZnSe tuzilmalarida [11] mualliflar tomonidan ham kuzatilgan. Biroq [12]ga ko‘ra, tekis varizon o‘zgaruvchi tarkibli epitaksial qatlam va diskret ko‘p qatlamli strukturalar o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik topilmagan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, suyuq fazali epitaksiya o‘stirish usuli uchun texnologik shart-sharoitlarni tanlab, mikroelektronikada dolzarb bo‘lgan GaAs va Ge tagliklarida (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x qattiq qorishmalarning strukturaviy mukammal varizon epitaksial qatlamlarini olish mumkin. Mazkur yarim-o‘tkazgich material keng spektrni qamrab oluvchi fotoelektrik asboblarni ishlab chiqarishda homashyo bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. Wang Y. et al. Bandgap broadly tunable GaZnSeAs alloy nanowires. *Physical Chemistry Chemical Physics*. 2013, Vol. 15, №. 8, p. 2912–2916.
- [2]. Huang W. et al. Composition-dependent perfect band gap tuning of ZnS_{1-x}Se_x solid solutions for efficient photocatalysis. *Journal of Physics and Chemistry of Solids*. 2019, Vol. 130, p. 41–45.
- [3]. S.Fujiwara, Y.Namikawa, M.Irikura, K.Matsumoto, T.Kotani, T.Nakamura. Growth of dislocation-free ZnSe single crystal by CVT method. *Journal of Crystal Growth*. 2000, Vol. 219, Iss.4, p. 353–360. [https://doi.org/10.1016/S0022-0248\(00\)00671-0](https://doi.org/10.1016/S0022-0248(00)00671-0)
- [4]. Q.Zhang, H.Li, Y.Ma, T.Zhai. ZnSe nanostructures: Synthesis, properties and applications. *Progress in Materials Science*. 2016, Vol. 83, p. 472–535. <https://doi.org/10.1016/j.pmatsci.2016.07.005>
- [5]. Schorr S. et al. Electronic band gap of Zn_{2x}(CuIn)_{1-x}X₂ solid solution series (X= S, Se, Te). *Journal of alloys and compounds*. 2006, Vol. 414, №. 1–2, p. 26–30.
- [6]. Kaji M. et al. Liquid-phase epitaxy of GaAs-ZnSe Ga₂Se₃ alloy crystals on a ZnSe substrate. *Journal of crystal growth*. 1997, Vol. 178, №. 3, p. 242–245.
- [7]. N.Lovergine, I.Miccoli, L.Tapfer, P.Prete. GaAs heteroepitaxial layers grown by MOVPE on exactly-oriented and off-cut (111) Si: Lattice tilt, mosaicity and defects content. *Applied Surface Science*. 2023, Vol. 634, 157627. <https://doi.org/10.1016/j.apsusc.2023.157627>
- [8]. R.Kozak, I.Prieto, Y.A.Rojas Dasilva, R.Erni, H.Känel, G.Bona, M.D.Rossell. A comparative study of defect formation in GaAs nanocrystals selectively grown on nanopatterned and flat Si (001) substrates. *Micron*. 2018, Vol.113, p. 83–90; <https://doi.org/10.1016/j.micron.2018.06.018>.
- [9]. B.Shi, B.Song; A.A.Taylor; S.S.Brunelli; J.Klamkin. Selective area heteroepitaxy of low dislocation density antiphase boundary free GaAs microridges on flat-bottom (001) Si for integrated silicon photonics. *Appl. Phys. Lett.* 118, 122106 (2021). <https://doi.org/10.1063/5.0043027>
- [10]. Saidov A.S. et al. Liquid-phase epitaxy of solid solutions (Ge₂)_{1-x}(ZnSe)_x *Materials chemistry and physics*. 2001, Vol. 68, №. 1, p. 1–6.

[11]. Abdikamalov B.A., Atashov B., Duysenbaev M.D., Ernazarov U.K. Ikkinchi xalqaro ilmiy seminar ma'ruzalari. "Ko'p qatlamli, varizovnik, veravnodik yarimo'tkazgichli konstruksiyalar va qurilmalarga asoslangan. Nukus, 1993, 28–30 sentabr, 17-bet.

[12]. Алфимова Д.Л. и др. Выращивание и свойства изопараметрических гетероструктур InAlGaPAs/GaAs. Физика и техника полупроводников. 2017, т. 51, №. 10, с. 1426–1433, Vol. 432, p. 83–91.

Шарипов Хуршид Фазлиддинович, Халимов Уктам Хайдарович (Джизакский филиал Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека)
ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЕ ИНВАРИАНТЫ СУБМЕРСИЙ

Аннотация. В данной работе изучаются дифференциальные инварианты второго порядка субмерсий относительно группы конформных преобразований. В частности доказано, что отношение главных кривизн поверхности является дифференциальным инвариантом второго порядка относительно группы конформных преобразований.

Ключевые слова: конформное преобразование, дифференциальные инварианты, субмерсия, векторное поле, многообразия, алгебра Ли.

Sharipov Xurshid Fazliddinovich, Halimov O'ktam Haydarovich
SUBMERSIYALARNING DIFFERENSIAL INVARIANTLARI

Аннотация. Ushbu maqolada Yevklid fazosidagi submersiyaning konform akslantirishlar gruppasi-ga nisbatdan differensial invariantlari o'rganilgan. Jumladan, sirt bosh egriliklari nisbati konform akslantirishlarga nisbatan ikkinchi tartibli differensial invariant ekanligi isbotlangan.

Калит so'zlar: konformal transformatsiya, differensial invariantlar, suvga botish, vektor maydon, manifoldlar, Li algebrasi.

Khurshid Sharipov, Uktam Khalimov
DIFFERENTIAL INVARIANTS OF SUBMERSIONS

Annotation. In this paper, we study differential invariants of the second order of submersions with respect to the group of conformal transformations. In particular, it is proved that the ratio of the principal curvatures of a surface is a second-order differential invariant with respect to the group of conformal transformations.

Keywords: conformal transformation, differential invariants, submersion, vector field, manifolds, Lie algebra.

Введение. Феликс Клейн в Эрлангенской программе предложил единый подход к описанию различных геометрий. Согласно этой программе, одной из основных задач геометрии является построение инвариантов геометрических объектов относительно действия группы, определяющей эту геометрию. Построение инвариантов опирается на идеи Софуса Ли, который ввел в геометрию группы Ли. В частности, при рассмотрении классификационных задач и проблем эквивалентности в дифференциальной геометрии следует рассматривать дифференциальные инварианты относительно действия групп Ли. При этом проблема эквивалентности геометрических объектов сводится к нахождению полной системы скалярных дифференциальных инвариантов [1].

Определение дифференциального инварианта k – го порядка как функции на пространстве k – джетов сечений соответствующего расслоения позволила эффективно работать с ними, а используя инвариантное дифференцирование можно новые инварианты получать из известных дифференциальных инвариантов.

Анализ литературы по теме. В зависимости от геометрии, порядки первых нетривиальных дифференциальных инвариантов могут быть различны. Например, в пространстве R^3 , снабженном евклидовой метрикой, полной системой дифференциальных инвариантов кривой являются ее кривизна и кручение, которые представляют собой инварианты второго и третьего порядка соответственно. Первый дифференциальный инвариант кривой относительно проективных преобразований имеет седьмой порядок.

В данной работе изучаются дифференциальные инварианты второго порядка субмерсий относительно группы конформных преобразований.

Изучению дифференциальных инвариантов субмерсий посвящены многочисленные исследования [2;7 с.]. В работе [6] найдены дифференциальные инварианты второго и третьего порядка субмерсий евклидовой плоскости относительно конформных преобразований. Дифференциальные инварианты второго порядка субмерсий Евклидовых пространств относительно группы движений изучен в работах [4], [8].

Методология исследования. Пусть M – гладкое риманово многообразие размерности n , B – гладкое риманово многообразие размерности m .

Определение 1. Дифференцируемое отображение $\pi: M \rightarrow B$ максимального ранга при $n > m$ называется субмерсией.

Пусть G группа Ли, преобразований риманова многообразия M . Если группа G является k -мерной группой Ли, тогда она имеет равно k инфинитезимальных образующих (векторный поле).

Определение 2. Функция $I(x)$ называется инвариантом группы преобразований G , если $I(x) = I(gx)$ для каждого элемента $g \in G$.

Пусть M, B – гладкие многообразия и $p \in M$. Пусть $f, g: M \rightarrow B$ гладкие отображения, удовлетворяющие условию $f(p) = g(p) = q$.

1) f имеет касание первого порядка с g в точке p , если $(df)_p = (dg)_p$ как отображения $T_p M \rightarrow T_p B$;

2) f имеет касание k -го порядка с g в точке p , если отображение $(df): TM \rightarrow TB$ имеет касание порядка $(k-1)$ с отображением (dg) в каждой точке $T_p M$. Этот факт записывается следующим образом: $f \sim_k g$ в точке p (k -положительное число).

Обозначим через $J^k(M, B)_{p,q}$ – множества классов эквивалентности по отношению " \sim_k в точке p " в пространстве отображений $f: M \rightarrow B$, удовлетворяющие условию $f(p) = q$.

Положим $J^k(M, B) = \bigcup_{(p,q) \in M \times B} J^k(M, B)_{p,q}$. Известно, что это множество является гладким многообразием [2].

Определение 3. Многообразие $J^k(M, B)$ называется пространством k -джетов. Действие группы G на M порождает некоторое действие группы на $J^k(M, B)$. Это действие называется k -ым продолжением действия группы G на $J^k(M, B)$. Инфинитезимальными образующими k -го продолжения действия группы G на $J^k(M, B)$ являются k -ые продолжения инфинитезимальных образующих группы G .

Определение 4. Функция $I \in C^\infty(J^k(M, B))$ называется дифференциальным инвариантом порядка k группы G , если она сохраняется под действием k -го продолжения G на $J^k(M, B)$, то есть $g^k(I) = I$ для любого преобразования $g^k \in G^k$.

В нахождении Дифференциальных инвариантов важную роль играют так называемые контактные векторные поля.

Как известно [2], контактное векторное поле с производящей функцией f имеет вид

$$X_f = -\sum_{i=1}^n \frac{\partial f}{\partial p_i} \frac{\partial}{\partial x_i} + (f - \sum_{i=1}^n p_i \frac{\partial f}{\partial p_i}) \frac{\partial}{\partial u} + \sum_{i=1}^n (\frac{\partial f}{\partial x_i} + p_i \frac{\partial f}{\partial u}) \frac{\partial}{\partial p_i}$$

Соответственно продолжения векторного поля X_f в $J^2(R_1^n, R)$ имеет вид

$$X_f^{(2)} = X_f + \sum_{i \leq j} f_{ij} \frac{\partial}{\partial p_{ij}}$$

где

$$f_{ij} = \frac{\partial^2 f}{\partial x_i \partial x_j} + p_i \frac{\partial^2 f}{\partial x_j \partial u} + p_j \frac{\partial^2 f}{\partial x_i \partial u} + p_i p_j \frac{\partial^2 f}{\partial u^2} + p_{ij} \frac{\partial f}{\partial u} + \sum_{r=1}^n \left(p_{rj} \frac{\partial^2 f}{\partial x_i \partial p_r} + p_{ri} \frac{\partial^2 f}{\partial x_j \partial p_r} + p_i p_{rj} \frac{\partial^2 f}{\partial u \partial p_r} + p_j p_{ri} \frac{\partial^2 f}{\partial u \partial p_r} \right) + \sum_{r,s=1}^n p_{ir} p_{js} \frac{\partial^2 f}{\partial p_r \partial p_s}$$

Анализ и результаты. Теперь рассмотрим конформное векторное поле в трехмерном Евклидовом пространстве:

$$X = x_1 \frac{\partial}{\partial x_1} + x_2 \frac{\partial}{\partial x_2} + x_3 \frac{\partial}{\partial x_3} \quad (1)$$

Поток этого векторного поля порождает конформные отображения. Найдем инвариантные функции и инвариантные множества групп этих отображений.

Известна следующая теорема [2].

Теорема. Функция I является инвариантом порядка k группы преобразований G только и только тогда, когда она является первым интегралом инфинитезимального образующего группы G^k .

По этой теореме функция $F : R^3 \rightarrow R$ является инвариантом тогда и только тогда, когда

$$X(F) = x_1 \frac{\partial F}{\partial x_1} + x_2 \frac{\partial F}{\partial x_2} + x_3 \frac{\partial F}{\partial x_3} = 0.$$

Отсюда находим, что следующие функции являются инвариантными функциями:

$$F_1 = \frac{x_1}{x_2}, F_2 = \frac{x_2}{x_3}.$$

Мы нашли две инвариантные функции. Поверхности уровня этих функций являются плоскостями, проходящими через оси координат и поэтому при конформном преобразовании, переходит в себя.

Пусть дана субмерсия $\varphi : R^3 \rightarrow R$. Известно, что поверхности уровня субмерсии являются регулярными поверхностями.

Мы хотим найти инварианты этой субмерсии (инварианты поверхностей уровня) относительно конформных преобразований, порожденных потоком векторного поля (1).

Производящей функцией этого конформного векторного поля является

$$X(\varphi) = x_1 \frac{\partial \varphi}{\partial x_1} + x_2 \frac{\partial \varphi}{\partial x_2} + x_3 \frac{\partial \varphi}{\partial x_3} = x_1 p_1 + x_2 p_2 + x_3 p_3.$$

Контактное векторное поле с производящей функцией $f = x_1 p_1 + x_2 p_2 + x_3 p_3$, имеет следующий вид:

$$X_f^1 = -x_1 \frac{\partial}{\partial x_1} - x_2 \frac{\partial}{\partial x_2} - x_3 \frac{\partial}{\partial x_3} + p_1 \frac{\partial}{\partial p_1} + p_2 \frac{\partial}{\partial p_2} + p_3 \frac{\partial}{\partial p_3}$$

Инвариант этого векторного поля называется дифференциальным инвариантом первого порядка субмерсий. Находим дифференциальный инвариант первого порядка данной субмерсии:

$$X_f^1(I) = 0$$

Отсюда находим два инварианта: $I_1 = \frac{p_1^2 + p_3^2}{p_1 p_2}, I_2 = \frac{p_2^2 + p_3^2}{p_1 p_2}$

Действительно,

$$X_f^1(I_1) = p_1 \frac{p_1^2 - p_3^2}{p_1^2 p_2} - p_2 \frac{p_1^2 + p_3^2}{p_1 p_2^2} + p_3 \frac{2p_3}{p_1 p_2} = \frac{p_1^2 - p_3^2}{p_1 p_2} - \frac{p_1^2 + p_3^2}{p_1 p_2} + \frac{2p_3^2}{p_1 p_2} = 0,$$

$$X_f^1(I_2) = -p_1 \frac{p_2^2 + p_3^2}{p_1^2 p_2} + p_2 \frac{p_2^2 - p_3^2}{p_1 p_2^2} + p_3 \frac{2p_3}{p_1 p_2} = -\frac{p_2^2 + p_3^2}{p_1 p_2} + \frac{p_2^2 - p_3^2}{p_1 p_2} + \frac{2p_3^2}{p_1 p_2} = 0.$$

Продолжения векторного поля X в $J^2(R^3, R)$ имеет вид

$$X_f^2 = X_f^1 + 2p_{11} \frac{\partial}{\partial p_{11}} + 2p_{12} \frac{\partial}{\partial p_{12}} + 2p_{13} \frac{\partial}{\partial p_{13}} + 2p_{22} \frac{\partial}{\partial p_{22}} + 2p_{23} \frac{\partial}{\partial p_{23}} + 2p_{33} \frac{\partial}{\partial p_{33}}.$$

Инвариант этого векторного поля называется дифференциальным инвариантом второго порядка субмерсий. Находим дифференциальный инвариант второго порядка данной субмерсии:

$$X_f^2(I) = 0.$$

Отсюда находим следующие инварианты:

$$I_1 = \frac{p_{11}p_2 - p_1p_{12}}{p_{12}p_2 - p_1p_{22}}, I_2 = \frac{p_{12}p_2 - p_1p_{22}}{p_{13}p_2 - p_1p_{23}}, I_3 = \frac{p_{12}p_3 - p_2p_{13}}{p_{22}p_3 - p_2p_{23}}, I_4 = \frac{p_{22}p_3 - p_2p_{23}}{p_{23}p_3 - p_2p_{33}}.$$

Теперь рассмотрим субмерсию $\varphi: R^3 \rightarrow R, \varphi(x_1, x_2, x_3) = f(x_1, x_2) - x_3$. Поверхности уровня этой субмерсии являются регулярными поверхностями заданным с помощью явной функции $L_c = \{(x_1, x_2, x_3) \in R^3 : x_3 = f(x_1, x_2) - c\}$. Найдем дифференциальные инварианты второго порядка данной субмерсии (инварианты поверхностей уровня) относительно конформных преобразований, порожденных потоком векторного поля (1). Для этого находим продолжения потока конформного векторного поля (1) в $J^2(x_1, x_2, x_3, p_1, p_2, p_{11}, p_{12}, p_{22})$, где

$$p_1 = \frac{\partial x_3}{\partial x_1}, p_2 = \frac{\partial x_3}{\partial x_2}, p_{11} = \frac{\partial^2 x_3}{\partial x_1^2}, p_{12} = \frac{\partial^2 x_3}{\partial x_1 \partial x_2}, p_{22} = \frac{\partial^2 x_3}{\partial x_2 \partial x_2}.$$

Пусть поток векторного поля (1) переводит точку (x_1, x_2, x_3) в точку (x'_1, x'_2, x'_3) . Найдем формулы преобразования производных при этом конформном преобразовании.

Теперь находим частные производные первого порядка:

$$\frac{\partial x'_3}{\partial x'_i} = \frac{\partial e^t x_3}{\partial e^t x_i} = \frac{\partial x_3}{\partial x_i} = p_i, i = 1, 2.$$

и частные производные второго порядка

$$\frac{\partial^2 x'_3}{\partial x'_i \partial x'_j} = \frac{\partial}{\partial x'_i} \frac{\partial x'_3}{\partial x'_j} = \frac{\partial}{\partial e^t x'_i} \frac{\partial e^t x'_3}{\partial e^t x'_j} = e^{-t} \frac{\partial^2 x_3}{\partial x_i \partial x_j} = e^{-t} p_{ij}, i, j = 1, 2.$$

Продолжение векторного поля (1) в $J^2(x_1, x_2, x_3, p_1, p_2, p_{11}, p_{12}, p_{22})$, имеет следующий вид:

$$X^2 = x_1 \frac{\partial}{\partial x_1} + x_2 \frac{\partial}{\partial x_2} + x_3 \frac{\partial}{\partial x_3} - p_{11} \frac{\partial}{\partial p_{11}} - p_{12} \frac{\partial}{\partial p_{12}} - p_{22} \frac{\partial}{\partial p_{22}}.$$

Следовательно поток векторного поля (2) имеет следующий вид:

$$(x_1, x_2, x_3, p_1, p_2, p_{11}, p_{12}, p_{22}) \rightarrow (e^t x_1, e^t x_2, e^t x_3, p_1, p_2, e^{-t} p_{11}, e^{-t} p_{12}, e^{-t} p_{22}).$$

Выводы и предложения. Аналогично мы можем получить дифференциальные инварианты любого порядка. Соотношения между инвариантами получаются дифференцированием.

Список использованной литературы:

- (1). Клейн Ф. Сравнительное обозрение новейших геометрических исследований (“Эрлангенская программа”). В кн. А.П.Норден. Об основаниях геометрии. 1872, с. 399–434.
- (2). Alekseevsky D.V., Vinogradov A.M., Lychagin V.V. Basic ideas and concepts of differential geometry. The results of science and technology. Modern problems of mathematics. Fundamental directions. Moscow, VINITI. 1988, 28–298 p.
- (3). Kushner A.G., Lychagin V.V., Rubtsov V.N. Contact geometry and nonlinear differential equations. Encyclopedia of Mathematics and Its Applications 101. Cambridge: Cambridge University Press. 2007, XXII+496 p.
- (4). Кузаконь В.М. Метрические дифференциальные инварианты расслоения кривых на плоскости. Збірник праць Ін-ту математики НАН України. 2006, т.3, с. 201–212
- (5). Стрельцова, И.С. Алгебры дифференциальных инвариантов кривых на двумерных многообразиях. Труды Математического центра имени Н.И. Лобачевского. 2007, т. 36, с. 207–209.
- (6). Стрельцова, И.С. R-конформная геометрия кривых на плоскости: алгебра дифференциальных инвариантов. Геометрия. НАН Укршні. 2009, т. 6, № 2, с. 235–246.
- (7). Стрельцова, И.С. Конформные скалярные дифференциальные инварианты кривых в пространствах Евклида и Минковского. Труды Математического центра имени Н.И.Лобачевского. 2009, т. 39, с. 355–356.
- (8). Кузаконь В.М. Дифференціальні інваріанти субмерсій многовидів. Вісн. держ. ун-ту «Львів. Політехніка». Сер. прикл. математика. 1999, № 364, с. 295–298.

Eronov Samarbek Qurbonnazarovich (ToshDTU Olmaliq filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrası katta o‘qituvchisi)

“ISHONCH” VA “AFSONA” TUSHUNCHALARINING DIALEKTIKASI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada fan va din munosabatlarida “ishonch” va “afsona” tushunchalarining o‘rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, ishonch va afsona tushunchalarining falsafiy mazmun-mohiyati mamlakatimizdagi va xorijdagi bir qator faylasuf olimlarning mustaqil tadqiqot obyekti bo‘lganligi hamda ancha vaqtdan buyon batafsil o‘rganib kelinayotganligi ilmiy asoslangan. Shuningdek, maqolada ilmiy va diniy e‘tiqodlar oldida turgan muammolarga munosabat masalasi nazariya va empirik kontekstda ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ishonch, ishonchsizlik, qadriyat, madaniyat, ma‘naviyat, sivilizatsiya, din, falsafa, kategoriya, paradigma, xatar, mavhumlik, tasodifiylik.*

**Эронов Самарбек Курбонназарович (старший преподаватель кафедры “Социально-гуманитарных наук и физического воспитания” Алмалыкского филиала ТашГТУ)
ДИАЛЕКТИКА ПОНЯТИЙ “ДОВЕРИЕ” И “МИФ”**

***Аннотация.** В данной статье анализируется роль и значение понятий “вера” и “миф” в отношениях науки и религии с социально-философской точки зрения. Научно обосновано также то, что философское содержание понятий вера и миф является объектом самостоятельного исследования ряда ученых-философов в нашей стране и за рубежом, и уже достаточно давно детально изучается. Также в статье раскрывается вопрос отношения к проблемам, стоящим перед научными и религиозными верованиями, в теоретическом и эмпирическом контексте.*

***Ключевые слова:** доверие, недоверие, ценность, культура, духовность, цивилизация, религия, философия, категория, парадигма, риск, абстракция, случайность.*

Eronov Samarbek Kurbonnazarovich (Senior lecturer, Department of Social Sciences and Humanities and Physical Education, Almalyk Branch of Tashkent State Technical University;

ORCID: 0009-0003-5573-181; Samarbekerov8@gmail.com)

THE DIALECTIC OF THE CONCEPTS OF “TRUST” AND “MYTH”

***Annotation.** This article analyzes the role and meaning of the concepts of “faith” and “myth” in the relationship between science and religion from a socio-philosophical point of view. It is also scientifically substantiated that the philosophical content of the concepts of faith and myth is the object of independent research by a number of philosophical scientists in our country and abroad, and has been studied in detail for quite a long time. The article also reveals the issue of attitude to the problems facing scientific and religious beliefs in a theoretical and empirical context.*

***Key words:** trust, distrust, value, culture, spirituality, civilization, religion, philosophy, category, paradigm, risk, abstraction, randomness.*

Kirish. “Ishonch” va “afsona” tushunchalari bir xil timsollarga ega. Shu asosda afsona ishonch munosabatlarining rasmiy tarkibiy qismi bo‘lgan makon ekanligi borasidagi faraz ilgari suriladi. Ishonchning shakli sifatidagi afsona to‘g‘risidagi farazni isbotlash hamda ishonch munosabatlarining topologik maqomini tasvirlash uchun falsafiy mulohaza va madaniyatshunoslik tadqiqotlariga murojaat qilishimiz mumkin.

Afsonaning ma‘nosini tahlil qilinishi XVIII asrning oxiri–XIX asrning boshlarida, an‘anaga ko‘ra, romantizm deb ataluvchi davrlarda yuzaga kelgan bo‘lib, afsonaning falsafiy konsepsiyalaridandir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Yangi zamon ilmiy va falsafiy tafakkuridagi afsona muammosi ikki yoqlama haqiqat deb ataluvchi nazariyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ilk bor bunga o‘xshash nazariya Dj.Viko tomonidan ilgari surilgan edi. Dj.Vikoning inson hayotining aqldan tashqari (irratsional) darajalari to‘g‘risidagi mulohazani tahlildan o‘tkazadi. Diniy e‘tiqodning, badiiy hissiyot va afsonaning “jonli” haqiqati qarama-qarshi qo‘yiladigan shuuriy tafakkurning cheklanganligi I.Kant tomonidan ham ko‘rib chiqilgan.

Afsona to‘g‘risidagi falsafiy mulohazalarning o‘tmishiga nazar solsak, gegelchilar falsafasiga e‘tibor qaratiladi, tahlil uchun jamiyatning muqaddas asosi sifatida afsona belgilangan D.Shtrausning “Insoning hayoti”ni tanlaydi. Xuddi D.Shtraus singari L.Feyerbax ham afsonaga uning hissiy-jozibador tabiatini ta‘kidlagan holda, uning onga muqobilligiga e‘tibor qaratadi.

Afsonaning yangi zamon makonini shakllantirgan falsafiy mazmunini tahlildan o‘tkazgan holda muallif zamonaviy falsafiy an‘anaga murojaat qiladi. XX asr falsafasida aqlga muqobil bo‘lgan o‘rganish va

tushunish shakllariga qiziqish paydo bo'ldi. XX asr faylasuflari insonning olam bilan birlashishiga olib keladigan ong salohiyatiga shubhalanib qaray boshladilar, afsona muammosi ham ushbu qiziqish oqimida ko'rib chiqila boshladi.

Boshqa tomondan, XX asrdagi afsonaning falsafiy mantig'i, ongga muqobillik sifatidagi afsona talqini bir xil ma'noga ega emas. Zamonaviy falsafada afsonaning mohiyati to'g'risidagi masala ikki jihatdan: boshqa ong sifatidagi afsona va boshqaning ongi sifatidagi afsona sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot muallifi ham ishonch shakli sifatidagi afsona tahlilini yuqoridagi mantiq bo'yicha amalga oshirgan.

Agar afsona o'rganish va borliqning mazmuniga yetishish shakli bo'lsa, bu eng kamida boshqacha ongdir, chunki afsonaning butun yaratilishi g'aroyib tusga ega. Afsonaning g'aroyib tusga egaligi, g'aroyibot mantiqi to'g'risidagi masalalar faylasuf Y.E.Golosovkerning ishlarida ham ko'rib chiqilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Afsonaning mantiqiyligi va mantiqdan ustunligini ta'kidlagan holda O.M. Freydenberg, afsonaning mantiqi sog'lom fikr mantig'iga zid kelishini, afsonaning barcha tuzilishi rasmiy mantiq qacha tusga ega bo'lishini ko'rsatib o'tadi. Bu faylasuflarga afsonani boshqacha ong deb atashga nima imkon beradi? Bunday ta'kid uchun faqat birgina sabab bor – afsonaning butun tuzilishi garchi bu alohida mantiq bo'lsa-da, qat'iy mantiqqa bo'ysundiriladi. Ushbu mantiqni Y.E.Golosovker afsona yaratuvchisining tasavvuri bilan bog'liq mantiq deb ataydi

Afsonaning mantiqi K.Levi-Stross tomonidan ancha batafsil o'rganilgan. K.Levi-Stross yasama mantiq deb ataydi va ushbu ibora ostida o'z ishlatilishida cheklangan mantiq turini tushunadi. Levi-Stross afsonaning yasama mantig'ini batafsil ko'rib chiqadi. Biroq har qanday yasama tartibot nimadan boshlanishi to'g'risida o'z asarlarida so'z yuritmaydi. Bu masala K.Yungning "Afsona va ruh" nomli asarida batafsil ko'rib chiqilgan.¹

Natijalar. Afsonaning makon sifatida taqdim etilishi, uni boshqaning ongi deb nomlashga imkon beradi. Boshqa tomondan, afsonaning jamoaviy ongdan tashqari hodisa sifatidagi xususiyati ham ko'pchilikka tanish. Afsona K.Yung, K.Kereni, K.Levi-Stross ishlarida mana shunday tasvirlangan. F.Nisshe afsonaga ta'rif bergan, afsona va musiqaning o'ziga bog'liqligini ko'rsatgan holda, uning ongdan tashqari xususiyatini ta'kidlab ko'rsatgan.

Afsona hamda ishonch yer yuzida bo'lganligi uchun emas, balki afsona va ishonch hayotiy olam timsollari bo'lganligi uchun ishonch shakli sifatida tasvirlanishi mumkin. Hayotiy olamning timsoli sifatidagi afsona A.F.Losevning "Afsona dialektikasi" ishida batafsil ko'rib chiqilgan.² Afsonani ishonchning shakli (jismi) sifatida tasvirlagan holda, muallif qadimiy va zamonaviy afsonalar o'rtasidagi farqlanish to'g'risida-gi masalani ko'taradi. Zamonaviy afsonashunoslik R.Bart ishlarida batafsil tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotning muallifi zamonaviy afsonaning o'ziga xos jihatlarini aniqlash hamda ishonch shakllari sifatidagi qadimiy va zamonaviy afsonalar o'rtasiga chegara tortish uchun R.Bartning "Bugungi afsona" asarini batafsil tahlildan o'tkazgan.

Muhokama. Y.E.Golosovkerning ishlarida afsona boshqacha ong sifatida tasvirlangan. K.Levi-Stross, O.M. Freydenberg, K.Yung, K.Kereni asarlarida esa afsona mantig'i, ishonch mantig'i batafsil tasvirlanadi. Boshqa tomondan, afsonani boshqaning ongi deb atovchi boshqacha falsafiy an'ana ham mavjud. Ushbu an'ana birinchi an'anaga nisbatan ko'proq tarafdorlarga ega. "Afsonani Boshqaning ongi" sifatida g'oyasi tarafdorlari afsona va ongni turli mohiyatga ega hodisalar ekanligini ta'kidlagan holda, afsonani ong bilan birlashtirishning iloji yo'q deb hisoblashadi. Tadqiqotchilar (V.Vundt, A.F.Losev, K.Levi-Stross, L.Levi-Bryul) afsona asosida qaror topganligini ko'rsatib o'tganlar. Afsona ong qiyofasi emas, balki harakat qiyofasi, ya'ni, afsona ideal tusga ega bo'lgan ratsional hosilalardan farqli o'laroq jismga egadir.

Afsonaning shakliy sifatлари to'g'risidagi masala postmodernistcha qarashning fransuz mualliflari J. Delez va F.Gvattari tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan. Bu mualliflar afsonani "a'zolarga ega bo'lmagan jism" sifatida ta'riflaydi. "Jism-affekt tushunchasi (J.Deleza va F.Gvattari tilida "a'zolarsiz jism") V.Rayx, S.Eyzenshteyn, M.Baxtin, M.Merlo-Ponti ishlarida ham ko'rib chiqilgan. Afsona jismga ega, ayni vaqtda, afsona fikr, so'zdir. Afsona jismoniylik va tilning kesishish nuqtasidir. Afsonaning bu xususiyati alohida tadqiqotda J.Delez va F.Gvattari tomonidan tasvirlanganni ko'rishimiz mumkin.

¹ Карл Густав Юнг. Душа и миф: шесть архетипов. Пер. с англ. К., Государственная библиотека Украины для юношества, 1996, 384 с.

² Лосев А.Ф. Дialeктика мифа. Дополнение к "Диалектике мифа": новое академическое издание, исправленное и дополненное. Сост., подгот. текста, вступ. ст. А.А.Тахо-Годи, В.П.Троицкого, коммент. В.П.Троицкого. М., ЯСК, 2021, 695 с. ISBN 978-5-907290-38-9.

Xulosa. Shunday qilib, afsona muammosiga bag'ishlangan, yuqorida tahlildan o'tkazilgan barcha ishlar ushbu tadqiqot muallifiga ishonch munosabatlarini taqdim etishga imkon berdi. Boshqa tomondan, ushbu ish muallifi afsonaning shunchaki shakl emas, balki ishonch shakli sifatida ta'riflaydi. Shakl deganda muallif o'zgarishga qodir bo'lgan shaklni tushunadi. Afsona M.Baxtin tomonidan shunga o'xshash tarzda tasvirlangan. M Baxtin afsona – bu muloqotga qodir bo'lgan tuzilma ekanligini ta'kidlaydi. Mustaqil mavjud bo'lgan hamda hayotiy olamda harakatlanuvchi fikr to'foni qiyofasi sifatidagi afsona S.Y.Yachin ishida ham tasvirlangan. U ishonchni tasvirlagan holda, o'z tadqiqotining mantig'iga ergashib ishonch munosabatlarining (rad etilmaydigan) muammosiga o'tadi. Shuni ta'kidlash joizki, "ishonch" hodisasining falsafiy mazmuni o'ta uzuq-yuluqdir hamda o'zining shakllanish bosqichida turibdi. Navbatdagi tadqiqotlarimizda ushbu masalalarni chuqur o'rganishga umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Курбанназарович, Э.С. (2023). Социокультурные характеристики научного доверия и веры: эпистемологическая интерпретация. Всемирный вестник социальных наук, 28, с. 46 – 49.
- (2). Эронов С.К. (2023). Заонавий илмий билимларнинг ёшлар дунёкарашини юксалтиришдаги ўзига хос хусусиятлари. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), p. 199 – 205.
- (3). Эронов С.К. (2023). Фан ва дин муносабатларида ишонч-этикод муаммосининг намоён бўлиши. Academic research in educational sciences, 4 (6), p. 394 – 403.
- (4). Эронов С.К. (2020). Мироззренческая культура молодежи: гуманистический аспект. Academy, (3), p. 57 – 59.
- (5). Kurbannazarovich, E.S. (2020). Специфика проявления феномена доверия в современном обществе. Philosophy and life international journal (4).
- (6). Р.Барт. «Миф сегодня».
- (7). Лосев А.Ф. Диалектика мифа. Дополнение к “Диалектике мифа”: новое академическое издание, исправленное и дополненное. Сост., подгот. текста, вступ. ст. А.А.Тахо-Годи, В.П.Троицкого, коммент. В.П.Троицкого. М., ЯСК, 2021, 695 с. ISBN 978-5-907290-38-9.
- (8). Карл Густав Юнг. Душа и миф: шесть архетипов. Пер. с англ. К., Государственная библиотека Украины для юношества, 1996, 384 с.

Navro'zova Gulchehra Nigmatovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedراس professori, falsafa fanlari doktori; email: premium.progress@mail.ru)
IBODATDA XOLISLIK VA RIYO:TASAVVUFIY-FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya. Maqolada Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshband ruboiylarida xolislik va riyo tushunchalarining mazmun-mohiyati manbalar asosida tahlil etilgan. Hamda Tasavvuf ta'limotining asosiy bo'g'ini bo'lgan kubroviya ta'limotining maqsad-mohiyati, uning irfoniy-falsafiy asoslari, Najmiddin Kubroning rang va shakllar nazariyasi, inson ruhiy-ma'naviy kamolotida ushbu nazariyaning ahamiyati, bugungi yosh avlodni tarbiyalashda kubroviya g'oyalarinig o'rni va ahamiyati ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, rizo, xolislik, riyo, diniylik, dunyoviylik.

Наврүзова Гулчехра Нигматовна (профессор кафедры «Общественных наук» Бухарского Инженерно-технологического института, доктор философских наук; premium.progress@mail.ru)

ОБЪЕКТИВНОСТЬ И ЛИЦЕМЕРИЕ В МОЛИТВЕ: СУФИСКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье на основе источников анализируется сущность понятий объективности и рия в рубаятах Наджмуддина Кубро и Бахауддина Накибанда. Также цель и суть учения Кубровии, которое является основным звеном суфизма, его мистико-философские основы, теория цветов и форм Наджмуддина Кубро, значение этой теории в духовной и духовной зрелости человека. В воспитании современного молодого поколения роль и значение кубровианских идей анализируются с научной и философской точки зрения.

Ключевые слова: Наджмуддин Кубро, Бахауддин Накишанд, согласие, объективность, рия, религиозность, секуляризм.

Navruzova Gulchehra Nigmatovna (Doctor of philosophical sciences, professor. Bukhara engineering technological institute (Uzbekistan); email: premium.progress@mail.ru)

OBJECTIVITY AND HYPOCRISY IN PRAYER: SUFI AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation. In the article, the essence of the concepts of objectivity and riya in the Rubaiyats of Najmuddin Kubro and Bahauddin Naqshband is analyzed based on the sources. Also, the purpose and

essence of the doctrine of Kubroviya, which is the main link of Sufism, its mystical and philosophical foundations, the theory of colors and forms of Najmuddin Kubro, the importance of this theory in the spiritual and spiritual maturity of a person, in the education of today's young generation the role and importance of Kubrovian ideas are analyzed from a scientific and philosophical point of view.

Keywords: *Najmuddin Kubro, Bahauddin Naqshband, consent, objectivity, riya, religiosity, secularism.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Rennessans poydevorini qurish ezgu niyatimizdir. Bu sharaflı vazifani amalga oshirish uchun xalqimizda halollik, poklik, rostlik, soflik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini tarbiyalash dolzarb masaladir. Mustaqillik yillarida diniylik va dunyoviylik masalalariga yangicha nigoh bilan tadqiqotlar olib borilmoqda. Diniy manbalardagi tasavvuf falsafasiga oid ta’limotlar o‘rganilmoqda. Ulardagi ijobiy tomonlar ma’naviyatimizni yuksaltirish uchun foydalanilmoqda. Xalqning ruhiyatini yuksaltirishda tasavvufiy mazmundagi ruboiylarning ahamyati kattadir. Shuning uchun tasavvufning namoyandalari Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshband ruboiylarini o‘rganib, xalqimizni riyo, munofiqlik, zohir-parastlikdan asrash uchun foydalanish zarurdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotlarimiz natijasida Naqshbandiya ta’limotining asoschisi Bahouddin Naqshbandga oid manbalar tahlili asosida u kishidan saqlangan hikmatli so‘z va ruboiylarni aniqlagan edik [2,4,5;25–27-b.]. Izlanishlarimiz natijasida “Ruboiyoti Xoja Naqshband” degan asarni [1;3-b.] topib, Bahouddin Naqshbandning 137 ruboiylari borligini aniqladik va ularni imkon doirasida tahlil etdik [19;23-b.]. Ruboiylarni tahlili ko‘rsatadiki, ularning ba’zisi Najmiddin Kubro, Sayfiddin Boharziyda ham uchraydi. Najmiddin Kubroning ruboiylarini sharqshunos olim Y.E.Bertels aniqlagan [6] bo‘lsa, Jamol Kamol [8], Matnazar Abdulhakim [9] va Ergash Ochilovlar [7] tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Tarixiylik va mantiqiylik uslubi asosidagi izlanishlarimiz natijasida riyo qoralangan Najmiddin Kubro, Sayfiddin Boharziy va Bahouddin Naqshband ruboiysini tasavvufiy-falsafiy tahlil etdik. Xolislik va riyo haqidagi ruboiylar qiyosiy, analiz va sintez uslublari bilan tahlil etildi. Ularning mazmun-mohiyatini germeneytik yondashuv asosida tushunib, tushuntirishga harakat qildik.

Muhokama. Tasavvufning Naqshbandiya ta’limoti halol luqma asosida yashashni targ‘ib etadi [10-12,14-16,18]. “Dil ba Yoru dast ba kor” shiori asosida xolis Olloh rizoligi uchun amal qilish oliy maqsaddir [23,]. Shuning uchun riyo bu ta’limotda qoralanadi. Riyo o‘zgalarga ko‘rsatish, ko‘z-ko‘z qilish, nafs istagi asosida bajariladigan ammallardir. Riyoli ming yillik ibodatning so‘fiylar ahli uchun zarracha qadri yo‘q. Bahouddin Naqshband ruboiylari va hikmatli so‘zlarida riyoli amal qoralangan. Bahouddin Naqshbandni riyoni qoralagan ruboiylarini biz Najmiddin Kubroda ham uchratdik. Bu ruboiy quyidagi mazmundadir:

گر طاعت خود نقش کنم بر نانی
و آن نان نهم پیش سکی بر خوانی
و آن سگ سالی گر سنده زندانی
از ننگ بر آن نان نهمد و ندانی

Gar toati xud naqsh kunem bar none,
V-on non nihem peshi sage bar xone.
V-on sag sole gurusna zindoni,
Az nang bar on non nanihad dandone [9;36-b.].

Mazmuni:

Agar toatimni bir nonga naqsh qilsam,
Ushbu nonni bir it oldida xonda qo‘ysam.
Bu it bir yil och zindonda bo‘lsa,
Uyatdan bu nonga tishini ham tekkizmaydi.

Bu ruboiyni Matnazar Abdulhakim quyidagicha tarjima etgan:

Band bo‘lsa agar yil bo‘yi bir zindonga,
Och yotsa mudom to‘yg‘unicha to jonga.
Nonga bitib ibodatimni, bersam,

Jirkanib it tish urmagay ul nonga [9;35-b.].

Tarjimon Najmiddin Kubroning riyoli amalni qoralab yozgan bu ruboiysini mahorat bilan o'zbek tiliga o'girib, uning mazmun-mohiyatini to'la yoritgan. Tarjima etilgan ruboiydan ma'lum bo'ladiki, bir yil zindonda och yotgan it ham toati bitilgan nondan jirkanib, hatto tishini ham tekkizmaydi. Bu bilan riyoli amaldan, hatto it ham jirkanishini tarjimon juda go'zal tavsif etgan.

Ergash Ochilov Najmiddin Kubroni bu ruboiysini quyidagicha tarjima qilgan:

Naqsh etsamu toatimni parcha nonga,
Bersam uni itga – yotibon zindonga.
Kelgan esa-da ochligidan afg'onga,
Urmas tishini nomus etib ul nonga [7;104-b.].

Ergash Ochilovning tarjimasida inson toatini ko'z-ko'z qilib bir parcha nonga naqsh etganida, zindonda yotgan och it ham nomus etib, ul nonga tishini urmasligini ta'kid etmoqda. Ochlikdan fig'oni falakka chiqqan it ham riyoli ibodat naqsh etgan nonni yeyishni o'ziga nomus deb bilib, unga tishini ham tekkizmagan.

“Ruboiyoti Xoja Naqshband” asarining 120 raqamli ruboiysi quyidagi mazmundadir:

گر طاعت خود نقش کنم بر نانی
و آن نان بنهم پیش سگی نادانی
آن سگ باشد گر سینه در کهدانی
از عار بر آن نان ننهد دندانی

Gar toati xud naqsh kunam bar none,
V-on non biniham peshi sagi nodone.
On sag boshad gurusna dar kahdoni,
Az or bar on non nanihad dandone [1;165-b.].

Bahouddin Naqshbandning ruboiysi ham Najmiddin Kubroning yuqoridagi ruboiysining mazmunini aks etadi. Bu ruboiyning ikkinchi qatorida toat naqsh etilgan non nodon itni yoniga qo'yilgani yozilgan. Uchinchi qatorda esa bu it och kahdonda ekanligi ta'kidlangan. Shunga qaramay it bu nonga tishini tek-kizishni ham or deb bilishi yozilgan.

Natijalar. Tarixiylik va mantiqiylik uslubi asosida tadqiq etganimizda, bu ruboiy birinchi marta Najmiddin Kubro tomonidan yozilganligi ma'lum bo'ladi. Chunki Najmiddin Kubro o'z shogirdi Sayfiddin Boharziyni Buxoroga yuboradi. Sayfiddin Boharziy davrida Buxoroga Sharif degan faxriy unvon berilgan. Sayfiddin Boharziyni ham Shayxul Olam sharafli nomi bilan ulug'laganlar. Bizning fikrimizcha, Sayfiddin Boharziy ustozini Najmiddin Kubro aytgan yuqoridagi ruboiyni tolibi ilmlarga yetkazgan. Natijada manbalarda bu ruboiy Sayfiddin Boharziyga tegishli ekanligi ta'kidlangan. Tadqiqotchi Malika Norova o'z ilmiy ishlarida bu haqida yozgan.

Tadqiqotimiz natijasida aniqlagan Bahouddin Naqshbandning “Ruboiyoti Xoja Naqshband” asaridagi 120 raqam bilan keltirilgan ruboiy, aslida, Najmiddin Kubroniki bo'lib, uning shogirdi Sayfiddin Boharziy orqali Buxoroi Sharifning Haqiqat toliblari o'rtasida keng yoyiladi. Bahouddin Naqshband ham bu ruboiyni o'rganib, o'z shogirdlariga riyoli amalning yomonligini ko'rsatish maqsadida aytganlar. Keyinchalik, bu ruboiy Bahouddin Naqshbandga tegishli deb manbalarga kirgan.

“Ruboiyoti Xoja Naqshband” asaridagi 58 raqamli ruboiysi Naqshbandiya ta'limotida xolis, tamasiz, riyosiz amal qilish lozimligini ko'rsatadi:

پیوسته رضای دوست میدارم دوست
اندوه و بلای دوست میدارم دوست
گر جان طلبند چه گنه تقصیر کنم
من جان برای دوست میدارم دوست

Payvasta rizoñ d̄yst, medoram d̄yst,
Anduhu baloñ d̄yst, medoram d̄yst.
Gar ʈon talaband, chi guna taqsir kunam,
Man ʈon baroi d̄yst, medoram d̄yst [1;99-b.].

Mazmuni:

Mudom do'stning rizoligin yaxshi ko'raman,
Do'stning anduhu balosini yaxshi ko'raman.
Jonimni agar talab etsa taqsir etmasman,
Men do'st uchun jonimni berishni yaxshi ko'raman.

Bu ruboiyda do‘st deganda Olloh anglanadi. Bahouddin Naqshband bu ruboiysi orqali Naqshbandiya ta’limotida Olloh rizoligi asosiy tamoyil ekanligini ta’kidlamoqda. Bu ta’limotdagi “Bozgasht”– “Qaytish [13,24:45-46] rashhasiga asosan, haqiqat tolibi har bir amalidan keyin qaytib, uni xolis, Olloh rizoligi uchun qilganligini aniqlaydi. Agar riyo aralashgan bo‘lsa, tavba qilib, uni yangidan amalga oshiradi.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqotlarimiz natijasi asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Diniy va dunyoviy amallar: xolis, ya’ni, rozilik bilan, minnatsiz amalga oshirilgan va riyoli, nafs istagi asosida boshqalarga ko‘z-ko‘z uchun qilinadigan amallarga bo‘linadi.

2. Dunyoviy ishlardagi xolis amallar va diniy xolis ibodatlar jamiyat uchun manfaatli bo‘lib, tinchlik va ahillikni asosidir.

3. Riyoli ibodat va amal Najmiddin Kubro ruboiysida qattiq qoralangan. Bu ruboiy Bahouddin Naqshbandga mansub ekanligi “Ruboiyoti Hoja Naqshband asarida keltirilgan.

4. Naqshbandiya ta’limotidagi rizo haqidagi tushuncha xolis mehnat qilishga undaydi. Uni targ‘ib etish hozirgi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1) رباعيات خواجه نقشبند مرتب و شارح محمد قصورى اردوبازار لاهور الدينية پبليکيشنز ۱۹۹۸ ۱۸۴ صحيفه
- (2). Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд. Форсидан таржимон, сўз боши, изоҳ ва луғат муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 335 бет.
- (3). Баҳоуддин Нақшбанд. Рубоийлар. Бухоро, “Дурдона”, 2023, 84 бет.
- (4). Баҳоуддин Нақшбанд (манбалар тахлили). Тўплаб нашрга тайёрловчи, мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи. Г.Н.Наврўзова. Т., “Sano standart”, 2019, 256 бет.
- (5). Баҳоуддин Нақшбанд. Ҳикматли сўзлар. Bahouddin Nakshband. Words of wisdom. Ҳикматли сўзларни тўловчи ва мақолалар муаллифи. Г.Н.Наврўзова, Ҳикматли сўзларни инглиз тилига таржим а этувчи З.Расулов. “Sadriiddin Salim Vuxoriy”. “Durдона”, 2020, 52 бет.
- (6). Бертельс Е.Э. Четверостишия Шейха Нажм ад-Дина Кубра. Суфизим и суфийская литература. Москва, 1965, с. 324–328.
- (7). Донишмандлар тухфаси. Рубоийлар. Тошкент, “O‘zbekiston“, 2009, 101–107-бетлар.
- (8). Нажмиддин Кубро. Рубоийлар (Ж.Камол таржимаси). 333 рубоий. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 49–53-бетлар.
- (9). Нажмиддин Кубро. Жамолнинг менга бас. Рубоийлар. Форсидан М.Абдулҳаким таржимаси. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994, 64-бетлар.
- (10). Наврўзова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Тошкент, “Фан”, 2005, 233 бет.
- (11). Наврўзова Г.Н. Нақшбандия – камолот йўли. Тошкент, “Фан”, 2007, 189 бет.
- (12). Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд (рисола). Т., “ABU MATBUOT-KONSALT” нашриёти, 2011, 24 бет.
- (13). Наврўзова Г.Н. Абдулҳолик Ғиждувоний. Самарқанд, “Имом Бухорий халқаро маркази” нашриёти, 2020, 108 бет.
- (14). Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. Т., “Фан”, 2021, 244 бет.
- (15). Navruzova G.N. Bahauddin Naqshband – the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (maxsus son), 2020. 5 – 8-бетлар.
- (16). Наврўзова Г.Н. Шукроналик – инсон камолотининг асоси. Imom Vuxoriy saboqlari. 2023, № 3, 121–123-бетлар.
- (17). Наврўзова Г.Н. Нақшбандия таълимотида ризо тушунчаси. “Islom tafakkuri”, 2022, 2-сон, 39–46-бетлар.
- (18). Наврўзова Г.Н. Бухорои шарифнинг етти пири ҳалол тушунчаси хусусида. Imom Vuxoriy saboqlari. 2022, 4-сон, 51 – 52-бетлар.
- (19). Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд рубоийларида инсонни руҳий мувозанати масаласи. Interpretation and researches. Volume 1 issue 22. 30.12.2023, p. 171 – 176.
- (20). Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд таълимотида суҳбат тушунчаси. Interpretation and researches. Volume 2 issue 1(23). 30.01. 2024, p. 19 – 22.
- (21). Наврўзова Г.Н. Нақшбандия: Нақшдан бенақш сари йўл. Interpretation and researches. Volume 2 issue 8(30). 10.05.2024, p. 219 – 225.
- (22). Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд маънавий меросининг янги қирраси. “Islom tafakkuri”, 2024, 1-сон, 3 – 7-бетлар.
- (23). Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд рубоийларидаги инсон тушунчасининг фалсафий тахлили. “Islom tafakkuri”, 2024, 2-махсус сон, 49 – 53-бетлар.
- (24). Наврўзова Г.Н. Нақшбандия – хушёрлик йўли. Т., “Фан”, 2024, 184 бет.
- (25). Рисолаҳои пирон ва пайравони тариқати Нақшбандия. Душанбе, 2017, 456 бет.

(26). Салоҳиддин ибн Муборак ал-Бухорий (1410). Анис ат-толибин ва уддат ас-соликин. Бухоро музеи 27772/11 қўлёзма 168 в.

(27). Фаҳруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт («Обихаёт томчилари»). Тарихий-маърифий асар. Табдил килувчилар, нашрга тайёрловчилар: М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ, Масъул муҳаррир: Б.Умрзоқ (ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти). Т., Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004, 536 бет.

**Xoʻjiyev Tunis Nurkosimovich (Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti “Huquqiy fanlar” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori)
MODERNIZATSIYANI TUSHUNISHGA OID YANGI TENDENSIYALAR**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy rivojlanishga oid “formatsion yondashuv” fenomenining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali uning tushuncha sifatidagi mazmuni ochib beriladi. Jumladan, ijtimoiy rivojlanishning formatsion nazariyasiga oid kategorial apparat uning tarixiy-siyosiy, metodologik jihatlarini, shuningdek, formatsion yondashuvga koʻra, jamiyat taraqqiyotining bosqichlari, ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish vositalarining transformatsiyasiga koʻra belgilanishi ochib berilgan. Bunda ijtimoiy munosabatlar, xususan, jamiyat hayotining maʼnaviy sohasi yuqorida aytib oʻtilgan fenomenlar transformatsiyasiga koʻra determinlashuvi koʻrsatilgan. Bundan tashqari, konvergensiya nazariyasi industrial va postindustrial nazariyalari formatsion yondashuv metodologiyasi asosida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: modernizatsiya, ijtimoiy rivojlanish, formatsion yondashuv, konvergensiya nazariyasi, postindustrial jamiyat, Xitoy modernizatsiyasi, Yapon modernizatsiyasi.

**Хожиев Тунис Нуркосимович (Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доцент кафедры «Юридические науки» факультета социальных наук, доктор философии (PhD)
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ПОНИМАНИИ МОДЕРНИЗАЦИИ**

Аннотация. В данной статье раскрывается его содержание как понятия путем анализа основных особенностей феномена «формационного подхода» к общественному развитию. В частности, раскрывается категориальный аппарат формационной теории общественного развития, ее историко-политический, методологический аспекты. Также согласно формационному подходу выявлено, что этапы развития общества определяются трансформацией средств производства. В нем раскрывается детерминация общественных отношений, в частности, духовной сферы жизни общества, согласно трансформации названных явлений. Кроме того, на основе методологии формационного подхода были проанализированы теория конвергенции, индустриальные и постиндустриальные теории.

Ключевые слова: модернизация, социальное развитие, формирующий подход, теория конвергенции, постиндустриальное общество, Китайская модернизация, Японская модернизация.

**Xhojiyev Tunis Nurkosimovich (National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Associate Professor, Department “Legal Sciences”, Faculty of Social Sciences, Doctor of Philosophy (PhD)
NEW TRENDS IN UNDERSTANDING MODERNIZATION**

Annotation. This article reveals its content as a concept by analyzing the main features of the phenomenon of “formational approach” to social development. In particular, the categorical apparatus related to the formational theory of social development, its historical-political, methodological aspects are revealed. Also, according to the formational approach, it is revealed that the stages of the development of the society are determined according to the transformation of the means of production. It reveals the determination of social relations, in particular, the spiritual sphere of society's life, according to the transformation of the above-mentioned phenomena. In addition, convergence theory, industrial and post-industrial theories were analyzed based on the methodology of the formation approach.

Key words: modernization, social development, formative approach, convergence theory, post-industrial society, Chinese modernization, Japanese modernization.

Kirish (Introduction). Ijtimoiy gumanitar fan sohalariga oid tadqiqotlarda ijtimoiy rivojlanish kategoriyasini tushuntirishga qaratilgan xilma-xil paradigmalar yondashuvlarini uchratish mumkin. Ularning har birida ayni kategoriyaning mazmunini tashkil qiluvchi muayyan belgilar dominant qilib olingan holda butun boshli kishilik jamiyati taraqqiyoti tushuntirib beriladi. Bu esa bir jihatdan ijtimoiy taraqqiyot kategoriyasini yaxlit va kompleks tarzda tushunishga imkon bersa, boshqa tomondan esa bunday yondashuvlarning birontasini mutlaqlashtirish ushbu kategoriya mazmunini bir yoqlama cheklangan tarzda tushunishga olib kelishi mumkin. Turli metodologik chalkashliklarning oldini olish maqsadida mazkur tadqiqot predmeti doirasida nazarda tutiladigan ijtimoiy rivojlanish kategoriyasining chegaralarini muayyan darajada

freyming metodini qo'llagan holda chegaralab olish uning evolusiyasini esa ayni belgilab olingan pozitsiya nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish talab qilinadi.

Mazkur tadqiqot predmeti doirasidan kelib chiqqan holda, ijtimoiy rivojlanish kategoriyasi deganda o'tmishdagi biror-bir holat yangi tizim taraqqiyotining hech bir bosqichida to'laligicha qayta takrorlanmaydigan qolaversa, vaqt o'tishi bilan muayyan sohaga oid tizim parametrlari tobora yangi daraja kasb etib borishiga yo'nalgan jarayon tushuniladi. Bular sirasiga iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sib borishi, texnik taraqqiyot, aholi sonining oshib borishi kabilarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, alohida sohalarga oid parametrlar o'sish sur'atlarining tezlashishi tabiiy ravishda tizim umumiy holatining ham yaxshilanib borishiga, jumladan, jamiyatda ijtimoiy tenglik holatining mustahkamlanishi, demokratik jarayonlarning yangicha sifat ko'rsatkichlari kasb etib borishiga olib keladi. Ziddiyatlar yangi ijtimoiy hayot shakllari, aholi ijodiy qobiliyatlarini yirik innovatsion tashkillashishga yo'naltirish kabi tizimning immanent xususiyatlari orqali hal qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ijtimoiy rivojlanish qadimdan to bugungi kungacha tarix falsafasi konsepsiyasi doirasida keng muhokama qilingan. Jumladan, formatsion yondashuv metodologiyasi asosida Rostow W., Rothbard M., Stepin B.C., Field A., Bell D. kabi olimlar tadqiqotlarida ijtimoiy rivojlanish jarayonlari konseptual jihatdan asoslangan. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda konvergensiya nazariyasi industrial va postindustrial ijtimoiy rivojlanish modellari formatsion nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ijtimoiy rivojlanish konsepsiyalarini tadqiq etishga qaratilgan izlanishlarda quvib yetish modernizatsiya modeli yetakchi, ammo yagona bo'lmagan model sifatida o'rganilib kelindi. Sodaroq qilib aytganda, quvib yetish modernizatsiya modeli tushunchasi o'z mazmunida nog'arb mamlakatlarning to'laqonli ularning yo'lidan bormasdan G'arb mamlakatlari bilan tenglashish, hatto ularni quvib o'tish kabi g'oyalarni qamrab oladi [1;68-b.].

Vesternizatsion va quvib yetish modernizatsiya modellari imkoniyatlarini chuqur tahlil etgan S. Xantington o'z izlanishlarida modernizatsiyaning bir nechta yo'lini ko'rsatib o'tadi. S.Xantington tomondan keltirib o'tilgan birinchi yo'l modernizatsiyasiz vesternizatsiya. Ammo ijtimoiy rivojlanish konsepsiyalarini tadqiq etishga qaratilgan aksar metodologik yondashuvlarda vesternizatsiya va modernizatsiya tushunchalari muayyan darajada yaqinlik, hatto aynanlik kasb etishi ta'kidlanganligini hisobga olinsa, mazkur yo'l bir qarashda mantiqiy izchilikka nomuvofiqdek taassurot qoldiradi. Ijtimoiy rivojlanish konsepsiyalari tadqiqiga qaratilgan izlanishlar natijalari hosil qilgan metodologik steriotiplarga tayanilsa, modernizatsiya va vesternizatsiya o'zaro hajm va mazmun nuqtayi nazardan biri-birini taqozolovchi kategoriyalar bo'lib, ularning bir-birini istisno qilishi nazariy jihatidan deyarli imkonsiz. Ammo emperik voq'elik ayni nazariy steriotipga nomuvofiq holatlarni yuzaga chiqarayotganligiga guvoh bo'lish mumkin. Modernizatsiyasiz vesternizatsiya G'arb jamiyati hayotining tamoyillari va madaniy o'ziga xosliklarini anglamagan holda uning elementlarini o'zlashtirish – ko'r-ko'rona taqlid qilishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, muayyan jamiyatni modernizatsiyalamasdan g'arblashtirish deganda u ta'sirlangan zamonaviy elementlarni qisman bo'lsa-da, o'zlashtirmasdan turib, lokal qadriyatlar tizimini vayron qilishni anglatadi. Ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tmay turib, eski an'anaviy jamiyatni vayron qilgan jamiyatlar buning yaqqol misoli bo'la oladi. Misr va Filippinda amalga oshirilgan g'arblashtirish jarayonlari buning yaqqol namunasi. Go'yoki, Filippinda amerikacha turmush tarzini o'zlashtirishga ko'maklashuvchi kishilar bordek edi, ammo ko'plab urinishlarga qaramasdan, Filippinda g'arbona kapitalistik munosabatlar yuzaga kelmadi. Aksincha, Filippin va Misrda qashshoq, rivojlanmagan qoloq jamiyatlar shakllandi [2;75-b.].

Ikkinchi yo'l esa vesternizatsiyasiz modernizatsiya deb ataladi. Garchi ijtimoiy rivojlanish konsepsiyalariga oid an'anaviy tadqiqotlarda vesternizatsiyasiz modernizatsiyaning imkoni yo'qligi ta'kidlansada, bu yangi yo'l sifatida ilmiy iste'molga kirib keldi. Ayrim tadqiqotlarda mazkur yo'l postmodernizatsiya deb ham ataladi. Mazkur yo'lni o'zida muvaffaqiyatli qo'llagan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida sanoat ham o'ziga xos yo'nalishda taraqqiy etdi. Sodaroq qilib aytganda, ushbu mamlakatlar o'z jamiyatlarini identiklik xususiyatlarini saqlagan holda modernizatsiyalasha oldilar. Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyadagi Amerika bosqinchilik rejimi militaristik ong vositasi sifatida kollektiv tuzilmalarning parchalanishini talab qilgan holda, liberallashtirish jarayonlari boshlandi, bu esa modernizatsiyaga emas, shunchaki an'anaviy jamiyatning yo'q qilinishiga olib keldi.

XX asrning 50-yillariga kelib, yapon sotsiologlari yangicha modernizatsiya loyihagini ilgari surdilar. Yapon jamiyatida hukmron qadriyatlar tizimini sindirmasdan davlat maqsadini o'zgartirish lozim, zero, jamoat tuzilmalari davlatga jiddiy ta'sir ko'rsatish kuchiga ega degan g'oya ayni modernizatsiya dasturining asosini tashkil qildi. Ular piramidasimon ierarxik tuzilmaga ega bo'lganligi tufayli piramidaning cho'qqisida turuvchi boshqaruv ta'siri osongina pastga tushadi. Yaponiya tarixidan ma'lumki, ba'zi davrlarda uni bor-yo'g'i o'nta amaldor boshqargan. Yapon modernizatsiya dasturining o'ziga xos jihati shunda ediki, u liberalizmni inkor qilish hamda jamoaviy mahsuldorlikni qo'llab-quvvatlash g'oyasiga tayanar edi. Yuqorida ham ta'kidlanganidek, yapon jamiyati o'z qadriyatlar tizimini sindirmasdan davlat maqsadlarini o'zgartira olgani uchun ham muvaffaqiyatli modernizatsiyani amalga oshira oldi. Sodaroq qilib aytganda, yapon madaniyati modernizatsiya vazifalariga moslashtirilgan holda o'zgartirilmadi, aksincha, mamlakatni modernizatsiyalash tarafdori bo'lgan elita yapon madaniyatiga moslashdi. Mazkur elitaning islohotchilik harakatlarini qadimgi yunon islohotchisi Solonning faoliyatiga o'xshatish mumkin. Undan sening qonunlaring oqilonami deb so'rashganda, ha, mening qonunlarim oqilon, chunki xalq mazkur qonunlar asosida hayot kechira oladi. Xalqni o'zgartirish, yangi qonunlarga amal qilishlari uchun ularni qayta tarbiyalash kerak, degan mulohazaga asoslanib, xalq o'rganmagan va yashay olmaydigan qonunlar joriy etilsa, unda hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi, deb javob bergan edi.

Xuddi Solon ta'kidlaganidek, yaponlar ham o'z madaniyatlarini o'zgartirmagan holda, yangi narsalarni ishlab chiqarish va texnika inqilobini amalga oshirishga erishdilar. Yapon modernizatsiyasini tadqiq etishga qaratilgan ayrim izlanishlarda mamlakatning XX asr 90-yillaridagi inqirozi uning to'liq vesternizatsiyalashmagani omili bilan izohlaniladi. Yaponlar o'zlari hayotda kerak bo'lmagan narsalarni ishlab chiqaradilar, aholining aksariyati eski dunyoda yashaydi. Yapon modernizatsiyasini tanqid qilishga qaratilgan tadqiqotlarda ayni loyihaning muvaffaqiyatiga qaramasdan imkoniyatlari cheklanganligi ta'kidlanadi.

Xantington tomonidan taklif qilingan modernizatsiyaning uchinchi – quvib yetuvchi modernizatsiya shaklida modernizatsiya va vesternizatsiya miqdor jihatdan bir xil nisbatga ega bo'ladi. Xantingtonning fikriga ko'ra, ayni modernizatsiya shaklining tatbig'i Rossiya, Turkiya, Meksika va boshqa mamlakatlar taraqqiyot modelida o'z aksini topadi. Shuningdek, mutafakkuirning ta'kidlashicha, bir qancha muvaffaqiyatli natijalarga qaramasdan, mazkur modernizatsiya modeli oxir-oqibatda mamlakat taraqqiyotini boshi berk ko'chaga olib keladi. Ma'lumki, G'arb jamiyatining o'zi bugungi kunda tezkor va doimiy transformatsiya jarayonini boshidan kechirmoqda, quvib yetuvchi modernizatsiya modelini tatbiq qilayotgan mamlakatlar esa G'arb taraqqiyotining aynan qaysi bosqichiga qarab mo'ljal olish kerakligini aniqlashga imkon bermaydi. Natijada esa bu muayyan jamiyatdagi rekultimizatsiya jarayoni, aniqrog'i, madaniy o'zlikning tezkorlik bilan og'riqli tarzda inkor qilinishiga olib keladi. Oqibatda ijtimoiy ongda inqiroz hosil qilgan rekultimizatsiya tufayli modernizatsiya qabul qilinmaydi. Modernizatsiya modelining ijtimoiy ongda ijobiy qabul qilinmasligi esa tabiiy ravishda uning muvaffaqiyatsizligiga eski an'anaviy tizimning qo'maslashiga olib keladi. 1990-yillardagi Rossiyada ro'y bergan modernizatsion muvaffaqiyatsizlik mazkur mulohazaning yaqqol isboti bo'la oladi. Xantington tomonidan nisbatan adekvat taraqqiyot modeli sifatida ko'rsatilgan loyihani milliy modernizatsiya modeli deb atash mumkin. Unga ko'ra, mamlakat modernizatsiyalanish arafasidayoq muayyan darajada vesternizatsiya belgilarini o'zida mujassamlashtirib ulgurgan bo'ladi. Rossiya muayyan darajada vesternizatsiyalashib ulgargan bo'lsada, ayni jarayonni infratuzilma, demokratik institutlar va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini G'arb standartlaridan ta'sirlanish darajasiga yetkazish lozim. Bugungi kun Rossiya voqeligi nuqtayi nazardan vesternizatsiya deganda ayrim g'arbona standartdagi iqtisodiy islohotlar hamda ayrim siyosiy institutlar transformatsiyasi tushuniladi. Ayrim G'arb mualliflarining tadqiqotlarida demokratiya G'arb kapitalizmining abadiy yo'ldoshi bo'lmaganligi tufayli uning ham transformatsiyaga uchrashi haqidagi g'oyalar ilgari surilmoqda. Tarixdan ma'lumki, 30 yillik urush oqibatida paydo bo'lgan Vestfal xalqaro munosabatlar tizimi milliy davlatlarni yuzaga keltirganida hali demokratiya haqida tasavvurlar shakllanmagan edi. Filadelfiya kongressidan so'ng AQSHda yuzaga kelgan Filadelfiya xalqaro munosabatlar tizimida demokratiya ustuvor ahamiyat kasb etdi. Ammo globallashuv jarayoni tufayli nafaqat Vestfal xalqaro munosabatlar tizimi, balki Filadelfiya xalqaro munosabatlar tizimi ham transformatsiyaga uchramoqda. T.Inoguchining ta'kidlashicha, G'arbda ham demokratiyaning transformatsiyaga uchrayotgani hisobga olinsa, demokratiya fetishi islohotlar uchun asos bo'la olmaydi [3; 216-b.]. Ammo shunga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlar o'z oldilariga jamiyatni demokratlash-tirish vazifasini qo'yadilar. Qizig'i shundaki, istalgan rivojlanayotgan mamlakat G'arbdagi tayyor, hozirgi kunda amal qilayotgan demokratik, boshqaruv, iqtisodiy, ta'lim tizimlarini o'zida joriy qilishi mumkin. Ammo bu o'sha mamlakatning g'arbona standartlar asosida transformatsiyalashganligini anglatmaydi. Chunki G'arbnig o'zi ham vaqt sayin transformatsiyalashib bormoqda. Muayyan rivojlanayotgan mamlakat

kat esa G'arb taraqqiyotining muayyan bosqichidagina amal qilgan standartlarni o'zlashtiradi. Shundan kelib chiqqan holda, Xantington mamlakat muayyan darajada vesternizatsiyalashgach milliy taraqqiyot yo'lidan ketishi yoki o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, modernizatsiya modelini shakllantirishi zarur ekanligi g'oyasini ta'kidlaydi. Ayni o'rinda, milliylik tushunchasi etnotsentrik ma'noda tushunilmasligi kerak. U zamonaviy geosiyosatning o'ziga xos birligi sanaluvchi milliy davlat ma'nosida tushunilishi lozim. Sodaroq qilib aytganda, ayni o'rinda biror-bir millat haqida emas. Aynan bir nechta xalqlar va millatlardan tashkil topishi mumkin bo'lgan milliy davlat haqida so'z bormoqda. Masalan, Germaniya, O'zbekiston, AQSH, Turkiya kabi mamlakatlarda faqatgina olmon, o'zbek, turk millatiga mansub millat vakillari yashamaydi. Ularning har biri ko'p millatli mamlakatlar bo'lib, ayni davlatlarning milliy manfaatlarini deganda o'sha mamlakatga tegishli barcha fuqarolarning umumiy manfaatlarini jamlanmasi tushuniladi. Muayyan darajada vesternizatsiya amalga oshirilgandan so'ng, milliy taraqqiyot yo'lini boshdan kechirish g'oyasi modernizatsiyaning xilma-xil turlari mavjud bo'lishi mumkinligini nazarda tutadi.

Xantington tomonidan ilgari surilgan sivilizatsiyalarning ehtimoliy to'qnashuvi konsepsiyasining eng zaif nuqtasi o'laroq, jiddiy qarshiliklarga uchragan mazkur g'oya, keyinchalik, yangicha ijtimoiy o'zgarishlarda ham, yangi nazariy yondashuvlarda ham o'z tasdig'ini topdi. Sh.Ayzenshtadt tomonidan ilgari surilgan ana shunday konsepsiyalardan birida globallashuv sharoitida doimiy transformatsiyalashuv jarayonini boshidan kechirayotgan G'arb endi avvalgidek, universal taraqqiyot namunasi bo'la olmaydi. Unga ko'ra, har bir jamiyat o'ziga qanday modernizatsiya modeli mos kelishini o'zi hal qiladi. Shu ma'noda, lokal darajalarda shakllangan ko'plab modernizm konsepsiyalari yuzaga keladi [4;1-29-b.].

Siyosiy sohadagi g'arbone modernizatsiyaning o'ziga xos variantlaridan biri sifatida E.Giddensning uchinchi yo'l konsepsiyasini ko'rsatish mumkin. Ammo bugungi darajada siyosiy va texnologik jihatdan rivojlangan G'arb standartlarining alohida mamlakatlar hamda butun boshli global dunyo uchun universal taraqqiyot namunasi bo'la olishi masalasi hali-hanuz bahsli hisoblanadi.

Xitoy modernizatsiya modelini ham muqobil taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida tavsiflash mumkin. Ammo aksariyat neoliberalistlar mazkur g'oyani tan olmaydilar. Ammo shunga qaramasdan, milliy modernizatsiya modeli g'oyasi tufayli neoliberalizm konsepsiyasi boshi berk ko'chaga kirib qolgan edi. Kommunitizmning barham topishi neoliberalistlarga ko'ra, globallashuv jarayonini boshlab berdi. Garchi kapitalning G'arb sivilizatsiyasi doirasidagi amal qilishi natijasida mazkur fenomenning ijtimoiy substansional xususiyati kengayib borgan bo'lsa-da, globallashuv jarayoni oqibatida u o'zining sivilizatsiyaviy xarakterini yo'qotdi. Aniqrog'i, kapital va kapitalistik iqtisodiy tartibot faqatgina G'arb sivilizatsiyasining zaruriy elementi ekanligi borasidagi tasavvurlar asta-sekin barham topa boshladi. Jumladan, A.I.Fursov o'zining "Tarix qo'ng'irog'i" asarida ta'kidlaganidek, kapital o'zining ijtimoiy substansional xususiyatini yo'qota borib, u amal qiladigan sotsiomadaniy muhitdan qat'iy nazar, faqatgina iqtisodiy ma'no kasb etib, moddiy farovonlikning oshishi kapitalning ko'payishini anglatuvchi kategoriya mazmunini kasb etdi. Sodaroq qilib aytganda, globallashuv davriga kelib, kapital kategoriyasining mazmunidan lokal sivilizatsiyaviy hamda ijtimoiy substansional xususiyatlarni nazarda tutuvchi belgilar chiqib ketib, kapitalistik-iqtisodiy ma'no yuklovchi belgilargina muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Maks Veberning protestantlik axloqi g'oyalari ta'yanagan g'arbone kapitalizmning dastlabki talqini, keyinchalik, ayni sivilizatsiya tarkibidagi boshqa diniy oqimlarga e'tiqod qiluvchi mamlakatlardagi amaliyotning ta'siri natijasida ratsional mazmun kasb eta bordi. Qolaversa, ayni kategoriya mazmuniga E.Dyurgeym tomonidan ilgari surilgan mehnat taqsimoti va mexanik xayrixohlikdan organik xayrixohlikka o'tish g'oyasi ham kirib bordi. Shuningdek, kapital kategoriyasi mazmunining transformatsiyalashuv jarayonida Verner Zombartning ayni kategoriya tadqiqiga qaratilgan yondashuvi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Unga ko'ra, kapital o'zi amal qiladigan sotsio-madaniy muhitdan qat'iy nazar, nafaqat halol mehnat bilan urush, talon-taroj qilish, o'g'irlash kabi nopok yo'llar bilan ham to'plangan moddiy boylikni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, Verner Zombart o'zining zamonaviy kapitalizm asarida kapitalizmning genezisi, evolutsiyasi, uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan xilma-xil, jumladan, ijobiy va salbiy omillarni kompleks tadqiq etgan holda, ayni iqtisodiy tartibot faqatgina pozitiv hamda faqatgina negativ xususiyatlar bilan ro'y bermasligi mazkur jihatlarning uning ajralmas, elementi ekanligi to'g'risidagi xulosani ilgari surdi. Neoliberalizm AQSHda neokonservatorlarni shakllantirgan bo'lsa, post-kommunistik mamlakatlarda esa g'arbone modernizatsiyani quvib yetish bilan bog'liq keskinlik talablariga bardosh bera olmaslik, natijada kapital ishlab chiqarishning adekvat ijtimoiy madaniy muhitini nazardan soqit qiluvchi avtohton rivojlanish ko'rinishlariga qaytish kabi tendensiyalarni yuzaga keltiridi. Ammo globallashuv sharoitidagi empirik voqelik shuni ko'rsatdiki, kapitalizm rivoji natijasida G'arb va nog'arb sivilizatsiyalar o'rtasidagi farq birmuncha minimallasib, G'arb tamaddunining o'zi ham umumjahon madaniy iqtisodiy tizimining hamma bilan teng alohida mavqe kasb etmaydigan qismiga aylanib bor-

moqda. Bu boradagi tadqiqotlarda sharqona tafakkurni G'arb sivilizatsiyasi standartlariga moslashtirish, ayniqsa, siyosiy tizimlarni vesternizatsiyalash natijasida G'arbnig yetakchilik sahnasidan siqib chiqarilishi hamda globalizatsiyaning ro'y berishi neoliberalizm g'oyalarning ham nazariy, ham amaliy kamchiligi sifatida ko'rsatiladi. Globalizatsiya deganda liberalizmning umumjahon g'alabasi natijasida lokal sivilizatsiyalarning ham G'arb sivilizatsiyasi singari rivojlanishi tendensiyasi ro'y berib, ular ham huddi G'arb tamadduni singari yetakchi mavqe kasb etib borishi tushuniladi. Ayni jarayon, V.G.Fedotova ta'kidlaganidek, vesternizatsion modernizatsiya standartlarini lokal xususiyatlarga bo'ysundirgan holda, qabullash va joriy qilish orqali ro'y beradi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida muvaffaqiyatli amalga oshirilgan modernizatsiya loyihalari ayni mafkuraviy instrument orqali joriy qilingan. Natijada esa, yuqorida ham ta'kidlanganidek, liberalistik taraqqiyot standartlarini lokal xususiyatlarga bo'ysindirish orqali modernizatsiyalangan mazkur mintaqa mamlakatlari bugungi kunda nafaqat G'arbiga tobelikdan xalos bo'ldilar, balki unga teng kuchli, hatto uning yetakchilik mavoyiga soya solish potensialiga ega davlatlarga aylandilar. Xitoy buning yaqqol misoli bo'la oladi [5;16-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xitoy modernizatsiya modelining muvaffaqiyati mazkur mamlakatning faqat xitoycha va faqat ameikacha standartlarni joriy qilishga intilmasdan, o'z sivilizatsiyalarining lokal xususiyatlari bilan AQSH taraqqiyoti elementlarini uyg'unlashtirishga intilganliklari bilan belgilanadi. Xitoy modernizatsiya modelining asoschilari ayni loyihani ishlab chiqish va joriy qilishda katta miqdordagi aholi soni, o'sha vaqtdagi iqtisodiy ahvolning yomonligi, tabiiy resurslarning yetarli emasligi hamda islohotlar nuqtayi nazaridan, kompetent kadrlarning kamligi singari qator omillarni ko'zdan qochirmaganlar. Ayni omillar tabiiy ravishda Xitoyda qat'iy markazlashgan avtoritar tizimni joriy qilish zaruratini yuzaga chiqardi. Qolaversa, Xitoy islohotchilari modernizatsiya muayyan chiziqli vaqt orasida amalga oshiriladigan hodisa emas, balki uzoq vaqt davom etadigan jarayon ekanligini chuqur anglagan holda faoliyat olib borganlar. Qolaversa, islohotchilar o'rtasida hamfikrlilik va hamjihatlilik, shuningdek, o'zaro uyg'un manfaatdorlikning mavjudligi ham ayni modernizatsiya loyihasining to bugungi kunga qadar muvaffaqiyatli amalga oshib kelishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Den Syaopin yetakchiligidagi islohotlar harakati, eng avvalo, iqtisodiy sohadagi modernizatsiya jumladan, chekka qishloqlardagi sharoitlarni yaxshilash va ularni rivojlantirishdan boshlangan. Dastlab, modernizatsiya jarayoni islohotlar haqidagi nazariy tasavvurlarni transformatsiyalashdan boshlanib, uning avvalida madaniy inqilob davrida izdan chiqqan sotsialistik iqtisodiyotning rejalashtirish tamoyilini qayta joriy qilish masalasi kun tartibiga chiqdi. Keyinchalik esa mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida birgina rejali iqtisodiyotning yetarlicha samara bermasligi anglangan holda, unga ustunlik bergan holda bozor taomillarini ham joriy qilish g'oyasi ilgari surila boshlandi. Bu esa, tabiiy ravishda, sotsialistik bozor iqtisodiyoti deb ataluvchi yangicha faqat Xitoygagina xos modernizatsiyalash instrumentini yuzaga chiqardi. Xitoy modernizatsiya modelini ochib berishga qaratilgan yuqoridagi mulohazalar tahlillarini umumlashtirib shuni aytish mumkinki, u o'zida tadriziylik hamda lokal xususiyatlarni nazarda tutish singari muhim elementlarni mujassamlashtirgan. Xitoy ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasining yuqorida ta'kidlangan ikki elementini modernizatsiya va inqilob o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi belgi sifatida tavsiflash mumkin. Aniqrog'i, bu milliy modernizatsiya jarayonlarining oltin qoidasi bo'lib, unga ko'ra, modernizatsiya suvratlarini aholi qobiliyatlari, ayniqsa, islohotlarga moslashish tezligiga mutanosib ravishda muvofiqlashtirish talab qilinadi. Ayni qoida modernizatsiya nazariyalari sohasidagi mumtoz tasavvurlarning transformatsiyaga uchrab, chiziqli xarakter kasb etuvchi vesternizatsiyaga muqobil nohiziqli quvib yetuvchi sharqona modernizatsiya modellari ham bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashlarning shakllanishiga olib keldi. Bu borada Tu Veyminning Xitoy modernizatsiya modeli haqidagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi [6;236–250-b.].

Xitoy modernizatsiyasining mafkuraviy motivlarini tahlil qilgan tadqiqotchi ayni rivojlanish konsepsiyasining iqtisodiy va ma'naviy muvaffaqiyati zamirida mamlakat elitasi va aholisining o'zaro uyg'unlikdagi ifodasi o'laroq shakllangan Xitoy ijtimoiy ongida mustahkam o'rnashgan konfutsiyachilik g'oyalari yotishiga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, Xitoy shunchaki o'zgarishlar ortidan quvmasdan, Yaponiyaga taqlidan Xitoyning G'arb mamlakatlari bilan raqobati nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda "qishloq xo'jaligi yoki sanoat", "kapitalizm yoki sotsializm", "sharq madaniyati yoki G'arb ta'limi" singari rivojlanish antinomiyalariga qanday munosabatda bo'lish lozimligi masalasini jiddiy muhokama qildi.

Bundan tashqari, Xitoyda amalga oshgan islohotlar jarayonini milliy modernizatsiya modeli sifatida tavsiflashga xizmat qiluvchi G'arb mamlakatlarini quvib yetish emas, ular bilan raqobatlasha olishga bo'lgan intilish, Xitoy madaniyatining yengilmas ekanligiga ishonch tuyg'ulari, qolaversa, mamlakat miqyosidagi ulkan ochlikni bartaraf etish maqsadida qishloq xo'jaligi tizimini tubdan yangilash vazifasi kabi belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'rinib turibdiki, nohiziqli sharqona modernizatsiya modellarning

muvaqqiyatli amalga oshishida nafaqat turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy ruhdagi instrumentlar, balki mafkuraviy mexanizmlar va ularning falsafiy-tarixiy asoslari ham katta ahamiyat kasb etgan. “Biz qiyin vaziyatdamiz...biz, garchi eski bo‘lsa-da, yengib bo‘lmas, “an’anaviylik va zamonaviylik”, “g‘arb va no-g‘arb”, “lokal va global” ko‘rinishdagi rivojlanishning 3 dixotomiyasi qarshisida turibmiz”, deb ta’kidlaydi Tu Veymin. Rostan ham yangi zamonaviylik bosqichiga chiqish uchun G‘arb an’analarga ehtiyoj sezadi. O‘z navbatida, nog‘arb mamlakatlarni qayta madaniylashtirish ham imkonsiz.

“Sharq intellektuallari g‘arbning taraqqiyotga oid ta’limotlarini diqqat bilan o‘rgandilar. Yapon-sa-muray byurokratlari fan, texnologiya va siyosiy boshqaruv sohasida yevropaliklar, keyinchalik, amarikalik-lardan uslubiy jihatdan ta’sirlandilar. Xuddi shunday, xitoylik olim-amaldorlar, koreys o‘rmon ziyolilari hamda vyetnam donishmandlari ham o‘zlarining hozirgi sotsiumlarini g‘arbna standartdagi bilimlar aso-sida shakllantirdilar. Keng ko‘lamli, ba’zan esa har tomonlama g‘arbiylashtirishga sodiqlik ularga iqtisodi-yot, siyosat va ijtimoiy tizimni o‘zlariga ilg‘or deb hisoblagan modellar bo‘yicha qayta qurish imkonini berdi” deb yozadi Tu Veymin [7,;236–250-b.].

Ammo Osiyo mamlakatlari mazkur innovatsiyalarni o‘zlarining madaniyatlari hamda ularning nati-jalarini mahalliy sharoitlariga moslashtirish, shuningdek, vesternizatsiyaga barham berishga ehtiyoj sezar-dilar. Chunki ular ayni modernizatsion yo‘lni mahsuldor rivojlanish konsepsiyasi deb hisoblaganlar. Bu esa, o‘z navbatida, Tu Veymin keltirgan antinomiyalarning rostdan ham eskirganligidan dalolat beradi. Garchi u modernizatsion loyihalar bugungi kunga kelib pluralistik xarakter kasb etishini tak’kidlasa-da, konfutsiychilik qadriyatlarini g‘arb uchun ham foydali bo‘lishini aytib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Федотова В.Г., Колпаков В.А., Федотова Н.Н. Глобальный капитализм. Три великие трансформации. Социально-философский анализ взаимоотношения экономики и общества. Культурная революция. 2008.
- (2). Huntington S. The Clash of Civilization and the Remaking of World Order. N.Y., p. 75.
- (3). The Changing Nature of Democracy. Ed. By Inoguchi T., Newman E., Rtane J. Tikio, N.Y.–Paris, United Nations University Press, 1998.
- (4). Eisenstadt S.N. Multiple Modernities. Daedalus, Vol. 129, № 1, Multiple Modernities (Winter, 2000), pp. 1–29.
- (5). Федотова В.Г. Будущее капитализма в исторической перспективе. “Политический класс”, 2006, № 8.
- (6). Ту Вэймин. Множественность модернизаций и последствия этого явления для Восточной Азии. В кн.: “Культура имеет значение. Каким образом ценности способствуют общественному прогрессу”, М., Московская школа политических исследований. Под ред. Л.Харрисона и С.Хантингтона. 2002, с. 236 – 250.
- (7). Ту Вэймин. Множественность модернизаций и последствия этого явления для Восточной Азии. В кн.: Культура имеет значение. Каким образом ценности способствуют общественному прогрессу. М., Московская школа политических исследований. Под ред. Л.Харрисона и С.Хантингтона. 2002, с. 236 – 250.

Toshov Xurshid Ilxomovich (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa va mantiq” kafedrasi doktoranti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent) OMMAVIY MADANIYAT JAMOATCHILIK FIKRINI MANIPULATSIYALASH VOSITASI SIFATIDA

Аннотация. Mazkur maqolada ommaviy madaniyat ongni manipulatsiyalashning tasirchan vositasi ekanligi ko‘rib chiqiladi. Bunda omma olomon ommaviy ong kabi kategoriyalar tadqiqiga qaratilgan konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilingan holda ularning zamonaviy virtual jamiyatdagi voqelikka transformatsiyasi ochib beriladi. Shuningdek, ishontirish, xususan, uning emmotsional jihatlari ommaviy madaniyatdan ongni manipulatsiyalash vositasi sifatida foydalanish jarayonidagi zaruriy element ekanligiga aloxida ur-g‘u beriladi.

Калит so‘zlar: manipulyatsiya, ommaviy madaniyat, olomon, streotip qadriyatiy mo‘ljallar, auditoriyani qamrab olish, madaniy yadro, omma psixologiyasi, axloqsizlik.

Тошов Хуршид Илхомович (докторант кафедры «Философия и логика» факультет социальных наук, Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD), доцент)

МАССОВАЯ КУЛЬТУРА КАК СРЕДСТВО МАНИПУЛИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫМ МНЕНИЕМ

Аннотация. В статье рассматривается, насколько популярная культура является эффективным средством манипулирования сознанием. При этом анализируются концепции, направленные

ные на исследование такой категории, как общественное сознание масс, и раскрывается их трансформация в реальность в современном виртуальном обществе. Также подчеркивается, что убеждение, особенно его эмоциональные аспекты, является необходимым элементом в процессе использования массовой культуры как средства манипулирования сознанием.

Ключевые слова: манипуляция, массовая культура, толпа, стереотипные ценности, охват аудитории, культурное ядро, массовая психология, безнравственность.

Tashov Khurshid Ilkhomovich (National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Doctoral student, Department "Philosophy and Logic", Faculty of Social Sciences, Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor)

MASS CULTURE AS A MEANS OF MANIPULATING PUBLIC OPINION

Annotation. *This article examines how popular culture is an effective means of mind manipulation. In this, the concepts aimed at the research of categories such as the public consciousness of the masses are analyzed and their transformation into reality in the modern virtual society is revealed. It is also emphasized that persuasion, especially its emotional aspects, is a necessary element in the process of using mass culture as a means of mind manipulation.*

Keywords: *manipulation, mass culture, crowd, stereotypical values, audience coverage, cultural core, mass psychology, immorality.*

Kirish (Introduction). Ma'lumki, ongni manipulyatsiyalashda yuqtirish effekti samarador qo'llaniladigan mexanizm sanaladi. Ayniqsa, omma ongiga ta'sir o'tkazish va uni boshqarishda mazkur mexanizm manipulyatorlar tomonidan faol tadbir qilinadi. Ommaviy madaniyat orqali ko'pchilikning kognitiv tuzulmasiga ta'sir ko'rsatishda aynan yuqtirish effektiga tez murojaat qilinadi. Ommaviy madaniyat targ'iboti jarayonida insonning hissiy-emotsional aspekti nishonga olinadi. Bu orqali manipulyatorlar manipulyatsiya obyektining ratsional mushohada yuritish qobilyatlarini bloklashga intiladilar. Natijada individ dunyoqarashiga tegishli bo'lgan o'ziga xosliklar yo'qolib boradi. Ratsional tanqidiy tafakkurning ishlamasligi kishilarning individual xohish-istaklarining ham yo'qolib borishiga olib kelishi mumkin, qolaversa, omma kishiga anonim qolish imkonini ham beradi. Natijada omma tarkibida kishi yashirin istak va instinktlarini namoyon qilish imkoniga ham ega bo'ladi. Ommaviy madaniyatt targ'ibotiga qaratilgan turli kontentlar esa bunday instinktiv istaklarni g'oyaviy nuqtayi nazardan oqlab berish vositasi vazifasini bajarishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, ommaviy madaniyat ongni manipulyatsiyalash vositasi o'laroq, tadqiq etilganda sohalararo tadqiq metodiga murojaat qilish talab qilinadi. Muhimi shundaki, mazkur muammoni tadqiq etishda turli sohalarada amalga oshirilgan izlanishlar natijalarini yaxlitlashda falsafiy umumlashmalarga jiddiy zarurat seziladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Manipulyatsiya fenomeni sohalararo tadqiqot predmeti bo'lib, u psixologiya, kognitalogiya, tafakkur sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi, siyosiy fanlar kabi yo'nalishlarda keng tadqiq etilgan. Bunday tadqiqotchilar sirasiga V.I.Lashkina, T.Kun, K.Levi-Stross, V.G.Bogorod, Y.M.Boroday, B.Malinovskiy, Y.Lotman, J.Gelbreyt, H.Vilenskiy, J.Berting, G.Markuze, N.Limnatis, D.Barneyni kiritish mumkin. Ammo mazkur fenomen falsafiy jihatdan keng o'rganilmagan. Bu borada amalga oshirilgan kam sonli tadqiqotlar sirasiga Kara-Murza, P.P.Garifullin, E.L.Dotsenko, S.A.Zelinskiy, G.Shiller, E.Shostromning tadqiqini qayd etish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). XIX asrning oxiriga kelib, falsafa, psixologiya, madaniyatshunoslik fanlari doirasida omma ongi muammosi dolzarb masalalardan biriga aylandi. G.Le Bon o'zining mashhur "Omnia psixologiyasi" asarida qisqa muddat mobaynida insonlar jamoasidan tashkil topuvchi olomon, omma fenomening o'ziga xos xarakterini quydagicha baholaydi.

"Olomon ichida ongli shaxs g'oyib bo'ladi, zero, barcha alohida indvidlarning hissi va aqli idroki bir tomonga yo'naladi. Vaqtincha, lekin o'ziga xos aniq xarakterga ega bo'lgan jamoaviy ruh paydo bo'ladi. Olomon ichida yoki shu olomon ta'sirida bir necha vaqt bo'lgan individ gipnoz ta'siridagi kishi xolatini esga soladi. Bu ma'noda olomon shunchaki konglomerat emas, balki yangi sifatdagi tizm hisoblanadi. Unda biror yig'indi yoki uning tarkibini hosil qiluvchi alohida elementlar emas, balki ana shu elementlarning o'ziga xos yangi sifat yaratuvchi kombinatsiyasi mavjud [1;103-b].

Individ olomon ichida o'zida yengib bo'lmas kuchni anglaydi, shu bois u shu his ta'sirida yolg'iz qolganda hech qachon amalga oshira olmaydigan instinktlariga beriladi. Olomon ichida esa u ushbu tiyiqsiz instinktlarini boshqarishga kam moyil bo'ladi, chunki olomon anonim hususiyat kasb etadi va hech qanday

masuliyatga javobgar bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, alohida individlarni nazorat qiluvchi mas'uliyat hissi olomon ichida mutlaqo yo'qolib ketadi. Shuningdek, inson olomon ichida yuqori darajada ta'sirchanlikka moyil bo'ladi. Shu bois olomon ichida har qanday his vahxarakat yuquvchan xarakter kasb etadi. Natijada individ o'z ma'nfatlarini olomon ichida jamoa manfaatlariga qurbon qilishga ham qodir bo'ladi. Umuman olganda, ushbu xulq-atvor insoning tabiatiga zid sanaladi, lekin faqat olomon ichidagina inson, hatto o'z manfaatiga ham qarshi borishi mumkin. Mas'uliyat hissi va mustaqil harakatni yo'qotish natijasida olomon individ xulq-atvorini shu darajada o'zgartiradiki, oqibatda: xasis isrofgarga, oliyanob kishi jinoyatchiga, qo'rqoq odam qahramonga aylanadi. 1789-yil 4-avgustda yuz bergan Fransuz inqilobini tahlil qilgan tarixchi olimlar, kiborlar qadryat va an'analari shakllangan fransuzlarning hech biri alohida yolg'iz holda intuziazm ta'sirida o'sha kungidek yovuzlikni qilmagan bo'lardilar, deya baholashadi.

Bu jihatdan olomon o'ziga singdirilgan odiy va jo'n chaqiriqlarga, lekin junbushga keltiruvchi hisslarni qabul qiladi, ularga ergashadi. Olomon muayyan e'tiqod, g'oya yoki maslakni shunchaki, o'rta darajada qabul qilmaydi, zotan, u bu nuqtayi nazardan, maksimalis hisoblanadi. U yoki g'oyani butunlay inkor etadi, yoki ularga olqishlar bilan ergashadi. Bu, ayniqsa, aql mulohaza bilan qabul qilingan maslak, e'tiqoddan ko'ra, hissiy ishonirish orqali singdirilgan g'oyalarga nisbatan yuz beradi. Olomonning hislari qanday bo'lishdan? Salbiymi, ijobiymi, qat'iy nazar, unga bo'rtrirish va bir yoqlama xulosa chiqarish xos bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganidek, olomonda mas'uliyat hissining yo'qolishi bilan ta'sirchanlik ortib boradi. Shu bois unga haqiqatni bilish muhim emas. Olomon o'ziga yoqmagan haqiqatdan yuz o'girib, unga ma'qul ko'ringan yolg'on g'oyalarga ham ergashishi mumkin. Bu nuqtayi nazardan baholaganda, olomonni yolg'on bilan ergashtirganlar yo'l boshchilarga, uni ogohlikka chaqirganlar qurbonga aylanishi hech gap emas.

Le Bon olomonning o'zgaruvchan hamda yo'l boshchilardan olingan impulslarga tezda reaksiya bildirish xususiyatini ham alohida ko'rsatib o'tadi. Ayni shu jihat insonni olomon ichida chindan ham yangi sifat kasb etishi va yangi tizimning elementiga aylanishini asoslaydi. Inson o'z xatti-harakatini baholashga, qodir bo'lmaydi, u olingan qandaydir signal (chaqiriqqa) shunchaki, ko'r-ko'rona amal qiladi. Mazkur xulq-atvorni svetafor qarshisida turgan haydovchilarning xatti-harakatiga qiyos qilish mumkin. Yashil chiroq yonishi bilan haydovchilar avtomatik tarzda joylaridan qo'zg'aladilar. Ular miyaga uzatilgan muayyan signal natijasida bu harakatni amalga oshiradilar.

Yuqoridagi mulohazalarning ilmiy qiymatini yuksak baholagan holda, aytish mumkinki, Le Bon har qanday kishilar jamoasining yig'indisi olomon bo'lmasligiga diqqat qaratmaydi. Bundan tashqari u g'arb madaniyati standartlarida yashovchi individlarni ko'zda tutganligini keltirib o'tmaydi. Mazkur masalani ilk bor ispan faylasufi Xose Ortega I Goset o'zining "omma qo'zg'aloni" asarida tilga oladi. Unga ko'ra, Ortega I.Gasetning qarashlariga muvofiq, insonga aylanishga moyil individ omma tarkibiga singib ketarkan, avvalombor, u muayyan turdagi maktabda shakllanishi, o'zi yashab turgan jamiyatdagi kishilarga xos bo'lgan tafakkur tarziga ega bo'lishi lozim. Ana shu jamiyatda mavjud bo'lgan ommaviy madaniyat individning shaxs qiyofasiga kirishiga asos bo'ladi. Ushbu inson omma tarkibiga kirarkan, o'zidagi mas'uliyat hissini osonlik bilan tark etadi [2;28-b.]. Bunda unga omma yaratishda xulq-atvor texnologiyalaridan foydalanuvchi siyosiy kuchlar yordam beradi. "Misol uchun, deb yozadi I.Gasset, fashistlar sovuqqon aqlga ega nemes xalqini ana shu texnologiyalarga tayanib, olomonga aylantirdi. Ayniqsa, ular yoshlar uchun eski qadriyat va an'analarni buzib talqin qilish asnosida, axloqiy taqiq va me'yorlarni yo'qotdilar. Fashizm mafkurachilari yoshlarda komunislarning hududlarida zerikish kayfiyatini uyg'otish maqsadida, ko'cha bezorisi obrazini rag'batlantiruvchi texnologiyalarni ishlab chiqdilar. Unga ko'ra, bosib olingan hududlardagi mayda bezoriliklar, tartibsizliklar oqlab talqin etildi. Bunda ularga Gitlarning biz yosh, qiziqqon avlodimiz va dunyoni yoshartirgani keldik, degan mulohazalari g'oyaviy dastak bo'ldi" [3;43-b.].

Amerikaning yirik sotsiologlaridan biri R.Merton 1968-yilda chop etilgan "Sotsial nazariya va sotsial struktura" asarida erkin raqobatning kim o'zarlik va jinoiy harakatga moyillik uyg'otishiga diqqat qaratadi. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, an'anaviy jamiyatlarda bu hol ko'p jihatdan o'zini oqlamaydi. Chunki yirik yer egalarning qo'l ostida ishlovchi xizmatkorlar yerga munosabatda o'z xo'jayini bilan raqobat qilmaydi. Bu ma'noda Merton quyidagi mulohazalarni keltiradi: "Bizning tengliq haqidagi g'oyalarimiz raqobat qilmaydigan individ va jamoalarning mavjudligini qisman rad etadi. O'zaro raqobat haqida so'z borarkan, bunda barcha ijtimoiy guruhlar birday imkoniyatga ega. Unga ko'ra, maqsad ijtimoiy sinf ichida yoki uning chegaralaridan tashqariga chiqishi ham mumkin. Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tartibot sinflarning imkoniyatlarini cheklash yoki rag'batlantiruvchi me'yorlarni o'rnatadi. Shu bois tom ma'nodagi amerikalikka xos bo'lgan fazilat shuhratparastlik, illat, kamchilik sifatida qoralanadi" [4;68-b.].

Bundan tashqari, R.Merton olomoni shakllantirishning yana bir muhim jihatiga diqqat qaratadi. Bu ijtimoiy munosabatlarni miqlashtirish jarayoni sanaladi. Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlar sabab-oqibat bog'liqliklarini niqoblash maqsadida miqlashtiriladi. Natijada individ idroki analitik tafakkurdan ko'ra, xurofatchilikka, aniqrog'i, emotsional ta'sirlarga moyil bo'ladi. Masalan, ishchi atrofidagi o'zidan ko'ra, tajribali va malakali kishilarning ishsiz qolganligini kuzatadi. Uning ongida ishsiz qolish muvofaqiyatsizlik belgisi bo'lib aks etadi. Agar u ishlayotgan bo'lsa, demak, omadli, ishsiz qolsa, muvaffaqiyatsizlik qurboniga aylanadi. Bu o'rinda ishchi xizmat va rag'bat o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni deyarli payqamaydi. Shuningdek, R.Merton AQSH ommaviy madaniyatiga xos bo'lgan yana bir muhim jihat "qo'l mehnatini yoqtirmaslik" [5;68-b.] xususiyatini ta'kidlab o'tadi. Bu o'rinda K.Lorensning aynan qo'l mehnati individni o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitdagi qadriyat va an'analarni hurmat qilish va ularni saqlab qolishga undashi haqidagi mulohazalarini eslab o'tish maqsadga muvofiq [6;73-b.].

Omnia madaniyatini tahlil etarkan, G.Le Bon o'z davridan ilgari ketgan yana bir muhim jihatga e'tibor qaratadi. Tabiiyki, uning zamondoshlari bu jihatni to'la anglamaganliklari mumkin. Biroq bugun ommaviy axborot vositalarining taraqqiy etishi uni dolzarb muammoga aylantiradi. Unga ko'ra, olomoni yaratishda ularning a'zolari o'rtasida jismoniy yaqinlik, a'loqaning bo'lishi muhim emas. Qolaversa, deb yozadi Le Bon, minglab individlar bir-birlaridan uzoq sharoitda ham muayyan g'oya yoki maslak ta'sirida bo'lishlari mumkin. Bu, ayni paytda, minglab individlarni emotsional birlashtiruvchi ta'sir milliy birlik, diniy birodarlik, vatanparvarlik g'oyalari bo'lishi mumkin. Ularning ta'sirida butun boshli xalqlar muayyan darajada olomon kayfiyatini ifodalaydi, ular bir joyga yig'ilmay turib, olomonga aylana oladi".

Yuqorida keltirilgan Le Boning mulohazalarini aynan bugungi zamonaviy jamiyatlarning misolida kuzatish mumkin. Internet texnologiyalari xamda OAVlar ta'sirida zamonaviy jamiyat kishilari ulkan virtual olomonga aylanib bormoqda. Ular turli siyosat yetakchilari, fan va madaniyat arboblari ular bilan jismoniy kontakt qilmagan holda, tinglaydilar, munosabat bildiradilar.

AQSHlik lingvist olim N.Xomskiyning internetdagi ochiq sahifalarida quyidagi mulohazalarni kuza-tish mumkin.

Bugungi virtual olomon bundan ikki yuz yil ilgari bo'lganidek, o'z qo'li bilan Bastiliyani ishg'ol qilmaydi, qirollarning saroyiga o't qo'ymaydi. Uning infantilligi (mas'uliyatsizligining o'zi) siyosiy manipulatorlarning qo'lida yer sayyorasini yo'q qilishga qodir qurolga aylantiradi" [7;720-b.].

Arab faylasufi Samir Amin esa "yevropasentrizm tarixni ratsional tushuntirishning o'rnini egaladi, uning ichidagi xususiy, soxta, ammo bir-birini to'ldiruvchi nazariyalari zamonaviy inson ongini manipu-latsiya qilishning asosiy mafkurasiga aylandi. Natijada zamonaviy inson ongi hech qanday mas'uliyat hissi-ni qabul qilmaydigan virtual olomonning bir qismiga aylandi", deb yozadi.

Biz muhokama qilayotgan mavzu – jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilish muammosi doirasida axloqsizlik tushunchasi jamiyatda uzoq vaqt davomida o'rnatilgan axloqiy me'yorlarni buzish yoki ularni tanqid qilish bilan belgilanadi. Axloqsizlik o'rnatilgan me'yoriy qadriyatlarni buzish, an'analarni yo'qotish va mazkur xatti-harakatlarni oqlash bilan izohlanadi. Shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, xuddi organizmdagi muayyan kassalik sifatida axloqsizlik hodisasi ham jamiyat taraqqiyotida muhim rol bajaradi. Obrazli qilib ifodalaganda, ijtimoiy kassalik oqibatida xuddi hosil qilingan immunitet kabi yangi g'oyalarning asosi yuzaga keladi. Agar Yevropa tarixiga diqqat qaratsak, o'yg'onish davridagi butun boshli avlodlarning shubha ostiga olingan axloqiy me'yorlari, keyinchalik, ijtimoiy hayotda katta o'zgarishga sa-bab bo'lganini kuzatamiz. Masalan, Yevropaning an'anaviy jamiyatlarida ijtimoiy hayotning asta-sekin yangilanishida karnaval o'yinlari muhim rol bajargan. O'rta asr jamiyatida ko'ngil ochish funksiyasini ba-jarishga qaratilgan mazkur o'yinlar axloqsizlikni niqoblash, niqob taqish bilan izohlangan. Rus olimi M. Baxten o'rta asr axloqsizligi sanalgan karnaval o'yinlarini zamonaviy axloqsizlikdan quyidagi farqlarini keltirib o'tadi.

"Gunoh tushunchasini yo'qotish natijasida zamonaviy jamiyat o'ziga xos axloq me'yorlarini yuzaga keltirdi. Oqibatda an'anaviy jamiyatlarda axloqsizlik deb sanalgan jinoyatchilik, xiyonat kabi tushunchalar me'yoriy kundalik tarziga aylandi. Masalan, o'rta asrlarda rohibning joniga qasd qilish xudoga qasd qilish deb baholangan. Fohishabozlik haqida esa biror so'z aytishning o'zi ortiqcha. Sanoatlashish oqibatida XX asrda fohishalarning keng miqyosda tarqalgan kasaba uyushmalarini esga olish kifoya qiladi" [8;145-b.].

Faylasuflar zamonaviy jamiyatda ommaviy madaniyat targ'ib qilayotgan muhim elementlardan biri sifatida g'iyohvandlik muammosini ham alohida ko'rsatishmoqda. Ularning fikricha, g'iyohvandlik modda-larining bozori sun'iy tarzda kengaytirib boriladi. G'iyohvand moddalarni ishlab chiqarish va ularni tarqa-tish bilan millionlab kishilar mashg'ul. Bundan tashqari, turli madaniyat vositalari va ilm faning nufuzi yor-damida ushbu jarayonlarni qonunlashtirish hollari ham kuzatilmoqda Misol uchun, 2004-yilning oktabr

oyida Ispaniyaning Madrid shahrida o'tkazilgan "Ongni modifikatsiya qilish" masalalariga oid ikkinchi xalqaro kongressda yigirmadan ortiq mamlakatdan olimlar ishtirok etdi. Mazkur kongressda galusinatsiya qo'zg'atuvchi giyohvand moddalarni qabul qilishni qonunlashtirish masalalari muhokama etildi.

Zamonaviy jamiyatlarga an'anaviy jamiyatlarda axloqsizlik deb baholangan jinoyatchilik, fohisha-bozlik, giyohvandlik kabi hodisalarning keng yoyilishi madaniy yadroning zayiflashishiga, A.Gramshi ta'biri bilan aytganda, mavjud ustuvor an'analarning barham topishiga va manipulatsiya qilish orqali yangicha me'yorlarning o'rnatilishiga sabab bo'ldi. An'anaviy axloqiy me'yorlarning yo'qolishi va jinsiy hayotdagi inqilobiy qarashlarning yuz berganligi inson ongidagi manipulatsiyaga qarshi turuvchi psixologik himoyaning yo'qolib borishiga sabab bo'ldi.

Bu ma'noda qadriyatlarga munosabat ularni boshqa, yangi qadriyatlar tizimiga hech qanday salbiy oqibatlarisiz almashtirish qadriyatni relativizm niqobi ostida amalga oshirilishni nazarda tutadi. Qolaversa, bu jarayonlar psixologik himoyalarni yo'qotish va manipulatsiyaga moyillik kayfiyatini uyg'otish bilan olib boriladi. Insonni u yovuzlik va ezgulikni o'zaro farqlay oladigan koordinatlar tizimidan mahrum qilish uning axloqiy mo'ljallarini o'zgartirish bilan belgilanadi. Shu sabab jamoatchilik ongini manipulatsiya qilish texnologiyalari insonni aynan qadriyatni mo'ljallarini yo'qotilishini va dizarentatsiya holatiga tushishini ko'zda tutadi. Mazkur holatni yaratish maqsadida ikki bir-birini o'zaro taqozo etuvchi vositalar qo'llaniladi: birinchisi, jamiyatda sun'iy tarzda axloqsizlikka talab yaratiladi; ikkinchisi, iqtisodiy va siyosiy rag'batlantirish yordamida OAVlarni axloqsizlikni targ'ib qilishga undaladi. Natijada axloqsizlikning, ayni paytda, talabni qondiruvchi hamda uni yuzaga keltiruvchi sanoati paydo bo'ladi.

Bundan qariyb yuz yil oldin axloqsizlikni targ'ib qiluvchi matbuot yoki adabiyot aholining faqat savodli qisminigina qamrab olgan. Bugungi kunda birgina internet tarmoqlari orqali yer yuzidagi har bir odamga axloqsizlikni targ'ib qiluvchi kontentlar ochiq sanaladi. Qolaversa, ularning samaradorligi uzatilish strukturasi, miqdori tezligi bilan ham bog'liq. So'nggi yillarda internet tarmoqlarida tasviri san'at va teatrlashgan improvizatsiya ko'rinishidagi kontentlar keng tarqalmoqda. San'atshunos mutaxassislar buni konseptual san'at turi ham deb ataydilar. Qat'iy ssenariy rejasiga ega bo'lmagan ushbu san'at turi axloqiy va estetik qadriyatlarning realitivligi hamda o'rnatilgan sotsial tabu (taqiqlarga) bo'ysunmaslikni targ'ib qiladi.

Yuqorida tilga olib o'tganimizdek, ongni manipulatsiya qilishda, auditoriyani qamrab olish, uning diqqatini muayyan obyekt haqidagi axborotga qaratish muhim o'rin tutadi. Manipulator ana shu axborot orqali auditoriyaning diqqatini jalb etishni, psixologik himoyani yo'q qilish natijasida uning ishonchini qozonishni ko'zda tutadi. AQSHlik taniqli psixolog R.Krosmen, "Muayyan axborotga kishilarni ishontrish, ergashtirishdan, avval, o'zingiz shu axborotga qattiq ishonishingiz lozim", deb yozadi.

Bu ma'noda auditoriya bilan kontakt o'rnatishning dastlabki bosqichi, unga ma'lumotni uzatish kanalini yaratishni taqozo etadi. Buning uchun manipulatorlar tomonidan turli manipulatsiya hiylalari qo'llaniladi: ma'lumot muayyan jozibali, diqqat tortuvchi elementlar bilan boyitiladi. Masalan, ommaviy keng tarqalgan seriallar va sport o'yinlari vaqtida uzatiladigan reklamalarning narxi birmuncha yuqori baholanadi.

Auditoriyani qamrab olishning keyingi bosqichi kishilarning ijobiy bahosiga tayanishni, manipulativ strategiyalarning kuchini sarf qilmaslikni nazarda tutadi. Unga ko'ra, manipulator auditoriyaga muvofiq keluvchi qadriyat va stereotiplardan foydalanadi. U uzatayotgan ma'lumot muayyan shior, chaqiriq hamda harakatga mos kelishi lozim. Biroq buning uchun auditoriyaning milliy, etnik, til belgilari bir xil bo'lishi taqozo etiladi.

Mazkur bosqichga ko'ra, manipulator auditoriyaga ular bilan bir millat, dindosh, jamoa yoki bir sotsial guruga ishchilar, ziyolilar va hokazoga mansubligini ta'kidlaydi. Buning uchun maxsus so'zlar qo'l harakatlaridan foydalaniladi. Misol uchun, hurmatli musulmon birodarlar, vatandoshlar, hamkasblar. Bu hol manipulatorning auditoriya bilan yaqinligini, uning bir qismini tashkil etishini anglatadi. Bu bosqichda manipulator o'zining asosiy tezisini mavhum, noaniq so'zlar bilan ifodalaydi. Ta'bir joyiz bo'lsa, bu auditoriyani moslashtirish bosqichi ham, deb ataladi.

Fransuz tarixnavistlari Napoleonning katoliklarga, men bunday urushni, albatta, to'xtatgan bo'lardim", musulmonlarga esa "Men misr xalqi bilan birgaman", yahudiylarga, "Agar yahudiylarning boshi bo'lganimda, albatta, Sulaymon ibodatxonasini qayta qurgan bo'lardim", izuirlarga murojat qilganda, "Men italiyalik patrlarni ko'plarini o'zim tomonga og'dirdim", degan so'zlarini keltiradilar.

Auditoriya manipulatorning irodasiga bo'ysunishi, mutaassib darajada unga ergashishi jamoviy anglanmagan arxitiplarni qo'zg'atish bilan bog'liq kechadi. Manipulator dastlabki bosqichni amalga oshirib auditoriya bilan kontakt o'rnatgach, uning anglanmagan arxitiplarini uyg'otishga harakat qiladi. Natijada

inson ong ostidagi ulkan qatlam arxitiplar uni harakatga keltiradi. K.G.Yung ta'biri bilan aytganda, "Arxitiplar aynan anglanmagan hodisa bo'lganligi sabab mantiqiy tafakkurga yo'l bermaydi. Ular g'oyat jozibali va ulug'vor obrazlarda namoyon bo'ladi. Shu bois olomonni junbushga keltirishda, millatlararo ziddiyatlar qo'zg'ashda ulardan foydalanadilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ommaviy madaniyatning jamoatchilik ongni manipulyatsiyalash vositasi sifatidagi tahlillariga qaratilgan yondashuvlar g'oyalar umumlashtirilsa u, eng avvalo, emotsional ta'sirga tayanishi ma'lum bo'ladi. Ommaga ayni shakldagi emotsional ta'sirlarini o'tkazishda ommaning qadriyati, mo'ljallari, streotiplari ommaviy tus olgan dunyoqarash mo'ljallari va ustanoqfalari kabilarga murojaat qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, manipulyativ ta'sirning ezgulik sur'atini oshirgani holda uning yashirin hamda ishonchli tus olishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Gustav Le Bon. New York, The Macmillan co. 1898, p. 103.
- (2). The revolt of the masses by Jose Ortega y Gasset. 1930, p. 28.
- (3). The revolt of the masses by Jose Ortega y Gasset. 1930, p. 43.
- (4). Merton, Robert K. (1968). Social Theory and Social Structure. New York. The Free Press, p. 68.
- (5). Merton, Robert K. (1968). Social Theory and Social Structure. New York. The Free Press, p. 68.
- (6). «Человек находит друга». Захаров, Москва; 2001, с. 73.
- (7). Хомский, Н.Х. Избранное. Ноам Хомский, пер. з англ. Сергей Александровский, Вадим Глушаков. М., "Энциклопедия", 2016, 720 с.
- (8). Философская эстетика Бахтин Михаил Михайлова. Том 1, с. 145.

Turdiyev Bexruz Sobirovich (Buxoro davlat universiteti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; b.s.turdiyev@buxdu.uz)

JAMIYAT IDEOSFERASI YANGILANISH NEGIZLARINING DEMOKRATIK XUSUSIYATI

Annotatsiya. Bugun jamiyat ideosferasining yangilanish jarayoni umuminsoniy demokratik prinsip va madaniyatlar xilma-xilligiga asoslanadi. Jamiyat ideosferasining ushbu mezonlarga asoslanishi uning muhim demokratik xususiyatini tashkil etadi. Mazkur maqola jamiyat ideosferasi yangilanishining demokratik jihatlari tadqiq etishga bag'ishlanib, jamiyat ideosferasining yangilanishi jamiyat taraqqiyotining yuksalishiga muhim omil bo'lib xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ideosfera, g'oya, tafakkur, milliy qadriyat, demokratiya, sivilizatsiya, strategiya, konsepsiya, mafkura.

ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБНОВЛЕНИЯ ИДЕОСФЕРЫ ОБЩЕСТВА

Аннотация. Сегодня процесс обновления идеосферы общества основан на универсальных демократических принципах и культурном многообразии. Основываясь на этих критериях, идеосфера общества формирует важную демократическую особенность. Данная статья посвящена исследованию демократических аспектов обновления идеосферы общества и обоснованию того, что обновление идеосферы служит важным фактором развития общества.

Ключевые слова: идеосфера, идея, мышление, национальная ценность, демократия, цивилизация, стратегия, концепция, идеология.

DEMOCRATIC FEATURES OF RENEWAL OF THE SOCIETY'S IDEOSPHERE

Annotation. Today, the process of updating the ideosphere of society is based on universal democratic principles and cultural diversity. Based on these criteria, the ideosphere of society forms an important democratic feature. This article is dedicated to the study of the democratic aspects of the renewal of the ideosphere of society and to justifying that the renewal of the ideosphere serves as an important factor in the development of society.

Key words: ideosphere, idea, thinking, national value, democracy, civilization, strategy, concept, ideology.

Kirish. Biz bugun milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichi va maqsadini belgilab olar ekanmiz, bu boradagi muhim vazifa jamiyat ideosferasini demokratik qadriyatlarga uyg'un holda takomillashtirish yo'lidan borishdir. Milliy-ma'naviy merosimizni millatimiz ma'naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylantirish, boshqacha aytganda, uni ijodiy o'zlashtirish, unga yangi mazmun va ma'no berish demokratik taraqqiyotimizning bir tomoni hisoblansa, bu jarayonning ikkinchi, yanada ahamiyatli tomoni, jamiyat ideosferasining yangilanishi, betakror va noyob hodisalarning paydo bo'lishi, umuminsoniy ma'naviyatning yangidan yangi demokratik negizlarga tayanishidir. Bu jarayonsiz jamiyat ideosferasini o'zgartirishning imkoni yo'q.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yangi O‘zbekiston demokratik jamiyat taraqqiyotida jamiyat ideosferasi va uning demokratik xususiyatlari, jamiyat ideosferasi yangilanishining ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni S.Otamuratov B.To‘ychiyev, B.Aliyev, I.Saifnazarov, A.Erkayev, N.Jo‘rayev, M.Quronov, I.Ergashev va bir qator olimlar muayyan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani tadqiq etishda analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Har qanday jamiyat ideosferasining o‘zgarishi ana shu jamiyat tizimi, uning qanday g‘oyalar va maqsadlarga ergashayotgani, qanday tafakkur asosida qaror topayotgani bilan bog‘liq. O‘zbekiston tanlagan yo‘l inson manfaatlarini to‘la himoya qilingan, uning haq-huquqlari har tomonlama kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. Bu, albatta, inson ongi va tafakkurini o‘zgartirish orqali turmush tarzini yangilash singari qator murakkabliklar, qiyinchiliklar, ziddiyatlarni yengib o‘tishni taqozo etadi [2].

Jamiyat ideosferasini o‘zgartirish, avvalo, bizga meros qolgan milliy ma‘naviyatimiz negizlaridan imkoni boricha ko‘proq bahramand bo‘lish va har bir insonning o‘zini millat, bashariyat, borliqqa nisbatini haqqoniy anglashida, shunga muvofiq faoliyat ko‘rsata olishida namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonning milliy ma‘naviy-madaniy merosini o‘rganish, milliy qadriyatlarga ehtiyoj katta. Shunday ekan, O‘zbekistonni yanada rivojlantirish va yuksaltirish yo‘lida moddiy-ma‘naviy merosimiz, negizlarimiz, boy demokratik qadriyatlarimiz katta ahamiyatga ega.

Bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘li insoniyatning olamni anglashi, undan umumbashariy manfaatlarini yo‘lida foydalana olishi, har bir xalqning umuminsoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma‘naviy yangilanishning demokratik negizlari shaklida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda olib borayotgan strategik islohotlardan ko‘zlangan oliy maqsad – dunyo iqtisodiyoti, dunyo siyosati, dunyo madaniyatida mustahkam tura olish. Jamiyatni yangilashda ma‘naviyatning arkonlari – adolat, halollik, tenglik, ahil qo‘shnichilik va insonparvarlik kabi qadriyatlarni asrashga mamlakatimizda alohida e‘tibor qaratildi. Ularga yangicha mazmun bag‘ishlanib, yurtimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun barcha sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi [3].

Hozirgi keng qamrovli islohotlar, yangilanish jarayonlari bizdan demokratik tafakkurga yo‘g‘rilgan qarashlarni talab etadi. Negaki, milliy yuksalish va jahon hamjamiyatida o‘zimizning munosib pozitsiyamizga ega bo‘lishda oddiy emas, balki innovasion fikrlaydigan, harakatga chorlaydigan, yangiliklarga munosabat bildiradigan uyg‘oq nigohlar zarur. O‘zbekiston ma‘naviy taraqqiyotining bosh yo‘lini bugungi kunda ma‘naviy islohotlar strategiyasi, milliy ma‘naviy salohiyatining yuksalishi, yangilanishlar tizimi va mazmunining takomillashuvi, ma‘naviy qadriyatlarning inson ruhiy dunyosidagi o‘rni va ta‘sirining oshishi tashkil etadi. Bugun jamiyat ideosferasidagi yangilanishlarning demokratik yutuqlarini ularning jamiyat hayotiga ta‘sirining ortgani, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, madaniyat va san‘atga bo‘lgan e‘tiborning kuchayganligi kabi yutuqlardagi demokratik xususiyatlarida ko‘rishimiz mumkin.

Ayni paytda, jamiyat ideosferasidagi o‘zgartirishlarning demokratik jihatlari ma‘naviy-madaniy taraqqiyot sur‘atlarining shiddat bilan rivojlanayotganligida aks etmoqda. Bu jumladan, innovatsion kashfiyotlar, axborot ko‘lamining va ilm-fan, madaniyat va san‘at sohasida band bo‘lgan kishilar sonining o‘sib borayotganligi, ilmiy faoliyat hajmining har 10–15 yilda ikki barobarga oshib borayotganligi jarayonida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, jamiyat ideosferasidagi o‘zgarishlar jarayonini tekis jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin emas. Bugungi kunda jahon taraqqiyoti erishgan yutuqlardan chetda qolayotgan davlatlar ham yo‘q emas. Buning asosiy sabab va omillari, mamlakatdagi demokratik mazmundagi ma‘naviy yangilanishlardan chetda qolishi, iqtisodiy taraqqiyotning pastligi, tinchlik va millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, siyosiy barqarorlikning buzilishida namoyon bo‘ladi. Bu milliy-madaniy yuksalishdagi o‘ziga xos jihatlarni ifoda etadi.

Ko‘rinib turibdiki, jamiyat ideosferasidagi yangilanishlar muayyan demokratik islohotlar, maqsad va dasturlar asosida kechadigan jarayondir. Shu boisdan milliy yuksalishimizda ma‘naviy va madaniy o‘zgarishlarni, xususan, iqtisodiy islohotlarni rivojini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, madaniyat, ma‘naviy meros, sivilizatsiyalar yutug‘i jamiyat va inson ma‘naviyatining yuksalishida, ma‘naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim xarakterga ega desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu strategik islohotlar jarayonida ana shu boy merosimizni o‘rganish va unda inson manfaatlarini ustun qo‘yish orqali milliy yuksalish sari odimlab borishimizni biz tanlagan demokratik yo‘l talab etmoqda.

Bu borada hali oldimizda “O‘zbekiston–2030” strategik islohotlar va Uchinchi Renessansi barpo etish singari hayotbaxsh maqsadlar, rejalar turibdi. Shulardan biri hali merosimizning bizga noma‘lum, am-

mo dunyoning turli mamlakatlari oltin kutubxona fondlari, muzeylarida saqlanib kelinayotgan, jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallagan juda ko'plab moddiy va ma'naviy merosimiz sarchashmalarini Vatanimizga qaytarishimiz, ularni o'rganishimiz, dunyoqarashimiz va ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim.

Shu bois hozirgi globallashuv jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, ma'naviy yangilanishlar strategiyasini izchil amalga oshirish, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida barqarorlikni ta'minlash davlatimiz siyosatida ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Mamlakatimizda jamiyat ideosferasidagi yangilanishlarni tizimli tashkil etish, bu boradagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, xalqimiz ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, yuksak vatanparvarlik, sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan. Bu, o'z navbatida, respublikamizda ilm-ma'rifat, adabiyot, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı demokratik islohotlarga yo'l ochmoqda.

Jamiyat ideosferasini o'zgartirish, ma'naviy hayotimizni yangilash, uni yanada yuksaltirish borasida mamlakatimizda o'ziga xos demokratik tajriba sayqallanib bormoqda. Xususan, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi belgilangan vazifalar amalga tatbiq etilib, "Obod xonadon", "Obod ko'cha", "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Obod markaz", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar hamda "Beshta muhim tashabbus", "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" xalqimizni yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning natijasida, islohotlar ko'lami mamlakatimizning eng chekka hududlarini ham qamrab olib, hududlarning me'moriy qiyofasini tubdan yangilanishi hamda xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. E'tiborli jihati, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlari, milliy konsepsiyalarning mazmun-mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini muntazam olib borishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-qarori [4] hamda 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarining ahamiyati beqiyosdir [5].

Xulosa. Bir so'z bilan aytganda, jamiyat ideosferasidagi yangilanishlar strategiyasi, avvalo, xalqimizning tarixi, madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini xolisona bilish, ulardan oqilona foydalanish, ularni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, muayyan ma'naviy omillarsiz jamiyatning siyosiy, ijtimoiy yuksalishi ham mumkin emas. Zero, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ulkan meros hozirgi taraqqiyot yo'limizda milliy tiklanish, milliy yuksalish, ma'naviy yangilanish, ma'naviy rivojlanishimizda asosiy omillardan bo'lib kelayotganligi, tafakkurimizni boyitib borayotganligi madaniyat, san'at, ma'naviyat, ma'rifatning har doim uyg'un shakllanishini tasdiqlovchi yorqin demokratik xususiyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, 19-son (7521).
- (2). Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. T., "Ma'naviyat", 2008, 373-bet.
- (3). Ikramov Sh.T. Yuksak ma'naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik fazilatlarini va muomala madaniyatini kamol toptirish. T., O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014, 67-bet.
- (4). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-qarori//<https://lex.uz/>
- (5). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-qarori//<https://lex.uz/>

**Usmonova Laylo Raxmatullayevna (SamDTU "Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti, PhD;
e.mail: laylo.b@mail.ru)**

SHARQ SIVILIZATSIYASINI O'RGANISHDA FRANS ROZENTAL "BILIM TANTANASI" KONSEPSIYASINING IMPERATIV AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sharqiy sivilizatsiyani o'rganishda Rozental "Bilim tantanasi" konsepsiyasining imperativ ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, fan sohasini o'rganish fan va texnologiyalarining turli sohalarini tushunish va yanada rivojlantirish uchun muhimligi ta'kidlangan.*

***Kalit so'zlar:** sivilizatsiya, Sharq, G'arb, ilm, imperativlik, jamoaviylik, amaliyot, madaniyat, din.*

Усмонова Лайло Рахматуллаевна (доцент кафедры “Социальных и гуманитарных наук”
СамГМУ, PhD)

ИМПЕРАТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ ФРАНЦА РОЗЕНТАЛЯ “ТОРЖЕСТВО ЗНАНИЯ” В ИЗУЧЕНИИ ВОСТОЧНОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Аннотация. В этой статье освещается императивное значение Розентальской концепции “Торжество знания” в изучении восточной цивилизации. Также было подчеркнуто, что изучение данной области науки важно для понимания и дальнейшего развития различных областей науки и техники.

Ключевые слова: цивилизация, Восток, Запад, наука, императивность, общность, практика, культура, религия.

Usmonova Laylo Rakhmatullaevna (SamSMU Associate Professor of the Department of “Social and Humanitarian Sciences”, PhD)

THE IMPERATIVE SIGNIFICANCE OF THE CONCEPT OF THE FRANS ROSENTHAL “TRIUMPH OF KNOWLEDGE” IN THE STUDY OF EASTERN CIVILIZATION

Annotation. This article highlights the imperative importance of Rosenthal's concept of “The Triumph of Knowledge” in the study of Eastern civilization. It was also emphasized that the study of the field of science is important for understanding and further development of various fields of science and technology.

Keywords: civilization, East, West, science, imperativeness, community, practice, culture, religion.

SamDTU professori A.N.Maxmudova taqrizi asosida

Kirish. Sharqiy sivilizatsiya Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo yoda paydo bo'lgan va rivojlangan madaniy va tarixiy an'analarni anglatadi. Sharq sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlari falsafiy va diniy urf-odatlar, uyg'unlik va muvozanatning qiymati, ijtimoiy iyerarxiya va kollektivizm, san'at va me'morchilikdagi ulkan yutuqlardir. Ushbu asosiy jihatlar jahon madaniyati va tarixiga katta hissa qo'shgan Sharq sivilizatsiyalarining o'ziga xosligini shakllantiradi. Diniy va falsafiy ta'limotlar Sharq sivilizatsiyalarining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Ushbu an'analarning ta'siri dunyoqarash va axloqdan tortib ijtimoiy tuzilish va madaniy yutuqlargacha bo'lgan ko'plab sohalarda kuzatiladi.

Insoniyat tarixining rivojlanishi shuni ta'kidlashga imkon beradiki, odamlarning ta'lim sohasi va intellektual salohiyati sivilizatsiyalar, davlatlar va ularning hayotiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aql, ratsionallik muammolari bilan bir qatorda, ilm-fan muammosi falsafaning “abadiy” muammolari qatoriga kiradi [1;182-b.]. O'rta asrlarda Islom sivilizatsiyasining gullab-yashnagan davri Sharqiy mintaqalarning intellektual rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatgan turli ilmiy sohalarda sezilarli yutuqlar bilan ajralib turdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Islom an'analari bilim izlash va uni tarqatishga katta ahamiyat berdi. Ta'lim olish va ilmiy bilimlarni to'plash istagiga inson asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraldi. Bu masjidlar, madrasalar va faol ilmiy izlanishlar olib borilgan kutubxonalarni o'z ichiga olgan keng qamrovli ta'lim tizimini yaratishga yordam berdi. Islom sivilizatsiyasi ilmiy bilimlarning fanlararo sintezini rag'batlantirdi, bu esa uning yanada samarali rivojlanishiga yordam berdi. Ko'plab musulmon olimlar, bir vaqtning o'zida, falsafadan tortib, to texnikaga qadar bir nechta sohalarga hissa qo'shgan ensiklopedistlar edi.

“Sivilizatsiyalar abstrakt xarakterdagi ahamiyatga ega tushunchalar atrofida aylanishga moyil bo'lib, ular hamma narsadan ham ko'ra ularga o'ziga xos tabiatni beradi”, deb boshlaydi Frans Rozental o'z mavzusini taqdim etishida. Islom sivilizatsiyasi uchun bu bilim tushunchasidir, “ilm”dir... Arabcha “ilm” – “bilim” tushunchasi bilan juda yaxshi ifodalangan. Biroq “bilim” “ilm”ning barcha haqiqiy va hissiy mazmunini bildirmaydi. Chunki “ilm” islomda hukmronlik qilgan va musulmon sivilizatsiyasiga o'ziga xos ko'rinish bergan tushunchalardan biridir. Aslida, musulmon sivilizatsiyasining barcha jabhalarida “ilm” bilan bir xil darajada hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladigan boshqa tushuncha yo'q [2;1–2-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Bilimlarning amaliy qo'llanilishini yaxshilash va ularning ijtimoiy ahamiyatini oshirishda ilmiy bilimlarning imperativ-obyektiv ahamiyatini o'rganish alohida o'rin tutadi. “Imperativ-obyektiv ma'no” tushunchasi ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy amaliyot va ijtimoiy ehtiyojlar uchun ahamiyati va dolzarbligini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, ilmiy ishlarning natijalari va xulosalari nafaqat akademik qiziqish uyg'otishi, balki aniq amaliy qo'llanilishi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Imperativ jihat shundaki, ilmiy bilimlar muayyan harakatlar, o'zgarishlar va amaliy muammolarni hal qilishga undashi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ular o'ziga xos “imperativ” – amaliy foydalanish za-

rurligini ko'rsatishi lozim. Mavzu qiymati, o'z navbatida, ilmiy tadqiqotlar jamiyat, davlat yoki alohida ijtimoiy guruhlarning dolzarb ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerakligini anglatadi. Ular kun tartibidagi haqiqiy, o'ziga xos narsalar, hodisalar va jarayonlarga murojaat qilishlari kerak. "Imperativ ma'nosi ning muhim xususiyati shundaki, u haqiqat shartlarini o'zida mujassamlashtirganligidir" [3;617-b.].

Frans Rozentalning "Bilim tantanasi" asari sakkiz bobga bo'lingan. Birinchisi "Bilimdan oldingi bilim" haqida semit filologiyasi va Islomgacha bo'lgan she'riyatda bilimlardan foydalanish to'g'risida. Ikkinchi bobda Qur'onning bilimlari va dastlabki dogmalari haqida so'z boradi. Uchinchi bobda "bilim" atamasining ko'pligi tahlil qilinadi va bilim sohalari masalasi ko'tariladi. To'rtinchi bobda bilim ta'riflariga falsafiy yondashiladi. Beshinchi bobda bilimga bag'ishlangan an'anaviy bo'limlardan boshlab, Xudoning irodasi haqidagi munozaralarni o'z ichiga olgan ilohiyotga o'tiladi. Oltinchi bobda tasavvufdagi bilim muhokama qilinadi. Keyingi bob yana falsafa bilan tanish bo'lgan muzokaralarga o'tadi, ammo yaxshi yoritilmaydi. Uning mavzulari bo'yicha so'nggi izlanishlar mantiq, tarjima terminologiyasi va kalamep iste'mologiyasida innovatsiyalarning yetishmasligi haqida bir qator da'volarni shubha ostiga qo'yadi. Oxirgi bobda bilimlardan ijtimoiy foydalanish ko'rib chiqiladi va ularni muallif Solih harakatlar, xulq va odob-axloq bilan bog'laydi [4;132-134-b.].

Tahlil va natijalar. Musulmon o'rta asrlarining ma'naviy madaniyati diniy va ilmiy-falsafiy jihatdan ham, genetik jihatdan ham Yevropa madaniyati bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha, u bilan birga yagona O'rta dengiz sivilizatsiyasi doirasida ko'rib chiqiladi. Shunga qaramay, uning yo'nalishi bo'yicha rivojlangan tushunchalar, shu jumladan, "bilim" tushunchasi, ular paydo bo'lgan va faoliyat ko'rsatgan ijtimoiy-madaniy muhitning o'ziga xos xususiyatlari tufayli o'ziga xos "haqiqiy va hissiy tarkib" bilan to'ldirildi [5;4-b.].

Islom sivilizatsiyasi o'rta asrlarda Sharq va G'arb o'rtasidagi o'ziga xos "ko'prik" bo'lib, ilmiy bilimlarni saqlash, tizimlashtirish va ko'paytirishda muhim rol o'ynadi. Sharqning madaniy an'analari, falsafiy g'oyalari va texnologik innovatsiyalarining boyligi insoniyat taraqqiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi va zamonaviy dunyoni ilhomlantirishda davom etmoqda. Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda o'rta asr Sharq sivilizatsiyasini o'rganishga ilmiy va jamoatchilik qiziqishi ortib bormoqda. Ushbu qiziqish bir nechta muhim omillarga bog'liq.

Birinchidan, o'rta asrlar Sharqi nafaqat G'arbnining passiv ta'sir ob'ekti, balki o'zining boy intellektual, madaniy va texnologik an'analarga ega ekanligi bilan o'ziga xosdir. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Islom dunyosi, Xitoy va Hindiston imperiyalari gullab-yashnagan davrda Sharq jamiyatlarining falsafa va fandan tortib, san'at va me'morchilikgacha bo'lgan ko'plab sohalardagi yutuqlari g'arbiy Yevropadan ustun bo'lgan.

Ikkinchidan, zamonaviy olimlarning o'rta asrlar sivilizatsiyasi tarixi haqidagi an'anaviy g'oyalarni qayta ko'rib chiqish istagi uzoq vaqt davomida Yevropaga qaratilgan. O'rta asrlar dunyosini shakllantirishda Sharqiy Osiyo, yaqin Sharq va Janubiy Osiyoning roliga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Uchinchidan, zamonaviy madaniyat, fan va texnologiyaning ko'plab asosiy elementlari o'rta asr Sharq sivilizatsiyasi yutuqlaridan kelib chiqqanligini anglash kuzatilmoqda. Matematik tushunchalar va tibbiy bilimlardan me'moriy shakllar va adabiy janrlarga qadar Sharqning ta'siri ko'plab sohalarda kuzatilgan. Xitoy va Hindiston kabi zamonaviy Sharq kuchlarining geosiyosiy va iqtisodiy ta'sirining kuchayishi ham ularning tarixiy ildizlari va madaniy an'alarini tushunishga qiziqish uyg'otmoqda. O'rta asr Sharq sivilizatsiyasini o'rganish ushbu ta'sirning kelib chiqishi va mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Rossiyalik sharqshunos A.V.Sagadeev o'rta asr Sharq sivilizatsiyasi to'g'risida shunday yozadi: "IX-XII asrlarda, o'zining gullab-yashnagan davrida musulmon Sharq sivilizatsiyasi o'sha davrdagi g'arbiy Yevropa madaniyatiga qaraganda dunyoviy bilimlar va ilmiy kashfiyotlarning ancha keng tarqalishi bilan ajralib turardi. Ma'lum bir sohalarda agar Sharqni keyingi yuzyillarda G'arbiy Yevropa olimlariga astasekin ilohiyot hukmronligidan ozod bo'lishga va G'arb Uyg'onish davri, Yangi davrning buyuk daholarini yetishib chiqishiga yordam berganini eslasangiz, bu sivilizatsiyaning yutuqlari yanada aniqroq bo'ladi" [6;18-b.].

Ilmiy ishlarning, shu jumladan, taniqli sharqshunos olim Rozentalning "Bilim tantanasi" konsepsiyasining imperativ ahamiyati ularning yuqori amaliy ahamiyatini, dolzarb muammolarni hal qilish va hozirgi ijtimoiy talablarni qondirish qobiliyatini anglatadi. Bu ularni faqat mavhum nazariy xarakterga ega bo'lgan tadqiqotlardan ajratib turadi.

Frans Rozental tomonidan ishlab chiqilgan bilim tushunchasi zamonaviy ilmiy hamjamiyat, umuman, jamiyat uchun muhim imperativ va obyektiv ahamiyatga ega. O'rta asr Islom dunyosida bilim ahamiyatini tushunishda Rozental modelini o'rganish bizga insoniyatning intellektual tarixiga oid an'anaviy

qarashlarining cheklanganligini chuqurroq anglashga imkon beradi. “Bilim tantanasi” asarida Rozental X asr Sharq lug‘atshunoslikda nom taratgan olim to‘g‘risida quyidagilarni yozgan: “Abu Hilol al-Asqariy kabi adabiyotshunos va filolog bizga uzoq bilim olish jarayonidan so‘ng paydo bo‘ladigan bilim zavqini qanchalik chuqur his qilganini aytib beradi va o‘z tuyg‘usini quyidagi she‘rda ifodalaydi: “Biz bilim zavqi haqida bilganimizdan buyon, na shirin, na mazali bizni xursand qilolmaydi”. Bilim bu dunyoda ham, u dunyoda ham baxtga erishishni ta‘minlaganligi sababli, eng katta zavqdir, jaholat esa eng katta azobdir” [2; 241-b.]. Rozental Sharqning o‘ziga xos rivojlangan bilimlarni ishlab chiqarish va tarjima qilish tizimiga ega ekanligini ko‘rsatdi, bu esa Yevropa paradigmasidan uzoqlashishga va sivilizatsiyalar tarixini yanada obyektiv va har tomonlama tahlil qilishga undaydi.

Rozental konsepsiyasi madaniyatlarining zamonaviy muloqoti, Sharq va G‘arbda ilm-fan dinamikasini o‘rganish uchun katta ahamiyatga ega. Uning asarlari shuni ko‘rsatadiki, Islom sivilizatsiyasi ilmiy bilim, falsafa va ta‘limni rivojlantirishga muhim hissa qo‘shgan, bu qarashlar G‘arbda, ko‘pincha, e‘tibordan chetda qoladi yoki kam baholanadi. Ushbu merosni o‘rganish stereotiplarni yengishga va madaniy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. “G‘arb va Sharqning dunyoqarash an‘analarida ishlab chiqilgan tushunchalarni qiyosiy o‘rganish inson bilimlari evolutsiyasi qonunlari haqidagi g‘oyalarni boyitishi va batafsil bayon qilishi mumkin. Ularning birligi, mavhumi dentifikatsiya emas, balki zarur, tarixiy jihatdan aniqlangan farqlar va xususiyatlarni o‘z ichiga oladi” [6;3-b.].

Rozentalning Islom dunyosidagi diniy va dunyoviy bilimlarning o‘zaro ta‘siri haqidagi g‘oyalari dinning ta‘lim va fandagi o‘rni haqidagi zamonaviy munozaralar uchun dolzarbdir. Uning asarlari shuni ko‘rsatadiki, bunday o‘zaro ta‘sir tez-tez ko‘rinib turganidek, ziddiyatli emas, balki samarali bo‘lishi mumkin. Bilim tushunchasi zamonaviy Islom ta‘limini rivojlantirish uchun amaliy ahamiyatga ega. Rozentalning ilmiy merosi, xususan, uning o‘rta asr Islomidagi bilim tushunchasi muhim imperativ ahamiyatiga ega. Ular bizni Sharqning intellektual tarixini chuqurroq va obyektivroq tushunishga undaydi, bu zamonaviy dunyoda juda muhimdir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ilmiy tushunchalarni tahlil qilishda imperativ-obyektiv yondashuv ularning zamonaviy sharoitda amaliy ahamiyati va dolzarbligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuv shuni ko‘rsatadiki, turli xil ilmiy nazariyalar va tushunchalarni ko‘rib chiqish va baholashda ularning aniq amaliy muammolarni hal qilish va dolzarb ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga alohida e‘tibor berilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, nafaqat tushunchalarning nazariy asoslilikigi, balki ularning “imperativligi” muayyan harakatlar va o‘zgarishlarni rag‘batlantirish qobiliyati ham tahlil qilinadi. Rozental konsepsiyasining ilmiy tadqiqotlarining imperativ va obyektiv ahamiyati ularning zamonaviy sharoitda ahamiyati va dolzarbligining muhim mezonidir. Bu fanning nafaqat bilim chegaralarini kengaytirish, balki jamiyat rivojlanishiga haqiqiy amaliy ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Коровяковский Денис Геннадиевич. Статус и ценность знания в образовательной системе ислама: история и современность. “Образование и право”, 2016, № 10.
- (2). Franz Rosenthal. Knowledge Triumphant. The Concept of Knowledge in Medieval Islam Leiden, Brill, 2007.
- (3). Charlow, N. (2014). Logic and Semantics for Imperatives. Journal of Philosophical Logic, 43, p. 617–664.
- (4). Sajjad H. Rizvi. The American Journal of Islamic Social Sciences, 25 (4), 2008.
- (5). Розенталь Франц Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе. М., Главная редакция восточной литературы, «Наука», 1978, 372 с.
- (6). Сагадеев А.В. «Знание» и познавательное отношение к действительности в средневековой мусульманской культуре. Розенталь Ф. Торжество знания. Пер.с англ., М., 1978.

Xo‘jaev Davron Nuriddinovich (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa va mantiq” kafedrasini o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ALISHER NAVOIY DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI VA UNDA TASAVVUF OMILI

Аннотация. Mazkur maqolada Alisher Navoiy dunyoqarashining shakllanish jarayonlari, unga ta‘sir ko‘rsatgan omillar falsafiy-tarixiy metodologiya asosida tahlil qilinadi va mutafakkir yashagan sotsiomadaniy muhit birinchi va Ikkinchi Renessans falsafiy tafakkur paradigmasining g‘oyaviy tamoyillari, Alisher Navoiy adolat konsepsiyasi shakllanishida nazariy asos vazifasini o‘tagan “Temur tuzuklari”da ilgari surilgan mulohazalar hamda tasavvuf ta‘limoti kabi omillarga alohida diqqat qaratiladi.

Kalit so'zlar: *dunyoqarash, ijtimoiy-gumanitar fan, tafakkurlash, paradigma, adolat, tasavvuf ta'limoti, davr, xususiyatlar, tarixiy taraqqiyot, fenomen, taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy sohalalar.*

Хужаев Даврон Нуриддинович (Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Факультет социальных наук «Философия и логика», преподаватель кафедры, философия, доктор философии (PhD)

ФОРМИРОВАНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ АЛИШЕРА НАВОИ И ФАКТОР СУФИЗМА В НЕМ

Аннотация. *В данной статье на основе философско-исторической методологии и социокультурной среды, в которой жил мыслитель, анализируются факторы, повлиявшие на формирование мировоззрения Алишера Навои, идеологические принципы первой и второй ренессансных парадигм философского мышления. «Законы Темура», которые послужили теоретической основой формирования концепции справедливости Алишера Навои. Особое внимание уделено таким факторам, как воззрения и учение суфизма.*

Ключевые слова: *мировоззрение, социально-гуманитарная наука, мышление, парадигма, справедливость, суфизм, период, характеристики, историческое развитие, явление, развитие, социально-экономическая, культурная, политическая сферы.*

Khojayeв Davron Nuriddinovich (National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Faculty of Social Sciences, Department of "Philosophy and Logics", Doctor of Philosophy on Philological Sciences (PhD)

THE FORMATION OF ALISHER NAVOI'S WORLDVIEW AND THE FACTOR OF SUFISM IN IT

Annotation. *This article, based on philosophical and historical methodology and the sociocultural environment in which the thinker lived, analyse the factors that influenced the formation of Alisher Navoi's worldview, the ideological principles of the first and second Renaissance paradigms of philosophical thinking, "Temur's Laws," which served as the theoretical basis for the formation of Alisher Navoi's concept of justice. Particular attention is paid to such factors as the views and teachings of Sufism.*

Key words: *worldview, social science and humanities, thinking, paradigm, justice, Sufism, period, characteristics, historical development, phenomenon, development, socio-economic, cultural, political spheres.*

Kirish (Introduction). *Ijtimoiy-gumanitar fan sohalari, jumladan, falsafiy-tarixiy, biror-bir maktab yoki mutafakkir g'oyalarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarda an'anaviy tarzda uning dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni tahlil etishga alohida diqqat qaratiladi. Mazkur maqolada shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy dunyoqarashining shakllanish jarayonlari, unga ta'sir ko'rsatgan omillar falsafiy-tarixiy metodologiya asosida tahlil qilinadi. Bunda mutafakkir yashagan sotsiomadaniy muhit birinchi va ikkinchi Renessans falsafiy tafakkur paradigmasining g'oyaviy tamoyillari hamda tasavvuf ta'limoti kabi omillarga alohida diqqat qaratiladi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodi, xususan, uning adolat konsepsiyasi ochib berilgan "Hamsa", "Mahbub ul-qulub" asarlaridagi falsafiy g'oyalar retrospektiv tahlil qilinadi. Bundan tashqari, Alisher Navoiy adolat konsepsiyasi shakllanishida nazariy asos vazifasini o'tagan "Temur tuzuklari" da ilgari surilgan mulohazalar tadqiqiga ham alohida diqqat qaratiladi.*

Ijtimoiy-gumanitar fan sohalari, jumladan, falsafiy-tarixiy tadqiqotlarda biror-bir maktab yoki mutafakkir g'oyalarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarda an'anaviy tarzda uning dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni tahlil etishga alohida diqqat qaratiladi. Negaki, har qanday mutafakkir dunyoqarashi tabiiy ravishda o'zi yashab ijod etgan tarixiy davr hamda sotsiomadaniy muhit mahsuli o'laroq, namoyon bo'ladi. Ammo falsafiy-tarixiy tadqiqotlar metodologiyasiga ko'ra, yuqorida sanab o'tilgan omillardan tashqari, muayyan faylasuf dunyoqarashi shakllanishida u yashagan davrda keng tarqalgan tafakkurlash paradigmasi ham mutafakkir g'oyalarining vujudga kelishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Jumladan, mazkur maqola uchun tadqiqot predmeti vazifasini bajarayotgan Alisher Navoiy dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida va umuman uning butunboshli dunyoqarashi shakllanishida ham yuqoridagi omillar bilan birgalikda XV asrlarda Markaziy Osiyo hududida keng tarqalgan tasavvuf ta'limoti paradigmal ta'sirga ega bo'lgan. Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy dunyoqarashi, xususan, uning adolat fenomeni haqidagi qarashlarining genezisini ko'rib chiqishda mutafakkir yashab ijod etgan tarixiy davr xususiyatlari bilan bir qatorda, shoir falsafiy qarashlarining konseptual asosi hisoblanuvchi tasavvuf ta'limoti omiliga ham alohida diqqat qaratish talab qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). *Alisher Navoiyning ijodi va asarlari, shaxsiy fazilatlarini, o'zi yashagan tarixiy sotsiomadaniy muhitdagi hal qiluvchi o'rni, davlat arbobi sifatidagi*

faoliyati, xalq bilan aloqalari, Temuriylar davridagi ilmiy-ijodiy muhitni rivojlantirishdagi xizmatlari o'rta asrlar mutafakkir olimlari hamda zamondoshlari tomonidan keng o'rganilgan. "Jumladan, Sulton Husayn Boyqaro, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xondamir, Mirxond Zaynuddin Vosifiy, Sodiqbek Sodiqiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Fasih Havofiy, Muyiniddin Isfizoriy, Nizomiddin Shomiy kabi mualliflarni sanab o'tish mumkin" [1]. Keyinchalik, V.Zohidov, M.Xayrullayev, X.Boboyevning izlanishlarida mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-huquqiy hamda davlatchilik g'oyalari dunyoviylik tamoyili asosida tahlil qilingan. Bu davrda amalga oshirilgan navoiyshunoslik tadqiqotlarida, asosan, Marksistik metodologiya yetakchi o'rin tutganligi tufayli ular orientalistik xususiyat kasb etgan.

Mustaqillik yillarida Alisher Navoiyning ijodiy merosi va falsafasi A.Xayrullayev, X.Aliqulov, N. Komilov, B.Eraliyev, I.Haqqul, S.Olim, K.Mullaxo'jayeva, E.Ochilov, A.O'rinboyev, I.K.Mirzayev, D.Salohiy, Sh.Sirojiddinov, M.D.Pardayeva, S.G'aniyeva, A.Erkinov, Z.Mamadaliyeva, D.Yusupova, O. Davlatov, T.Norov, B.Turobov va boshqalar tomonidan tahlil hamda tadqiq etildi. Mazkur davrda yaratilgan navoiyshunoslikka oid izlanishlarda yangicha paradigmal yondashuv kuzatiladi. Jumladan, A. Erkinovning tadqiqotida Alisher Navoiy asarlari va qarashlari germeneytik metodologiya asosida ochib berilgan. T.Norovning tadqiqotida esa Alisher Navoiyning gumanistik qarashlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Alisher Navoiy yashagan davr xususiyatlarini uning dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omil sifatida tahlil qilishda ayni tarixiy vaqt kesimini mutafakkir hayot kechirgan sanalar oralig'i bilan chegaralash birinchi va ikkinchi Renessans tafakkur paradigmasi g'oyaviy asoslarini ko'rish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, Alisher Navoiy dunyoqarashini tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan aksariyat navoiyshunoslik tadqiqotlaridagi singari Husayn Boyqaro yashagan va hukmronlik qilgan muddat oralig'ida shakllangan fenomen sifatidagina tadqiq etishga imkon beradi. Ayniqsa, Ikkinchi Renessans davrida yuzaga kelgan adolat fenomenini tushuntirishga qaratilgan ko'plab g'oyalarni hamda uning turli xil modellarini tadqiq etishda mazkur cheklanganlik aksariyat tadqiqotlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Soddaroq qilib aytganda, aksariyat tadqiqotlarda Alisher Navoiy va u yashagan davrdagi mutafakkirlarning adolat haqidagi ta'limotlari markazida davlat rahbari sifatidagi Husayn Boyqaro shaxsiyati va faoliyatining prototip o'laroq, markaziy o'rin tutishi ta'kidlanadi. Aslida esa mazkur davrdagi adolat fenomeni haqidagi qarashlar nafaqat markazlashgan temuriylar davlati, balki uning vujudga kelish zamonlarini ham o'z ichiga qamrab olgan davr ijtimoiy-falsafiy tafakkur paradigmasi analari va ayni kezlarda yuzaga kelgan tarixiy zarurat nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa, ular haqidagi yaxlit tasavvurni hosil qilish imkoniyati birmuncha ortadi.

Ma'lumki, tarixiy fenomen sifatida Amir Temur va temuriylar davlatining shakllanishi murakkab davrlarga to'g'ri keldi. Boshqacha qilib aytganda, Amir Temurning taxtga kelishi hodisasi tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan tinch, "barqaror, iqtisodiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan rivojlangan madaniy sivilizatsion soha taraqqiy etgan ijtimoiy adolat o'rnatilgan, mamlakat aholisi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan davrda ro'y bermadi" [2;9-b.]. Aksincha, mo'g'ul mustamlakachilarining boshqaruv tizimi inqirozga uchragan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy sohalaridagi institutlar dizfunksiyaga uchrab, hokimiyat uchun kurashlar avj olgan, tanazzulga yuz tutgan davr, hudud va muhitga to'g'ri keldi. Ayni tarixiy shartsharoit va vaziyat keng aholi ommasi, ziyolilar, jamoat arboblari, hatto siyosiy elita ongida ham kelajakka bo'lgan ishonchsizlik kayfiyatining keskin ortib ketishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, Amir Temur va temuriylar davrida hukmronlik davlat boshqaruvchilaridan xalq ommasi bilan yaqinlashish, ularning muammolari, orzu-intilishlaridan kelib chiqqan holda siyosat yuritishni taqozo qilardi. Amir Temur davlatchiligining dasturulamali bo'lgan "Temur tuzuklari"da xalqni rozi qilish, uning talqinidagi adolat tamoyili elementlaridan biri ekanligini quyidagi mulohazalar orqali ifoda etadi: "Ochiqyuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim" [2;9-t].

Buni birgina aholi ziyoli qatlami o'rtasida tasavvuf ta'limotidagi tarki dunyochilik, o'z-o'ziga murojaat qilish, dunyo tashvishlaridan yuz o'g'irgan holda insonning ma'naviy o'zligini anglashga bo'lgan intilish bilan ham izohlash mumkin. Jumladan, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Aziziddin Nasafiy singari mutasavvufnlarning qarashlari mo'g'ullar istilosi davridagi inqirozlar, adolatsizliklar, boshboshdoqliklarni yengib o'tishdagi ruhiy-ma'naviy kompensator vazifasini bajaruvchi g'oyaviy-mafkuraviy mexanizm bo'lib xizmat qildi. Ko'rinib turibdiki, o'zlarining mustaqil va markazlashgan davlatlarini shakllantirishda

Amir Temur va temuriylar sulolasi oldida nafaqat yagona hududiy yaxlitlikka ega mamlakatni barpo qilish, balki barcha uchun teng imkoniyatlar yaratilgan ijtimoiy adolat o'rnatilgan, aholining tinch va farovon turmush kechirishi uchun barcha sharoitlar yuzaga keltirilgan davlat shakllantirish vazifasi ham turardi. "Temur tuzuklari" da ham mazkur tarixiy jarayonni yodga olgan Amir Temur uni quyidagicha tushuntiradi: "Jeta lashkari amirlari ustidan g'alaba qozonganidan keyin, saltanat da'vosi bilan xuruj etganligim haqida Turonzaminda xabar tarqaldi. Shunda men adolat bilan hukmronlik qilishga azmu jazm etdim. Saltanatimni mustahkamlash uchun to'plagan xazinamdagi naqd pullar va (qimmatbaho) buyumlarni sipohga taqsimlab berishga va dastavval, qahlaqa qal'asini olishga qaror qildim" [2;6-b.].

Tabiiyki, bu, o'z navbatida, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida keng ko'lamli islohotlarni o'tkazish, qolaversa, aholi ommasida ayni islohotlarga xayrixohlik kayfiyatini uyg'otishga qaratilgan mafkuraviy asoslar ishlab chiqishni taqozo qilardi. Amir Temurning siyosiy faoliyati hamda uning dasturiy ifodasi bo'lgan "Temur tuzuklari" da ilgari surilgan adolat g'oyasi ayni islohotlar mafkurasining bosh tamoyiliga aylandi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'zida o'sha davr tarixiy voqeligi hamda ijtimoiy-falsafiy tafakkur paradigmasi g'oyaviy an'analari, xususan, diniy-tasavvufiy elementlar mujassamlashtirilgan adolat tamoyili ikkinchi Renessans davridagi mazkur fenomen talqinlari uchun nazariy-falsafiy asos vazifasini bajargan. E'tiborli jihati shundaki, Amir Temur talqinidagi adolat tamoyili sanab o'tilgan jihatlardan tashqari o'z tuzilmasida G'arb va Sharq an'analari sintezlagan birinchi Renessans davrida shakllangan adolat tamoyili elementlarini ham mujassamlashtirgan edi. Amir Temurning quyidagi mulohazalari ham fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi: "Adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuza-sidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim" [2;15-b.]; "Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, askarlarimga in'omlar ulashdim" [2;15-b.].

Yuqoridagi mulohazalar tahlillari natijalaridan ko'rinib turibdiki, Ikkinchi Renessans mutafakkirlari, xususan, Alisher Navoiy dunyoqarashi, jumladan, undagi adolat tamoyilining shakllanishi ulkan tarixiy zarurat hamda kompleks omillar tizimi ta'sirida ro'y berdi. Sodaroq qilib aytganda, Alisher Navoiyning siyosiy arbob sifatidagi faoliyati va mutafakkir sifatidagi dunyoqarashining markaziy elementi bo'lgan adolat tamoyili mazkur maqola doirasida belgilab olingan murakkab tarixiy davr ijtimoiy-falsafiy tafakkur paradigmasining mahsuli sanaladi.

Alisher Navoiyning nafaqat asarlari, balki uning hayotiga oid biografik ma'lumotlar tahlili orqali ham bunga amin bo'lish mumkin. 1441–1501-yillar mobaynida yashab ijod etgan Alisher Navoiy temuriylar davlatining siyosiy, iqtisodiy hamda sotsiomadaniy markazlaridan biri bo'lgan Hirotda saroy xizmatchisi G'iyosiddin Kichkina oilasida tavallud topgan. Tabiiyki, o'sha davrning barcha ilg'or ilm-fan va madaniyat yutuqlari, tarbiya usuli hamda qulay imkoniyatlarni o'zida mujassamlashtirgan saroy muhitida ulg'ayish omili mutafakkir dunyoqarashining keng qamrovli bo'lib shakllanishi uchun zamin hozirladi. Qolaversa, bo'lajak davlat boshlig'i Husayn Boyqaro bilan birgalikda tahsil olishi uning nafaqat o'z davridagi eng ilg'or va sifatli ta'lim bilan ta'minlanishi, balki siyosiy jarayonlarning bevosita kuzatuvchisi va tahlilchisiga aylanishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keltirgan. "Ayni omil esa mutafakkirda bolalik chog'lari-dan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda, xususan, ijtimoiy adolatga tayanuvchi siyosiy boshqaruvni tashkil qilish hamda amalga oshirish ko'nikma va malakalarining hosil bo'lib borishiga olib keldi" [3]. Qolaversa, dunyoqarashning mustahkam poydevori shakllanadigan, yoshlik yillarida siyosiy vaziyat taqozosi bilan temuriylar saltanatining turli hududlarida yashash, ijod qilish va ta'lim olishga majbur bo'lgan Alisher Navoiy nafaqat ayni hududlardagi yetuk mutafakkirlar bilan tanishish, ulardan saboq olish, balki turli Temuriy hukmdorlar siyosiy faoliyatlarida xilma-xil darajada qo'llanilgan adolat tamoyilining namoyon bo'lish shakllarini qiyosiy o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Navoiy o'zining siyosiy arbob sifatidagi faoliyatini boshlaguniga qadar chuqur nazariy bilimlar bilan birga, siyosiy jarayonlarni boshqarish bilan bog'liq ulkan emperik bazaga ham ega bo'lgan edi. Uning vazir qilib tayinlanishi esa yillar mobaynida shakllantirilgan adolatli jamiyat qurish g'oyasini siyosiy boshqaruvda qo'llash, real voqelikni emperik kuzatish asosida chiqarilgan xulosalarini o'z asarlarida nazariy jihatdan tushuntirib berish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Sodaroq qilib aytganda, adolat tamoyili Navoiy dunyoqarashining markaziy g'oyasi bo'lib, uning aksariyat asarlarida ilgari surilgan boshqa g'oyalar Alisher Navoiy talqinidagi adolat konsepsiyasini izohlashga xizmat qilgan. Ko'plab tadqiqotlarda birgina turkiy tilning mavqeyini oshirish g'oyasi Alisher Navoiy ijodining markaziy tamoyillaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Ammo mazkur g'oya ham, eng avvalo, turkiy xalqlarning milliy o'zligi, hamjihatligini saqlab qolish, turkiy tamaddunning esa umumjahon sivilizatsiyasining teng huquqli vakili

ekanligini ko'rsatish orqali tarixiy adolatni tiklashdan iborat bo'lgan. Aslida, adolatni bu tariqa tiklashga bo'lgan urinish ham Ikkinchi Renessans ijtimoiy-falsafiy tafakkur paradigmasining an'alaridan biri edi. Amir Temur "...Millatlarning eng ulug'i va eng qadimiysi bo'lgan turkning bosh bo'g'inimiz" [2;56-b.], deb ta'kidlar ekan, barcha sa'y-harakat ana shu narsani amalda ham isbotlashga qaratilgan edi [4;103-b.].

Ko'rinib turibdiki, milliy til omili xuddi bugungi kundagi kabi Ikkinchi Renessans davrida ham siyosiy ahamiyat kasb etgan. Aniqroq qilib aytganda, dastlab, Amir Temurning markazlashgan davlati shakllanayotgan paytda turkiy tilli xalqlarni mo'g'ul mustamlakasidan qutulish shiori ostida milliy ozodlik harakatiga keng aholi ommasini konsolidatsiya qilish vazifasini bajargan. Keyinchalik esa temuriy shahzodalar o'rtasidagi o'zaro kurashlarni barham toptirish hamda davlat yaxlitligini saqlab qolishdagi mafkuraviy omil vazifasini bajargan. Jumladan, Navoiy dunyoqarashi va ijodini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishga qaratilgan aksariyat tadqiqotlarda "Muhokamat ul-lug'atayin" asari lingvistik tahlil predmeti o'laroq olib qaraladi [5]. Hatto, tarixiy hamda falsafiy-tarixiy, qolaversa, davlat huquq nazariyasiga oid izlanishlarda ham mazkur asar tadqiqotlarning Navoiyning hayoti va ijodiy merosiga bag'ishlangan qismlarida shunchaki uning tilshunoslikka qo'shgan hissasini ko'rsatish nuqtayi nazaridagina tilga olib o'tiladi. Bu esa, tabiiy ravishda, "Muhokamat ul-lug'atayin"ning Navoiy siyosiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari aks etmagan degan ilmiy stereotip ta'siri bunday ruhdagi tadqiqotlar doirasidan istisno qilinishiga olib kelmoqda. Bekorga Alisher Navoiy "Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa mingdir, Muayyan turk ulusi xud meningdur" deb sha'ma qilmaydi. Ma'nosi: "Agar turk ulusi qavmi yuzta bo'ladimi, mingta bo'ladimi, hammasi aynan menga mansubdir" [4;103-b.].

Navoiy ijodining sermahsulligi va turkiy til rivojiga qo'shgan hissasini Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida shunday baholaydi [3]: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas" [6,153-b.]. Garchi Navoiy to'laligicha fors tilida ta'lim olib, forsiy zabon adabiy va muloqot muhitida ulg'ayib, "Foniy" tahallusi ostida 6 mingdan ortiq ijod namunalari yaratgan bo'lsa-da, nega turk tilining ijtimoiy mavqeyini ko'tarish borasida bu qadar sa'y-harakatlar qildi, degan haqli savolning tug'ilishi, tabiiy. Qolaversa, fors tili rasmiy muloqot va ijod tili sifatida dominantlik kasb etib, turkiy va arab tillari u bilan birgalikda keng jamoatchilik iste'molida qo'llanilishi, aniqrog'i, Transsaxonlik (uch tillilik) tamoyili ikkinchi Renessans sotsiomadaniy muhitida norma hisoblangan bo'lsa-da, Navoiy turkiy tilning ijtimoiy mavqeyini yaxshilashga nega bu qadar ahamiyat qaratdi, degan savol tadqiqotchilar diqqat markazida turishi muqarrar. Yuqorida ham ta'kidlanganidek, turkiy til Navoiy yashagan davrda xuddi Amir Temur zamonlaridagi singari, birinchidan, identifikatsion, ikkinchidan, konsolidatsion funktsiya bajargan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, temuriylar hukmronligidan mustaqil bo'lishga intilayotgan Eron hududlari mamlakatda turli diniy va mazhablar bilan bog'liq nizolarni kuchaytirishga harakat qilardi.

Bunday murakkab tarixiy-siyosiy vaziyatda biror-bir hududni mamlakat tarkibida saqlab qolish uchun o'sha hududdagi mazhabga ustuvorlik berish ziddiyatlarning yumshashidan ko'ra ko'proq avj olishiga sabab bo'lar edi. Navoiyga zamondosh bo'lgan podshoh Husayn Boyqaro davrida Eronni qo'ldan chiqarish uchun, hatto shialikni ham qabul qilish odat bo'layotgan edi. Temur farzandlaridan Boysunqur Mirzo shialikni qabul qiladi. Husayn Boyqaro ham shialikni hukumatning rasmiy mazhabi deb e'lon qilish fikrida ekanligida butun davlat ziyolilari o'rtasida bu fikrga katta qarshilik paydo bo'ladi. Bu harakatda Navoiy ham bor edi [5;104-b.]. Ko'plab ziyolilar qatori Navoiy ham siyosiy jarayonlarning bunday murakkab tus olishiga qarshi bo'libgina qolmay, uni konstruktiv yo'l bilan hal qilishga qaratilgan takliflarni ham ilgari surdi. Jumladan, Alisher Navoiy turkiy tilga e'tibor qaratish orqali turkiy sivilizatsiyaning boshqa sivilizatsiyalardan kam emasligini isbotlash va shu asosida turkiy tilli xalqlar milliy ongi va milliy g'ururini yuksaltirish, eng muhimi, diniy mazhabiy mansubligidan qat'iy nazar yagona turkiy etnik birlik bilan identifikatsiyalanish g'oyasini ilgari surdi. XX asrning boshlarida jadidchilik g'oyalari atrofida birlashtirish zarurati tug'ilganda Abdurauf Fitrat ayni tarixiy jarayonni quyidagicha yodga oldi: "Navoiy va uning atrofida bo'lg'onlar bu tadbirning churikligini angladilar, bunga mone' bo'ldilar. Erondagi bu harakatga taslim bo'lish emas, qarshi turish, muqovamat qilish, o'zni qo'rish to'g'iroq topildi" [8;43-b.]. Ayni hodisaning Abdurauf Fitrat tomonidan yodga olinishi ham bejiz emas, chunki mazkur tarixiy fenomen Markaziy Osiyo xalqlari tub burilishlari davrining o'ziga xos qonuniyatiga aylanib ketgan.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, turkiy tilning ijtimoiy mavqeyini yuksaltirish nafaqat tarixiy adolatning tiklanishi, balki ijtimoiy adolatni o'rnatish nuqtai nazaridan ham zarurat edi. Chunki mamlakat aholisi o'zaro jips bo'lib, turli xil diniy, siyosiy, etnik nizolar bartaraf qilingan vaziyatdagina barcha uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlovchi ijtimoiy adolatni o'rnatish mumkin bo'ladi. Ayni yo'ldagi amaliy sa'y-harakat sifatida turkiy va fors tillarining o'zaro teng imkoniyatga ega ekanliklarini

arab tilida qiyosiy tahlil qilib yozilgan “Muhokamat ul-lug‘atayin” asarini ko‘rsatish mumkin. Qolaversa, forsiy tilli adabiyot an‘anasiga mansub bo‘lgan “Xamsa” asarining Navoiy tomonidan turkiy tilda yozilishi ham bu borada ulkan mafkuraviy mexanizm vazifasini bajardi.

Mutasavvuf mutafakkir o‘laroq, Alisher Navoiy o‘zidan oldingi davrlarda yashab faoliyat olib borgan so‘fiylar asarlari va g‘oyalariga ham murojaat qiladi. Aniqrog‘i, Navoiy asarlarida ilk o‘rta asrlar tasavvufiy g‘oyalarining yangicha talqinlari ishlab chiqiladi.

Tasavvuf tarixi tadqiq etilgan izlanishlar xulosalariga diqqat qaratilsa, Markaziy Osiyo va unga yondosh hududlardagi tariqatlar hamda tasavvufiy qarashlar rivojida suxravardiya oqimining ta‘siri katta bo‘lganligi ma‘lum bo‘ladi. Shu bois keyingi davr mutafakkirlari va mutasavvuflari ayni tariqatga tez-tez murojaat qilganlar. Masalan, Alisher Navoiy uni e‘zozlab tilga oladi. Shayx Shahobuddin Sa‘diy Umar Suhravardiyini o‘zining ustozini deb bilgan [9]. Amir Temurning piri Shayx Shamsiddin Kulol ham suhravardiylik tariqatiga mansub edi.

Shahobuddin Umar Suhravardiy shunday taniqli ediki, hatto unga yaqin kishilarning so‘zlaridan qaysi tariqat sohibi ekanliklarini tanib olsa bo‘ladi. Navoiy ham ba‘zi asarlarida shunga ishora qiladi. U suhravardiya tariqati asoschisi shayx Shahobuddin Umarning “Avorif ul-maorif” nomli asari mashhur bo‘lib, bir necha asrlar davomida sufiylar orasida dasturulamal bo‘lgan. Hatto “Suhravardiyning “Avorif” asarini o‘qimagan so‘fiy so‘fiy emas”, degan fikr shakllangan. “Miri Janda” deb atalgan bu zot aslida Toshkent shahrining Ko‘kcha dahasida qabri joylashgan Shayx Zayniddinning otasidir. Darhaqiqat, Muhammad Nurulloh Saydo Jazariyning “Tasavvuf sirlari” asarida Suhravardiy usulida insonni tasavvuf orqali poklash haqida shunday deydi: “Tasavvufga qadam qo‘yish insonning ma‘naviy olamini isloh etadigan, buzilgan qalblarning muolajasi uchun eng ta‘sirli bo‘lgan, insonni haqiqatlar atrofiga to‘playdigan o‘ta foydali va mustaqil ilmdir” [10;4-b.]. Qolaversa, Navoiy kabi tafakkur egalari hadisi sharifda “Insonlarning yaxshisi insonlarga naf‘ keltiruvchilardir” [11;438-b.] deb aytilgan sifatga xos ekanligi bizga ko‘p ma‘naviy foydalar berdi.

Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida so‘fiylarning hol va darajalarini tushuntirib berishda Ibn Arabiyning “Tafsiri alfoz al-sufiyya” [12], Fariddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” hamda Abdurahmon Jomiyning “Nafahat ul-uns” asarlariga murojaat qilganligini kuzatish mumkin. Negaki, Navoiyning mazkur asarida yuqorida nomi sanab o‘tilgan mutasavvuf olimlar g‘oyalariga monand qarashlarni uchratish, shuningdek, bayon qilish uslubida ham ayni mutafakkirlar metodologiyasiga yaqinlik ko‘zga tashlanadi.

Alisher Navoiy yoshlikdan ilohiyot sir-asrorlarini anglashga tirishardi. Tasavvuf tariqatlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, mazhabiy kurashlar, aqida va riyo muammolariga asosli javob bera oladigan ustozni izladi. Va nihoyat, taqdir uni Abdurahmon Jomiy bilan yuzlashtirdi. Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy siymosida qarashlari uning dinga, tariqatlarga, ilohiyot va falsafaga munosabatiga uyg‘un bo‘lgan buyuk zotni ko‘rdi. Alisher Navoiy uni o‘z piri deb bilib, umrining oxirigacha unga ulkan muhabbat va minnatdorlik tuyg‘usi bilan yashab o‘tdi. Masalan, Navoiydan avvalgi mutafakkirlar qarashida zohid dunyoni emas, balki haromni tark qiluvchi sifatida maydonga chiqqan. Imom G‘azzoliyning yozishicha, zuhd maqomi ham ilm, ham hol va amaldan kelur. Navoiy esa, hatto zohidni ham hali past maqomda ekanini ta‘riflaydi. Eslang:

*Zohid, senga hur-u, menga jonona (Xudo) kerak,
Mayli, jannat senga bo‘lsin, menga mayxona kerak,
Mayxona ichida soqiyu paymona kerak,
Paymona necha bo‘lsa, yana kerak [13].*

Yuqoridagi misralar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Navoiyning tasavvufiy qarashlarida axloqiylik bir-muncha chuqurroq ma‘no-mazmun kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, falsafiy nuqtayi nazardan axloqiylik tushunchasi yanada konkretlashadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqorida ta‘kidlanganidek, tasavvuf ta‘limoti Ikkinchi Renessansgacha bo‘lgan mo‘g‘ullar mustamlakasi davrida Markaziy Osiyo hududlarida keng tarqalib aholi orasida g‘oyaviy kompensatorlik vazifasini bajarganligi tufayli barchaning manfaatlarini aks ettiruvchi adolat idealini yaratishda unga ham murojaat qilish tabiiy zarurat edi. Hatto Amir Temur ham “Temur tuzuklari”da mazkur ta‘limotning g‘oyalariga tayanib adolat o‘rnatganligi yuqorida ta‘kidlab o‘tiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ayni sotsiomadaniy muhit mahsuli bo‘lgan Alisher Navoiy qarashlarida ham tasavvuf ta‘limoti sezilarli iz qoldirdi. Negaki, yuqorida tahliliga e‘tibor qaratilgan dastlabki omil Navoiy dunyoqarashining shakllanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltirgan bo‘lsa, tasavvuf omili mazkur dunyoqarashning yaxlit falsafiy ta‘limot sifatida tizimli ko‘rinishda shakllanishi uchun nazariy kon-

septual asos vazifasini bajargan. Ana shu asoslarga suyangan Alisher Navoiy gumanizmi insonparvarlik, adolat g'oyasini ko'tarib chiqib, insonlarda vatanparvarlik, odamiylik, yaxshilik va ezgulik fazilatlarini sufiyona tarzda o'z asarlarida qadriyat darajasiga ko'tarishga xizmat qilgan.

Navoiy dunyoqarashining tizimli konseptual ta'limot sifatida nazariy asos vazifasini bajargan tasavvuf an'analari ham o'z navbatida ko'pyoqlama ta'sir ko'rsatgan. Soddaroq qilib aytganda, Navoiy falsafasida xilma-xil tasavvuf tariqatlarining ilg'or g'oyalari konstruktiv tarzda sintezlanib, yangicha talqinlar kasb etadi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy dunyoqarashi, xususan, davlat arbobi sifatidagi faoliyatining mezonini bo'lib xizmat qilgan adolat haqidagi qarashlarining shakllanishida muhim o'rin tutgan u yashagan tarixiy davr xususiyatlari, o'sha zamon va makondagi sotsiomadaniy muhit, shuningdek, tasavvuf ta'limoti singari omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bu borada dastlabki ikki omil mutafakkir dunyoqarashining shakllanishidagi qulay sharoitni yuzaga keltirgan bo'lsa, Navoiy falsafasida konstruktiv tarzda sintezlashgan tasavvuf ta'limotining ko'plab g'oyalari tizimlashtiruvchi nazariy-konseptual asos vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Султон Хусайн Бойқаро. “Рисола” ёки “Девони Хусайний” девони. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.
- (2). Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент, “Шарқ”, 1997.
- (3). Амир Темур. Темур тузуқлари. Тошкент, “Шарқ”, 2005.
- (4). Пардаева М.Д. Алишер Навоий асарларида комил инсон ғояси. Фалс. фан. ном....дис., Тошкент, 2010.
- (5). Ш.Мадаева. Идентиклик антропологияси. Тошкент, 2015.
- (6). <http://человекнаука.ком/фонетика-морфологический-и-лексико-семантический-анализ-арабизмов-в-язйке-навои> (мурожаат қилиш вақти: 24.08.2022)
- (7). Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, “Юлдузча”, 1989.
- (8). Фитрат А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд, Т., “Маънавият”, 2000.
- (9). <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/suhravardiylik-uz/> (мурожаат қилиш вақти 10.08.2022)
- (10). Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо Жазарий. Тасаввуф сирлари. Тошкент, “Мовароуннахр”, 2000.
- (11). Абу Ййсо Муҳаммад ат-Термизий. “Аш-шамойил ал-Муҳаммадийя”. Таржимонлар – Мирзо Кенжабек, Убайдулла Уватов. Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020.
- (12). Ибн Арабий. “Суфийлар сўзларининг тафсири”. Араб тилида. Дамашк, 1997.
- (13). Эркин Воҳидов. Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар. <http://library.navoiy-uni.uz/files/alisher%20navoiy%20g'azallariga%20sharhlar.pdf> (мурожаат қилиш вақти: 23.08.2022).

Rahmonov Abrorbek Rustamovich (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, tadqiqotchi; e-mail: turk tili2024@gmail.com)

AJDODLAR VA AVLODLAR IJTIMOY-AKSIOLOGIK KONTEKSTIDA HARBII VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINING O'ZGARISHI

***Annotatsiya.** Maqola ajdodlar va avlodlar davrining ijtimoiy qadriyatlari kontekstida vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik tushunchalarining paydo bo'lishi va o'zgarishining retrospektiv va germenektiv talqiniga bag'ishlangan bo'lib, jadid ma'rifatparvarlarining Chor Rossiya davridagi vatanparvarlik pozitsiyalari, ularning yoshlarni ilmiy qilish orqali millatni hurlikka olib chiqish g'oyalari yoritilgan. Shu bilan birga, mustamlaka davrida milliy va diniy qadriyatlarning toptalishi, istiqoldan so'ng milliy armiyaning shakllanishi va xalq jumladan, yosh avlod ongi va tafakkurida yangicha harbiy vatanparvarlik tushunchasining paydo bo'lishi ijtimoiy-falsafiy tahlili qilingan.*

***Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, jadidlar, qadriyatlar, ajdodlar, avlodlar, yoshlar, milliy armiya, mustamlaka, Chor Rossiyasi, mustaqillik, islom dini.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ ВОЕННОЙ ПАТРИОТИЧНОСТИ В СОЦИАЛЬНО-АКСИОЛОГИЧЕСКОМ КОНТЕКСТЕ ПРЕДКОВ И ПОТОМКОВ

***Аннотация.** Статья посвящена ретроспективно-герменевтическому анализу возникновения и трансформации понятий патриотизма и военного патриотизма в контексте социальных ценностей эпох предков и потомков. В ней освещены патриотические позиции просветителей-джандидов в период царской России, их идеи о выведении нации к свободе через просвещение молодежи. Вместе с тем, в статье проводится социально-философский анализ уничтожения национальных и религиозных ценностей в колониальный период, формирования национальной армии после обре-*

тения независимости и появления новой концепции военного патриотизма в сознании и мышлении народа, в том числе молодого поколения.

Ключевые слова: патриотизм, военный патриотизм, прошлое, ценности, предки, поколения, молодежь, национальная армия, колониализм, царская Россия, независимость, религия ислам.

TRANSFORMATION OF THE CONCEPT OF MILITARY PATRIOTICITY IN THE SOCIAL-AXIOLOGICAL CONTEXT OF ANCESTORS AND DESCENDANTS

Annotation. The article is dedicated to a retrospective-hermeneutic analysis of the emergence and transformation of the concepts of patriotism and military patriotism in the context of social values of the epochs of ancestors and descendants. It highlights the patriotic positions of the Jadid enlighteners during the period of Tsarist Russia, their ideas about leading the nation to freedom through the education of the youth. At the same time, the article conducts a socio-philosophical analysis of the destruction of national and religious values during the colonial period, the formation of a national army after the independence, and the emergence of a new concept of military patriotism in the consciousness and thinking of the people, including the younger generation.

Key words: patriotism, military patriotism, past, values, ancestors, generations, youth, national army, colonialism, Tsarist Russia, independence, Islam religion.

Kirish (Introduction) Tarixsiz kelajak yo‘q. Tarix insonni shakllantirgan, uning kimligi, qayerdan kelgani, nima bo‘lishi, o‘tmishdagi xatolardan saboq olish, muvaffaqiyatga erishish uchun ilhom olish imkonini beradi. Tarixsiz kelajakni yaratish uchun bilim va tajriba muhimdirki, bu o‘tmishning qaytarilishi, o‘tmishdagi xatolarning takrorlanishining oldini olish uchun tarix bilish, o‘rganish, saboqlardan ibratlanishga olib keladi.

Bugun ajdodlarning xotirasini yod aylash, ularning qilgan ezgu ishlari, fidoyiliklari, ko‘rsatgan jasratlarini avlodlarga to‘g‘ri va o‘z vaqtida yetkazish dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Ularning ezgu ishlari, bebaho ma‘naviy meroslarini o‘zlashtirish va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi avlodning burchi va mas‘uliyatli vazifasidir.

O‘tmishda o‘tgan buyuk ajdodlarning vatan ozodligi va mustaqilligini himoya qilishi, Vatanni sevisha va ardoqlashi, yurtga dushman bostirib kirganda vatan uchun jonni fido qilishlari kabi vatanparvarlikning yuksak darajasini kelajak avlodga yetkazishda qadriyatlarining o‘rni beqiyosdir. Zero, qadriyatlar asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelmoqda. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Ajdodlarimizning vatanparvarlik pozitsiyalari chorizm mustamlakasi davrida qanday bo‘lgan? Qadriyatning vatanparvarlik sifatini shakllantirishdagi o‘rni qanday? Harbiy vatanparvarlik tushunchasi millat tafakkurida qaysi davrdan boshlab shakllana boshladi? Mazkur maqolada yuqoridagi savollarga javob topish maqsadida ajdodlar davrida vatanparvarlik pozitsiyasining namoyon qilinishi, milliy armiya tashkil topganidan so‘ng jamiyat ongida harbiy vatanparvarlik tushunchasining paydo bo‘lishi, jadidlarning yurtni ozodlikka chiqarishda yangicha yo‘ldan borishgani, milliy va diniy qadriyatlarining vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdagi o‘rni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review) Ajdodlarning vatanparvarlik pozitsiyalarini yoritilishiga oid bebaho ilmiy asarlar hozirgacha yetib kelgan bo‘lib, M.Yo‘ldoshevning maqolasida O‘zbekiston hududida yashab ijod etgan buyuk allomalar – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abullays Samarqandiy, Imom Moturidiy, Kaffol Shoshiy, Abu Rayhon Beruniy kabi ajdodlarning tug‘ilib o‘sgan joylari, ilmiy asarlari, ota-onani hurmat qilish, odob-axloq va o‘z vataniga muhabbat, jamiyat raqnaqi kabi insonlarning go‘zal sifatleri yoritilgan bo‘lsa, N.Mullaboyev vatanning muqaddasligi, ajdodlardan avlodlarga yodgor jo‘mardlik, javonmardlik, jonfidolik fazilatleri, milliy armiyaning tashkil topishi, ajdodlar xotirasini abadiylashtirishda muzeylarning ahamiyati, qurolli kuchlar tizimini isloh qilishning xuquqiy asoslarini ko‘rsatilgan. G.Ortiqxo‘jayeva yurt mustaqilligi va ozodligi uchun jon bergan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fidoyilik ko‘rsatgan ajdodlar xotirasiga bag‘ishlab qurdirilgan “Qatag‘on qurbonlari” muzeyining tashkil topishi, ajdodlarning buyuk merosi tarixiy obidalarning mustamlaka davridagi xolati va istiqloq davridagi obodonlashtirish ishlari tahlil qilingan. Ammo ajdodlarning vatanparvarlik pozitsiyalari zamonaviy yoshlarning vatanparvarlik qarashlari bilan munosabati va transformatsiyalashuvi qadriyatlar kontekstida dolzarb mavzu sifatida retrospektiv ko‘rib chiqilmagan.

of certain types of people's lives formed under the influence of the material and spiritual life of society, an indicator of their level of socialization [10;130–139 pp.].

Lifestyle is closely related to the spiritual world of people. Existing social, political, economic conditions and factors have a significant impact on people's lifestyle. In everyday life activities, their moral-aesthetic views, behavior, ideas of life are absorbed into their inner world, beliefs and become a way of life, a way of thinking. The basis of national values is formed by traditions, customs, ceremonies, holidays. Humanitarian ideas lie in the content of Uzbek national values. Throughout the long history, mutual cooperation and sympathy, loyalty and mutual respect, reliance on each other and good neighborliness, childhood and respect for parents, affection and loyalty have existed in Uzbek relations and daily life respected in every way. National values are a great indicator that represents the contribution of humanity, human qualities, traits, and characteristics to the treasury of the national cultural heritage created by each person belonging to that nation.

In fact, today only a truly enlightened person is able to understand human value, national values, in a word, his identity, to live in a free and free society, to occupy a dignified place can fight with dedication in the human community of our independent country. Therefore, in the process of education, it is important to form a person in every way, to realize his abilities, and to arm him with the knowledge, skills, and abilities necessary for social life. “In order to develop scientific and innovative activities in our country, first of all, young and talented personnel are needed. With that in mind, we rely on your wealth of knowledge and experience” [5;173 p.].

The years of independence paved the way for the development of the science and education system. New state standards of education have been developed. New textbooks and educational programs have been created. They include the study of the cultural and scientific heritage of the Uzbek people, the history of statehood, nature, the work and life of great figures and scholars, writers and artists, as well as world science and culture. As a result, it became possible to fully harmonize nationalism and universal humanity in the education system and in the development of our spirituality in general. As a result, a unique new system of educational institutions was formed and the criteria defining their main goals and tasks were created. The main content of the reforms in education was defined as educating a spiritually mature, well-rounded person with intellectual potential. Today, modern educational institutions are required not only to teach subjects carefully, but also to educate a highly spiritual person and create a healthy spiritual environment that ensures spiritual maturity. Educational institutions have a direct impact on the development of society from one qualitative level to a new qualitative level, and at the same time determine its level[7;178–179 p.].

National values are undoubtedly directly related to the development or crisis of the nation. In other words, national values are related to the nation's past and present. Therefore, national values develop with the development of the nation, and depreciate when it encounters a crisis. Therefore, the nation should create its own values, polish their new facets and aspects, and improve them in the process of development [8;79]. Unfortunately, there have been cases where national values are viewed as a sign of old age, and some of them are completely forgotten. It is not a frozen concept that instead of one correct value, another will appear. But the values formed in direct connection with the nation and its historical way of life cannot be renounced.

Peculiarities in the way of life are formed and changed in connection with the places of residence and conditions of their people. The Uzbek people pay particular attention to moral qualities such as humility, respect for elders, hard work, tolerance, and honesty in their life activities. Such qualities of the Uzbek people are reflected in national customs and traditions, daily life style and inter-ethnic relations. The importance of customs, traditions and customs based on moral standards in the life of our people is incomparable. The Uzbek people have lived as a community since ancient times and strictly followed the tradition of neighborhood.

Each period aims to educate a person suitable for its time and accordingly ,defines the model of social development. This is one of the main reasons why the issue of forming a free and independent person was determined from the first days of independence. Achieving these tasks requires multifaceted efforts. As long as the criteria and norms of lifestyle are not fully provided in the life of a person and society, situations of one-sidedness will arise [9;27–32 p.].

Conclusions and suggestions. It is difficult to make changes in society and improve people's living standards without solving problems related to lifestyle. When researching the issue, it is necessary to take into account the impact of modern development on the way of life and its consequences, and to develop mechanisms to minimize its impact.

Achieving the noble goals facing the people of Uzbekistan, the future of our country, its prosperity and well-being, how it will occupy a place in the world community in the 21st century, all of this directly depends on the education and upbringing of the new generation. Referring to the education system, the President says that “New Uzbekistan starts from the threshold of the school” and unprecedented attention is being paid to the fundamental reform of the national education system. – a lot of work is being done to develop the fields of science, culture and art, literature, sports, to increase the efficiency of traditional educational work, to realize the talents and abilities of young people, especially our girls” [6 : 44 issues].

Reforms in society do not happen by themselves. For this, a lot of complex work should be done. In this process, it cannot be done without changing the way of life. The reason is that, positive changes in the way of life form a sense of belonging in people, define practical tasks, such as a deep understanding of goals and tasks and striving for the future.

References:

- (1). Бегинин В. Социология образа жизни. Саратов, изд. Саратовского университета, 1993.
- (2). Возмитель А. Образ жизни: концепция, сущность, динамика. Автореф. дисс. на соиск... докт.соц.н., М., Институт соц. РАН, 2000.
- (3). Аристотель. Никомахова этика. Соч. В 4 т, Н. 4, М., “Наука”, 1984, с. 54 – 55.
- (4). Alan Uard, Nik Krossl. “Yoshlar va ijimoiy o‘zgarishlar”, New York, 2007, 13-bet.
- (5). Falsafa. Ensiklopedik lug‘at. T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010, 262-bet (Encyclopedic Dictionary of Philosophy. T., “National Encyclopedia of Uzbekistan”, 2010, 262 p.
- (6). M.Nurmatova. Shaxs kamoloyida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. T., ”Universitet”, 2009, 49-bet.
- (7). Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1, T., “O‘zbekiston”, 2017, 173-bet.
- (8). Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 28 yilligiga bag‘ishlangan tanatanali marosimdagi nutqi. “Xalq so‘zi”, 44-son, 8-dekabr, 2020.
- (9). Бегинин В. Социология образа жизни. Саратов, изд. Саратовского университета, 1993, 178–179 с.
- (10). Возмитель А. Образ жизни: концепция, сущность, динамика. Автореф. дисс. на соиск... докт.соц.н., М., Институт соц. РАН, 2000, 79 с.
- (11). Жуманова Ф.У., Назирова Г.К. Мактаб ўқувчиларида соғлом турмуш тарзини ривожлантиришнинг психологик-педагогик омиллари. Academic research in educational sciences, 2021, vol. 2, № 6, p. 27–32.
- (12). Скалабан И.А. Социальное, общественное и гражданское участие: к проблеме осмысления понятий. Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология, 2011, № 1, 130–139 с.

Yuldashev Doniyor Toxirovich (filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent),
Yuldashev Elyor (UrDU mustaqil izlanuvchisi)

KOMIL XORAZMIY SHE'RIYATIDA IBORALARNING LINGVOPOETIK IMKONIYATI

Annatsiya. Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida qo'llangan iboralarning lingvopoetik imkoniyatlari, badiiyati va ularda o'zbekona tafakkur ifodasi aks etishi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Komil Xorazmiy, ibora, fraza, lingvopoetika, okkozional, somatik, emotsional-ekspressivlik, frazeologik birikma.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИДИОМЫ В ПОЭЗИИ КАМИЛЯ ХОРЕЗМИ

Аннотация. В данной статье говорится о языковых и поэтических возможностях, художественности выражений, использованных в произведениях Камилля Хорезми, и о выражении в них узбекского мышления.

Ключевые слова: Камилль Хорезми, словосочетание, лингвопоэтика, окказионализм, соматика, эмоционально-экспрессивность, фразеологическое сочетание.

LINGUPOETIC POSSIBILITIES OF IDIOMS IN THE POETRY OF KAMIL KHOREZMI

Annotation. This article talks about the linguistic and poetic possibilities, the artistry of expressions used in the works of Kamil Khorezmi, and the expression of Uzbek thoughts in them.

Key words: Kamil Khorezmi, phrase, linguopoetics, occasionalism, somatics, emotional expressiveness, phraseological combination.

1. Kirish. Jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham iboralar yoki frazeologik birliklar ko'plab tadqiqotlar uchun o'rganish obyekti bo'lgan. Tilshunoslikda iboralarning shakllanishi, grammatik va semantik xususiyatlarini o'rganuvchi fanga frazeologiya deyiladi. Ibora yoki frazeologik birlik deyilgan-da esa "tuzilishiga ko'ra, so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik"ka aytiladi [16;124–125-b.]. Frazeologik fondda xalq tarixi, madaniyati va maishiy turmushining o'ziga xosligi jilvalanadi. Aslida, frazeologik birikmalar sof milliy xarakterga ega, ammo xalqlararo va tillararo hamkorlik baynalmilal ifoda madaniyatini shakllantirishi mumkin. Masalan, rus tilida ingliz, fransuz, nemis, italyan millatlari mintalitetiga xos iboralar uchrasa, o'zbek frazeologik fondida eroniy va arab tiyatiga daxldor iboralar uchrashi tabiiy holdir. Tilshunoslar frazemalar va turg'un bog'lanmalar (paremalar) munosabati masalasida turlicha fikrlar bildirishadi [5;83–84; 7;381-b.].

O'zbek xalqining tarixiy, ijtimoiy voqelik bilan bog'liq oilaviy hayoti, kishilarning o'zaro munosabati, ularning fazilatlarini, qisqasi, o'zbekona tafakkur ifodasi aks etuvchi frazeologik birikmalarni lingvomadaniy kodlar asosida tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi, iboralar shu jihatdan maxsus o'rganilishga loyiq. Frazani shakllantirish jarayonida inson omili muhim o'rin tutadi. Shaxs manfaat va qiziqishlari, talab va ehtiyojlari dunyoni anglashga yo'naltirilgan. Mumtoz ijodkorlar asarlarida qo'llangan har qanday ibora muallifning til birliklaridan foydalanish mahoratini ko'rsatuvchi omillardan biri sanaladi. Ushbu maqolamizda iboralarning mumtoz asarlardagi lingvopoetik imkoniyatlari Komil Xorazmiy she'riyati misolida yoritishga harakat qilindi.

2. Metodologiya. Ma'lumki, iboralar ham maqol va matallar kabi nafaqat inson nutqini chiroyli, ta'sirli va ixcham qiladi, balki ma'lum bir millatning madaniyati, yashash tarzi hamda milliyligini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Har qanday asarda uchraydigan ibora – frazeologik birliklar, albatta, biror badiiy maqsadda qo'llanilgan bo'lib, V.N.Teliyaning ta'kidlashicha, frazeologizm tadqiqotida muhim rol o'ynaydigan obyektiv va subyektiv faktorlar mavjud bo'lib, ushbu jarayon kommunikativ vaziyatlarni, ifodalanishda nominativ vazifani bajarishi, kognitiv jarayonlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik, nutqning ijtimoiy sharoitini anglash, kommunikantlarning statusini belgilovchi jihatlar sanaladi [13;55–56-b.]. Tadqiqot materiallari tahlil jarayonida tasviriy, tasniflash, lingvopoetik, konseptual kabi metod va usullaridan foydalanildi. "Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o'rnini, qo'llanishini, tuzilishini, o'ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi" [2;257-b.].

3. Natijalar. Komil Xorazmiy she'riyatida qo'llangan frazeologik birikmalarni lingvopoetik aspekt-da o'rganish eski o'zbek tilining frazeologik boyligini belgilashda, uni hozirgi o'zbek adabiy tili frazeologiyasi bilan taqqoslab tadqiq etishda boy manba bo'ladi. Chunki "Lingvopoetika nafaqat tilning ijtimoiy

vazifa hamda maqsadlariga, shuningdek, uning ko'plab nazariy-metodologik masalalariga tamomila yangi-cha yondashish imkonini beradi. Lingvopoetika til-nutq dixotomiyasiga monand ish ko'rib, tilning umumiy muammolarini qamrab olish bilan birga va shu tarzda, filologiya birligini ta'minlashga keng imkoniyatlar yaratadi" [9;22-b.].

Ma'lumki, har bir millatning o'ziga xos ko'rish yo'sini, o'ziga xos eshitish maqomi va idrok-intizomi bor. Iboralar tilimizning bebaho nodir boyligi bo'lib, unda xalqning orzu-istagi, intilishi, hayot tarzi, urf-odati, madaniy darajasi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois bugungi kunda tilda yuz beruvchi hodisalar mohiyatini yoritishda antropologik nuqtayi nazardan yondashuv kuchayib borayotgan bir vaqtda frazeologik birliklarning funksional-semantik imkoniyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina B. Yo'ldashev tomonidan chorak asr mobaynida o'zbek tili frazeologiyasi tadqiqi bo'yicha ancha ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirildi.

Badiiy matn lingvopoetikasida turg'un bog'lanmalar – barqaror birikmalar (maqol, matal, ibora va aforizmlar) tahlili o'ziga xos muhim jihatlardan biri sanaladi. Jumladan, frazeologik birikmalar ifodasi, uning ostiga yashiringan ma'no lingvopoetik tahlil jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Ya'ni, "hayotda xilma-xil voqea-hodisalarning tagiga yetish, turli-tuman harakat-holatlariga baho berish, katta-kichik tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari bo'lmish frazeologik iboralar badiiy matnda deyarli hamisha poetik aktual bo'ladi" [6;196-b.]. Frazeologizmlar tilning obrazli vositalari sirasiga kirib, har qanday ibora ostida aniq bir hodisa-tushuncha tasavvuri, muayyan bir predmet yotadi. Bu obraz iboraga alohida jilo va ravshanlik baxsh etadi [10;15-b.]. Tilshunoslikka oid ilmiy manbalarda ishlatiluvchi "frazema", "frazeologik birlik", "ibora", ba'zan Yevropa lingvistikasidagi qo'llanuvchi "idioma" terminlari mohiyatan bir tushuncha doirasidagi sinonim terminlar hisoblanadi (aslida, ular orasida juz'iy farqlanishlar bo'lsa ham). N.Mahmudovning "Tilning chinakam sehri joduli lug'aviy birliklari olamida yana bir mutlaqo uzviy qatlam mavjudki, uni mutaxassislar "iboralar" yoki "frazeologizmlar", "frazeologik birliklar" termini bilan ataydilar" [8;3-b.].

O'zbek tilidagi frazeologik birikmalarning xususiyatlari, ularning derivatsiyasi, ulardagi ma'no siljishlar – ma'noning kengayishi yoki torayishi, iboralar tasnifi, frazeologik norma muammolari, shuningdek, badiiy asarning lingvopoetik qimmatini yoritishda frazeologik birikmalarning muhim badiiy vosita sifatidagi ahamiyati Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, A.E.Mamatov, I.Qo'chqortoyev, B.Yo'ldashev, M. Yo'ldoshev kabi tilshunoslar tadqiqotlarida, shuningdek, frazemalarning lingvopoetik imkoniyatlari esa N. Mahmudov, D.Shodiyeva, G.Jumanazarova, Sh.Toshxo'jayeva, M.Ahmedova, O.Ochilova, J.Matnazarov kabi tadqiqotchilarning muayyan shoir va yozuvchilar asarlari lingvopoetikasi tadqiqi asosida atroflicha yoritilgan.

4. Muhokama. Komil Xorazmiy ijodida frazeologik birikmalar turli maqsadlarda – lirik qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda, psixologik, ijtimoiy-maishiy, madaniy voqelikni emotsional-ekspressiv ochib berishda juda o'rinli qo'llanilgan. Natijada shoir she'riyatining badiiy qimmati va ta'sir kuchi oshgan, obrazli ifodada frazema lingvistik ahamiyat kasb etib, Komilga xos individual poetik-lisoniy mahoratni belgilashga asos bo'lgan.

Frazeologik birliklar fikrning aniq va ravshan ifodasini ta'minlashda boshqa til birliklariga nisbatan o'ziga xos jihatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Komil Xorazmiy ijodining lingvopoetik tahlilida ham frazeologik birliklar alohida o'rin tutadi. Jumladan, shoir qalamiga mansub quyidagi g'azalda qo'llangan frazema ham matnda tasvirga olingan voqea darajasini oshirish hamda muallif hissiyotini gavdalanitirishda asosiy detal bo'la olgan:

Ey musavvir, qoshlarin payvasti sizma lavh uza;

Bosh qo'shar gohi qilurda qasdi jon ul ikki qosh... [17;76-b.] yoki:

Qoshlaring bosh qo'shdi Komil qatlig'a –

Istiroqu istiroqu istiroq...[17;95-b.] baytlarida qo'llangan "bosh qo'shmoq" iborasi "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da ko'p ma'noli ibora sifatida keltirilgan bo'lib, uning "aralashmoq" hamda "qatnashmoq" kabi ma'nolari qayd qilingan [11;57-b.]. Baytdan ko'rinadiki, shoir "qatnashmoq" ma'nosini berish uchun *bosh qo'shmoq* iborasini tanlagan va okkazional holatda qoshlarni oshiq qatli uchun "maslahatlashtirib", Ogahiy an'anasini ("Ustina" radifli g'azal matla'sini eslash kifoya) davom ettirib, bugungi frazeologik lug'atlardagi ma'nodan boshqa bo'lgan sema yordamida go'zal tashbeh yaratgan hamda bu bilan tasvirning estetik quvvatini oshirishga erishgan.

Shoir ijodida okkazional ibora qo'llashning an'anaviy iborasi tarkibini kengaytirish usulidan, ba'zan tarkibni qisqartirish usulidan keng foydalaniladi. Masalan, "g'am-alamli, g'am-alamda; ruhan azoblanmoq" ma'nolarni ifodalovchi *bag'r(i) qon, yurag(i) qon bo'ldi* [11;276–277-b.] kabi iboralarni shoir ayrim

o‘rinlarda aynan o‘zgarishsiz qo‘llagan bo‘lsa, ba‘zi hollarda qisman o‘zgartirilgan holda ishlatadi. Qanday qo‘llanishidan qat’iy nazar, shoir frazeologik birliklarni qo‘llash orqali lirik qahramon ruhiy holatini, uning qalbida kechayotgan iztirobni yorqin tasvirlay olgan:

*Kulmading bir, to mani yuz qatla giryon qilmading,
Tutmading bir jom, to ko‘nglum to‘la qon qilmading...
Xasta ko‘nglum tah-batah qon qilmog‘uncha g‘unchadek,
Ochilib majlisda ruxsoring gulafshon qilmading. [17;96-b.]
Ko‘zlarimdin oqsa gulgun ashk har dam tong emas,
Shisha yonglig‘ qilg‘usi ko‘nglum to‘la qon, o‘ynasa. [17, 152]
Yoqo choku dil xun etar bog‘ aro,
Gulu g‘unchani lablaring xandasi. [17;156-b.]
Xoli anbarin birla gul uzori hajrida,
Lola bargidek bag‘rim dog‘dor etib ketti. [KD;158b.]*

Haqiqatan, ibora, maqollardan unumli va o‘rinli foydalanish til tarqqiyotining har qaysi davriga xos muayyan matnning emotsional va ekspressiv bo‘lishini ta‘minlaydi. “Nutqning tuzilishi, gapning ifodali so‘z, jumlar va iboralardan tarkib topishi, badiiy-tasviriy vositalariga ko‘ra tinglovchi diqqatini jalb qila olishi nutqning ifodaliligi sanaladi” [1;35-b.]. Quyidagi baytdagi frazeologik birikmalar ham tasvir ifodasini badiiy lashtirib, tashxis va tashbeh san‘atlarining yaratilishiga zamin bo‘la olgan:

*Qo‘l-oyoqim iztirob aylar ayon siymobdek,
Soidu soqiyi billurin aylab uryon o‘ynasa. [17;152-b.]*

“O‘TFL”da “inson ruhiga chuqur ta‘sir qilmoq” ma‘nosini beruvchi *suyak-suyag(i)dan o‘tib ketmoq* iborasi [4;469-b.] keltirilgan bo‘lib, shoir *suyak-suyagidan* takroriy so‘zi o‘rnida *qo‘l-oyoq* juft so‘zini qo‘llash orqali okkasionallikka erishgan. Bilamizki, juft so‘z ma‘noni jamlash va umumlashtirish xususiyatiga ega. Shoir lirik qahramonning butun jism-u joni, vujudi bilan ezilayotganini shu juft so‘z orqali shakllangan ibora orqali ochib bergan.

O‘tub ko‘b oy-u yillar, so‘rmading holi parishonim,

Itobing shiddatin og‘zima yetmishdurur jonim. [17;171-b.] baytida muallif xalqona ohang orqali individuallikka erishgan. Ma‘lumki, xalqimizda biror idishni nima bilandir liq to‘la holda to‘ldirilishini ifodalashda *og‘zigacha to‘lmoq*, *og‘zigacha to‘ldirmoq* kabi birikmadan ham foydalaniladi. Yuqoridagi parchada Komil Xorazmiy: “1) o‘lar holga yetmoq; 2) chidami tugab, yashashdan ham bezor bo‘lib ketmoq; 3) nihoyatda qattiq g‘azablanmoq, darg‘azab bo‘lmoq; 4) nihoyatda qattiq qo‘rqmoq” [11;101–102-b.] ma‘nolarini ifodalovchi *jon(i) halqum(i)ga keldi* polisemantik iborasidagi *halqum* komponenti o‘rnida *og‘iz* so‘zini, *keldi* komponenti o‘rnida *yetmish* qo‘llash orqali, birinchidan, iboraning xalqona chiqishiga erishgan bo‘lsa, ikkinchidan, nimaningdir to‘lish darajasining oxirgi nuqtasiga yetganligini ko‘rsatishda originallikka erishgan.

Yana “so‘zlash qobiliyatini yo‘qotmoq” ma‘nosida qo‘llaniluvchi tilimizda *tildan qolmoq* iborasi mavjud [14;93-b.]. Quyidagi baytda an‘anaviy ibora tarkibiga *harakat* so‘zini kiritish orqali kengaytirish usulidan foydalanilgan va shu orqali tashxisga asoslanuvchi poetik ustuvorlikka erishilgan:

*Zuhrajabin sanamlari chunki qo‘lig‘a soz olur,
Nag‘masi jomni zor etib, til harakotdin qolur... [17;181-b.]*

Quyidagi baytda ham shoir an‘anaviy ibora tarkibini kengaytirish usulidan o‘rinli foydalangan. Jumladan, “g‘am-g‘ussani tarqatmoq, unutmog‘, xursandchilik qilmoq, o‘yin-kulgi, sayr va shu kabilar bilan dilgirlikni tarqatmoq” ma‘nosida qo‘llaniluvchi *ko‘ngil yozmoq* (yoki *ochmoq*) iborasi [15;457-b.] shoir qalamida uning bo‘lishsizlik shaklidan foydalangan holda *chamaniston havosidan* birikmasini kengaytiruvchi vosita sifatida qo‘llash orqali kuchli poetik aktuallik ta‘minlangan. Ya‘ni, chamanzor, chamaniston havosi har qanday inson bahri dilining yorishishiga, ko‘nglining ko‘tarilishiga zamin bo‘lishi, shubhasiz, ammo lirik qahramonning ko‘ngli shunda ham yorishmaydi:

Ochilmadi chamaniston havosidin ko‘nglum,

Ko‘zumga gul erur andoqqi xor g‘urbat aro. [17;23-b.]

Ijodkorlar iboralar tarkibiga yangi birliklar kiritishdan tashqari uning tarkibini qisqartirish orqali ham badiiy-estetik maqsadga erishish mumkin. Masalan, tilimizda “ixlosi qaytib, ishonmay qo‘yib, diqqat-e‘tiboridan soqit qilmoq” ma‘nosini ifodalovchi *qo‘l(i)ni yuvib*, *qo‘ltig‘(i)ga urmoq* frazemasini mavjud. Shoir uning *qo‘ltig‘iga urmoq* qismini tushirish orqali qo‘llaydi. Uning tushirilgan qismi o‘rnida esa boshqa bir iborani, ya‘ni, “ko‘ra-bila turib e‘tiborsiz qoldirmoq” ma‘nosidagi *ko‘z yummoq* iborasini qo‘llaydiki, bu qo‘sh ibora misraning estetik quvvatini oshiradi:

*Alarkim bu jahon lazzotidin qo‘l yudi-yu ko‘z yumdi,
Qanoat bolila parvoz edan shahbozlardurlar.* [17;57-b.]

O‘zbek tilida mavjud turli xil barqaror birikmalar muallifning istagi va badiiy matn hosil qilish mahoratidan kelib chiqib, o‘zining mazmun yaxlitligini saqlagan holda shaklan o‘zgarishga uchragan holda ishlatilishi o‘zbek mumtoz adabiyotida ham ko‘zga tashlanadi. Buni Komil Xorazmiy qo‘llagan “yoqor jonim [17;142-b.], quloq etsun vujudin [17;148-b.], yuzlanub ko‘ngluma [17;189-b.], solmoq asru oson ko‘z [17;70-b.] kabi iboralar ham dalillaydi.

Komil Xorazmiy ijodiga mansub yuqoridagi frazeologik birikmalar tahlilidan yana shu jihat anglashiladiki, bu frazemalarning aksariyati somatik frazemalar hisoblanadi. Somatik frazema til ma‘rifati halqasida o‘ziga xos o‘rin tutadigan birlik bo‘lib, ibora tarkibidagi somatik birlik etnik madaniyat to‘g‘risida arxeotipik tasavvurlarga tayanadigan dunyoqarashni shakllantirish, voqelik idroki intizomini rasmiylashtirish, axborotni saqlash va qayta ishlash vositasida somatik frazemaga aylanadi. “Inson tanasiga ko‘chirilgan til birliklarini kodlashtirish somatik frazema xususiyatlarini izohlaydi. Uni shartli tarzda, madaniy ustqurma qurilmalari, ya‘ni somatik, davriy, makoniy, moddiy ko‘rinishlarga ajratish mumkin” [12;3-b.]. Darhaqiqat, odatiy til birligidan somatik ifodaga o‘tish lisoniy-madaniy aloqadorlikni taqozo etadi. Aslida, somatik frazema – har bir millat til sahnida alohida o‘rin tutadigan xazina va til jozibasini namoyon etadigan qadriyat. Unda xalq turmush tarzi, ma‘naviy va moddiy faoliyati, ruhiy madaniyati va e‘tiqodi, tarixi va asriy tajribasi umumiy yaxlitlikda aks etadi. Unda inson tanasiga ko‘chirilgan tuyg‘u, tasavvur hamda timsol muayyan qiymat kasb etadi. O‘z navbatida, bu istiloh nutq madaniyati hosilasi hisoblanadi. Binobarin, somatik frazema tilni taraqqiyotda va o‘zgaruvchan tizim sifatida anglash vositasi sanaladi. Unda lisoniy ma‘rifat qadimiy davr ildizlari – so‘z, tushuncha, shakl va konstruksiyalar qorishiq holda namoyon bo‘ladi. Aynan somatik qurilma til jozibasi va uning qayta amaliy ishlanganlik darajasini namoyon etadi. To‘g‘rirog‘i, “belgi ichida belgi”, ya‘ni, semiologik markaz butunligini modellashtirish tasvir qo‘llanmasining o‘ziga xos tabiatini uyushtirish vazifasini bajaradi. Somatik frazema tiyatini insonning kommunikativ axloqi tashkil etadi.

Komil Xorazmiy she‘riyati ham so‘z qo‘llash va tanlash jarayonida, albatta, mumtoz an‘analar hamda jonli tilga tayangan: “Komil ishq mavzusida qalam tebratar ekan, so‘z qo‘llashda ham o‘ziga xos yuksak mahoratga erisha oldi. U g‘azallarida xalq tilida ishlatiladigan iboralarni, jonli tilga yaqin so‘zlarni qo‘llaydi. G‘azallarda keltirilgan “bir oyoqda tik turib”, “yoxud ul o‘qlarga qopularmudur”, “ko‘chada har kecha it uvlarmudur?” kabi xalqona iboralar shoir she‘riyati oddiy kitobxonlar diliga yaqinligini ko‘rsatsa, shu bilan bir qatorda, shoir she‘riyatining samimiyatini ham ko‘rsatuvchi omillardandir” [3;52-b.].

5. Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu qaydlar Komil Xorazmiy yashagan davrning til xususiyatlarini sharhlashda ham asosiy omil bo‘la oladi. Har bir frazeologik birikmaning matn tarkibida uchrashi emotsional-ekspressivliklikni ham oshiradi. Shunisi aniqki, shoir she‘riyatida qo‘llangan frazemalar shunchaki ishlatilmagan, balki tasvirni jonli, aniq, bezakdor qila olgan. Chunki shoir she‘rlarida an‘anaviy xalqona frazemalarni ham, tarkibni kengaytirish yoki qisqartirish orqali okkazonal-individual frazemalarni ham tanlagan va janr, vazn, qofiya hamda mazmun talabidan kelib chiqib, o‘rinli qo‘llagan. Natijada Komil Xorazmiy nazmining musiqiy ohangdorligi, xalqchilligi, umuman, badiiy qimmatini yanada oshgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. T., Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013, 35-bet.
- (2). Rasulov Ravshanxo‘ja. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 2010, 257-bet.
- (3). G‘ayipov D., Xudayorova D. Komil g‘azaliyotida ishqiy mavzu. “Ilm sarchashmalari”, Urganch, 2023, 52-bet.
- (4). O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022, 469-bet.
- (5). Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII – XIX веков. М., 1982, с. 83–84.
- (6). Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 196-бет.
- (7). Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М., «Высшая школа», Дубна, “Феникс”, 1996, с. 381.
- (8). Маҳмудов Н. Иборалар ва уларнинг луғавий тавсифига чизгилар. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Т., 2022, 3-сон, 3-бет.
- (9). Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни. Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами). Тошкент, “Университет”, 2002, 22-бет.
- (10). Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. Тошкент, “Фан”, 1971, 15-бет.
- (11). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1978, 57-бет.

(12). Сайфи Л.А. Концептуализация соматического образа человека в языке и дискурсивных практика. Автореф. дисс. канд. филол. наук, Уфа, 2008, с. 3.

(13). Телия В.Н. Русская фразеология. М., 1996, с. 55 – 56.

(14). Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5 жилдлик, 4-жилд, Тошкент, ЎЗМЭ, 2005, 93-бет.

(15). Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5 жилдлик, 2-жилд, Тошкент, ЎЗМЭ, 2005, 457-бет.

(16). Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, 2002, 125-бет.

(17). Комил. Девон. Тошкент, Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.

Rasulova Muqaddam Raxmon qizi (Namangan davlat universiteti magistranti) O‘ZBEK TILIDA MULOQOT SHAKLLARINING LINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya. *Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko‘rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo‘lgan xabarlarimi, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko‘ngliga mos, adabiy normadagi ifodalalar bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so‘zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim.*

Kalit so‘zlar: *odob, inson, nutq, adabiy norma, psixolingvistika, muhit.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ФОРМ ОБЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *Манеры человека проявляются прежде всего в его речи. Что такое речевой этикет? Этикет речи подразумевает передачу сообщений, которые необходимо сказать, с уважением к слушателю и выражение их в литературной норме. Любое некрасивое сообщение можно доставить слушателю без всякого вреда. Для этого говорящий должен в совершенстве владеть языком и нормами литературного языка.*

Ключевые слова: *этикет, человек, речь, литературная норма, психоллингвистика, среда обитания.*

LINGUISTIC RESEARCH OF COMMUNICATION FORMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation. *A person’s manners are first of all seen in his speech. What is speech etiquette? Etiquette of speech refers to conveying messages that need to be said, respecting the listener, and expressing them in a literary norm. Any ugly message can be delivered to the listener without any harm. For this, the speaker must have a perfect knowledge of the language and norms of the literary language.*

Key words: *etiquette, human, speech, literary norm, psycholinguistics, environment.*

Kirish. O‘zbek xalqi o‘z ma‘naviyati va madaniyati mavjud bo‘lgan turkiy xalqlarning biri sifatida tildan foydalanishda ham qadimiy an‘analari, odat va ko‘nikmalariga ega.

Ma‘lumki, inson faoliyati uning jamiyat mahsuli sifatida mavjudligi sanalib, ana shu faoliyat jarayonida u ma‘lum harakatlarni amalga oshiradi hamda jamiyat a‘zolari bilan til muomalasida muloqotda, fikr almashishda bo‘ladi. Ammo bu muomala tildan foydalanuvchilarning madaniyati darajasiga ko‘tarilgunga qadar uzoq davrni bosib o‘tishi, tabiiy. O‘zbek nutqi ham bugungi taraqqiyot bosqichiga yetgunga qadar ana shunday vaqt sinovidan o‘tgan. Nutqiy odat birliklarining guruhida ma‘noning qandaydir invarianti bo‘lib, u nutqiy odat vaziyatlarida muloqotning turli sharoitlariga qarab variantga aylanishi haqida to‘xtalgan edik. Bunday variantga aylangan so‘zlar keksa yoshdagilar nutqida qo‘llanuvchi “bo‘tam”, “bo‘talog‘im”, “toychog‘im”, “qo‘zim”, “qo‘zichog‘im”, “arslonim” “ohuyim” “qaldirg‘ochim” kabi til birliklari ham sanalib, ular ma‘lum maqsadlarni ifodalashda muhim ahamiyatga egadir. Nutqiy odatga mansub bu verbal vositalar ayrim xususiyatlariga ko‘ra, nutqiy metaforalarga yaqin turadi. Biroq bu tushunchalar o‘rtasida ancha farq bor. Ular o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos belgilarni alohida ko‘rib chiqishdan avval “metafora” deb atalgan hodisaning o‘ziga aniqlik kiritalik.

Obraz kabi metafora olamni badiiy tushunish jarayonida stixiyali ravishda vujudga keladi. U ma‘lum manoda inson irodasiga bo‘ysunmaydi. Uning ma‘nosi to‘la shakllangan deb aytish mumkin emas. Metafora tushunishni emas, balki ifodaning obyektidir. Xuddi shu xususiyat uni kommunikatsiyaning vositasi sifatida ishlatishga yo‘l qo‘ymaydi. metafora bilan xabar berilmaydi, u bilan buyruq berish yoki qandaydir majburiyat olish mumkin emas. U adresatsizdir.¹

“O‘zbek tili leksikologiyasi” qo‘llanmasida esa metafora hodisasiga shunday munosabatda bo‘linadi. Ma‘lumki, ma‘noning o‘xshashlik prinsipi asosida ko‘chishi metafora muhim belgisini tashkil etadi. Biroq predmetlar va hodisalar orasidagi tashqi o‘xshashlik asosida ko‘chirilgan ma‘nolar bilan predmet va uning harakati nomlarining insonga nisbatan, uning tabiati va harakati nomlarining insonga nisbatan, uning tabiati harakati belgilarini xarakterlashga mo‘ljallab ishlatish: *eshak, it, to‘ng‘iz, qo‘chqor, bo‘taloq, qo‘zichoq,*

¹ Теория метафоры. М., 1990, с. 23.

ilon, chayon, lochin, bulbul, akillamoq, vakillamoq, sayramoq kabi soʻzlarning metaforik qoʻllanishi natijasida hosil boʻluvchi maʼnolar orasida katta farq bor. Birinchi holda soʻzning metaforik qoʻllanishi borliq hodisalarning maʼlum bir tashqi belgi xususiyatlarini obrazli qoʻllashga xosdir. Ikkinchi holda esa metaforik qoʻllangan soʻz nutq subektining nutq obektiga, shaxs va harakatiga nisbatan yorqin subyektiv emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalaydi.¹

Muallif S.Gʻoyibov tilda odamning turli xil belgi, xususiyatlarini anglatuvchi qator soʻzlar amal qilish, jumladan, adresatning axloqiy, intellektual va ijtimoiy belgilarini, shaxsiyatlarini anglatadigan soʻzlarining leksik maʼnolarida nutq predmetini shaxsni ijobiy va salbiy emotsional baholash elementlari mavjudligini taʼkidlaydi. “Biroq til arsenalidagi bu kabi soʻzlar nutq subyektiv adresant nazarida uning fikrini oʻz istagi darajasida emotsional-ekspressiv ifodalashga oʻzlik qilib qoladi. Mana shu nuqsonni bartaraf etish uchun ongli ravishda hayvon, gazanda, qush va shu kabilarni, shuningdek, ularning xatti-harakatlarini anglatuvchi soʻzlarni metaforik maʼnoda qoʻllashga oʻtiladi.

Kitobda “Ichib olgan bu *eshak*. Boʻlmasa birovni urib gʻizgʻizon boʻlib ketadimi xotintaloq” (Oʻ. Hoshimov) misoli berilib, undagi *eshak* soʻzi bosh maʼnoda – invariant holda uy hayvonining bir turi boʻlib, ahmoq, yaramas odam semalariga egaligi koʻrsatiladi. Demak, nominativ va metaforik maʼnolar uchun umumiy semalar ahmoq, yaramas semalari ekan. Bu umumiy sema *eshak* soʻzining metaforik maʼno bildirishi uchun asos boʻlyapti. Bu yerda maʼlum oʻxshashlik mavjud boʻlib, bu intellektual xarakterlovchi belgilar oʻxshashligidir. Nutqiy odat vaziyatlarida qoʻllanuvchi verbal birliklar ham obrazlilik hamda subyektiv emosional-ekspressiv baholash ijobiy, baʼzan salbiy nuqtayi nazardan boʻlib, unda adresantning ijtimoiy belgilari asos boʻladi:

“Qorning ochgandir, *arslontoyim*, paranchi va chachvonni ayvonga uloqtirib, dedi kampir, hozir choy qaynataman (Oybek).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Nutq madaniyati muomalalari bilan shugʻullanish birinchi marta Praga lingvistik toʻgaragi vakillari tomonidan oʻrtaga qoʻyilgan. Bu sohadagi urinishlar XX asrning 20–30-yillarida, avval rus tilshunosligida, 60–70-yillarda oʻzbek tilshunosligida boshlandi. Bu narsa 1969-yil Toshkentda boʻlib oʻtgan I respublika nutq madaniyati konferensiyasida ham taʼkidlangan. Oʻzbek millatiga xos anʼana va odatlar har bir xalqning oʻzligini koʻrsata oladigan belgilar sanaladi. Ona tilimizning bu ijtimoiy jihatlari tadqiqotchilarimizning ham eʼtiborini tortgan. Ammo keyingi yillarda ushbu mavzuga bagʻishlangan yirik tadqiqotlar qilindi. B.Oʻrinboyev, A.Abdullayev, L.Abdullayeva kabi qator tilshunolar ishlarida ham tadqiq etilgan [1]. Oʻzbek tilining boy imkoniyatlari insonga qarindoshlik rishtalari bilan bogʻlangan shaxslarni turli nomlar bilan atash uchun keng koʻlamli manba boʻlib xizmat qiladi. Bunday nomlarda maskulinlik va feminlik belgilari yaqqol namoyon boʻladi.

Erkak kishiga nisbatan qoʻllanuvchi nomlar orasida ota semasini ifodalovchi murojaat leksik birliklar, ayniqsa, alohida eʼtirof etiladi.

Oʻzbek oilasida, odatda, ayol oʻz eriga ismi orqali juda kam hollarda murojaat qiladi. Boisi, ayolning oʻz eriga boʻlgan cheksiz hurmati, qadrlashi, shu bilan birga, faqat sharq ayollarigagina xos boʻlgan nafaqat oʻz turmush oʻrtogʻiga, balki oilaning boshqa aʼzolariga ham andisha, xijolat yoki uyalish kabi tuygʻularning ustunligidandir. Shu sababli xotin oʻz eriga odam, bu kishi, aka (ismiga qoʻshib), begim, jonim, azizim kabi murojaat shakllarini qoʻllaydi. Odam, bu kishi, aka kabi leksik murojaatlarni, odatda, suhbatdoshlar davrasida ishlatib, begim, jonim, azizim kabi murojaat shakllarini oʻzaro suhbatda, faqat er-xotin oʻrtasidagina qoʻllaydi.

Ayol semasini ifodalovchi leksik birliklar bilan birga qoʻllanuvchi sifatlovchilarni kuzatar ekanmiz, bu birliklarda murojaat etilayotgan ayolga nisbatan soʻzlovchining munosabati yaqqol namoyon boladi. Masalan, yostiqdosh, rafiqa, xotin, jonon kabi lugʻaviy birliklarda ayolga boʻlgan munosabat jufti halolidan tortib, boshqacha mazmundagi murojaatni ham koʻrishimiz mumkin. Erkaklar oʻzaro salomlashganda, koʻrishganda yoki xayrlashganda ularning nutq odobida bu ishni alohida lutf-u nazokat bilan amalga oshirishga ishtiyoqning yoʻqligi erkaklar salomlashishidagi oʻziga xoslikni belgilaydi.

Muloqotni kerakli tarzda olib borish maqsadida murojaat shakllarini oʻz oʻrnida, sharoit uchun moslangan holda qoʻllash zarur. Murojaat shakllari adresatning muhim ijtimoiy belgilari – yoshi, jinsi, kasbi kabi belgilash bilan birga baʼzan adresatning jamiyatda tutgan oʻrni, vazifasini ham anglatish mumkin. Shuningdek, murojaat shakllari ishlatiladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Til materialining tadqiqi jarayonida tavsifiy, distributiv, transformatsion va oʻrni bilan aplikativ usullardan foydalanildi. Maqola mavzusini yoritishda

¹ Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент, 1981, 164-бет.

qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, struktural va semantik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Manzirat ifodalovchi birliklarning xoslanishi azal-azaldan o'zbek xalqi o'zining mehmondo'stligi, yaqinlariga meh-roqibatligi, xushmuomalaligi bilan alohida ajralib turadi. Kishilar yaqinlarining boshiga og'ir musibat tushganida ham, shodiyona yoki quvonchli kunlarida ham bir-birlarining ko'nglini ko'taruvchi, yupatuvchi, qutlov so'zlarini muloqot jarayonida keng qo'llaydilar. Ayni shu madaniy xususiyat T.Malikning "Shaytanat" asarida mahorat bilan ochib berilgan. Bunday so'zlar mulozamat-manzirat leksikasi, ya'ni iltifot ifodalovchi nutqiy birliklar deyiladi. Mulozamat-manzirat ifodalovchi shakllar kishilar o'rtasidagi qarindoshlik, do'stlik va yaqinlik munosabatlarini mustahkamlaydi. Bunday munosabatlar fatik kommunikatsiya termini bilan yuritiladi. Fatik kommunikatsiya termini ilk bor ingliz etnologi B.Malinovskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, mulozamat (manzirat) ko'rsatish funksiyasini ifodalaydi. Bu atama lotincha "gapirish" ma'nosini bildiradi, ba'zan uning o'rnida "sotsiativ" so'zi ham ishlatiladi (O'zbekning kundalik hayotini mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur qilish qiyin, shunday ekan, T.Malik ham o'z qissasida bu hodisani mahorat bilan tasvirlab beradi). Chunki o'zbekning nutqi bunday so'zlarisiz jo'n, rasmiy, hatto, qo'pol bo'lib qoladi. Tildagi mulozamat-manzirat shakllarni ishlatilish o'rniga ko'ra, quyidagicha tasniflash mumkin:

1. So'rashish, ko'rishish va xayrlashish jarayonida ishlatiladigan mulozamat shakllari.
2. To'y-hasham, mehmondorchilik va boshqa shodiyona kunlarda ishlatiluvchi mulozamat shakllari.
3. Aza-motam yoki qayg'uli vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat shakllari.
4. Nutqda doim iste'molda bo'lgan barcha boshqa vaziyatlardagi mulozama manzirat shakllari.

Mulozamat-manzirat shakllarining ifodalanishini jinslar nisbatiga ko'ra:

a) ayollarga xos mulozamat-manzirat shakllari;

b) erkaklarga xos mulozamat-manzirat shakllari;

d) ayollar va erkaklar nutqida birdek qo'llanishda bo'lgan neytral mazmundagi mulozamat-manzirat shakllariga ajratamiz. Fatik kommunikatsiya jarayonida adresant va adresatlarning jins jihatidan farqlanishi sodir bo'ladigan nutqiy vaziyatda yaqqol aks etadi. Jumladan, ayollar nutqini mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur etish imkonsiz, chunki bunday so'zlar ayollar nutqining shirin, muloyim bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'zbek ayoli bunday so'zlarga kundalik turmush tarzida deyarli doim murojaat qilib turadi. Erkaklar nutqida esa bu holat birmuncha passiv amalga oshadi.

Xulosa va takliflar. Tahlillardan ko'rinib turibdiki, inson nutqi g'oyatda murakkab jarayon hisoblanib, uni faqat tilshunoslik doirasida o'rganish amalda mumkin emas. Boshqacha aytganda, birgina tilshunoslik fani uni mukammal o'rganishga o'zlik qiladi. Fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida shakllangan sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, madaniyatshunoslik singari fanlarning hamkorligigina bu muammolarni ijobiy hal qilish imkonini beradi. Shunday qilib, muloqot inson faoliyatidagi eng murakkab jarayon sanalib, bu jarayonning amalga oshishida ma'lum qonun-qoidalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Рустамов А. Сўз хусусида сўз. Тошкент, "Ёш гвардия", 1987, 158 бет.
- (2). Саидхонов М.М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. Филол. фан. номз... дис. автореф., Тошкент, 1993, 24 бет.
- (3). Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари семантикаси ва грамматикаси. Тошкент, 2000, 48 бет.
- (4). Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундалма. Тошкент, "Фан", 1968, 75–83 бетлар; Тошкент области ўзбек шевалари. Тошкент, "Фан", 1976, 172 бет.
- (5). Турон Усмон. Туркий халқлар мафқураси. Тошкент, "Чўлпон", 1995, 1046 бет.
- (6). Усмонов С. Умумий тилшунослик. Тошкент, "Ўқитувчи", 1972, 108 бет.
- (7). Усмонов С. Ундов гаплар. Тошкент, 1955, 22-бет.
- (8). Усмонов С. Ўзбек тилида ундовлар. Тошкент, 1953, 1288-бет.
- (9). Усмонова У. Талаффуз маданияти. Тошкент, "Фан", 1976, 60 бет.
- (10). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-farmoni.

Toshova Xurshida Sultonovna (Navoiy davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti;
e-mail: xtoshova90@mail.ru)

“RANG” SEMALI LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Ranglarga bo‘lgan mental qarashlar har bir xalqning milliy madaniyati, tarixi, urf-odatlarida aks etadi. Ayniqsa, bu xususiyatlar rang komponentli lingvomadaniy birliklarda yaqqol ko‘rinib turadi. Maqolada turk va o‘zbek tillaridagi rang bilan bog‘liq lingvokulturemalar qiyosiy tahlil qilingan. Ikki tilda mazmunan va shaklan mushtarak bo‘lgan ibora, maqollarda ranglarga bo‘lgan qarashlarning ham o‘xshashligini ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: lingvokulturemalar, konseptual olam, konnotatsiya, metafora, oq, qora, qizil.

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ С ТЕМОЙ «ЦВЕТ

Аннотация. Ментальные отношения к цветам отражаются в национальной культуре, истории и традициях каждого народа. Особенно ярко эти особенности проявляются в лингвокультурных единицах с цветовым компонентом. В статье проводится сравнительный анализ лингвистических культур, связанных с цветом, в турецком и узбекском языках. Сходство взглядов на цвета можно увидеть в общих по содержанию и форме выражениях и пословицах в двух языках.

Ключевые слова: лингвокультуры, концептуальный мир, коннотация, метафора, белый, черный, красный.

COMPARATIVE ANALYSIS OF LINGUISTIC AND CULTURAL UNITS WITH THE THEME “COLOR”

Annotation. Mental attitudes towards colors are reflected in the national culture, history, and traditions of each nation. These features are especially evident in linguistic and cultural units with a color component. Linguistic cultures related to color in Turkish and Uzbek languages are comparatively analyzed in the article. Similarity of views on colors can be seen in expressions and proverbs that are common in content and form in two languages.

Key words: linguocultures, conceptual world, connotation, metaphor, white, black, red.

Kirish. Tildagi har bir lingvomadaniy birliklar shu tilning milliy madaniyati, urf-odatlarini, tarixiy il-dizlari, katta hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelganligi ma‘lum. Hozirgi kunda dunyo tilshunosligida antropotsentrik tilshunoslikning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan til va madaniyat uyg‘unligi yetakchi mavzular-dan biridir hamda jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Lingvokulturologiyaning obyektini konseptual ong mahsuli bo‘lgan lingvomadaniy birliklar dunyo tillari madaniyatida ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Lingvoma-daniy birliklar dunyo xalqlari madaniyatida milliy-madaniy mushtaraklikni aks ettiradi. Ayniqsa, turk va o‘zbek tilidagi rang komponentli lingvokulturemalarida mushtarak urf-odatlar, mushtarak hayotiy tajriba, mushtarak milliy madaniyatni ko‘rishimiz mumkin. Rang komponentli lingvomadaniy birliklarga xos o‘x-shashlikni nafaqat qardosh tillar, balki qardosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida ham umummadaniylikni ko‘ra-tadi. Rang komponentli lingvokulturemalar ham har bir xalqning rangga bo‘lgan umummadaniy qarashlari asosida paydo bo‘lgan. Masalan, *qora rang* yovuzlik, o‘lim, tun, g‘am-g‘ussa; rus xalqida eski, qari, yorug‘-likdan mahrum qandaydir narsani; Afrika xalqlarida yovuzlik, yomon narsalar, kasallik; Xitoy folklorida jiddiylik, adolat; Sharq va O‘rta Osiyo madaniyatida ba‘zan ulug‘vorlik, buyuklik ma‘nolarini tamsil etadi. *Oq rang* deyarli barcha xalqlar tilida poklik, soflik, ezgulik, yorug‘lik, rostgo‘ylik; Uzoq Sharq mamlakat-lari madaniyatida motamni; ba‘zi lingvomadaniyatlarda esa qo‘rqoqlik kabi ma‘nolarini ifodalaydi. *Qizil rang* xursandchilik, farovonlik, to‘kin-sochinlik, Britaniyada tahdid, urush, kuch-qudrat, jasorat, AQSHda xavf-xatar, Fransiyada zodagonlik, Misrda o‘lim kabi ramziy ma‘nolarni ifodalaydi [1]. Biroq biz bu ma-qolamizda turk va o‘zbek tillaridagi rang komponentli lingvokulturemalarining lingvomadaniy tahliliga e‘ti-bor qaratdik.

Adabiyotlar tahlili. Lingvokulturologiya antroposentrik tilshunoslikning eng rivojlangan yo‘nalish-laridan biridir. Bu yo‘nalishning rivojlanishida V.V.Vorobyov [2], V.M.Shaklein [3], V.N.Teliya [4], V.A. Maslovalarning (5) tadqiqot ishlari juda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda dunyo tilshunosligi bilan bir qatorda, o‘zbek tilshunosligida ham lingvokulturologiya yo‘nalishida tadqiqot ishlari olib borilmoqda: N. Mahmudov [6], D.Xudoyberganova [7], Sh.Usmonova [1]larning olib borgan ilmiy izlanishlari o‘zbek til-shunosligida ham lingvokulturologiyaning rivojida muhim ahamiyatga ega. Lingvokulturologik tadqiqotlar ko‘lamida rang komponentli tahlillar alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa rang komponentli leksik birliklar qa-torida frazemalar alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvokult-urologik tadqiqida A.E.Mamatov [8], B.Yo‘ldoshev [9] kabi tilshunoslarning tadqiqotlari muhim o‘rin tu-tadi. Rang komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahliliga ayrim tadqiqotlarda nisbatan e‘ti-

bor qaratilgan: M.Sodiqova [10], Sh.Shomaqsudov, Sh.I.Shorahmedov [11], I.Yuldoshev, T.Öztürk, Y. Öztürklar [12] va boshqalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini til va madaniyat uyg'unligi, ya'ni lingvokulturologik qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, lingvomadaniy, komponent va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Rang bilan bog'liq lingvokulturologik birliklarimizda ham o'xshash milliy-madaniy xususiyatlarimiz aks etadi. Masalan, turk tiliga nazar tashlaydigan bo'lsak, turk tili o'zbek tili bilan bir oilaga, ya'ni turkiy tillar oilasiga mansubdir. Shunday ekan, ularning madaniyati ham mushtarakdir. Lingvokulturologik mushtaraklik deyarli barcha rang komponentli lingvomadaniy birliklarda ko'zga tashlanadi. Masalan, maqollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, har ikki xalq donishmandligi, hayotiy tajribasi, milliy madaniy xususiyatlari asosida yuzaga kelgan lingvokulturrema hisoblanadi. Bu kabi lingvomadaniy birliklarni quyidagi tartibda qiyosiy tahlil qilishimiz mumkin:

1. Ham shaklan, ham semantik mos keluvchi lingvomadaniy birliklar.
2. Shaklan mos, semantik farqlanuvchi lingvomadaniy birliklar.
3. Shaklan mos bo'lmagan, semantik jihatdan mos keluvchi.

Ak akçe kara gün içindir [12] maqoli o'zbek tilidagi *oq tanga-qora kunga* [11] maqolining aynan o'zidir. Maqollar yuqorida aytib o'tilgan ham shaklan, ham mazmunan mos keluvchi maqollar sirasiga kiradi. Har ikkala maqolda ham *oq* va *qora* leksemalari antonimlik asosida to'qchilik va yo'qchilik kunni ifodalagan, ya'ni, to'kin, to'qchilik kunlaringda yo'qchilik, og'ir kunlarningning g'amini yemoq degan mazmun aks etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, har ikki til madaniyatida ham *oq* va *qora* rangga nisbatan bir xil qarash borligini ko'rish mumkin. Bu ikki maqol variantdosh maqol hisoblanadi. *Sakla samani gelir zamani To'qlikda ochlikni o'yla* maqollari esa yuqoridagi har ikki maqolga sinonim bo'la oladi.

Turk tilidagi *Ak koyun ak bacağından, kara koyun kara bacağından asılır* [14] maqoli haqiqatga sodiq qolganlar ishonch qozonadi va mukofotlanadi. Yomonlik qilganlar o'zlariga yarasha jazosini oladilar, ya'ni har bir inson o'zi uchun o'zi javob beradi mazmuni aks etadi. O'zbek tilidagi *Oq qo'yni ham o'z oyog'idan osadilar, qora qo'yni ham o'z oyog'idan osadilar* maqolida ham xuddi yuqoridagi mazmun aks etadi. Aybsiz insonni har qancha qoralashga urinmasinlar, baribir, oxir-oqibat aybsizligi yuzaga chiqadi; aybi bor inson o'zini har qancha oqlashga urinmasin yo uni oqlashga, aybini yashirishga har qancha urinmasinlar, baribir, uning aybdorligi tasdig'ini topadi, ya'ni har kim qilmishiga qarab topadi. Bu maqollar ham shaklan va mazmunan bir xil bo'lib, *oq* va *qora* rangga nisbatan mushtaraklikni ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolda implisit ifoda mavjud. Ushbu maqol o'zbek ongida quyidagi hikoyatni tiklaydi: Bir akauka bo'lib, akasi zolim hokim, ukasi esa dinga qattiq ishongan mutaassib ekan. Ukasi akasining qonxo'rzolimligidan u dunyoda ikkalamiz ham buning jazosini tortamiz deb doim xavotirda, ko'ngli yorishmay, yegan-ichgani tatimay yurar ekan. Kunlarning birida u tasodifan kushxonaga kirib qoladi-da, so'yilgan oq qo'ylarni ham, qora qo'ylarni ham o'z oyog'idan osib qo'yganlarini ko'rib birdan sevinib ketadi va birdan baland ovozda: "Oq qo'yni ham o'z oyog'idan osarkanlar, qora qo'yni ham o'z oyog'idan osarkanlar!" deb yuboradi. Keyinchalik, bu xalq orasida maqolga aylanib, majozan: "Birovning qilmishi uchun birovni jazolamaydilar, har kim o'z qilmishiga yarasha jazosini tortadi", degan ma'noda qo'llaniladigan bo'lib ketgan [11]. Xalqimizda xususiyatlar, holatlar ranglarga taqaladi. Masalan, *oq* rang ezgulik, yaxshilik, poklik, *qora* rang esa yovuzlik, yomonlik, g'am, o'lim kabi holat va xususiyatlarni ifodalaydi. Bu esa o'zbek xalqi konseptual olamining kengligini ko'rsatadi.

Quyidagi maqollarda ham turk va o'zbek xalqlari madaniyatining mushtarakligini ko'rishimiz mumkin: *Ak koyunu kara kuzusu da olur* [12] – *Bir onadan alvon bola tug'iladi* yoki *bir palakdan har xil xamak chiqadi* maqollaridir. Bu maqollar yuqorida aytilgan qiyosiy tahlilning shaklan mos bo'lmagan, semantik jihatdan mos keluvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Ushbu maqollar bir xil semantik qiymatga ega: Qobil (yaxshi) ota-onadan noqobil (yomon) farzandlar ham tug'ilishi mumkin. Maqoldagi *oq* leksemasi yuqorida ta'kidlaganimiz kabi, insonga xos "yaxshi", "oqil", "har tomonlama yetuk" kabi ma'nolarni ifodalagan.

Quyidagi maqolda *yuzi qora* [13] iborasi qo'llangan va bunda *qora* leksemasi asosiy komponent bo'lib, konseptual ma'no ifodalaganini ko'rishimiz mumkin: *Isteyenin bir yuzü kara, vermeyenin iki yuzü* [14] – *So'raganning bir yuzi qora, bermaganning ikki yuzi qora* [10] maqollari ham shaklan, ham semantik mos keladi va kimningdir yomon, uyatli ish qilib, obro'sizlangan, gunohkorona holatga tushib qolishi ma'nosini ifodalaydi. Bu iborada ham shaklan va mazmunan moslikni ko'rishimiz mumkin.

Ham shaklan ham semantik jihatdan mos keluvchi maqollardan biri *İyi dost kara günde belli olur* [12] – *Yaxshi do'st qora (yomon) kunda bilinadi* maqolidir. Maqoldagi *kara günde*, ya'ni *qora kunda*

iborasidagi *qora* (*kara*) leksemasi bunda asosiy komponent bo‘lib, konseptual mazmun ifodalayapti, ya’ni, qora kun – turmushning og‘ir, yomon, mashaqqatli, azob-uqubatli kunlarini ifodalash uchun xizmat qilgan. Yaxshi do‘st faqat baxtli kunlaringdagina emas, ana shunday og‘ir, yomon kunlaringda ham yoningda tura olganda bilinadi, degan ma’no ifodalangan.

Xuddi shunday *qora* leksemasi lingvomadaniy mazmun ifodalagan maqollardan yana biri *Kara giin kararip kalmaz (durmaz)* [14] – *Qorong‘i (qora) kun mangu bo‘mas* maqollaridir. Ba’zida og‘ir kunlar bo‘ladi, lekin bu yomon kunlar abadiy davom etmaydi. Ertami-kechmi yomon kunlar ortidan yaxshi va umidli kunlar keladi. Bu maqollarning sinonimi: *oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘* maqolidir. Har uchala maqolda ham og‘ir, azobli, yomon kunlar mangu bo‘lmasligi, bunday kunlarning ortidan, albatta, yaxshi, umidli kunlar kelishiga ishonch yotadi.

Ma’lumki, “siyoh” leksemasi predmet ma’nosini ifodalaydi, ya’ni yozish uchun mo‘ljallangan qora rangli suyuqlikdir. Siyoh so‘zi ham konnotativ ma’no asosida lingvokulturologik ma’no ifodalaydi. Bu ham bir qancha lingvomadaniy birliklarda aks etadi. Masalan, turk tilidagi *siyah inekten beyaz sut sagilir* [14] maqolidir. Bu o‘zbek tilidagi *qora sigir ham oq sut beradi, qora tovuq ham oq tuxum qiladi* [11] maqollari bilan mushtarakdir. Ular o‘zaro variantdosh maqollardir. Har ikki maqol ham bir xil shakl va mazmunga ega bo‘lib, insonning tashqi ko‘rinishiga: chiroyli yoki xunukligi, basavlat, kelishgan yo ko‘rimsizligiga qarab xulosa chiqarishi, shunga ko‘ra javob-muomala qilishi kerak emasligini, aksincha, har odamning aql-u zakovati, fazli-kamoli, ma’noli va yoqimli gap-so‘zi, qilgan va qilayotgan xayrli ishlari, jamiyatda qozongan hurmat-e’tiboriga, tutgan mavqega qarab munosabatda bo‘lish kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Ak kopek kara kopek ikisi de kopektir [12] maqoli o‘zbek tilidagi *Oq it qora it – bari bir itdir* [12] maqolining ham shaklan, ham mazmunan aynan o‘zidir. Har ikki maqolda kichik bir yomonlik qiladigan inson ham, katta yomonlik qiladigan inson ham baribir yomon hisoblanadi, ya’ni, biri ikkinchisidan juda farq qiladigan va individual ravishda yomon bo‘lgan odamlar yomon bo‘lish jihatidan bir xildir degan ma’no ifodalaydi [17].

Lingvomadaniy birliklarda, xususan, maqollarda *oq* va *qora* komponentlarining kontrast qo‘llanishi semantik ta’kidni yuzaga keltirgan. O‘zbek va turk xalqlari qardosh bo‘lganligi sababli lisoniy tarkibda ushbu jihat quyidagicha aks etadi: 1. Oq → qora. 2. Qora → oq.

Iboralar ham lingvokulturologik birlik sifatida xalqning turmush tarzi, urf-datlari, hayotiy tajribasi asosida yuzaga kelgan xalqlarning konseptual olami mahsulidir. O‘zbek va turk tillarida “Rang” semali iboralar ham lingvomadaniy ma’nolar ifodalaydi. Turk tilidagi *kara (kötü) haber* [12] iborasi o‘zbek tilidagi *qora (yomon) xabar* iborasiga teng keladi. Har ikkalasida ham shakl va mazmun mosligini ko‘rish mumkin. *Qora xabar*, ya’ni yomon xabar ma’nosini ifodalab kelgan.

Kara çalmak [12] iborasi turk tilida kimnidir qilmagan ishi uchun “ayblamoq”, usmonli turk tilidan saqlanib qolgan “tuhmat qilmoq” ma’nolarini ifodalaydi. Bu o‘zbek tilidagi *qora qilmoq (qoralamoq)* [16] so‘ziga teng keladi.

Karalar bağlanmak (giymek) [12] frazeologik birligi esa o‘zbek tilidagi *qora kiygan* [13] iborasi bilan bir xil ma’no ifodalaydi. Bu iboralaridagi qora leksemasi asosiy komponent sifatida juda xafa bo‘lmoq, qattiq dard chekmoq, ya’ni, kimningdir vafotini eshitib, xafa bo‘lmoq, azoblanmoq, dard chekmoq ma’nolarini ifodalashga asos bo‘lgan.

Turk tilidagi *kizarip bozarmak* [12] iborasi o‘zbek tilida *qizarib-bo‘zarib* iborasi bilan o‘xshashdir. Bu ikki frazeologik birlikda qizil asosiy komponent bo‘lib, shu asosida qizarmoq leksik birligi yuzaga kelgan. Iboralar nojo‘ya, nomaqbul xatti-harakati, qilmishi, aybi, kamchiligi va shu kabi holatlar uchun kimsa oldida xijolat tortmoq, izza holatga tushmoq ma’nolarida qo‘llaniladi. Bu holatga tushgan insonning yuzida ham shu rangga moyillik aks etadi. Bunda ham shakl va mazmun jihatdan moslikni ko‘rish mumkin.

Lingvokulturemalar orasida yuqorida aytilgan qiyosiy tahlilning shaklan mos keluvchi, semantik jihatdan farqlanuvchi tartibidagi lingvomadaniy birliklar ham mavjud. Masalan, turk tilidagi *Siyah kalp* [18] va o‘zbek tilidagi *qora yurak* iboralari shaklan bir xil, lekin mazmunan farqli frazeologizmlardir. *Siyah kalp*, ya’ni, qora yurak ko‘pincha hazil, qayg‘u yoki o‘limning qorong‘i mavzusini ifodalash uchun ishlatiladi. Biroq rang kontrastiga qaramasdan, uning eng keng tarqalgan ishlatilishi hali ham sevgi va ehtirosni ifodalashdir. *Qora yurak* [13] iborasi esa g‘arazgo‘y, yomon niyatli, ko‘nglida kek saqlaydigan insonlarni ifodalaydi. Ko‘rinib turibdiki, har ikki tildagi iboralar shaklan bir xil, ammo mazmunan farqlidir.

Xulosa. Kuzatganimizdek, ranglar har bir xalq konseptual olamida o‘ziga xos lingvomadaniy ma’no-mazmun kasb etadi. Yuqorida so‘z yuritilgan turk va o‘zbek xalqlariga xos mushtarak lingvomadaniy birliklarda oq, qora, qizil ranglar ham o‘xshash ma’no ifodalab kelgan, ya’ni, har ikki til milliy madaniyatida bu ranglarga nisbatan bir xil qarashlar borligini ko‘rishimiz mumkin. Oq rang ezgulik, yaxshilik, begunoh-

lik; qora rang yomonlik, gunohkorlik, qizil rang uyalish, xijolat bo'lish, izza bo'lish kabi ma'nolarni ifodalab kelishi har ikki tilning hayotiy tajribasi, milliy urf-odatlarini, tarixiy taraqqiyotining mushtarakligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik, Toshkent, 2019, 163 – 164-betlar.
- (2). Воробьев В.В. Лингвокультурология. М., Тзд-во РУДН, 2008.
- (3). Шаклеин В.М. Лингвокультурологический аспект общеславянского культурного наследия. Славянские языки и культуры в современном мире. М., “МАКС Пресс”, 2009.
- (4). В.Н.Телия. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., “Языки русской культуры”, 1996.
- (5). Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений, М., Издательский центр «Академия», 2001.
- (6). N.Mahmudov. O'xshatishlar–obrazli milliy tafakkur mahsuli. “O'zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 3-son.
- (7). D.Xudoyberganova. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. Toshkent, 2015.
- (8). E.A.Mamatov. Zamonaviy lingvistika. Darslik, T., “Noshir”, 2019.
- (9). B.Yo'ldoshev. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Samarqand, 2007.
- (10). Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. Monografiya, T., “Fan”, 1974, 95-bet.
- (11). Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: o'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. T., O'zSE bosh redaksiyasi, 1990, 335; 337; 383; 496-betlar.
- (12). Yuldoshev Ibrahim, Tuncay Öztürk, Yüksel Öztürk. Özbe Türk Atasözleri ve Deyimleri sözlüğü. Lug'at. Toshkent, 1998, 43; 88; 93; 93; 135; 166; 167; 169-betlar.
- (13). Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova N., O'razova I., Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati. T., G'afur G'ulom nashriyoti, 2022, 415; 578-betlar.
- (14). Ömer Asım Aksoy. Atasözleri ve Deyimleri sözlüğü. Ankara, 1971, 61; 150; 156; 194-betlar.
- (15). Begmatov E., Hojiyev A. va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild, T., G'afur G'ulom nashriyoti, 2022, 226-bet.
- (16). https://www.hurriyet.com.tr
- (17). https://www.milliyet.com.tr

Karimova Xurshida Abdurashid qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti doktoranti;

Email: botanichkahurshika@gmail.com)

XITOIDA ENERGETIKA TERMINLARINI STANDARTLASHTIRISH TIZIMI

***Annotatsiya.** Bugungi kunda deyarli barcha davlatlar uchun energetika xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish va energetika sohasida milliy strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasi o'zining bir millarddan ortiq energiya iste'molchisiga ega bo'lgan mamlakat sifatida eng ko'p energiya ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi davlatlardan biridir. Muqobil energiya manbalaridan energiya ishlab chiqarishni rivojlantirish Xitoyning energetika tuzilmasida “Toza energiya” ulushini oshiradi, atrof-muhitni muhofaza qiladi, davlat esa izchil iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanadi. Xitoyda muqobil energetikani yanada rivojlantirish, elektr stansiya va turli elektr inshootlarining qurishda soha terminlarini standartlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada terminlarni standartlashtirish nega kerakligi va bu jarayon qanday boshlangani batafsil yoritilgan. Shuningdek, energetika sohasi terminologiyasini standartlashtirish jarayonini, umuman, terminologiyani standartlashtirish va unifikatsiya qilishga mas'ul tashkilotlar bilan tanishtirganmiz. Ma'lumki, terminologiya sohasi doimiy o'zgarib va boyib boradi. Terminologiyada uchraydigan polisemiya, sinonimiya va omonimiya hodisalari esa terminlarni amalda qo'llashda noaniqlikni vujudga keltiradi va mutaxassislar muloqotiga to'sqinlik qiladi. Terminlarning xilmaxilligiga qarshi kurashish maqsadida terminologik standartlashtirish va unifikatsiyalash o'ta zarur jarayondir. Hozirgi vaqtda standartlashtirish to'rt darajada amalga oshirilmoqda: xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy.*

1988-yil 29-dekabrda Xitoy Xalq Respublikasining standartlashtirish to'g'risidagi qonuni qabul qilingan. Ushbu hujjatga ko'ra, XXRning barcha me'yoriy hujjatlari quyidagilarga bo'linadi: milliy standartlar (GB), professional (profil) standartlar va mahalliy standartlar (MB). Xitoy so'nggi 70 yil ichida 36 877 ta milliy standartlarni yaratganini aytib o'tish joiz. Bu vaqt mobaynida Xitoyning standartlashtirish jarayoni uchta asosiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Birinchidan, Xitoyda standartlashtirish unitar hukumat taklifidan ikki tomonlama hukumat-bozor taklifiga aylantirilgan. Yana bir o'zgarish shundan iboratki, standartlashtirish ko'lami sanoatdan iqtisodiyotning birlamchi va uchinchi tarmoqlariga, shuning-

dek, davlat ishlariga kengaygan. Uchinchi o'zgarish shundaki, Xitoy xalqaro standartlarni passiv qabul qilishdan ularni rivojlantirishda faol ishtirok etishga o'tdi. Xitoy 10 mingdan ortiq xalqaro standartlarni milliy standartlariga moslashtirdi. Shuningdek, u xalqaro standartlar bo'yicha takliflar berish yuzasidan eng faol davlatlardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: muqobil energiya, Xitoy muqobil energiya manbalari, terminologiya, terminlarni standartlashtirish, terminlarni standartlashtirish organlari, milliy standartlar, Xitoy standartlashtirish tizimi.

Каримова Хуршида Абдурашидовна (докторант Ташкентского государственного университета востоковедения; Email: botanichkahurshika@gmail.com)

СИСТЕМА СТАНДАРТИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В КИТАЕ

Аннотация. Сегодня практически во всех странах актуально решение проблем, связанных с энергетической безопасностью, и разработка национальных стратегий в области энергетики. Китайская Народная Республика является одним из крупнейших производителей и потребителей энергии как страна с более чем одним миллиардом потребителей энергии. Развитие производства энергии из альтернативных источников энергии позволит увеличить долю «Чистой энергетики» в энергетической структуре Китая, защитить окружающую среду, а страна будет развиваться экономически и социально. В Китае важно и дальше развивать альтернативную энергетику, стандартизировать отраслевые условия строительства электростанций и различных электротехнических объектов. В этой статье подробно объясняется, зачем нужна стандартизация терминов и как начался этот процесс. Известно, что область терминологии постоянно меняется и обогащается. Явления полисемии, синонимии и омонимии, встречающиеся в терминологии, создают неопределенность в практическом применении терминов и затрудняют общение специалистов. В целях борьбы с многообразием терминов весьма необходимым процессом является терминологическая стандартизация и унификация. В настоящее время стандартизация осуществляется на четырех уровнях: международном, национальном, региональном и местном.

29 декабря 1988 года был принят Закон Китайской Народной Республики о стандартизации. Согласно этому документу, все нормативные документы КНР делятся на: национальные стандарты (ГБ), профессиональные (профильные) стандарты и местные стандарты (МБ). Стоит отметить, что за последние 70 лет Китай создал 36 877 национальных стандартов. За этот период процесс стандартизации в Китае претерпел три крупных изменения. Во-первых, стандартизация в Китае превратилась из предложения унитарного правительства в предложение двойного правительства и рынка. Еще одно изменение заключается в том, что сфера стандартизации расширилась от промышленности до первичного и третичного секторов экономики, а также государственных дел. Третье изменение заключается в том, что Китай перешел от пассивного принятия международных стандартов к активному участию в их разработке. Китай адаптировал более 10 000 международных стандартов к своим национальным стандартам. Также Китай одна из самых активных стран, предлагающих международные стандарты.

Ключевые слова: альтернативная энергетика, китайские альтернативные источники энергии, терминология, стандартизация терминов, органы стандартизации терминов, национальные стандарты, китайская система стандартизации.

Karimova Khurshida Abdurashid qizi (PhD student, Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Republic of Uzbekistan; Email: botanichkahurshika@gmail.com)

SYSTEM OF STANDARDIZATION OF ENERGY TERMS IN CHINA

Annotation. Nowadays almost all countries are faced with the challenge of solving energy security problems and developing national strategies in the energy sector. The People's Republic of China is one of the largest energy producers and consumers as a country with more than one billion energy consumers. The development of energy production from alternative energy sources will increase the share of "Clean Energy" in China's energy structure, protect the environment, and the country will develop economically and socially. In China, it is important to further develop alternative energy, standardize industry terms in the construction of power plants and various electrical facilities. This article explains in detail why the standardization of terms is needed and how this process began. It is known that, the field of terminology is constantly changing and enriching. Phenomena of polysemy, synonymy and homonymy occurring in terminology creates uncertainty in the practical application of terms and hinders the communication of specialists. In order to combat the diversity of terms, terminological standardization and unification is a very necessary process. Currently, standardization is carried out at four levels: international, national, regional and local.

On December 29, 1988, the Standardization Law of the People's Republic of China was adopted. According to this document, all regulatory documents of the PRC are divided into: national standards (GB), professional (profile) standards and local standards (MB). It is worth mentioning that China has created 36,877 national standards in the past 70 years. During this period, China's standardization process has undergone three major changes. First, standardization in China has been transformed from a unitary government proposition to a dual government-market proposition. Another change is that the scope of standardization has expanded from industry to the primary and tertiary sectors of the economy, as well as government affairs. The third change is that, China has moved from passive acceptance of international standards to active participation in their development. China has adapted more than 10,000 international standards to its national standards. It is also one of the most active countries in proposing international standards.

Key words: *alternative energy, Chinese alternative energy sources, terminology, standardization of terms, standardization organizations of terms, national standards, Chinese standardization system.*

Kirish. Qayta tiklanadigan energiya manbalari tobora energiya ishlab chiqarishda umumiy energiya balansining muhim qismiga aylanmoqda. Hidroenergetika, bioenergetika, quyosh energetikasi, geotermal va okean energetikasi, shuningdek, shamol energetikasi qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Mamlakatda energetik, ekologik, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda hamda energetika sohasini barqaror rivojlanishi uchun qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, shak-shubhasiz, zarurdir. Kelgusi avlodlar uchun tabiiy boyliklarni saqlab qolish va ekologiyani muhofaza qilishning zaruriy sharti qayta tiklanadigan va muqobil energiya manbalarini o'zlashtirish hisoblanadi.

1973–1979-yillardagi neft islohotidan keyin qayta tiklanadigan energiya va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga talab sezilarli darajada oshdi. Qayta tiklanadigan energiya sanoati jadal rivojlanmoqda va 2040-yilga borib, qayta tiklanadigan energiya iste'moli global energiya balansining 14 foizini tashkil qilishi bashorat qilinmoqda. 2023-yilda yangi quyosh va shamol quvvatlarining 96 foizida xarajatlar yangi ko'mir va gaz elektr stansiyalariga qaraganda kamroq bo'lgan. Shamol va quyosh stansiyalari 2025–2026-yillarda AESlarni ortda qoldirishi kutilyapti. Germaniyada qayta tiklanuvchi manbalardan olinadigan energiyaning ulushi allaqachon 60 foizga yaqinlashgan, shuningdek, Xitoy ham katta o'sishni ko'rsatmoqda. 2023-yil davomida qayta tiklanadigan energiyaning global quvvati 2022-yilga nisbatan 50 foizga oshib, qariyb 510 GWga yetgan. Bu so'nggi 20 yildagi eng yuqori o'sish ko'rsatkichidir. Yevropa, Qo'shma Shtatlar va Braziliyada qayta tiklanadigan quvvatlarning o'sishi barcha vaqtlardagi eng yuqori natijani qayd etgan bo'lsa-da, Xitoydagi o'sish favqulodda darajada yuqori bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi va manbasi. Ushbu maqolada mavzuni yoritish uchun qiyoslash metodidan foydalanildi. Tadqiqot uchun manba sifatida esa quyidagilar xizmat qildi: elektrotexnika muqobil energiya terminologiyasi standarti (JB/T 14258-2022); elektrokimyoviy energiya saqlash elektrstansiyalari uchun texnik ko'rsatmalar standarti (GB/T 44133-2024); fotovoltik energiya ishlab chiqarish uchun quyosh energiyasi manbalarini baholash spetsifikatsiyasi standarti (GB/T 42766-2023); quyosh energiyasi manbasini baholash usuli standarti (GB/T 37526-2019); quyosh energiyasi resurslari terminologiyasi standarti (GB/T 31163-2014) [15].

Natijalar. Xitoyda muqobil energetikani yanada rivojlantirish, elektr stansiya va turli elektr inshootlarining qurishda soha terminlarini standartlashtirish muhim ahamiyatga ega. Quyida terminlarni standartlashtirish nega kerakligi va bu jarayon qanday boshlanganini ko'rib chiqamiz.

XX asr ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi, bu esa ba'zi sohalar terminologiyasi terminlari sonining nazoratsiz o'sishiga olib keldi. Shuningdek, terminologiyada uchraydigan polisemiya, sinonimiya va omonimiya hodisalari terminlarni amalda qo'llashda noaniqlikni vujudga keltirdi va mutaxassislar muloqotiga to'sqinlik qila boshladi. Terminlarning xilma-xilligiga qarshi kurashish maqsadida terminologik standartlashtirish jarayoni boshlandi. Polisemiya, sinonimiya va omonimiyaga asoslangan terminologiya, shubhasiz, mutaxassislarning muloqotiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli XIX asrda olimlar va XX asr boshlarida texnik mutaxassislar o'z sohalarida terminologiyani tartibga solish zarurligini his qildilar va shu tariqa standartlashtirish jarayoni jadal rivojlana boshladi.

Axmanovanning lingvistik terminlar lug'atida keltirilgan ta'rifga ko'ra, "Standartlashtirish –bu turli xil talaffuz, tuzilish, morfologik o'zgarish va hokazolarni yagona variantga qisqartirish; tilni normallashtirish uchun asos sifatida belgilangan (tavsiya etilgan) variantini tanlash demakdir" [2].

Terminologiyani standartlashtirish deganda kamida uch xil ma'noni tushunish mumkin:

1. Institutsional standartlashtirish – bu vakolatli organ tomonidan biron konsepsiyani nomlashning afzal shaklini belgilash jarayoni.

2. Xalqaro standartlashtirish – bu jarayon orqali xalqaro agentlik ma'lum bir terminlarning xarakteristikasi va u anglatadigan ma'noni belgilab beradi.

3. Aralashuvsiz standartlashtirish – bu ma'lum terminologik tizimning oxirgi foydalanuvchilari roziligi bilan o'z-o'zini tartibga solish jarayoni [6;40-41-b.].

Tahlil. So'nggi yillarda Xitoy qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2009-yilda Xitoy qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'lmish umumiy quvvati 226 GW bo'lgan gidro, shamol, biogaz va fotoelektr stansiyalarini ishga tushirdi. 2016-yil aprel holatiga ko'ra, 17 ta atom elektr stansiyasi mamlakat umumiy elektr energiyasining 3 foizdan ko'prog'ini tashkil etdi. Gidroenergetika tizimi hozirda Xitoyning eng yirik qayta tiklanadigan energiya manbai bo'lib, ko'mirdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. 2021-yilda gidroenergetika 1300 teravatt-soat energiya ishlab chiqardi, bu Xitoy umumiy elektr energiyasining 15 foizini tashkil etdi. Xitoyning qazib olinadigan yoqilg'i zaxiralari yetarli emasligi va hukumatning energiya mustaqilligini afzal ko'rishi sababli gidroenergetika mamlakatning energetika siyosatida katta rol o'ynaydi [1;3-b.].

Xitoyning geografik joylashuvi ko'plab hududlarda quyosh elektr stansiyalarini joylashtirish uchun hududning, taxminan, 67%dan samarali foydalanish imkonini beradi. O'zining muhim quyosh resurslari tufayli Xitoy o'rnatilgan quyosh energiyasini ishlab chiqarish quvvatlarining yillik o'sishi 50%dan ortiqni ko'rsatdi. Xitoy quyosh panellari ishlab chiqarish bo'yicha 2007-yildan beri dunyoda birinchi o'rinda turadi. 2009-yilning mart oyidan boshlab quyosh energetikasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan, quyosh tizimlaridan foydalangan holda quyosh panellarini o'rnatish uchun bevosita grantlar yo'lga qo'yilgan [1;3-b.].

Xitoyda shamol energiyasi salohiyatini o'rganishi shuni ko'rsatadiki, o'rnatilgan shamol elektr stansiyalari quvvati hudud bo'ylab taqsimoti juda notekis va har doim ham iqtisodiy rivojlanishni talab qiladigan hududlarga mos kelmaydi. Umumiy o'rnatilgan quvvatning 28%dan ortig'i Rossiya Federatsiyasi hududi bilan chegaradosh shimoliy hududlarda to'plangan bo'lib, Xitoyda umumiy energiya iste'molining taxminan 6,78%ni tashkil qiladi, janubiy viloyatlar esa iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan va yuqori quvvatga ega. Xitoyning shamol energetikasini yanada rivojlantirish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan muam-molardan biri bu elektr tarmoqlarining yetishmasligidir [1;3-b.].

Xitoy atom energetikasi sohasida texnologiyalar almashuvi va xalqaro hamkorlikni keng yo'lga qo'ygan, shuningdek, yadroviy reaktorlar texnologiyalarini ishlab chiqish va loyihalash ishlarida mustaqil bo'lishga intilmoqda. 2030-yilga borib, Xitoy "bir makon bir yo'l" tashabbusi doirasida ishtirokchi mamlakatlarda 30 ga yaqin yadroviy energiya reaktorlarini qurishni rejalashtirgan. 2021-yilda o'tgan BMTning Iqlim o'zgarishi konferensiyasida Xitoy 2035-yilgacha 150 ga yaqin atom reaktorlarini qurishini e'lon qildi. O'n yildan so'ng Xitoy reaktorlar soni bo'yicha hamda atom energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha AQSH-dan o'tib ketishi prognoz qilinmoqda.

Terminlarni standartlashtirish murakkab jarayon bo'lib, bir qator jarayonlarni o'z ichiga oladi: tushuncha va tushunchalar tizimini birlashtirish, terminlarni aniqlash, omonimlarni qisqartirish, sinonimiyani yo'q qilish, abbreviaturalar va belgilarni belgilash, yangi terminlarni yaratish.

Hozirgi vaqtda standartlashtirish to'rt darajada amalga oshirilmoqda: xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy [6;43-b.]. Xalqaro darajada katta vakolatga ega ikkita yirik tashkilot mavjud: IEC/IEC va ISO/ISO.

International Electrotechnical Commission/Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC) rasman 1906-yil iyun oyida Londonda, Buyuk Britaniyada tashkil etilgan. 1948-yildan beri tashkilotning bosh qarorgohi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan. 1906-yilda komissiya elektrotexnika mahsulotlarini xalqaro darajada tartibga solish bo'yicha metodlarni birlashtirish va ko'rsatmalarni ishlab chiqish ustida ish boshlagan [13].

1926-yilda Birinchi jahon urushidan keyin tashkil etilgan milliy standartlar bo'yicha tashkilotlar guruhi Xalqaro milliy standartlar uyushmalari federatsiyasini (ISA) yaratdi. ISO 1946-yilda Ikkinchi jahon urushi tufayli o'z faoliyatini to'xtatgan ISA o'rniga yaratilgan. IEC kabi shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan yangi tashkilotning maqsadi xalqaro muvofiqlashtirish va sanoat standartlarini uyg'unlashtirishga yordam berishdir [6;45-b.].

Jahon standartlari bo'yicha ikkita yirik tashkilotdan tashqari, ISO va IEC yetarlicha e'tibor qaratmaydigan sohalarda standartlashtirish masalalari bilan atroflicha shug'ullanadigan boshqa tashkilotlar ham mavjud bo'lib, ular xalqaro tashkilotlar ishini to'ldiradi. Masalan, Yevropada bir nechta mamlakatlarning sanoat tarmoqlarini birlashtirgan ikkita juda muhim mintaqaviy standartlar organi mavjud: IEC tamoyil-

lariga muvofiq elektr energetikasi standartlarini ishlab chiqadigan tashkilot – Cenelec va 1961-yilda tashkil topgan Yevropa standartlashtirish qo‘mitasi.

Ushbu tashkilotlardan tashqari, energetika kompaniyalari ham standartlarni ishlab chiqishning barcha bosqichlarida, ularni tayyorlash, qayta ko‘rib chiqish va joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. Kompaniyalarning o‘zlari ham ma'lum terminologiyadan foydalanish uchun o‘zlarining ichki standartlarini ishlab chiqishlari mumkin.

Yuqori kuchlanishli yirik elektr tizimlari bo‘yicha Xalqaro Kengash – CIGRE (Conseil International des Grands Réseaux Electriques – CIGRE) haqida ham aytib o‘tish kerak, deb hisoblaymiz. Bu 1921-yilda Fransiyada tashkil etilgan elektr energiyasi sohasidagi eng yirik xalqaro nodavlat va notijorat tashkilotdir. Tashkilot nafaqat elektroenergetika tizimlarining ishlashi bo‘yicha tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, tajriba va ma'lumot almashish platformasi, balki biz o‘rganayotgan sohadagi terminologik faoliyatga ham katta hissa qo‘shgan tashkilot hisoblanadi [14].

Yana bir tashkilot, 160 dan ortiq mamlakatlarda 422 000 dan ortiq a‘zolari qamrab olgan IEEE – Institut of Electrical and Electronics Engineers [IEEE, Elektron resurs] xalqaro notijorat assotsiatsiyasi haqida ham gapirib o‘tishni joiz deb o‘ylaymiz. Tashkilot turli xil ixtisoslashtirilgan texnik adabiyotlarni, shu jumladan elektrotexnika bo‘yicha adabiyotlarni nashr etadi va o‘z standartlarini ishlab chiqadi.

Milliy darajada samarali ish olib borayotgan quyidagi terminlarni standartlashtirish organlari va davlat tashkilotlarini misol qilib keltrish mumkin: AFNOR – Fransiya standartlashtirish tashkiloti, DIN – Germaniya standartlashtirish instituti, BSI–Britaniya standartlari instituti, ANSI – Amerika sinov va materiallar jamiyati, CNCNST – Xitoy ilmiy va texnik terminlar milliy qo‘mitasi, EURAS – Yevropa standartlashtirish akademiyasi (Gamburg) va boshqalar [5;3-b.].

Xitoy standartlashtirish tizimi. 1988-yil 29-dekabrda Xitoy Xalq Respublikasining standartlashtirish to‘g‘risidagi qonuni qabul qilingan. Ushbu hujjatga ko‘ra, XXRning barcha me‘yoriy hujjatlari quyidagilarga bo‘linadi: milliy standartlar (GB), professional (profil) standartlar va mahalliy standartlar (MB) [8; 3-b.].

Milliy standartlar (GB). Guobiao yoki GB standartlari Xitoy standartlashtirish administratsiyasi (SAC), Xitoy milliy qo‘mitasi ISO va IEC tomonidan ishlab chiqarilgan standartlarni qamrab oladi. Guobiao 国家标准Guójiā biāozhǔnning abreviatsiyasi hisoblanadi. Majburiy standartlarga “GB” prefiksi qo‘yiladi. Tavsiya etilgan standartlarga “GB/T” prefiksi qo‘yiladi (推荐; tuījiàn – tavsiya etmoq). Standart raqami “GB” yoki “GB/T”dan keyin keladi.

Butun mamlakat bo‘ylab texnik talablarni unifikatsiya qilish uchun milliy standartlar va standartlashtirish bo‘limi kerak, davlat kengashi quyidagilarni amalga oshirgan holda, standartlashtirish jarayonini boshqaradi:

- sifat, xavfsizlik, gigiyena, atrof-muhitga bo‘lgan talablarni ishlab chiqish, terminologiya, birliklar va o‘lchov tizimlarini ishlab chiqish;

- baholash va o‘lchash metodlarini ishlab chiqish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muhandislik loyihalariga talablarni ishlab chiqish, nazorat qilish uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar va asboblarga umumiy talablarni ishlab chiqish [8;4-b.].

Professional (profil) standartlar. Milliy standartlarga kiritilmagan, lekin faoliyatning ayrim turlariga nisbatan umumlashtirilishi kerak bo‘lgan texnik talablar uchun profil (professional) standartlar ishlab chiqilishi kerak. Ularni rivojlantirish uchun davlat kengashi huzurida standartlashtirish jarayonini boshqarish bo‘yicha maxsus bo‘lim tashkil etish zarur. Ushbu professional standartlar milliy standartlashtirish tizimiga kiritilishi kerak.

Xitoyda 58 ta sanoat standartlari guruhi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: qishloq xo‘jaligi (NY), yog‘ochsozlik (LY), mashinasozlik (JB), avtomobilsozlik (QC), kemasozlik (SV), samolyotsozlik (NK), tibbiyot (YY), kimyo sanoati (HG), neft kimyosi (SH), okean fani (HY), moliya (JR), gigiyena (WS), bino qurilishi (JG), shahar davlat muhandisligi (CJ), suv resurslari (SL), aloqa (JT), energetika (DL), temir yo‘l (TD), atrof-muhitni muhofaza qilish (HJ), qurilish materiallari (JK), yer tuzish (TD), ko‘mir qazib olish (MT), qora metallurgiya (YB), rangli metallurgiya. (YS), neft ishlab chiqarish (SY), tadqiqot (CH), jamoat xavfsizligi (GA)...

Mahalliy standartlar (MB). Milliy standartga ega bo‘lmagan gigiyena, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini ta‘minlash uchun ma‘lum bir viloyat yoki avtonom viloyat uchun mahalliy standartlar ishlab chiqiladi. Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy standartlarni ishlab chiqish uchun javob-

gardir. Misol uchun, Pekin (DB11), Tianjin (DB12)... Shanxay (DB31) Jiangsu (DB32)... Guangdong (DB44) va boshqa shaharlar uchun mahalliy standartlar mavjud.

Quyida Xitoyda turli yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqilgan standartlar sonini keltirib o'tamiz Milliy – 34, Arxitektura – 22, Gidravlika – 32, Elektr energiyasi – 24, Shahar – 10, Tog'-kon va metall – 42, Temir yo'llar – 32, Avtomobil yo'llari – 18, Suv transporti – 11, Ko'mir – 7, Neft – 5, Neft-kimyo – 8, Kimyo – 4, Konchilik – 4, O'rmon xo'jaligi – 2, Radioeshittirish – 1, Radiatsiya – 1, Standartlar qo'mitasi ishlanmalari – 11, mahalliy standartlar – 50. Jami 318 ta standart.

Standartlar klassifikatsiyasi. Majburiy standartlar. Ular sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qilish, shaxsiy xavfsizlik va mulkni himoya qilish va xavfsizlikni ta'minlaydi.

Tavsiya etiladigan standartlar. Bular majburiy standartlar uchun qo'yilgan talablarga bo'ysunmaydigan standartlardir.

Sanoatning asosiy tarmoqlari va ularning standartlari. Qurilish ishlarining standartlari 130 dan ortiq tomni o'z ichiga oladi. Milliy standartlar 17 tomndan iborat. Ularni qo'llash doirasi juda keng: qurilish muhandisligi, sanoat qurilishi, shahar arxitekturasi va h.k.

Suv resurslari va gidroenergetika standartlari 40 tomni, milliy standartlar – 8 tomni o'z ichiga oladi. Gidroenergetika loyihalarining ayrim xususiyatlarining o'zi standartlashtirishga bog'liq.

Standartlar asosida jahon andozalari darajasida qurilish loyihalari ishlab chiqilgan, jumladan: Uch dara loyihasi, Janubdan Shimolga suv o'tkazish loyihasi, uzunligi 1088 m, poydevor chuqurligi 120 m bo'lgan Sutong Yangtze daryosi ko'prigi loyihasi va h.k.

Xitoy geotexnika sinovlari uchun juda avtoritetli standartlarni, shuningdek, geosintetika uchun nisbatan keng qamrovli standartlarni ishlab chiqqan.

Energetika sohasi standartlari 28 tomni o'z ichiga oladi, shundan 2 tom milliy standartlardir. Ular umumiy energetika uchun ham, maxsus sanoat binolari, shu jumladan, elektr stantsiyalari, transformator podstantsiyalari, dala punktlari va elektr uzatish liniyalari uchun ham qo'llaniladi.

Temir yo'llarni loyihalash standartlari 33 tomni o'z ichiga oladi, shundan milliy standart 1 tomni tashkil etadi. Ular uzun tunnellar, ko'priklar va geologik sharoitlardagi o'zgarishlarni ham hisobga oladi.

Avtomobil yo'llarini loyihalash standartlari 18 tomni o'z ichiga oladi. Avtomobil yo'llari qaysidir ma'noda temir yo'llarga o'xshash bo'lsa-da, ularni farqli juhatlari ham talaygina, misol uchun, yo'l qoplamasining turlicha ekanligi. So'nggi yillarda Xitoyda avtomobil yo'llarining qurilishi faolligi tufayli ushbu standartlar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Umuman olganda, Xitoy so'nggi 70 yil ichida 36 877 ta milliy standartlarni yaratganini hisobga olsak, Xitoy milliy standartlar yaratish foizi bo'yicha boshqa davlatlarni ortda qoldirganiga guvoh bo'lamiz. Bu vaqt mobaynida Xitoyning standartlashtirish jarayoni uchta asosiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Birinchidan, Xitoyda standartlashtirish unitar hukumat taklifidan ikki tomonlama hukumat-bozor taklifiga aylantirilgan. Yana bir o'zgarish shundan iboratki, standartlashtirish ko'lami sanoatdan iqtisodiyotning birlamchi va uchinchi tarmoqlarigacha kengaygan. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida standartlar 11,4 foizni tashkil etadi. Xitoy milliy standartlaridan sanoatdagi standartlar 73,5 foizni, xizmat ko'rsatish va davlat ishlari sohasida 15,1 foizni tashkil etadi, biroq xizmat ko'rsatish sohasidagi standartlar ulushi hamon o'sib bormoqda. Uchinchi o'zgarish shundaki, Xitoy xalqaro standartlarni passiv qabul qilishdan ularni rivojlantirishda faol ishtirok etishga o'tdi. Xitoy 10 mingdan ortiq xalqaro standartlarni milliy standartlariga moslashtirdi. Shuningdek, u xalqaro standartlar bo'yicha takliflar berish bo'yicha eng faol davlatlardan biri hisoblanadi. Milliy standartlar orasida deyarli 4 mingtasi majburiydir. Ular oziq-ovqat, iste'mol tovarlari, sanoat xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va qurilish sanoati kabi sohalarga tegishli.

Xulosa qilib aytganda, muqobil energiya ishlab chiqarish manbalariga talab o'sishda davom etar ekan, energetika terminologiyasi, uni standartlashtirish va unifikatsiya qilish ham dolzarbligicha qoladi. Fan tilida har qanday termin, kelib chiqishidan qat'i nazar, asosli bo'lishi kerak. Aks holda, umuman, terminlar va terminologiya tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Terminologiya va terminlarning ta'riflarini bilish har qanday soha mutaxassislari uchun juda muhimdir. Energetika sohasi mutaxassislari uchun terminlarni bilish ularning ishi xavfsizligiga ta'sir qiladi. Shuning uchun terminologik tizimlarni muntazam ravishda tanqidiy qayta ko'rib chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Акулова А.Ш., Острина Е.М. Перспективы развития возобновляемой энергетики в Китае. Инновационная наука, 2020, № 11.

- (2). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов [электронный ресурс]. URL: https://classes.ru/grammar/174.Akhmanova/source/worddocuments/_18.htm, (дата обращения: 11.08.2018).
- (3). Даниленко В.П., Скворцов Л.И. Нормативные основы унификации терминологии. Культура речи в технической документации. М., 1982, с. 5–35.
- (4). Ивченко Т.В. Китайский язык: вопросы стандартизации и терминологичности: по материалам Международной конференции «Китайская лингвистика и синология». Вестник РГГУ, Литературоведение. Языкознание. Культурология, 2020, с. 22–35.
- (5). Казарина С.Г. Стандартизационные процессы в терминологии. Языковедение. М., 2008, 182 с.
- (6). Максимова Н.В. Современная электроэнергетическая терминология: структурный и семантический аспекты. Дисс. ...канд. филол. наук, Мытищи, 2020, 182 с.
- (7). Маликова О.И., Златникова М.А. Государственная политика в области развития возобновляемой энергетики. Государственное управление. М., 1982, 172 с.
- (8). Овчинников И.И., Чэнь Тао, Овчинников И.Г., Валиев Ш.Н. Система нормативных документов в строительстве в Китайской Народной Республике. Интернет-журнал «Транспортные сооружения», 2018, с. 35.
- (9). Sadibekova B.D. XXR va O‘zbekistonning energetika sohasidagi investitsion hamkorligi: muammo va yutuqlari. “Uzbekistan-China: development of historical, cultural, scientific and economic relations”. Volume 3 Special issue 21, ISSN 2181-1784.
- (10). Karimova Kh.A. Renewable energy development in China: the potential and the challenge. Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida. Toshkent, 2023, 17-bet.
- (11). Zhang N., Lior N., Jin H. The energy situation and its sustainable development strategy in China. Energy. 2011, Vol. 36, pp. 3639–49.
- (12). IEA Statistic Data Service: Uzbekistan energy profile 2019.
- (13). <https://www.iec.ch/history>
- (14). <https://www.cigre.org>
- (15). <https://www.gbstandards.org>
- (16). 北极星售电网:中国电力知库, 2021.

**Yusubova Rano Norboyevna (filologiya fanlari doktori, Navoiy davlat Pedagogika instituti professori v.b.; ranoyusubova7413@gmail.com)
KONSEPTUAL OLAMDA KO‘K RANGINING MOHIYATI**

***Annotatsiya.** Dunyoning lisoniy manzarasi o‘zida olam kartinasining butun arsenalini – falsafiy-ilmii, diniy-badiiy, milliy-madaniy, individual ko‘rinishlarini qayta quradi, insonning shaxsiy-individual ko‘rsatkichlarini hamda milliy-mental tavsifini yuzaga chiqaradi. Maqolada olamning lisoniy manzarasi mentallik hosilasi ekanligi “ko‘k” konsepti asosida tahlilga tortilgan va A.Navoiy asarlari misolida dalillangan.*

***Kalit so‘zlar:** olamning lisoniy manzarasi, konseptual olam, konsept, konseptosfera, milliy mentalitet, lingvistik tafakkur.*

СУТЬ СИНЕГО ЦВЕТА В КОНЦЕПТУАЛЬНОМ МИРЕ

***Аннотация.** Языковая картина мира перестраивает в себе весь арсенал картины мира – философско-научный, религиозно-художественный, национально-культурный, индивидуальный, выявляет личностно-индивидуальные показатели, национально-ментальное описание человека. В статье проводится анализ основанный на концепте “синего”, что языковая картина вселенной является производной от ментальности и доказано на примере произведений А.Навои.*

***Ключевые слова:** языковая картина мира, концептуальный мир, концепт, концептосфера, национальный менталитет, языковое мышление.*

THE ESSENCE OF BLUE IN THE CONCEPTUAL WORLD

***Annotation.** The linguistic picture of the world in itself reconstructs the entire arsenal of the cartoon of the universe – philosophical-scientific, religious-artistic, national-cultural, individual manifestations, brings to the Surface personal-individual indicators of a person and a national-mental description. Hence, the fact that the linguistic landscape of the universe is a derivative of mentality is subject to analysis based on the concept of “blue” and it was proved on the example of A.Navoi's works.*

***Keywords:** linguistic image of the world, conceptual world, concept, concept sphere, national mentality, linguistic thinking.*

***Kirish.** O‘tgan asrning birinchi yarmida, tilshunoslik fan sifatida shakllangan bir davrda, olamning lisoniy manzarasi tushunchasining nazariy masalalari V.Fon Humboldtning olam – inson – til munosa-*

batlari haqidagi g'oyalari davomi sifatida maydonga tashlandi. Chunonchi, Vilgelm fon Humboldt ta'kidicha, til insonda vujudga kelganligi sababli qalb zulmatida qotib qolgan shaklda yotmaydi, balki inson tafakkuri darajasi funksiyalarini belgilaydi [1]. Tafakkur va til alohida olingan va o'zaro chambarchas aloqada bo'lgan ongning ikki hosilasi sifatida dunyoning konseptual va lisoniy manzarasini aks ettiradi, inson dastavval olamni anglaydi va so'ng uning mohiyatini tilda ifodalaydi. Tilning dinamik va harakatdagi mohiyati olam manzarasining dinamik va harakati mohiyatidan kelib chiqadi va tafakkur ko'magida avlodlar tomonidan to'plangan til tajribasi nutqda reallashadi.

Adabiyotlar tahlili. Turkiy tillarda eng qadimgi zamonlardan boshlab *ko'k* leksemasi o'rin-joy, o'simlik olami, hayvonot olami, qabila, urug' nomiga birikib yoki "osmon" ma'nosida, shuningdek, atqli ot sifatida qo'llanilganligi kuzatiladi. Masalan, *ko'k* komponenti toponimik indikator sifatida, birinchidan, "sharq, sharqiy" degan ma'noni bergan. *Ko'k O'rda* → *Sharqiy O'rda*; *ko'k turk* → *sharqiy turk* tarzida [2]. Ikkinchidan, "rang" tushunchasini ifodalagan: *Ko'kbeles*, *Ko'klak*, *Ko'ksuv*, *Ko'kko'l* kabi.

O'zbek tilshunosligida ranglarning leksik-semantik, lingvopoetik, lingvokognitiv xususiyatlari yuzasida tadqiqotlar olib borilgan [3], [4], [5], [6], [7]. D.O'rinbayeva *ko'k* so'zi o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari matnida bolshqa ranglar bilan solishtirilganda, eng ko'p qo'llangan birlik ekanligini, uning qo'llanish chastotasi dostonida 192, maqolda 21, topishmoqda 129, ertakda 43, qo'shiqda 75 ni tashkil etishini ta'kidlaydi [8]. Navoiy asarlarida "ko'k rang" badiiy konsepti bilan aloqador 10 ga yaqin lingvomadaniy axborot keltiriladi. M.Sodiqova Alisher Navoiy asarlarida *ko'k* so'zi belgikdan tashqari *osmon*, *daraxt ildizi*, *tamg'a*, *asos (nachalo)*, *ovoz*, *tayyor*, *tugal* kabi bir qancha ma'nolarda qo'llanishini aytadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tilning tadrijiy taraqqiyotini aks ettiruvchi kognitiv-falsafiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, komponent va kontekstual tahlil, lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. "Ko'k" konsepti turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi madaniy ongida turli e'tiqodiy tasavvurlar orqali talqin qilinadi. Falsafiy jihatdan olinadigan bo'lsa, "ko'k" konsepti turli millat va madaniyatda *e'tiqod* → *ma'naviy kod* → *mansublik* sifatida o'rganiladi. E'tibor berilsa, *ko'k* so'zi birdan ortiq komponentli so'zlarda birinchi komponent bo'lib keladi: 1) onomastik birlik indikator sifatida: *Ko'k bo'ri*, *ko'k kaptar*, *Ko'ktemir*; 2) toponimik birlik indikator sifatida: *Ko'k O'rda*, *Ko'kterak*, *Ko'kto'nliota*, *Ko'kmasjid*, *Ko'kqamish*; 3) Etnonim birlik indikator sifatida: *ko'k turk*, *ko'kto'nlik*... Shu o'rinda ta'kidlash joizki, so'z asosiy til belgisi sifatida nutqiy faoliyat birligi ekan, nutq esa so'zlarning ma'lum bir qonuniyatlarga asoslangan tizilmasi mahsuli ekan, "nutq – fikrlash faoliyati" tushunchasini vujudga kelishida so'z asosiy mavqeni egallaydi. Natijada matnda aynan so'z vositasida mental tuzilmalar modellastiriladi, guruhlashtiriladi, axborotlashtiriladi. "Ko'k" konsepti bilan aloqador turli mavzuiy guruhlar lingvomadaniy axborotga ega bo'lib, «*ko'k*» tushunchasining konseptosferasini, konseptosferaga mansub konseptlarning assotsiativ va konseptual aloqalarini keng tahlilga tortish mumkinligini ko'rsatadi.

Insoniyatning tabiat yaratilmishlariga e'tiqodiy yondashuvlariga rang dunyosini kiritish mumkin. Ranglarga turli majoziy ma'nolarning yuklanishi, bu ma'nolarning ko'pligi sababi shundan. Shvetsariyalik rassom, nazariyotchi-pedagog *Johannes Itten*ning aytishicha, rang hayotning timsolidir, chunki dunyoning mavjudligi turli ranglarga ko'milganligidadir. Yorug'lik ham va uning aksi zulmat ham rang tamsilida aks etadi. Dunyoni anglash uchun nafaqat yorug'lik, balki zulmat ham kerakdir. Natijada insoniyatning tafakkurida rang konseptual manzarasi o'ziga xos, betakror simbolikani yuzaga keltirgan. Shu sabab falsafiy qarashlar badiiy adabiyotda "rang" konseptosferasining nafaqat falsafiy-ilmiy, diniy-badiiy, milliy-madaniy, balki individual kartinasini konsept sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Nutqning dinamikligi va individualligi tilni yakka tarzda o'zlashtirishdan tashqari, kuzatish, talqin qilish va yaratuvchanlikka asoslanish asosida o'zlashtirishdan kelib chiqadi. Individual nutqni matn misolida kuzatish yo'li bilan ana shu jihatlar matn yaratuvchisining olam haqidagi bilim fondining tilda aks ettira olish darajasini ko'rsatadi. N.Mahmudov «...olamning lisoniy manzarasini inson ongida mavjud olam manzarasining til vositalari orqali shunchaki aks ettirilishi natijasi deb talqin qilish tilday bemisl qudratni jo'nlantirishdan boshqa narsa emas» degan fikrlarida keltirilgan "tilday bemisl qudrat" kuchini Alisher Navoiyning ranglar bilan bog'liq konseptual manzarasi va uning lisonda aks etishi tahlilida yaqqol kuzatish mumkin.

Tilda tabiatdagi ranglarni nomlovchi so'zlar miqdori ozchilikni tashkil qiladi, vaholanki, tabiat bir-biridan farqlanuvchi turfa ranglar galereyasiga ega, biroq ularning barchasi o'z nomiga ega emas. G. Breslavning ta'kidicha, zamonaviy tadqiqotchilar inson ko'zi normal sharoitda turli xil ranglarning yigirma mingdan ikki yuz minggacha bo'lgan ottenkasini ajrata olishini aniqlaganlar. Yaxshi rassom ko'zlari bilan millionga yaqin rang ottenkasini ajrata oladi. Biroq til tushunchalar tizimi bunday rang ottenkalarining har

birini alohida nomlashga qodir emas – ularni nomlash uchun soʻz yetishmaydi [9]. Anglashiladiki, olamning konseptual manzarasi chegara bilmaydi, ammo lisoniy manzarasi chegaralangan, shunday boʻlsa-da, ranglar insonning bilish jarayonida turfaligicha saqlanib qolaveradi.

“Koʻk” tushunchasi “rang” konseptosferasida yirik mental toʻplam – konseptni tashkil etadi, Navoiy asarlarida “rang” konseptosferasiga kiruvchi konseptlar oʻrtasidagi aloqani yangi maʼnolarda shakllantirilganligini, mazmunan boyitganligini va tanlangan shakllarning hosila maʼnolariga oʻzgarishlar kiritilganligini “koʻk rang” konsepti misolida kuzatish mumkin, “til olam manzarasi bilan bogʻliq ikki jarayonda bevosita ishtirok etadi, birinchidan, inson shuuridagi olam manzarasining eng teran qatlami boʻlmish olamning lisoniy manzarasi aynan til bagʻrida shakllanadi, ikkinchidan, tilning oʻzi olam manzaralarining boshqa turlarini ifodalaydi va namoyon (eksplikatsiya) qiladi” [10].

Matn tilshunosligining yuzaga kelishi matnda rang polisemantikasi olamning milliy konseptual manzarasiga diaxron nuqtai nazardan yondashishni yoki sinxron planda madaniy universal qarashlar asosida tizimlashtirish masalasini koʻtardi va oʻziga xos madaniyat konstantalarini aniqlashtirdi. “Rang” konseptosferasi bilish birligi sifatida barcha tillar va madaniyatlar sohiblari uchun universal hodisadir, lekin har bir tilda “rang” konseptosferasi birinchi galda milliy-madaniy konseptual makondan kelib chiqqan holda segmentlanadi. Shunga koʻra, muayyan til madaniyatining ona tilida soʻzlashuvchilari tomonidan “rang” konseptosferasini idrok qilishda va talqin qilishda bir xilliklar yoki maʼlum farqlar mavjud. Eʼtiqodiy qarashlar olamning badiiy lisoniy manzarasida “rang” konseptosferasining madaniy oʻziga xosliklarini aniqlashtiradi. Konseptosferaga kiruvchi konseptlar madaniy va tarixiy shartlangan: u mumtoz badiiyatimizning madaniy konstantasi boʻlib, oʻzbek konseptosferasida muhim oʻrin tutadi va millat egalari mental tasavvurlarini badiiy-kognitiv jihatdan jamlaydi. Badiiy konseptlar lisoniy shaxsning universal tajribasini, dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini oʻz ichiga olgan va yangi badiiy maʼnolarning shakllanishiga hissa qoʻshadigan mazmuniy va estetik kategoriya sifatida namoyon boʻluvchi konseptlar [11] boʻlib, Alisher Navoiy asarlarida “rang” konseptosferasi badiiy konseptlar tizimini vujudga keltirganligini, badiiy konsept semantikasini belgilashda metafora koʻrinishida voqelantirilganligini “koʻk” badiiy konsepti misolida koʻrib chiqish mumkin.

Koʻk rang soʻzi zamonaviy turkiy tillarda asosan quyidagi maʼnolarda maʼlum: “*koʻk*”, “*havo rang*”, “*kulrang*”, “*samoviy rang*”, “*yosh koʻkatlarning rangi*”, “*jonli*”, “*osmon*”, “*yosh oʻt*”, “*koʻkatlar*”, “*oʻtloq*” kabi. *Yashil* soʻzi bilan sinonim sifatida qoʻllanadi: *Koʻk maysalar // yashil maysalar* kabi. Kul rangga nisbatan ishlatiladi: *koʻk yolli // kulrang yolli* (ot tusi sifatida). Navoiy asarlarida *osmon*, *rang*, *koʻklam*, *ishonch*, *motam*, *kuy-ohang*, *taqdir*, *oʻt-maysa*, *donishmandlik* kabi konseptlarda ham idrok etiladi. Demak, bir til birligining turli konseptosferalarda turlicha konseptlar ifodalashda qatnasha olishi individual konseptual manzara qudratini koʻrsatadi. Navoiy asarlarida *koʻk*, *moviy*, *lojuvard*, *lojuvardiy*, *firuz*, *firuzagun*, *azraq*, *obgun*, *sabz*, *zilol*, *osmoniy*, *nilufarzor*, *nilufar rang*, *nilufarvash*, *niliy*, *nilgun*, *nilin*, *nilrang* kabi leksemalar *koʻk rang* konseptini ifodalash uchun qoʻllanilganligi kuzatiladi.

Oʻzbek tili uchun *koʻk* leksemasida «rang» va «osmon» tushunchalari qorishib ketgan, hattoki koʻp hollarda ikki tushuncha birikma shaklida keladi, masalan, Navoiyda *koʻk fazo (Koʻk fazosigʻa mehr qildi safar)*, *koʻk gunbaz (Yeti koʻk gunbazida oromi)*, *koʻk gunbad (Bogʻladi koʻk gunbadi toqini istehkomligʻ)* yoki *charxi niliy (Kiyar bargustvon charxi niliy)* tarzida. Shuningdek, Navoiyda keyingi oʻrinlarda *koʻk* leksemasi “osmon” (*koʻk toqi*, *yetti koʻk*, *yer-koʻk*) konseptini anglatadi. Bu tilimizda ming yillardan beri mavjud boʻlib kelganligi maʼlum. Chunki tildagi «*koʻk rang*», «*osmon*» kabi tushunchalar zamiridagi bu ikki konseptning shakllanishi koʻp asrlik eʼtiqodiy tajribalar asosida shakllangan.

“Sabʼai sayyor” dostoni mikromatnida *azraq*, *sabza*, *moviy*, ***nil***, ***nilufar***, *nilufariy*, *nilufargun*, *nilufardek*, *nilufarvor*, *nilufarzor*, *nilufarvash*, *samoviy*, *osmoniy*, *firuz*, *firuzagun*, *lojuvard*, *lojuvardiy* leksemalari orqali “koʻk rang” badiiy konsepti oʻz ifodasini topgan va ***osmon***, ***maysa***, ***libos***, ***jom***, may, parda oʻrin-joy kabi tushunchalarning real yoki majoziy mazmundagi belgisi sifatida voqelantirilgan. Masalan, arabcha *azraq* soʻzi “koʻk, havorang” maʼnosini anglatib asarda donish ahli libosining rangi sifatida, aniqrogʻi, donishmandlarning ulugʻligiga, donishmandlik – buyuklik ekanligiga ishora qilinib, majoziy talqin qilingan: *Biri azraq libosu ahli xirad*.

Dostonda keltirilishicha, shoh Bahrom chorshanba kuni moviy qasrda kun oʻtkazadi, yuqorida keltirganimizdek, u yerda hamma narsa koʻk rangda ekanligi *koʻk* leksemasining turli oʻzlashma, yasama sinonimlari va hosila maʼnolari vositasida tasvirlangan. Masalan, bir qaraganda maʼshuqaning libosi tasvirini berish uchungina qoʻllangandek koʻrinuvchi *koʻk*, *nilufar*, *moviy (Koʻk libos ichra nilufar yangligʻ; Nilufardek liboslar bila oy; Moviy oʻlsa libosi dilkash erur)* leksemalari aslida stilizatsiyalashganligini, metaforik mazmunni yuzaga keltirganligini kuzatish mumkin. Bu oʻrinda *nilufar* soʻzi aslida “suvida oʻsadigan

bir turli ko'kimtir yo sarig' rangli gul" [12] tushunchasini anglatib, kontekstda "ko'k" hosila ma'nosini reallashtirgan.

Navoiy asarlarida "ko'k rang" badiiy konseptining to'liq ruhiy va mental majmui yaratilgan. Konsept tarkibidagi badiiy obrazga aylangan tushunchalar mohiyatni anglash imkonini beradi. Buning sababi shundaki, ma'nolar tilning konseptual sohasining muayyan aloqalarini aktuallashtiradigan o'zaro ta'sir qiluvchi konseptlar orqali doimiy ravishda harakatga keltiriladi. Natijada ifodalarning yangi tasvirlari konseptlarning individual nozik qirralarini namoyish qiladi. "Sab'ayi sayyor" dostonida keltirilgan *jomi feruza* (*Ilgiga oldi jomi firuza*), *jomi nilufariy* (*Ichti Bahrom jomi nilufariy*) "qayg'uga botish", "ishq g'amiga muhtalolik", "ishqqa asir bo'lish" tushunchalarini ifodalash maqsadida metaforik obrazlashtirilgan.

Konsept tilda jumboqli metaforalarning yaratilishiga asoslanganligi bilan individual to'plamdir. Buyuk shoir tamsillarini konsept va ruhiy sfera o'rtasida semantik aloqa o'rnatish orqali tushunish mumkin (*jomi nilufariy, nilufar yuz, nilin qadah, jomi firuza, charxi lojuvard, obgun charx*). Ma'no zamirida tasavvur iste'fodasi yotar ekan, kognitiv planda ushbu yaratilma konsept uchun xizmat qiladi. Bu yaratilmalar semiotik planda o'zaro bog'liq ikki kategoriyani – "konsept" va "tushuncha"ni farqlash zarurati uchun yana bir dalil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Dunyoning lisoniy manzarasi uzoq vaqt davomida muayyan xalqning dunyoqarashi va idrokining mukammallashgan va sayqallanib kelayotgan milliy lisoniy manzarasini lingvistik shakllarda aks ettirishdir. O'zlashtirilgan bilimlar bilan to'ldirilgan konseptlarning lingvistik tasvirlari insonning konseptual olamga kirish vositasiga aylanadi.

Badiiy matn individual ijodiy ongga xos konseptual tuzilmalarning milliy lisoniy voqelanishi holatida o'rganiladi. Agar millatning fikrlash tarzini tahlil qilishda dunyoni idrok etishi va dunyoni baholashining milliy xususiyatlariga, ushbu madaniyat vakillari dunyosining milliy qiyofasiga murojaat qilinmasa, uning madaniyati bilan to'liq tanishib bo'lmaydi [13]. Navoiy asarlarida estetik jihatdan to'yingan va o'ta yorqin obrazlar "ko'k rang" konsepti misolida ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. М., 1984, с. 37–38.
- (2). Кононов А.Н. Семантика цветообозначения в тюркских языках. Тюркологический сборник, М., "Наука", 1978, с. 173.
- (3). Хамдамова И. Ўзбек тилидаги сифатларнинг маъно турлари ва уларнинг ўзбек тили изоҳли луғатида берилиши. Филол. фан. номз. дисс. ... автореф., Тошкент, 1964, 26 бет.
- (4). Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Монография. Т., 1974, 128 бет.
- (5). Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол.фан-и номз. ...дисс. автореф., Самарқанд, 2004, 23 бет.
- (6). Тожиматов Х. Сифат семемасининг реаллашувида контекст. Филол. фан. номз. дисс. ...дисс. Тошкент, 2007, 141 бет.
- (7). Исраилова С. "Кўк" лексемаси семантикаси ва тезауруси. Т., 2023, 124 бет.
- (8). О'rinbayeva D. Xalq og'zaki ijodi: janriy-lisoniy va lingvostatistik tadqiq muammolari. Filol. fan. dok. diss... avtoref., Samarqand, 2019, 21–22-betlar.
- (9). Бреслав Г.Э. Цветопсихология и цветолечение для всех. СПб., 2000, с. 11.
- (10). Mahmudov N. Tilning so'z hazinasi va olamning lisoniy manzarasi. "So'z san'ati", 1- (2018). 22-bet.
- (11). Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Т., "Turon zamin ziyo", 2015, 25-bet.
- (12). Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. 2-tom, E.Foziliv tahriri ostida, Toshkent, "Fan", 1983, 460-bet.
- (13). Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. М., 1999, с. 68.

Umarova Sohiba Zokirovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; sohibaumar@gmail.com)

SAYYID ASAD TO‘RA VA UNING LIRIK MEROSI HAQIDA

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada xorazmlik shahzoda shoir Sayyid Asad to‘ra Otajon to‘ra o‘g‘li ha-yoti, ijodi hamda “Devoni Asad”ning qo‘lyozma va toshbosma manbalari haqida so‘z yuritiladi, Sayyid Asad to‘ra ijodi bilan bog‘liq asarlardagi ma‘lumotlar tahlilga tortiladi, Sayyid Asad to‘ra she‘rlaridan namunalar keltiriladi. Vaholanki, o‘zbek adabiyotining ajralmas qismi bo‘lgan XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari Xorazm adabiy muhitida faoliyat olib borgan, devon tartib bergan ushbu shahzoda shoir ijodi hanuzgacha to‘liq o‘rganilmagan.*

***Kalitsa‘zlar:** Xorazm, adabiy muhit, Sayyid Asad to‘ra, devon, “Devoni Asad”, manba, qo‘lyozma, toshbosma, nusxa, she‘rlar.*

Умарова Сахиба Закировна (Ташкентский государственный университет Узбекского языка и литера-туры имени Алишера Навои, кандидат филологических наук, доцент; sohibaumar@gmail.com)

САЙИД АСАД ТОРА И О ЕГО ЛИРИЧЕСКОМ НАСЛЕДИИ

***Аннотация.** В данной статье рассказывается о личности, творчестве поэта Сайида Асада Торы сын Отаджана Торы, а также о рукописных копиях “Девони Асад”, анализируются источ-ники о творчестве Сайида Асада Торы. Приведены примеры из стихотворений Сайида Асада Торы. Неотъемлемая часть узбекской литературы конца 19-го–начала 20-го веков, активно развивав-шаяся в хорезмской литературной среде, творчество этого поэта до сих пор до конца не изучено.*

***Ключевые слова:** Хорезм, литературная среда, Сайид Асад Тора, девон, “Девони Асад”, ис-точник, рукопись, литография, копия, стихи.*

Umarova Sokhiba Zakirovna (Tashkent State University of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor)

SAYYID ASAD TORA AND HIS LYRICAL HERITAGE

***Annotation.** This article talks about the poet Sayyid Asad Tora son Otajon Tora and manuscript Devoni Asad”, the copies of “sources on the work of Sayyid Asad Tora are subject to analysis. Examples of Sayyid Asad Tora poems are given. An integral part of Uzbek literature, the late 19th – early 20th centuries were active in the Khorezm literary environment, the work of this poet, which devon gave order, is still not fully studied.*

***Key words:** Khwarazm, literary, Sayyid Asad Tora, devan, “Devoni Asad”, source, manuscript, stonework, copy, poems.*

Kirish. Xorazm adabiy muhiti tazkiranavislik, tarjimachilik kabi ishlari hamda lirik asarlari bilan alohida ajralib turadi. Xivada Muhammad Rahimxon o‘zbek adabiyoti tarixida XIX asr oxiri–XX asr boshlari II – Feruz zamonida ko‘plab shoirlar ijod etishgan bo‘lib, ularning deyarli barcha lirik she‘rlarini jam-lab, devon tartib berishgan. Muhammad Rahimxon II–Feruz ijod kishilarini saroyga jalb etish bilan birga o‘z yaqinlari, ya‘ni, og‘a-inlari va ularning farzandlarini ham san‘atga da‘vat etgan, ularni she‘rlar yozishga undagan. Xususan, Feruzning inisi Otajon to‘raning o‘g‘illari Sayyid G‘oziy to‘ra hamda Sayyid Asad to‘-ralar tomonidan maxsus she‘riy devonlar tuzilgani ma‘lum. Otajon to‘raning o‘zi ham adabiyotga qiziqqan, she‘rlar yozgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarixchi, xattot va shoir Bayoniyning “Shajarayi Xorazmsho-hiy” asarida Otajon to‘raning vafoti haqida shunday qayd keltirilgan: “Ushbu yil Otajon to‘ra baqo olamig‘a yuz qo‘yub, ondin Muhammadamin to‘ra va Sayyid G‘oziy to‘ra va Sayyid Asad to‘ra otlig‘ uch o‘g‘ul yodgor qoldi. Ul hazrat o‘zlari Komron taxallusi bila mutaxallis etib, she‘r ham aytur erdilar” [2;252-b.]. Bayoniy Otajon to‘ra vafotiga yozgan 32 baytli fors tilidagi g‘azal-ta‘rixida Otajon to‘ra vafoti ko‘plarni qayg‘uga solgani, Otajon to‘raga barchaning hurmati baland bo‘lganligini yozadi. Ya‘ni: “تاريخ وفات سيد احمد توره، يعنى آته جان توره عليه الرحمن الغفران”.

*Sad darig‘ in jahoni bebunyod,
Dod-u bedod doda yoft murod.
In chi g‘addorest dar nafase,
Xoki sad xonoro dehad barbod.
Bahisobi muhosiboni jahon,
Rost naoyad jafoyi in kayyod.*

*Ba Otajon to'ra cheho karda,
Bud o'ham chu tig'az fo'lod.
Dar hama ilmu fazl mohir bud,
Nek donandayi salohufa sod.
Faylasufi zamona xud shud,
Karda taqviyati hozi xo'diy jod...*

Albatta, tazkira, estalik, bayoz va tarixiy asarlarda keltirilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, Muhammad Rahimxon II – Feruz bilan Otajon to'ra o'rtasidagi munosabathar doim ham bir xil bo'lmagan, ular o'rtasida kelishmovchiliklar ham bo'lib turgan. “Xon Polvon mirzaboshini, inilaridan Otajon to'rani sevadi va hurmat qiladi. Keyingi vaqtda u bilan kelishmay, hatto qamab qo'ygan. Ruslar kelganidan keyin ozod qilindi” [4;62-b.]. Chunki Otajon to'ra ham boshqa saroy amaldorlari kabi bu davrda yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy vaziyatning qurboni bo'lgan. Muhammad Rahimxon II – Feruz qanchalik barqarorlik, birdamlikni istamasin, saroyda fitna, o'zaro nizolar yuzaga kelgan. “Otajon to'ra 1903-yilda Xivada vafot etadi va o'zining Gandimiyon qishlog'idagi maqbarasiga daft etiladi. Undan Sayyid Muhammadamin to'ra, Sayyid G'ozii to'ra, Sayyid Asad to'ra kabi farzandlar qolib, ular zamonasining devon tartib bergan yetuk shoirlari edilar” [6;27-b.].

Sayyid Asad to'ra Xiva shahri tashqari qal'asida podshohlikning O'r nomli hovlisida tug'ulgan. Inisi Sayyid G'ozii to'ra kabi Sayyid Asad to'raga ham xon katta e'tibor qaratgan, uning ta'lim-tarbiya olishi, ijod bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratib bergan.

Tabibiyning “Majmuai si shuaroii payravi Feruzshohiy” tazkirasining O'zR Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan inv.1152-raqamli nusxasida Asad g'azallari ham berilgan. Tabibiy har bir shoirning g'azalini keltirishdan oldin masnaviyalar berar ekan, iloji boricha, qisqa, aniq va xolis fikrlarini bildiradi. Jumladan, Tabibiy G'oziiy va Asadlar haqida ta'rifini shunday keltiradi:

*Biridur Sayyid G'oziiy donishasar,
Ki ko'ngli erur koni fazlu hunar.
Birisi dog'I keldi Sayyid Asad,
Jahonda erur olim neku bad...*

Bobojon Tarroh – Xodim Sayyid Asad to'ra haqida shunday yozadi: “Sayyid Asad to'ra eski maktabni to'liq bitkargan. Lokin madrasa ta'limotini o'zini bobosi Xo'ja qozidan o'qug'on bo'lsa ham to'luq o'qumag'on. Forsiydan ham o'rtacha, shoirligi ham o'rtachabo'lg'on” [3;59-b.].

Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari” estalik asarida esa Asad to'ra haqida kengroq ma'lumotlar beriladi: “Asad – Sayyid Asad to'ra mushta'mal bo'lib, Muhammad Rahimxonning to'g'ishg'on birodari Sayyid Ahmad to'ranning o'g'lidir. Asad – ko'sa, qoqchakka, olaqaroq chechak tobli, uzun qomatli, suxandon, shirin so'zli kishi bo'lib, otasi Sayyid Ahmad to'ra Asadga marhamat nazari bilan qaramay, kam iltifot qilg'on sababli, Asad amakisi Muhammadrahimxong'a o'z ahvolotlaridin ishkva qilib, “Asad” taxallusi bilan ash'orlar yozib, arz etadur. Xong'a uning yozg'on ash'orlari maq'uli tab'b o'lg'onlig'idin Asadga she'rlar mashq qilishni farmon qiladur. Asad dog'i amakisi Feruzg'a payravona har xil she'rlar yozib, turadur. “Devoni Asad” ismidida bir devonham yozadur. Shuning bilan Asad mahoratlig' shoirlardan bo'lib, juda ham tez fahm va xushxotir bo'ladur. Asad Feruzdan keyin Isfandiyorxon zamonida xonning amaldor va fuzalolardin shikoyatlar qilib, necha turli hajviyotlar yozib, oxiri 1916-yilda o'lib, dunyo muammolaridin xalos bo'ladur” [5;27-v.].

Keltirilgan manbalardan shu narsa ma'lum bo'ladi, Sayyid Asad to'ra ham boshqa shahzoda shoirlar qatori xonning talabi va tashabbusi bilan she'rlar yozgan va “Devoni Asad”ga tartib bergan. Biz ushbu shahzoda hayoti, faoliyatiga oid manbalarni o'rganish davomida shu narsani bildiki, Sayyid Asad to'ra o'sha davr ijtimoiy-madaniy hayotida faol, ma'rifatparvar insonlar qatorida bo'lishga intilgan, an'anaviy mumtoz she'riyatni sevgan va Navoiy, Ogahiy, Feruz habi shoirlarga ergashib she'rlar yozgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sayyid Asad to'ranning shaxsiy kutubxonasi bo'lgan va kitoblariga maxsus muhr bosib, kitoblarini asragan.

“رباعيات حضرت پهلوان ولی رحمت الله عليه” deb boshlanuvchi qo'lyozmaning birinchi betida katta ramkaning to'rtta burchagida ruboiylar bitilgan bo'lib, o'rtasiga tamg'a(muhr)da quyidagi so'zlar yozilgan: "سید اسد توره ابن سید احمد توره. 130"

Boshqa shahzoda shoirlardan ajralgan holda Sayyid Asad to'ranning dastxat devoni mavjudligi haqida Feruz fehrisida ma'lumot beriladi. Sayyid Asad to'ranning she'rlari jamlanib, “Devoni Asad” holida ko'chirilgan va toshbosma nusxalari bosilgan.

O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida ديوان اسد ("Devoni Asad")ning 1121 raqamli qo'lyozmasi saqlanadi. Biz ushbu adabiy manba bilan tanishganimizda, qo'lyozma o'zbekcha (devon matni ichida forscha g'azallar ham uchraydi), to'q binafsha rangdagi karton qog'oz bilan muqovalangan, muqovasi mustahkam bo'lishi uchun to'q ko'k rangdagi mato bilan o'rtasidan yelimlangan, muqovaning chetki qismlari biroz uringan, rus fabrika qog'ozida yozilgan, varaqlar soni 72, sahifalar arab sonida 139 gacha raqamlangan, kitobning birinchi va ikkinchi varog'i bo'sh qolgan, o'lchovi 29×18,5, matn ustunlar soni ikkita, satrlar soni 16, 18, 19 tartibida yozilgan, matn hech qanday ramkaga olinmagan, asosiy matndan tashqari hoshiyada ham she'rlar berilgan, yozuvi nastaliq, sarlavhalar qizil, asosiy matn qora siyohda yozilgan, poygir qo'yilgan, kotib tomonidan muhr, bezaklar qo'yilmaganligi aniqlandi.

Qo'lyozma muqovasida asar nomi "ديوان اسد" deb ko'rsatilgan. 1-sahifada basmala "Bismillohi rohmohi rahim". Keyin ta'rifli kitob shunday beriladi: "ديوان سيد اسد توره ابن آته جان توره فردوس اشيان سيد محمد خان "مرحومی".

Kolofoni: "زل سبحان خلیفت الرحمان یعنی ابو مظفر بن منصور ابول الغازی سید محمد رحیم بهادر خان ثانی دام دولده نینگ فرمان عالی لاری بیلان اوشبو دیوان اسدنی بیر مینگ و اوچ یوز داغی بیگیرمه آلتیلانجی بیل باباجان مخدوم دیوان طراه به متخلص خادم ابن عبد العزیز مخدوم یازیب اتمام سرحدیغه یتکوردی"

Tahlil va natijalar. "Devoni Asad"dagi she'rlar soni va janrlari quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ladi: 292 ta g'azal (asosiy matnda), 87 ta g'azal (hoshiyada), 14 ta muxammas, 6 ta musaddas, 2 ta qasida, 1 ta ruboiy (asosiy matnda), 2 ta ruboiy (hoshiyada).

Sayyid Asad to'ra boshqa shahzoda shoirlar kabi, asosan, an'anaviy mavzuda she'rlar yozgan. Jumladan, g'azallaridan:

*Majlis tuzub naylay bu kun dildori jonon bo'lmasa,
Ahboblar tokim hamul jismim aro jon bo'lmasa.
Holim parishon o'lg'usi man zorni har lahza to,
Ko'nghumni jam'etmakka ul zulfi parishon bo'lmasa.
Vah naylayin ey do'stlar, ko'nghumda toqat yo'qdurur,
Bazmim aro har kecha ul yori suxandon bo'lmasa.
Ko'b va'dalar aylab manga ko'nghumni shod etmish edi,
Kelgusi erdi bu kecha gar ahdi yolg'on o'lmasa.
Ko'zga barobar ro'z-u shab bo'lmishdur ul hijronaro,
Hech imtiyozi yo'qtur ul sham'i shabiston o'lmasa.
Rahm aylagil bu holima hajring aro dilxastaman,
Lutfing agar holim zabun ul shohi xo'bon o'lmasa.
Desa Asad arzin agar solg'il quloq ey nozanin,
Mundoq nazor o'lmasedi javring farovon o'lmasa.*

Asad devonidagi g'azallar ko'proq ramal, hajaz, rajaz bahrlarida yozilgani ma'lum bo'ladi. "Devoni Asad" matnida g'azaldan keyin shoirning muxammaslari nisbatan katta qismni egallaydi.

"Devoni Asad"ning toshbosma manbalari bir nechtasi O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanadi va ularning deyarli matni bir xil tarzda bosilgan. "Devoni Asad" toshbosma nusxalarida devon ushbu ruboiy bilan yakunlanadi:

*Shoho karam aylading chu markab qulluq,
Farzdur manga qilmoq har kunu shab qulluq,
Dargohing tuprog'in ko'zimga surtib,
Qilmoq manga meros, "an ab" qulluq.*

"Devoni Asad"dagi she'rlar Xorazm devonchiligiga xos bo'lgan devonlar majmualar, bayozlar, muxammasotlarda ham beriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, Sayyid Asad to'ra XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining Feruz, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Avaz O'tar, Rojiiy, Komyob, Sultoniyy, Sa'diy Xorazmiy kabi namoyandalari bilan hamnafas yashadi. Ulardan sharq mumtoz an'alarini o'rgandi va o'zi ham devon tartib berdi. O'zbek adabiyoti tarixida Sayyid Asad to'ra tomonidan yaratilgan she'rlar an'anaviy tasvir vositalarini davom ettirgan ijod mahsuli bo'ladi. Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniy Feruz davri adabiy maktabida tartib berilgan devonlar manbalarining o'rganilishi Xiva adabiy muhiti darajasi va talabini tahlil etilishida aniqlik kiritadi, deb o'ylaymiz. Albatta, Sayyid Asad to'ra kabi yigirmaga yaqin xon sulolasidan yetishib chiqqan shoirlar ijodiy niyati ruhiy yuksalish, adabiyot orqali o'zligini tanishga yo'l topish va madaniy-ma'naviy jarayonda faol bo'lishga intilish ekanligini unutmazlik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondi. Inv. № 8490.
- (2). Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Т., “Камалак”, 1991.
- (3). Бобожон Тарроҳ – Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. Т., “Tafakkur qanoti”, 2011.
- (4). Желябужский Е. Очерки и завоевание Хивы. Москва, 1875.
- (5). Лафасий. Хива шоирлари таржимаи ҳоли. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фонди. Инв. № 9494.
- (6). Раҳим Д., Матрасул Ш., Жумахўжа Н. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Иккинчи китоб. Т., “Ўзбекистон”, 1995.
- (7). Умарова, С. (2023). Суйима Ганиева илмий-адабий мероси: тадқиқот усуллари ва мезонлари. Каталог монографий, 1(4).
- (8). Ўзбек матншунослиги қирралари. Ш.Сирожиддинов, С.Умарова. Т., “Akademnashr”, 2015.

Nasridinova Gulbahor O'ktam qizi (Sirdarya viloyati Pedagogik mahorat markazi ona tili va adabiyot fani metodisti; g0069489@gmail.com)

O'ZBEK ESSENAVISLIGI TARAQQIYOTI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida essenavisligi taraqqiyotining bosqichlari tadqiq etilgan, shu bilan birga, jahon adabiyotida esse janrining paydo bo'lish davrlari ham ilmiy asoslari ko'rsatilgan. Shundan kelib chiqib, dastlab, esse janrida ijod qilgan essenavislarning ijodi tahlillar asosida yoritildi.

Kalit so'zlar: esse (badi'a), ocherk, deneme, skittse, jurnalistika, esse-ramon.

Насридинова Гульбахора дочь Октама (методист Сырдарьинского областного педагогического центра родного языка и литературоведения)
РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО ЭССЕ

Аннотация. В данной статье изучаются этапы развития эссе в узбекской литературе, одновременно рассматриваются и периоды возникновения жанра эссе в мировой литературе.

Ключевые слова: очерк (бадия), очерк, очерк, очерк, публицистика, очерк-роман.

Nasridinova Gulbahor Oktam qizi (Sirdarya Region Pedagogical Center Methodist of Native Language and Literary Science)

DEVELOPMENT OF UZBEK ESSAY WRITING

Annotation. In this article, the stages of the development of essay writing in Uzbek literature are studied, at the same time, the periods of emergence of the essay genre in world literature are also shown.

Keywords: essay (badi'a), sketch, journalism, essay-roman.

Kirish (Introduction). O'zbek adabiyotida esse janrining taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolani yozishimizga sabab, adabiy tanqid janrlaridan biri esse va uning turli ichki ko'rinishlari, xillari, taraqqiyotining o'rni va roli muhimligidadir. Ikkinchi bir sababi shuki, adabiyotshunoslikda esse janri rivojlanishi, shakllanish yo'llari, bosqichlarini essenavislarning esselari misolida tadqiq qilinishidir. Yozuvchilarning esselari tadqiq etish, essenavislarning tarixining taraqqiyot bosqichlarini belgilashlaridadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ushbu maqolani yozishda atoqli adabiyotshunos olimlar O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Rahimjonov, N.Karimov, M.Qo'chqorova, I.Qo'shayeva, B.Qosimovning nazariy qarashlariga, internet saytlaridagi mavzuyimizga daxldor fikrlarga, jahon adabiyotining mashhur yozuvchi va tanqidchilari: Mishel Monten, L.V.Timofuv, S.V.To'rayev, Robert Lang-baumlarning mulohazalariga e'tibor qaratildi. Qiyosiy, tipologik, bir necha manbalardan foydalanib, ilmiy ma'ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbek adabiyotida XX asrning 70–80-yillaridan esse yaratila boshlandi. Esse janri haqida taniqli o'zbek adibi Sh.Xolmirzayev shunday deydi: «Esse-erkin janr, bundan tashqari, u agar ta'bir joiz bo'lsa, (razmersiz janr)ki, kiyim tanlaganda, bo'yiga-yu eniga o'lchab o'tirganday siqilmaysan» [1]. Ha, estetika-qandaydir ijodiy qolip-u mezonlardan butunlay holilalanish, erkin va anchayin keng doirada fikrlash, muayyan shaxs siyratining eng mayda hujayralarini o'rganish va qaysidir ma'noda o'zgalarning qismatidagi bitikni o'z taqdiriga aylantira bilish demakdir.

Inson deb atalmish mardumning ko'ngil dunyosiga kirib boqmoq, o'y-xayolida charx urayotgan fikr-u o'ylarni sezmoq, sezganda ham g'oyat nozik va inja mahorat bilan sezmoq va bu taassurot-u tavajjuhlaridan o'zgalarni-da hayratlantirmoq bunisi jiddiy mahorat va favqulodda san'at mahsulir. Boisi inson siyrati o'ta sirli va jumboqli. Uni hech kim o'zichalik yaxshi bilolmaydi, tushunolmaydi. Ijodkorlar-ku bunday tabiat egalari o'zlari haqida og'iz juftlab «izhori dil» qilmasa ko'nglida kechgan tuyg'uni to'kib solmasa, uncha-muncha qalamkash essenamo bitiklar yozmog'i dargumon. O'zbek adabiyotida esse janri genezisi,

shakllanish jarayoni o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot omillari va yetakchi tamoyillari singari masalalar bugungi adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Tadqiqotchilar esse janrining XX asr adabiy hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, shakllanish tarixi, badiiy mahorat masalasiga o'zlarining munosabatlarini bildirishgan.

Yevropa adabiyotshunosligida esse janrida birinchi bo'lib farang faylasufi Mishel Montening «Esse» (tadqiqotlar) asarini yozgan. Montening bizgacha yetib kelgan ushbu asari uch kitobdan iborat bo'lib, u 1580–1588-yillarda yaratilgan. «Esse» lotincha so'z bo'lib, o'z ustida tajriba o'tkazish degan ma'noni anglatadi. Bunda Monten «Esse» haqida shunday yozadi: «Kitobimning mundariyasi – men o'zimman». Esse janriga berilgan ta'riflardan ham ko'rinib turibdiki, bugungi kunda o'zbek esse janri o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarda biri sanaladi. Yevropada, shuningdek, Amerika adabiyotida esse o'ziga xos janr sifatida badiiy-estetik idrok va ifoda prinsiplariga ega.

Esse Yevropa adabiyotshunosligida XX asr boshlarida, xususan, 40-yillardan keyingi davrda adiqotchilar tomonidan maxsus o'rganila boshlandi. Adabiyotshunos Robert Langbaum «Esse zamonaviy adabiyot va madaniy hayotda» nomli tadqiqotini yaratdi. Olim ingliz adabiyotida esse janri Malbran'shadan boshlanadi deydi.

Rus adabiyotida esse janrini o'rganish asosan, 70-yillardan boshlangan. Bu davrlarda esse janri haqidagi nazariy ma'lumotlar «Qisqacha adabiyotshunoslik terminlar lug'ati» va qomuslarga kiritilgan. Ularda esse janri, asosan, G'arb adabiyoti uchun xosligi aytiladi, uning unsirlari rus yozuvchilari ijodida ham uch-rashi qayd etib o'tiladi. Professor L.V.Timofuv va S.V.To'rayev hammuallifligida nashr qilingan «Adabiyot-shunoslik terminlar lug'ati»da muhim e'tiborli ma'lumotlar mavjud. Adabiyotshunoslar esse Yevropa adabiyotida, xususan, Fransiya, Angliya, Polshada keng quloqch yoyganligini, rus adabiyoti esa uning namunalari deyarli yo'qligini ta'kidlashadi. Rus adabiyotida esse bu ocherk va falsafiy-nazariy mulohazalar asosiga qurilgan maqola, deydi. Shu kitobning ocherk janriga bag'ishlangan qismida chet el adabiyotida «ocherk» singari yagona termin bo'lmaganligi bois bu janr fransuz va ingliz adabiyotida «esse», nemis adabiyotida «skittse» yoki «katta reportaj» deb nomlanishini e'tirof etishgan.

Esse fransuzcha «ocherk» ma'nosini ham anglatadi. Ingliz tilida esse so'zi uch xil ma'noda ishlatiladi: 1. Essay – urinish, sinab ko'rish. 2. Ocherk. 3. Insho ma'nosini beradi. Shuningdek, turk adabiyotida es-sega aynan o'xshash «deneme» janri haqida «Bug'oq turkcha lug'at», «Turkcha lug'atlar kitobida» shunday deyiladi (deneme) – har qanday mavzuda yangi va shaxsiy qarashlar bilan bezangan, bir ifoda ichida berilgan proza janri». Turk tilidagi «deneme» so'zini o'zbek tilidagi tarjimasi «sinov» ma'nosini anglatadi. Demak, turk tiliga fransuz va ingliz tilidagi «esse» so'zining shu ma'nosi olingan. Endi ocherk bilan esse bitta janrmi? Degan savol paydo bo'ladi. Yozuvchi Sh.Xolmirzayev bu haqda shunday deydi: «Esse janri ocherk bilan hikoya o'rtasida o'sib chiqqan janr–tasvir usulidirki, u maqola, ilmiy bo'ladi, badiiyoq bo'ladi, baribir, to'g'rirog'i, ularni o'zining qilib oladi [2]. Ocherk (rus)–badiiy adabiyotining epik tur janrlaridan biri. Ocherk o'zining hozirjavobligi, ishonarliligi, haqiqiy hayotda ro'y bergan voqealarni ifodalash, hujjatlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ocherk o'zbek adabiyotida XX asrning 20–30-yillarida kirib kelgan. Esse janridan oldinroq. Esse va ocherk bitta janr deyish to'g'ri emas, ular har biri alohida janr. Biroq keyingi yillarda ocherk janri ham mazmunan ham shaklan biroz chekinishga yuz tutib, uning o'rnini esse janri ko'proq egallay boshladi, desak, to'g'rirog' bo'lar. Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi. Xotiralar, adabiy-o'ylar, badialar, esselar bular alohida janrlarmi yoki «esse» termini ostida birlashadimi? Mishel Monten asaridagi kichik bir parcha «Musohaba san'ati xususida» qismi Ibrohim G'afurov tomonidan tajima qilingan edi. Tarjimon so'z boshisida uni Montening «Badi'alar» asaridan parcha deydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and result). O'zbek tilidagi “badi'alar” atamasi fransuz tilidagi «esse-lar» so'ziga ekvivalent bo'la oladi. O'zbek adabiyotshunosligida esse janriga nisbatan birmuncha kech munosabat bildirila boshlandi. 1991-yilda nashr qilingan «Adabiy turlar va janrlar» kitobida esse va badi'a haqida ma'lumot keltirilgan, Qomusiy lug'atlarda ham ko'rishimiz mumkin bo'lgan ma'lumotlar bor unda es-sega berilgan ta'riflar quydagicha «Esse–falsafiy-estetik, adabiy-tanqidiy, tarixiy-biografik, publitsistik proza janri» [3] deyilgan. Bu ta'rifga Marhobo Qochqorova e'tiroz bildiradi. «Bu ta'rif janr tabiatini to'la-ligicha ochib bermagan. Chunki jahon essechiligini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, lirik, hatto fantastik mazmundagi esselar yaratilganligining guvohi bo'lamiz. Bunga A.Kamyu, R.Muzel, T.Mann ijodi misol bo'ladi [4], deb ayatdi. 90-yillardan keyingi davrda U.Normatov, N.Rahimjonovlarning tadqiqot va maqolalarida esse, badi'a, xotira, esse-xotiralar haqida fikrlar uchraydi. Esse va badia Sharq va G'arb adabiy hayotida shakllangan bu janrlar qaysi xususiyatiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Yozuvchi P.Qodirov badia janri haqida fikr bildirib, shunday deydi: «Badiiy so'zning shakllari ko'p. She'riy nutq nazmga kirsak, badiiy maqolalar shaklidagi nasriy nutq milliy adabiyotimizda badia deb atalgan. Hozir G'arb adabiyotida keng tar-

qalgan esse ham ko'p jihatdan badiaga o'xshab ketadi». P.Qodirov badiya va esse hayotni, voqealikka badiiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy ta'rif etish vazifasiga ko'ra o'xshash janri deb e'tirof etadi. Sof badiya tipdagi asarlar 70-yillardan boshlab Asqar Muxtor, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev singari adabiyot ijodiy izlanishlarida yuzaga keladi. 80–90-yillarda o'zbek adabiyotida esa esse bilan badiya baravar ijod shakli sifatida ko'zga tashlanadi. N.Rahimjonov maqola va risolasida esse va badiyaning bir-biridan ajratilmaydi, bir o'rinda «esse», ikkinchi o'rinda «badiya» deb qo'llaydi». Jumladan, badiyalar (adabiy o'yalar), mohiyatan turli shakllarda (yozuvchi va tanqidchi dialogi, qaydlar, badiiy etyudlar, esselar, kundaliklar, sadolar, qayd-estaliklar tarzida zuhurlanayotir,))» deydi. Hatto, ayrim o'rinlarda ikkala janrni baravar ijod shakli deb ham qaraladi. Badiya so'zi mumtoz adabiyotimizga borib bog'lanadi, bu to'g'ri. Qadimgi Sharq adabiyotida badiiy maqolanavislilik san'ati bo'lgan «Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at»da badiya (ko'pligi «badiya») so'zi «yang'lik, ajoyib narsa» [5] deya izohlangan.«O'zbek tilining izohli lug'ati»da badiaga «Kishining diqqatini tortadigan, tahsinga sazovar badiiy asar. Har zamonning o'ziga yarasha nodir kishilari bo'ladi, ular o'z fazlu kamollari bilan asrdoshlariga turli-tuman badiyalar qoldiradi» deb G'.G'ulom ta'rif beradi. Biror bir buyuk shaxs haqida yoki biron voqea-hodisa xususida qiziqarli yangilik ayta oladigan xotira-memuar janri badiya, desak bo'ladi.

Tatqiqotchi M.Qochqorova Sharq adabiyotida yaratilgan tazkira namunalarini badiya janri bilan bog'lash mumkin deb fikr bildirib o'tadi. Adabiyotshunos U.Normatovning «Umidbaxsh tamoyillar» kitobida 90-yillardan keyin yaratilgan esse-xotiralarga fikr-mulohazalari bildiriladi. «Bugungi nasrimiz yo'llari», «Xotiralar jozibasini» maqolalarida Said Ahmad, Shukr Xolmirzayev, esselariga alohida to'xtalgan. Ruscha «Adabiy qomusiy lug'at»da «esse avtor pozitsiyasi birinchi planga chiqariladigan janr» [6], deyiladi. Inglizcha «Dunyo lug'ati»da ham aynan shu ta'rif keltirilgan. O'zbek adabiyotshunosi N.Rahimjonov esseni badiyaning bitta ko'rinishi sifatida talqin qilgan. Adabiyotshunos U.Normatov o'zbek adabiyotida shakllanayotgan esse haqida quyidagicha fikrni aytib o'tadi: «besh-olti yil tanaffusdan so'ng yozuvchi publitsistikasining esse-xotira turi qayta jonlana boshladi. Said Ahmadning Oybek, G'.G'ulom, Mirtemir, M.Shayxzoda, Shuhrat, S.Zunnunova haqidagi turkum xotiralari, O'lmas Umarbekovning «Qizimga maktublar» xotiralari, N.Aminovning «Bir asr hikoyati», Sh.Xolmirzayevning «Odil aka haqida o'ylasam...» kabi asarlari adabiyot jamoatchilikning orasida katta qiziqish uyg'otdi» [7], deya esse namunalariga munosabat bildiradi. Olim o'zining «Xotiralar jozibasini» maqolasida Said Ahmadning «Yo'qotganlarim va topganlarim» esse-xotirasini tahlil qiladi. 90-yillardan keyin o'zbek adabiyotida katta va yosh adabiyotshunos olimlarning esseistik xarakterda yaratilgan maqola va risolalarini ko'plab kuzatishimiz mumkin. Jumladan, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov singari yoshi ulug' munaqqidlar qatori U.Hamdani kabi adabiyotshunoslarning maqolla va izlanishlarida erkin fikr, ilmiylik bilan badiiylikning o'zaro uyg'unligi, turli narsalar haqida turlicha qarashlari, yozuvchi va shoirlar ijodi, hayoti va faoliyati tadqiq etish an'anasi shakllanganini ko'ramiz. U.Normatova adabiyotshunos olimlar ijodidagi esselashish jarayonini to'g'ri anglab, «Ijod va shijoat» maqolasida O.Sharafiddinov esse tadqiqotlariga alohida to'xtaladi. Adabiyotshunos A.Rasulov esa «Tafakkur yo'lqini» maqolasida olim O.Sharafiddinovning «Ijodni anglash baxti» asariga alohida urg'u berib, esse xarakteridagi ajoyib asarlar yaratilganligini e'tirof etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Esse janri bo'yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot va folklor instituti xodimi Marhabo Qo'chqarova 2004-yilda «Hozirgi o'zbek adabiyotida esse janri» mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan 2012-yilda O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti magistranti Qo'shshayeva Iqbol Abdurazzoqovna «Adabiy-badiiy nashrlarda esse janri taraqqiyoti» nomli magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ushbu ishida mavzu jurnalistika nuqtayi nazardan tadqiq qilingan. Rahimova Mohinabonu «Esse janrining lingvistik tadqiqi» mavzusida magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan. B.Qosimov «Cho'lpon haqidagi romon» maqolasida N.Karimovning «Cho'lpon» ma'rifiy-romanini «esse-romon, esse-tadqiqot» deb baholaydi.

Esse janri haqidagi qarashlar, to'xtamalar, aniq nazariy fikrlar dunyo adabiyotshunosligida ham hali hamon tugamagan. Esse janrida muallifning «men»i yetakchi mavqega ega bo'lgan, yozuvchining shaxsiy mulohaza va taassurotlari asosiga quriluvchi erkin kompozitsiyali nasriy ijod namunasidir, esse janri o'zbek adabiyotida vujudga kelishi janrning keng imkoniyatlari, erkin ijodligidan tashqari, jamiyatdagi tarixiy zaruriyat tufayli yuzaga kelgan. Chunki yozuvchi, shoir, adabiyotshunos olimlarning yangicha-erkin yozish, erkin fikrlash qoliblaridan ma'lum vaqt cheklanishlari, keyinchalik, esse janrining keng rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatu (references):

- (1). Xolmirzayev Shukur. Saylanma. 4-jild. Esselar, T., O'zAS, 2003, 16-bet.
- (2). <https://kh-davron.uz>. Esse – erkin ijod. Shukur Xolmirzayev bilan suhbat. 2018.29.09.
- (3). <https://n.Ziyouz.com>. Marhabo Qo'chqorova. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari.
- (4). <https://n.Ziyouz.com>. Marhabo Qo'chqorova. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari.
- (5). <https://forum.ziyouz.com>. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. 2020, 7-noy.
- (6). <https://n.Ziyouz.com>. Marhabo Qo'chqorova. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari.
- (7). Normatov U. Umidbxsh tamoyillar. T., "Ma'naviyat", 2000, 56-bet.

**Paluanov Baxitbay Nurlibayevich (QDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; bpaluanov@gmail.com)
QORAQALPOQ BADIY PUBLITSISTIKASIDA JANRIY TRANSFORMATSIYA**

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq publitsist-yozuvchilari T.Qayipbergenov va Sh.Usnatdinovlarining ijodiy laboratoriyalaridagi publitsistik mahorat va ijodiy tajribalar masalalari yoritilgan. Adiblarning ijodiyotlarida adabiy va jurnalistik janrlar transformatsiyasi natijalariga munosabat bildirilgan. Qoraqalpoq publitsistikasida janrlar transformatsiyasining ikki xil takomillashish hodisalariga alohida urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: publitsistika, jurnalistika, janr, adabiyot, matbuoy, ocherk, feleton, esse.

**Палуанов Бахытбай Нурлыбаевич (доцент КГУ, кандидат филологических наук;
bpaluanov@gmail.com)**

**ЖАНРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В КАРАКАЛПАКСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ
ПУБЛИЦИСТИКЕ**

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы журналистского мастерства и творческого опыта в творческих лабораториях каракалпакских публицист-писателей Т.Кайипбергенава и Ш.Уснатдинова. Результаты трансформации литературных и публицистических жанров нашли отражение в творчестве публицистов. Особое внимание уделяется двум типам развития жанровой трансформации в каракалпакской публицистике.

Ключевые слова: публицистика, журналистика, жанр, литература, печать, очерк, фельетон, эссе.

**Paluanov Bakhitbay Nurlibayevich (Associate Professor of KSU, Candidate of Philological Sciences;
bpaluanov@gmail.com)**

GENRE'S TRANSFORMATION IN KARAKALPAK ARTISTIC JOURNALISM

Annotation. The article examines the issues of journalistic skill and creative experience in the creative laboratories of Karakalpak publicists and writers T.Kayipbergenov and Sh.Usnatdinov. The results of the transformation of literary and publicistic genres are reflected in the works of publicists. Particular attention is paid to two types of development of genre transformation in Karakalpak publicism.

Keywords: publicism, journalism, genre, literature, press, очерк, feuilleton, essay.

Kirish. Qoraqalpoq badiiy publitsistikasining paydo bo'lishi va rivojlanishiga yozuvchilar, jurnalistlar, shoirlar o'zlarining ijodiyotlari bilan hissa qo'shdi. Badiiy publitsistikadagi janriy transformatsiyani ikki aspektda o'rganish mumkin. Birinchidan, shoir-yozuvchilarning kichik publitsistik asarlardan boshlab, katta nasriy asarlarga o'tish jarayonini inobatga olish kerak. Ikkinchidan, jurnalist (muxbir) sifatida gazeta tahririyatda xizmat qilib, ijodiyotining oxirida badiiy adabiyotga kirish harakati ham mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qoraqalpoq adabiyoti va jurnalistikasi paydo bo'lishida ocherk alohida o'rniga ega janri hisoblanadi. Boshqa janrlarga nisbatan ocherk janri ham matbuotda, ham nasriy muhitda alohida ahamiyat kasb etadi. «Hikoya singari ocherk ham qoraqalpoq yozuvchilarining ijodi oxirida katta roman va povestlar yozish uchun tayyorgarlik rolini bajaradi» [1;199-b.].

Qoraqalpoq badiiy publitsistikasining paydo bo'lishidan to 1990-yillargacha bo'lgan davrdagi publitsistik asarlarni ilmiy tadqiq qilgan taniqli olim, akademik Marat Nurmuxamedov edi. U qoraqalpoq nasriyning vujudga kelishida qoraqalpoq matbuotining va badiiy publitsistikaning ahamiyati katta ekanini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqotchi qoraqalpoq badiiy publitsistikasida janriy transformatsiya masalasini aniq misollar bilan tushuntirgan. «Felyetonlarning ijtimoiy ahamiyati katta bo'ldi. Shu bilan birga, ular nasrning rivojlanishida ham katta rol bajardi. Mazkur publitsistik janr badiiy nasrga biroz yaqin edi. Ko'pchilik prozaiklar, dastlab, felyeton janrida ijod qildi, tajriba to'pladi va o'zlarining mahoratlarini takomillashtirdi. Misol uchun, Dali Nazbergenov ajoyib felyetonlar yozdi. Mazkur tajriba uning yaxshi ocherklar yaratishiga yordamlashdi» [1;47-b.]. Ma'lum bo'ladi, amaliyatda ayrim janrlar ham badiiy adabiyotga, ham jurnalistikaga tegishli bo'lib, umumiy bo'lmagan shaklda namoyon bo'ladi. «Hozirgi zamon adabiyot nazariyasi ja-

rayondagi adabiy turlariga kirgizish qiyin bo'lgan qator janrlarni keltirib chiqaradi. «Umumiy bo'lmagan shakllar»ga ocherk va esselar kiradi» [2;317-b.].

Qoraqalpoq adabiyotining buyuk namoyandasi, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpogiston xalq yozuvchisi To'lepbergen Qayipbergenov ijodiy laboratoriyasiga nazar tashlaganimizda, adib dastlabki nasriy asarini ocherk janrida boshlaganini kuzatish mumkin. Yozuvchining qalamiga mansub «Dáslepki adm» («Dastlabki qadam») ocherki negizida muallif «Qaraqalpaq qızı» («Qoraqalpoq qizi») romanini yozdi [3;2-b.]. «T.Qayipbergenovning «Qaraqalpaq qızı» romanining bosh qahramoni Jumagulning prototipi Qoraqalpog'istondagi dastlabki komsomol qizlarning biri Jumagul Seytova ekanligi aniq» [4;170-b.].

Adibning janrlar transformatsiyasiga o'tishi uning ijodidagi samarasiz jarayonlar bilan bog'liq. Akademik Marat Nurmuxamedov mazkur jarayonga quyidagi bahoni bergan: «T.Qayipbergenov adabiy jarayonga elliginchi yillarning o'rtalaridan boshlab kirib keldi. O'zining ijodiy yo'lini ocherk, hikoya yozishdan boshladi, ammo, u samarali bo'lmadi. U o'zini nasrning yirik janrida asarlar yaratish orqali ommaga tanitdi» [5;226-b.]. Qoraqalpoq adabiyotshunos olimi Qalimbet Sultanov «T.Qayipbergenovning ijodida ocherkka yaqin asarlar joy oldi. Buni kundalikli hayotdan yaratilgan asar deb nomlash mumkin. U – «Sekretar» («Kotib») povesti. Povestni o'qiganingizda kundalikli hayot voqealarini hikoyalaydi, ammo «Suviq tamsh» («Sovuq tomchi») povestida «Kúndelik dápter» («Kundalik daftar») sifatida yozuvchi tomonidan atiladi» [6;18-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Janriy transformatsiya nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, yozuvchi ijodining evolutsiyasi boshqa adiblarning ijodiy jarayonlaridan birmuncha farqlanadi. Hayratlanarli tomoni, adib qator povest-romanlar yozib bo'lganidan so'nggina o'zining ijodida badiiy publitsistikaga ahamiyat qaratdi. Buni uning o'zi ham tasdiqlaydi: «Publitsistika bilan kech shug'ullandim. Ko'p vaqtgacha uni yozuvchining emas, jurnalistning janri deb hisobladim» [7;139-b.]. «Muallifning publitsistik asarlarining janriy xususiyatini tushunish (jurnalistika nuqtayi nazaridan qaraganda) juda qiyin, mazkur narsa unda ko'proq uchraydi, bir tomondan, janriy shakllarning sintezi, ikkinchi tomondan, janrlarning gazeta xarakteriga yozuvchining ta'siri mavjud» [8;14-b.].

Yozuvchining badiiy publitsistikasida nafaqat adabiy janrlar aralashmasini, balki jurnalistika bilan adabiyotning sintezini ko'rish mumkin. Taniqli qoraqalpoq adabiyotshunos olimi Kengesbay Allambergenov T.Qayipbergenovning «Qoraqalpoqnoma» roman-essesi haqida yozgan ilmiy maqolasida «...roman-essedan quyidagicha sintezlik sxemani keltirib chiqarish mumkin:

1. Tariyxiy voqealar bilan zamonaviy hodisalarning sintezi.
2. Publitsistika bilan badiiy adabiyot sintezi.
3. Folklor dasturlari bilan yozma adabiyot dasturlarining sintezi.
4. Asar tuzilishida sifatlar bilan obyektiv-epik va subyektiv-lirik sifatning sintezi.

Albatta, bularni biri-biridan ajratib qarash ham o'nchalik mantiqiy emas. Bu sintez turlarining qaysi birini qarashmaydik, eng avvalo, roman-essedagi bir butun vujudlikni isbotlashga to'g'ri keladi» [9;118–119-b.].

Tahlil va natijalar. Yozuvchi T.Qayipbergenov ijodining so'nggi faslida badiiy publitsistik asarlarga, asosan, yangi va erkin janr – essegga o'rg'u berdi. Zamonning oqimini to'g'ri tushungan va o'zi yashayotgan davr qo'ygan talablarga bo'ysingan yozuvchi «Har bir kitob – bu monolog, ammo adabiyot dialogdan iborat» [7;144-b.] deb hisobladi va esse janrining keng imkoniyatlaridan samarali foydalandi. Janrning eng muhim sifat ko'rsatkichi muallifning paradoksal fikrlashga moyilligi, erkin muloqot, asarda yozuvchi aqliy salohiyatining qabarib ko'rinishi [10;5-b.] singari xususiyatlar XX asrning 90-yillariga kelib to'la shakllandi va janr o'zining yangi imkoniyatlarini kashf etdi. Demak, essening qoraqalpoq adabiyotida mustaqil janr tarzida shakllanishiga, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy hayotda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar turtki bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, adabiy shakl tabiatida yashirin erkin fikrga moyillik, ochiq muloqot, muhokamaga daxldorlik janrning XX asrning 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab qoraqalpoq adabiyotida va badiiy publitsistikasida jarayon sifatida rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochdi.

Publitsist-yozuvchining ijodida qator sintezlashgan janrlardagi asarlar vujudga keldi. Yozuvchining «Qoraqalpoqnoma» asari roman-esse janrida alohida kitob bo'lib bosmadan chiqdi. Bundan keyin adibning «Qaraqalpaqpan-Táwekelshimen» («Qoraqalpoqman-tavakalchiman», 2008) asari intervyu-esse janrida, «Qalbimning qamusi» («Qalbim qomusi», 2003) asari esa reportaj-esse janrlarida yozildi.

Shuni alohida ta'kidlash zarur, «T.Qayipbergenovning, mayli, o'tmishdagi hayotni bayonlagan voqealari, mayli, hozirgi hayotdan yozilganlari bo'lsin, kundalik turmushning faktlari bilan qarashdir» [6;19-b.]. Yozuvchi T.Qayipbergenovning yirik nasrning kichik shakllaridan boshlangan ijodiyoti janriy tran-

sformatsiya jarayoni tufayli katta polotnolarga o'tgan. Ammo yana badiiy publitsistikaga qaytib, adabiyot bilan jurnalistika unsurlari jiplashgan yangi ijod namunasini vujudga keltirdi.

Janriy transformatsiyaning evolutsiyasi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, qoraqalpoq badiiy publitsistikasida o'zining ijodini jurnalist sifatida boshlagan va ijodining so'nggi faslida adabiy asarlar yaratgan taniqli publitsist, jurnalist, yozuvchi Sharap Usnatdinovning ijodiy laboratoriyasining yo'nalishi jurnalistikadan-adabiyotga qadam deb hisoblaymiz. Publitsist-yozuvchi Sharap Usnatdinov qoraqalpoq adabiyoti bilan matbuotida alohida o'ringa ega ijodkor. Adibning qator publitsistik, jurnalistlik asarlari qoraqalpoq matbuotida keng auditoriyasiga ega. Ammo uning oxirgi yillari badiiy ijodi ham o'z qon namoyon bo'lmoqda.

Biz Sh.Usnatdinov ijodini tahlil qilib o'rganganimizda, muallif tomonidan qator janrlarda publitsistik materiallar yozilganini kuzatdik. Jurnalistik nuqtayi nazaridan, Usnatdinov ijodida maqola, intervyu, retsenziya, suhbat, ocherk janrlari ko'proq namoyon bo'ladi. Mazkur janrlardagi asarlarida tadqiqotchi Y.V. Virovseva ta'kidlaganidek, «dasturiy janrlarning o'zgarishiga, mualliflik boshlashining kuchayishi» sabab bo'lmoqda. Mazkur jarayonni fanda har xil nomlaydi: personifikatsiya, esseizatsiya, subyektivizatsiya» [11;211-b.].

Badiiy adabiyot o'lchamlari nuqtayi nazaridan esa oxirgi yillari adibning hikoya va povest'lari mahalliy matbuot sahifalarini bezamoqda.

Mazkur tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, aytadigan bo'lsak, muallif ijodida janrlar transformatsiyasi boshqa qoraqalpoq publitsist-yozuvchilariga nisbatan aniqroq ko'rinish hosil qiladi. Aslida, Sharap Usnatdinov jurnalist sifatida ijodiyotga kirib kelgan bo'lsa, deyarlik barcha jurnalistika janrlarida materiallar tayyorlaganiga shubha yo'q. Ammo uning ijodida jurnalist sifatida maqola, intervyu va ocherk janrlari boshqa janrlarga nisbatan ko'proq namoyon bo'ldi. Sh.Usnatdinov nafaqat jurnalist bo'lib ishladi, balki o'zining bosh muharrir sifatida ham «Erkin Qoraqalpog'iston» gazetasini takomillashtirish maqsadida janriy rivojlanishga ham hissa qo'shdi. Masalan, u «Erkin Qoraqalpog'iston» gazetasi bosh muharriri sifatida gazetada yangi «Publitsist minberi» («Publitsist minbari») rubrikasini tashkillashtirdi va o'zi birinchilardan bo'lib mazkur ruh ostida qator publitsistik maqolalar bilan chiqdi. Bu jarayon nafaqat gazeta ommasining kengayishiga to'rтки bo'ldi, balki gazetada ijod qilayotgan jurnalistlarga ham ijobiy ta'sir o'tkazdi.

Sharap Usnatdinov ijodidagi janrlar transformatsiyasiga nazar qaratsaq, bitta mavzu bilan qator janrlarda asarlar yozgani va uning auditoriyasi izchil kengayib borganini ko'rish mumkin. Masalan, uning ijodida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibrayim Yusupov obrazi alohida o'rinni kasb etadi. Mahalliy matbuotda shoir haqida, uning ijodi haqida durkum maqolalar yozish bilan kifoyalanmasdan, shoir bilan «Ey, vaqt! Bol, bol jebewishim...» [12;3-b.] mavzusida suhbat ham o'tkazdi. Demak, auditoriyaga ta'sir kuchini takomillashtirish uchun monolog shakldan dialog shaklga o'tish ham yaxshi natija ko'rsatdi. Boshida yozgan maqolalarida muallif shoir haqida batafsil yozgani bilan uning bilan teng uslubda suhbat o'tkazishga urinmagan. Yillar o'tib, ijodiyotda birga hamkasb bo'lgani va uning ijodining sirlarini batafsil o'rganishidan so'ng suhbat janriga o'tkan. Suhbat davomida shoir bilan birga istiqomat qilayotgani, zamandosh bo'lganligi muallifga g'urur bag'ishlashini sir tutmagan. Shu bois muallifda suhbat o'tkazish imkoniyati mavjud edi.

Ammo xalq shoiri vafot etgandan so'ng, Usnatdinov yana Yusupov obraziga qaytadi. Bu gal, zamandosh emas, hamnafas bo'lmaganidan muallif shoir haqida memuar janridagi «Ma'ngilikke aylangan miyras» («Abadiyotqa aylangan meros») [13;25–32-b.] nomli maqola tayyorlaydi. Shoirning vafotidan keyingi adabiyot va ijodiyot haqida so'z bo'ladi. Muallif buning bilan ham kifoyalanmasdan yana Yusupov obraziga alohida diqqat qaratadi va ilgari yozgan jurnalistik materiallari negizida badiiy asar yaratadi. Natijada, shoir ijodi bo'yicha «Ibrayim Yusupov. Shayirdin jasligh'i» («Shoir yoshligi») [14;270-b.] degan hujjatli povest' yozib, keng ommaga joriy qildi. Bunda muallif obrazi uchinchi shahs ko'rinishida voqea-hodisalarini hikoya qiladi, asosiy urg'u memuarlik sifatga beriladi. Ta'kidlab o'tish joiz, muallif ilgari yozgan jurnalistik asarlarida aytilmagan ayrim faktlarni mazkur hujjatli povestida bayon qiladi. Mazkur asarda esse janridagidek, auditoriya bilan jonli suhbat ham qiladi: «Mazkur joyda mushtariylarning toqatini sinamasdan va shoirning qardoshi haqida boshqatdan hikoya qilishga vaqt yetmasligini inobatga olib, uning hayoti haqida lo'ndagina oldindan quyidagilarni bayon qilmoqshimiz» [14;261-b.]. Sh.Usnatdinovning jurnalistik va badiiy asarlarida ham janrlar sintezini ko'z atash mumkin. Asar mazmunlarida bir xil fakt bo'lgani bilan, janrdan-janrga o'tgan sayin mazmun yangilanib, voqealar rivojlanib, muallif obrazi ham ko'proq namoyon qiladi.

Xulosa. Taniqli rus olimi Y.N.Zasurskiy zamonaviy jurnalistikaning rivojlanish tendensiyalarini ta'kidlab: «XX asr og'imida elektron kommunikatsiya va axborot vositalari kuchli rivojlanib, «matbuot» ter-

minidan «omnaviy axborot vositalari» terminiga o'tishni majburladi. Asr oxirida kommunikatsion-informatsion revolyutsiya vujudga keldi. Postindustriya jamiyati o'rniga axborot jamiyati haqida gapiradigan bo'ldi, natijada omnaviy axborot vositalarining konvergentsiyalanishi rivojlandi» [15;84-b.].

Shu konvergentsiyalanish jarayoni badiiy ijodkorlar faoliyatida ham kuzatilmoqda. Ijodiy turlar orasidagi yaqinlashish, hatto qo'shilishlar, adib-publitsistlar T.Qayipbergenov bilan Sh.Usnatdinovlarning ijodining yangi qirralarini ko'rsatdi. Ijtimoiy muhit va zamon talabi negizida vujudga kelayotgan konvergentsiyalanish hodisasi hozirgi qoraqalpoq badiiy publitsistikasida jurnalistika va adabiyot janrlarining sintezlashiga olib kelmoqda va bu jurnalistika ta'lim tizimida ham islohotlar zarurligini belilamoqda [16;58-59-b.]. Buning natijasida publitsistlar ijodida janriy transformatsiya hodisalari yuz berib, ijodiy faoliyatda ijodiy turlar birikmasi, janrlar sintezi hosili sifatida yangi janr, gibrid janrlar paydo bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Нурмухамедов М. Шығармалары. Нукус, “Қарақалпақстан”, 1985, 440 бет.
- [2]. Хализев В.Е. Теория литературы. Москва, 1999, с. 309.
- [3]. Кожикбаева З. Художественный очерк в современной каракалпакской литературе (1980–1990-е годы). АКД, Нукус, 1998, с. 16.
- [4]. Ахметов С., Есенов Ж., Жәримбетов Қ. Әдебияттануы атамаларының орысша-қарақалпақша түсіндірме сөзлігі. Нөкіс, “Билим”, 1994, 240 бет.
- [5]. Нурмухамедов М. Каракалпакская советская проза. Т., 1968, с. 310.
- [6]. Султанов Қ. Т.Қайыпбергеновтың прозасы. Нөкіс, «Қарақалпақстан», 1979, 74 бет.
- [7]. Қайыпберген Т. Фамилия. Нөкіс, “Қарақалпақстан”, 1988, 172 бет.
- [8]. Абдимуратов А. Публицистика Тулепбергена Каипбергенова: специфика, тематика, жанровые особенности. АКД, Ташкент, 1997, с. 22.
- [9]. Алламбергенов К. Қарақалпақ әдебиятында синтез проблемасы. Материалы XII-ой научно-теоретической конференции НГУ, Нукус, 1988, с. 220.
- [10]. Қўчкарова М. Ҳозирги ўзбек адабиётида эссе жанри. Филология фанлари номзоди... диссертацияси автореферати, Тошкент, 2004, 23 бет.
- [11]. Выровцева Е.В. Трансформация традиционных публицистических жанров в современных массмедиа. Вестник Челябинского государственного университета, 2015, № 5 (360). с. 430.
- [12]. «Еркин Қарақалпақстан» газетасы, 2004-жыл, 4-ноябрь.
- [13]. «Сөз зергери еди» (Яднама). Нөкіс, “Қарақалпақстан”, 2009, 60 бет.
- [14]. Уснатдинов Ш. Ибрайым Юсупов. Шайырдың жаслығы. Нөкіс, “Билим”, 2013, 272 бет.
- [15]. Засурский Я.Н. Искушение свободой. Российская журналистика: 1990–2004. Москва, МГУ, 2004, с. 464.
- [16]. Paluanov B. Reforming Journalism Education in Uzbekistan. “Identity and Integrity in Journalism Education” 4th World Journalism Education Congress Refereed Proceedings. Auckland University of Technology, Auckland, New Zealand, 2016, 14–16 July, p. 92.

Xamrokulov Jasurbek Muhammadjon o‘g‘li (Farg‘ona davlat universiteti sport sog‘lomlashtirish majmuasi mudiri; ORCID ID. 0009-0008-5340-3870)

**“TUTORLIK FAOLIYATI ASOSLARI” FANINI O‘QITISHDA INTERNET
TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MASALALARI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Tutorlik faoliyati asoslari” fanini o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish an’anaviy usullarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni hosil qilishi, uning didaktik imkoniyatlariga yetarlicha e’tibor qaratish zarurati xususida fikr yuritilgan. “Tutorlik faoliyati asoslari” fanini interfaol o‘qitish usullari bilan internet texnologiyalari mujassamligida tashkillash tinglovchilar bilim olish jarayoniga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va o‘quv-ma’lumotlarni faol o‘zlashtirishga jalb qiladi. Unda tinglovchilar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratiladi: o‘quv jarayonini yuqori estetik va emotsional bosqichga chiqaradi, differentsiallashtirishni ta’minlaydi, darsda bajarilgan ish hajmini sezilarli darajada oshiradi, bilim darajasini baholashni va nazorat qilishni takomillashtiradi, dars samaradorligini oshiradi, mustaqil ta’lim olishni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: “Tutorlik faoliyati asoslari” fani, internet texnologiyalari, o‘quv jarayoni, dars samaradorligi.

**ВНЕДРЕНИЕ ИНТЕРНЕТ-ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ
“ОСНОВЫ ТЬЮТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ”**

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что использование средств информационных технологий при преподавании предмета “Основы тьюторской деятельности” создает более высокий индекс по сравнению с традиционными методами, а также необходимость уделять достаточное внимание его дидактическим возможностям. Организация предмета “Основы тьюторской деятельности” с использованием интерактивных методов обучения в воплощении интернет-технологий оказывает существенное положительное влияние на процесс обучения студентов и привлекает их к активному усвоению учебной информации. Это создает перед слушателями следующие возможности: выводит учебный процесс на более высокий эстетический и эмоциональный уровень, обеспечивает дифференциацию, значительно увеличивает объем проделанной на уроке работы, улучшает оценку и контроль уровня знаний, повышает эффективность урока, обеспечивает независимое образование.

Ключевые слова: наука “Основы тьюторской деятельности”, интернет-технологии, учебный процесс, эффективность урока.

**IMPLEMENTATION INTERNET TECHNOLOGIES IN TEACHING THE COURSE
“FOUNDATIONS OF TUTORING ACTIVITIES”**

Annotation. This article discusses about the fact, that usage of information technological tools in teaching the course “Basics of Tutoring” creates a higher index compared to traditional methods, and the need to pay sufficient attention to its didactic capabilities. Organization of the course “Foundations of tutoring activities” with interactive teaching methods in the embodiment of Internet technologies has a significant positive effect on the learning process of students and attracts them to active learning of educational information. It creates the following opportunities for the listeners: takes the educational process to a higher aesthetic and emotional level, provides differentiation, significantly increases the amount of work done in the lesson, improves assessment and control of knowledge level, increases the effectiveness of the lesson, provides independent education.

Key words: “Foundations of tutoring activities” science, Internet technologies, educational process, lesson efficiency

Kirish. O‘quv jarayonining samaradorligi ilm-fan taraqqiyoti hamda axborot texnologiyalarning rivojiga bog‘liq masaladir. Axborot texnologiyalari keng ma’noda obyekt, jarayon, hodisalar to‘g‘risida ma’lumotlarni olish, to‘plash, qayta ishlash, uzatish vositalari va usullarining kombinatsiyasidan foydalanadigan jarayonni anglatadi. “Tutorlik faoliyati asoslari” fanini o‘qitishda ham ta’lim oluvchiga vizual axborotli ma’lumotlarni qiziqarli ravishda taqdim etishga keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bois ta’lim-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalari vositalarini joriy etish, jumladan, “Tutorlik faoliyati asoslari” fanini o‘qitishda axborot texnologiyalarning qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonovlarining fikriga ko‘ra, axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo‘lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o‘rin egallaganligi sababli, ularni ta‘lim tizimiga yanada kengroq joriy etish usullarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati mavjud [1;55-b.]. Bugungi kunda barcha fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish an‘anaviy usullarga nisbatan yuqori bo‘lsa-da, uning didaktik imkoniyatlariga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun, avvalo, ta‘lim tizimida kompyuter texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini joriy etishda mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha shug‘ullangan H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov [1], M.G.Naderina [2], P.M.Jalolova [3], H.B.Nikadambayeva [4], V.P.Golov [5] kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan taklif va tavsiyalarin o‘rganib chiqildi. Bunda quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

1. Texnik muammolar. Bu ta‘lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishga oid qo‘yiladigan talablarni, ularni amalda qo‘llash xususiyatlarini takomillashtirishni talab etadi.

2. Dasturiy ta‘minot muammolari. Bu ta‘lim jarayonida foydalanish uchun pedagogik dasturiy vositalarning tarkib va turlarini, ularning qo‘llashga oid xususiyatlarini takomillashtirishni anglatadi.

3. Tayyorgarlik muammolari. Bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyati va malakasi bilan bog‘liqdir. Bu borada M.G.Naderinaning fikriga ko‘ra, ta‘limga oid ma‘umotlarning jozibadorligiga qaramay, o‘rganilayotgan o‘quv ma‘lumotlarning abstraksiyasining katta qismi, maxsus atamalarning ko‘pligi, moslashtirilgan devor xaritalarining yetishmasligi, tinglovchilarning dunyo haqidagi bilimlarining egallash imkoniyati cheklanganligi va shu kabi muammolar borligi tufayli, ayni paytda, ta‘lim oluvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammolarni multimedia vositalaridan foydalangan holda, o‘qitish jarayonini sezilarli darajada optimallashtirish mumkin [2;5-b.]. P.M.Jalolovning fikriga ko‘ra, aniq va tabiiy fanlarning kompyuter texnologiyalari yordamida o‘qitish muammolarini bartaraf etish uchun ta‘lim xizmatlarini vizuallashtirish, ta‘lim oluvchining bilimini baholash va nazorat qilishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish lozim [3;4-b.].

N.N.Baranskiyning fikriga ko‘ra, fanlar vizualizatsiya va o‘yin-kulgiga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun fanni vizual va ko‘ngilochar dars berish usullarini qo‘llash uchun qulayroq maydonga aylantirish kerak. Fanni o‘qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalari vositalari va o‘qitish texnologiyalarini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan dars o‘tish mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etadi [6;120-b.]. Bularning yechimi interfaol o‘quv vositalaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish orqali bartaraf etish mumkin. I.I.Driga va G.I.Raxlarning fikriga ko‘ra, interfaol o‘quv vositalariga filmlar, videodarslari, ovoz yozuvlari, tinglovchilar bilimini nazorat qilish dasturlari kiradi [7;112-b.]. “Tutorlik faoliyati asoslari” fanini o‘qitishda ham pedagog faoliyatini atroflicha bayon eta oladigan, uning sarmazmun, mashaqqatli va sarmazmun faoliyatiga doir filmlar, videodarslari, ovoz yozuvlari, tinglovchilar bilimini nazorat qilish dasturlaridan unumli foydalanish yaxshi samara beradi.

Tadqiqot natijasi va muhokama. Bugungi kunda ta‘limga yangicha yondashuvlarning tatbiq etish zaruriyati, ya‘ni, ingliz tilidan “o‘zaro ta‘sir qilish” deb tarjima qilingan “interfaol o‘quv vositasi” mavjud. “Tutorlik faoliyati asoslari” fanini o‘qitishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan interfaol o‘quv vositasi – bu o‘qituvchi va tinglovchilarga o‘quv jarayonining barcha subyektlari bilan samarali o‘zaro aloqani ta‘minlaydigan, o‘quv-ma‘lumotlari oqimini boshqarish, o‘quv jarayonini ijodiy va kognitiv hamkorlikka aylantiradigan vositadir. Bu esa benihoyat kompyuter texnologiyalari yordamida o‘qitish deganidir. Interfaol o‘quv vositasi sifatida kompyuterining amaliy va elektron ta‘lim resurslarini o‘quv jarayoniga joriy etish muammosining umumiy yondashuvlariga oid M.H.Lutfillayev [8], B.S.Gershunskiy, I.V.Robert, N.F.Talyzina, E.S.Polat, V.P.Bespalko, N.V.Apatova, G.K.Selevko kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Mualliflar o‘z asarlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning keng pedagogik imkoniyatlarini o‘rgangan, shuningdek, uning xususiyatlari va ahamiyatini o‘quv faoliyatining vositasi sifatida ko‘rib chiqqan. Bu borada, M.H.Lutfillayevning fikriga ko‘ra, interfaol o‘qitish usullari o‘quv jarayoniga muloqotni samarali tatbiq etishdan iborat bo‘lib, tinglovchini o‘qishga faol jalb qilish sifatida tushuniladi. U o‘zining tadqiqot ishlarida bugungi kunda interfaol o‘qitish turlariga – munozara, guruhlarda ishlash, keys va kompyuter texnologiyasidan foydalanib (taqdimotlar, kompyuter imitatsion modeli, pedagogik dasturiy vositalar), o‘qitish usullarini ko‘rsatib o‘tgan [8;23-b.]. Interfaol o‘qitish usullarining ma‘nosi shundan iboratki, bunda barcha tinglovchilar bilim olish jarayoniga va o‘quv-ma‘lumotlarni faol o‘zlashtirishga jalb qilishdir. Ushbu jarayonlarning internet texnologiyalari orqali samarali amalga oshirish mumkin. Unda tinglovchilar

uchun quyidagi imkoniyatlar yaratiladi: o'quv jarayonini yuqori estetik va emotsional bosqichga chiqaradi; differentsiallashni ta'minlaydi; darsda bajarilgan ish hajmini sezilarli darajada oshiradi; bilim darajasini baholashni va nazorat qilishni takomillashtiradi; dars samaradorligini oshiradi; mustaqil ta'lim olishni ta'minlaydi. Zamonaviy hayotning murakkablashib, dinamik oshib borishi bilan ajralib turadi va insonlar eng murakkab dinamik muhitga ham moslashishi lozim. Shu bilan birga, malakaga asoslangan ta'lim tinglovchilarning o'zlari uchun yangi holatlarda o'z muammolarini hal qilishga yordam berishiga mo'ljallangan, ya'ni, turli vaziyatlarda qo'llanilgan bilim, ko'nikma va malakalarni uzoq muddatda saqlashdir. Bu usulda eng muhimi, hozirda o'rganilgan muammo, ko'nikmalarni kelajakda vujudga keladigan o'xshash muammolarida qo'llashdir. Shuning uchun umumta'lim maktablarida asosiy va tayanch kompetensiya termini vujudga keldi. A.V.Xutorskiy asosiy kompetentlikni quyidagi qismlarga ajratadi mustaqil ta'lim jarayoni, asosiy umummadaniy, ta'limiy-amaliy, axborot-kommunikativ, sotsial-ijtimoiy [8;113-b.]. Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish mumkinki, "Tutorlik faoliyati asoslari" fanidan tinglovchilarning kompetentligini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarini integratsiyalash asosida zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish uchun o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishning didaktik tamoyillari, shaxs faoliyatining asosiy qoidalari hamda tinglovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'rganish uchun shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslangan barcha kerakli imkoniyatlar mavjud bo'lishi zarur degan xulosaga kelish mumkin.

"Tutorlik faoliyati asoslari" fani tinglovchilarning kompetentligini shakllantirishga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslardan foydalanish vaqtida tasodifiy shakllantirilishi kerak. Bundan tashqari, turli tinglovchilar tomonidan olingan vazifalar bir-biridan farq qilishi talab etiladi. Bu pedagogik o'lovchilarning ob'ektivligi va yetarliligini ta'minlash uchun ta'lim ehtiyojlariga javob beradi. "Tutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslardan foydalangan holda didaktik o'quv siklining to'liqligini (yaxlitligini) va uzluksizligini ta'minlash talabi axborot-kommunikatsiya uskunalari bilan ishlashning bitta seansi davomida didaktik siklning barcha bo'g'inlarini bajarish qobiliyatini ta'minlashi kerakligini anglatadi.

"Tutorlik faoliyati asoslari" fanida didaktik talablar bilan uslubiy talablar chambarchas bog'liq. O'quv elektron nashrlari va manbalariga qo'yiladigan uslubiy talablar kompyuter texnologiyalari uchun axborot texnologiyalari vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan muayyan fanning o'ziga xos xususiyatlarini, tegishli fan, uning kontseptual apparati tarkibini, qonunlarini o'rganish usullarining xususiyatlarini, zamonaviy axborotni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlarini hisobga olishni talab etadi. Shuning uchun "Tutorlik faoliyati asoslari" faniga oid elektron ta'lim resurslari quyidagi uslubiy talablarga javob berishi kerak:

1. Haqiqiy texnik tizimlar va qurilmalarning xilma-xilligi, ular bilan ishlashning murakkabligi bilan bog'liq holda, tinglovchilarning fikrlashining kontseptual, majoziy va samarali tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liqligi hamda ta'siriga asoslangan bo'lishi.

2. "Tutorlik faoliyati asoslari" fanida ta'limga oid elektron ta'lim resurslar har biri ma'lum bir intizom ichidagi mavhumlik darajasiga mos keladigan ko'p darajali iyerarxik shaklida ta'lim sohasidagi ilmiy tushunchalar tizimining aks ettirishini ta'minlashi, shuningdek, ushbu tushunchalarning ham bir darajali mantiqiy munosabatlari hisobga olinishini ta'minlashi.

3. Elektron ta'lim resurslar tinglovchilarga algoritmik, evristik faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan assimillatsiya darajasida tinglovchilar bilimlarini abstraktlashtirishning fanlararo darajasini bosqichma-bosqich oshirish maqsadida tinglovchilarga turli xil nazorat qilinadigan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyatini yaratishi.

Yuqorida qayd etilgan uslubiy talablar asosida tinglovchilarning "Tutorlik faoliyati asoslari" fanidan kompetentligini axborot-texnologiyalari asosida shakllantirish uchun zamonaviy elektron ta'lim resurslarini yaratish lozim deb hisoblanadi. Buning uchun esa yaratishning quyidagi pedagogik va psixologik talablariga amal qilish lozim:

1. Elektron ta'lim resurslarini taqdim etish nafaqat og'zaki mantiqiy, balki hissiy-idrok va kognitiv jarayonning vakillik darajalariga ham mos kelishi talab etiladi. O'qitishni axborotlashtirish vositalari quyidagi kognitiv aqliy jarayonlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi kerak:

- idrok etishga (eshitish, sezish) asoslangan;
- diqqat (uning barqarorligi, o'zgaruvchanligi, e'tiborning taqsimlanishi va hajmi);
- nazariy va amaliy fikrlash;
- xotira (lahzali, qisqa muddatli, tezkor, uzoq muddatli ma'lumotlarni taqdim etish);
- xayol.

“Tutorlik faoliyati asoslari” fanini o‘qitishda elektron ta’lim resurslarining mazmuni ma’um yoshdagi kontingentning tezkor va lingvistik tarkibiga, tinglovchilarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlariga yo‘naltirilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ta’limni axborotlashtirish vositalari tinglovchilarning bilim tizimi va uning til uslublarini hisobga olgan holda yaratilishi lozim. O‘quv materialining taqdimoti tinglovchilarning ma’lum yoshiga qarab aniq bo‘lishi, ammo bu juda oddiy bo‘lmasligi lozim, chunki e’tiborning pasayishiga olib kelishi mumkin.

3. “Tutorlik faoliyati asoslari” fanining elektron ta’lim resurslari tinglovchilarning tasviriy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi.

Xulosa. Shuningdek, xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, ma’lumot darajasiga qarab, axborotlashtirish vositalariga bo‘lgan aniq talablar oliy ta’lim, yoshlar va kattalar uchun qo‘shimcha ta’lim hamda imkoniyati cheklangan tinglovchi-yoshlarni o‘qitishning axborotlashtirish xususiyatlariga asoslanib, belgilanadi. Xususan, “Tutorlik faoliyati asoslari” fani ta’limini axborotlashtirish uchun yaratilgan elektron ta’lim resurslari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Tegishli axborotlashtirish vositalarining mazmuni va ishlash usullari umumta’lim maktablarining ta’lim standartlari talablariga mos bo‘lishi.

2. Elektron ta’lim resurslarning muammoli va tadqiqot vazifalari, intellektual o‘quv quyi tizimlaridan foydalanish imkoniyati.

3. Elektron ta’lim resurslarni tegishli ma’lumotlarni qidirish, to‘plash, saqlash, tahlil qilish, qayta ishlash va uzatish kabi ta’lim faoliyatining avtomatlashtirilishini o‘z ichiga olishi.

4. Nazorat vazifalarini bajarishda ma’lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish.

5. Murakkab obyektlarning ishlashini taqlid qilish va modellashtirish vositalari, turli hodisalar va jarayonlarning real, tezlashtirilgan yoki sekinlashgan vaqt shkalalarida bo‘lishi.

6. Elektron ta’lim resurslarining o‘quv qurollari o‘quvchini kelajakdagi virtual muhitda keyingi o‘quv faoliyatiga tayyorlashi.

7. O‘rganilayotgan obyektlar yoki jarayonlarning o‘zgaruvchan qiymatlarini, ularning xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligini namoyish etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Омонов Х.Т., Хўжаев Н.Х., Мадьярова С.А., Эшчонов Э.У. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Дарслик, Тошкент, 2012, 199-бет.

(2). Надери М.Г. Психолого-педагогические основы использования информационно-коммуникативных технологий как средства повышения эффективности процесса обучения на уроках географии в школах Исламской Республики Иран. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, Душанбе, 2012, 18 с.

(3). Жалолова П.М. Олий таълимда «атом физикаси»га оид лаборатория машғулотларида ахборот технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, Тошкент, 2019, 152 бет.

(4). Никадамбаева Х.Б. «Ўзбекистон табиий географияси» фанини ўқитишда компьютер технологияларидан фойдаланиш методикаси (олий таълим мисолида). Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент, 2012, 223 бет.

(5). Голов В.П. Средства обучения географии и условия их эффективного использования. Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по спец., Москва, “Просвещение”, 1987, 222 с.

(6). Баранский Н.Н. Методика преподавания экономической географии. Москва, “Просвещение”, 1998, 303 с.

(7). Дрига И.И. Технические средства обучения в общеобразовательной школе. И.И.Дрига, Г.И.Рах. М., “Просвещение”, 1985, 271 с.

8. Лутфиллаев М.Х. Олий таълим ўқув жараёнида такомиллаштиришда ахборот технологияларини интеграциялаш назарияси ва амалиёти (информатика ва табиий фанлар мисолида). Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент, 2007, 246 бет.

Saidjonova Parvina Shuxratovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi) DUAL TA’LIM TIZIMINING TALABALARNI TAYYORLASH SIFATIGA TA’SIRI

***Annotatsiya.** Maqolada oliy kasbiy ta’limda dual ta’lim va uning o‘quv jarayonidagi ahamiyati hamda mutaxassislar tayyorlash sifatiga ijobiy ta’siri, shuningdek, fan dasturlari uzluksizligi va o‘zaro bog‘liqligi, ta’limdagi integratsiya jarayonlari, oliy ta’lim muassasalari va turdosh korxonalar orasidagi ijtimoiy hamkorlik munosabatlari, yuqori intellektual ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlashning muhim omillari kabi masalalarda fikr yuritilgan.*

Kalit soʻzlar: taʼlim, dual taʼlim, kasbiy taʼlim, mutaxassis, fan dasturi, integratsiya jarayoni, korxon, taʼlim muassasasi, ijtimoiy hamkorlik.

Саиджонова Парвина Шухратовна (свободный соискатель Бухарского Инженерно-технологического института)

ВЛИЯНИЕ ДУАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ НА КАЧЕСТВО ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье обсуждается дуальное образование в высшем профессиональном образовании, его значение в образовательном процессе и его положительное влияние на качество подготовки специалистов, а также преемственность и взаимозависимость научных программ, интеграционные процессы в образовании, высших учебных заведениях, а также рассматриваются такие вопросы, как в связи с отношениями социального сотрудничества между однородными предприятиями обсуждались важные факторы подготовки кадров с высокими интеллектуальными способностями.

Ключевые слова: образование, дуальное образование, профессиональное образование, специалист, научная программа, интеграционный процесс, предприятие, образовательное учреждение, социальное сотрудничество.

Saidjonova Parvina Shukhratovna (is an independent researcher at Bukhara Institute of Engineering and Technology)

THE INFLUENCE OF THE DUAL EDUCATION SYSTEM ON THE QUALITY OF STUDENT TRAINING

Annotation. In the article, dual education in higher professional education and its importance in the educational process and its positive impact on the quality of specialist training, as well as the continuity and interdependence of science programs, integration processes in education, higher education institutions and issues such as social cooperation relations between similar enterprises, important factors of training personnel with high intellectual skills were discussed.

Key words: education, dual education, professional education, specialist, science program, integration process, enterprise, educational institution, social cooperation.

Kirish. Respublikamizda kadrlar tayyorlashning yangi milliy modeli dual taʼlimni ishlab chiqarish jarayoni bilan birlashtirish va monolitligini nazarda tutadi. Natijada taʼlim mazmuni va uni tashkil etish tushunchalarini qayta koʻrib chiqish zarurati tugʻildi. Bugungi kunda oliy taʼlim muassasalari va korxonalar oʻrtasidagi uzviylik va uzluksizlikni har tomonlama taʼminlash orqali talabalarda tarmoq taʼlim standartlari talablari darajasida kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarni toʻliq shakllantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish asosiy muammolardan biridir. Shuningdek, ixtisosliklar boʻyicha fan dasturlarini takomillashtirishda ish beruvchilar talablarini singdirish, korxonlardagi mavjud yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishga oid koʻnikmalarni oʻrgatish boʻyicha oʻquv reja va fan dasturlariga muvofiqligi, uzluksizligi va oʻzaro bogʻliqligini taʼminlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizdagi oliy taʼlim muassasalarida dual taʼlimga asoslangan oʻqitish tizimi orqali kasbiy yetuk kadrlar tayyorlashning uzviyligi va uzluksizligini taʼminlashdan iborat boʻlgan shunday dolzarb muammo mavjudligi sababli, uni uzluksiz taʼlim va oliy taʼlim talablaridan kelib chiqib hal etish vaqti kelganligini anglatadi. Bu esa olimlar tomonidan masala yechimiga oid ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Birlamchi tadqiqotlarimiz shuni koʻrsatadiki, oʻquv mashgʻulotlarini izchil dual taʼlimga ixtisoslashgan fan dasturlari asosida oʻtkazish, talabalar bilimini amaliy koʻnikmaga aylanish samaradorligini oshirish, ularning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, amaliy koʻnikmalarni oʻzlashtirishda ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Bugungi oliy va oʻrta maxsus taʼlim tizimidagi yana bir dolzarb muammo – bu ixtisoslik fanlari boʻyicha oʻquv adabiyotlarining uzluksizligini taʼminlash boʻlib qolmoqda. Dual taʼlimga asoslangan oʻqitish jarayonida ushbu muammo yechimi bilan bir qatorda, oʻquv adabiyotlarini yaratuvchi mualliflar ishchi guruhida korxonalarining yetuk va tajribali mutaxassislari ishtiroki ijobiy natijaga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Texnik oliy taʼlimda ixtisoslik fanlari uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash orqali talabalarining fanlarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirishiga erishish mumkin. Shuningdek, taʼlim maqsadlariga kafolatlangan erishishni taʼminlaydigan ketma-ket taʼlim dasturlari asosida oʻqitish bilan birgalikda oʻquv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish ham amalda oʻz natijasini koʻrsatmoqda [4].

Ta'lim tizimida korxonalar bilan hamkorlikda integratsiyaga erishishning eng muhim afzalliklaridan biri ta'limning subyektlari va turli bosqichlari o'rtasidagi uzluksizlikni, uning integratsiyasini ta'minlashdir. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, mavzular orasidagi uzviylikni ta'minlash mavzularni takrorlamaslik, katta hajmdagi materialni qisqa vaqt ichida o'zlashtirish, shuning uchun vaqtni tejash, shuningdek, tashkiliy vazifalarni o'z ichiga olish imkonini beradi. Yuqoridagilarni hisobga oladigan bo'lsak, o'qitishning rentabelligi ham ortadi. Dual ta'lim tizimli va maqsadli amalga oshirilganda, integrativ didaktik tamoyil ta'limda didaktik tizimni qurish prinsipi sifatida ishlaydi [3].

Dual ta'lim ma'lum darajada fanlar bo'yicha tarqoq bilimlarni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi va amaliyotda, mehnat faoliyatida va inson hayotida kompleks qo'llashni sintez qilish zarurati o'rtasidagi mavjud qarama-qarshilikni hal qiladi. Asosiysi, talaba tomonidan turli fanlar bo'yicha auditoriya mashg'ulotlarida o'rganilgan tushunchalar va qonunlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish qobiliyati bilimlarni taqsimlashning mavjud fan dasturida belgilangan o'quv fanlari chegaralarini buzmasdan yoki chalkashtirmasdan tizimli yondashuv asosida shakllanishiga erishiladi. Eng muhimi, dual ta'lim – ishlab chiqarishdagi masalalar yechimi va fanlararo aloqalar prinsipi, ta'lim jarayonida bilimlarining ko'p qirrali obyektlarini va hozirgi zamonning murakkab muammolarini har tomonlama ochib berishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunga qadar ushbu masala bo'yicha sezilarli miqdordagi tadqiqotlar olib borilib, mutaxassislar tayyorlashda dual ta'limning ayrim jihatlari ochib berildi. Fanlararo aloqadorlik muammosi bo'yicha professor-o'qituvchilarning ishini tashkil etish uchta asosiy va o'zaro bog'liq sohani o'z ichiga oladi:

- fanlararo aloqalarni hisobga olgan holda o'quv jarayonini rejalashtirish;
- fanlararo aloqalarni amalga oshirish uchun turdosh fanlar o'qituvchilarining birgalikdagi jamoaviy o'quv-uslubiy ishlarini amalga oshirishni ta'minlash;
- dual ta'limga asoslangan o'qitishda korxonalar va ta'lim muassasalari yetuk mutaxassislarining tajribalaridan foydalanish.

Dual ta'lim tizimida fanlararo aloqalarni ta'minlashda, birinchi navbatda, turdosh fanlar bo'yicha dasturlarda aks ettirilgan masalalar ko'rib chiqiladi. Bunday holda, obyektlar orasidagi bog'lanishlar: sinxron, istiqbolli, retrospektiv bo'lishi mumkin. Biroq fanlar o'rtasidagi aloqalar har doim ham dasturlarda o'z aksini topmaydi va bilimlar tizimini o'zlashtirish handa talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun ularni o'ylab ko'rish va ixtisoslik fanlari ta'limiga kiritish kerak. Dual ta'lim tizimida fanlararo aloqalarni amalga oshirishning uslubiy jihatlarining tasnifi tashkil etuvchi usullarni ajratishning umumiy prinsipiga bo'ysunadi:

- fanlararo qidiruv bilim faoliyati;
- boshqa fanlardan bilimlarni takrorlashning oldini olish;
- fanlararo muammolarni hal qilishga hissa qo'shish.

Oliy ta'lim tizimida dual ta'lim – bu ma'lum bir o'quv ish usullari tizimidan foydalangan holda, turli xil o'quv fanlari va ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasidagi obyektiv mavjud munosabatlarni o'quv jarayonida amalga oshirishga asoslangan umumlashtirilgan kasbiy bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirishga qaratilgan zarur didaktik vosita.

Tahlil va natijalar. Ixtisoslik fanlarining integratsiyasi quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda mumkin: integratsiyalashgan o'quv fanlarida o'rganish obyektlari mos kelishi kerak; bir xil (yoki shunga o'xshash) tadqiqot usullaridan foydalanish kerak [5]. Dual ta'lim oliy ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikdagi integratsiya jarayonlarining o'zi quyidagilarni ta'minlash orqali, mazmunan, uzluksizligini rivojlantirishni faollashtiradi:

– oliy ta'limning ko'p bosqichli tizimini ishlab chiqish va uning barcha bosqichlarida ta'lim mazmunining o'zaro bog'liqligi va uzluksizligini, ularni rivojlantirishning qulayligini ta'minlaydigan ta'lim dasturlarini yaratish;

– fan mutaxassis shaxsining uzluksiz rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va kasbiylashuvi.

Mazmunning uzluksizligi ta'limning barcha darajalari va bosqichlarining to'liq uzluksizligi pozitsiyasidan, shuningdek, bilimlarni mustaqil egallashni hisobga olgan holda, ko'p va har tomonlama mantiqiy izchillik va harakatchanlikni shakllantirishni belgilaydi. Shaxs hayotining turli davrlarida ta'lim olishiga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga oladigan darajadagi dual ta'lim dasturlari ikki tomonlama ta'lim dasturlari mazmuni mutaxassisning umumiy va kasbiy ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan, shuningdek, uning o'zini o'zi tarbiyalashi doirasida alohida funksional ahamiyatini namoyon etadi.

Dual ta'limni tashkil etishda uzluksizlikning yana bir dolzarb muammosi – bu fanlararo aloqalarni boshqarish, ular asosida o'zaro bog'liq fanlar dasturlarining didaktik muvofiqligini o'rnatish kerak bo'lgan

asosiy qoidalarni izlash, shu bilan birga, ularni o'qitish jarayonida turdosh fanlarni o'zaro bog'lash shakllari, usullari va vositalarini ishlab chiqish kerak [6].

Dual ta'limda davomiylik tamoyilining mohiyati shundan iboratki, mutaxassisning oldingi rivojlanishi uning keyingi rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqdir. Yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning chuqurligi va to'liqligi mavjud bilim va ko'nikmalar bilan qanchalik kuchli va ko'p qirrali aloqalarga bog'liq. Shu bilan birga, biz "maktab-kollej-universitet" tizimidagi uzluksizlikni ta'lim jarayonining rivojlanishiga hissa qo'shadigan tizimni shakllantirish tamoyili sifatida qabul qilamiz, ya'ni unda quyidagi aloqalarni tashkil qilish:

– o'qitish, rivojlantirish va tarbiyalash maqsadlari, mazmuni va usullarining o'quv materialini va o'quv faoliyatini, individual o'quv imkoniyatlari va ularning natijalari bilan muvofiqligini belgilovchi o'zaro bog'liqlik aloqalari;

– ta'lim faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va dolzarb muammolarini hal qilishda o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi aloqalar;

– ta'lim, rivojlanish va ta'lim maqsadlari va ularning natijalari o'rtasidagi farqni hisobga oladigan, talabalar va o'qituvchilar uchun muhim yutuqlar va qiyinchiliklarni tahlil qilish uchun asos yaratadigan fikr-mulohazalar;

– dual ta'lim fan va san'at o'rtasidagi bog'liqlikda, badiiy izlanishlarni ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'lashda amalga oshiriladi, bu esa majoziy shaklda mujassamlangan tushunchalarni hosil qiladi [7]. Rivojlanish namunasi sifatida uzluksizlik, garchi yuqori darajada bo'lmas-da, balki eskisiga qaytish, oldingi bosqichlarning ayrim jihatlari eng yuqori darajada takrorlash bilan tavsiflanadi.

Dual ta'limda oliy ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o'zaro hamkorligining xususiyatlarini pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish lozim, bular:

– o'qituvchi talaba uchun eng qiziq bo'lgan mavzular bilan, pedagogik istiqbollari bilan yondashib, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi an'analarni hurmat qilishi va davom ettirishi;

– ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos jihatlari va yutuqlari bilan tanishish;

– amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim samaradorligiga erishishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish metodlari va vositalaridan foydalanish;

– ota-onalarning ta'lim muassasalari va hamkor korxonalar bilan hamkorlikdagi faoliyatining integratsiyalashuv jarayoni bilan muntazam tanishib borishlarini ta'minlash, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy hamkorlikka oid dinamik o'zgarishlarni muntazam targ'ib qilib borish;

– jamoatchilik hamda ishlab chiqarish korxonalarining dual ta'lim muhitidagi integrativ ta'limni tashkil etish bo'yicha mulohaza, taklif va talablarini o'rganishga oid ijtimoiy so'rovnomalar, davra suhbatlari, debavlar, korxonalar liderlari, tadbirkorlar, olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, monitoring yuritish.

Xulosa va takliflar. Bizning fikrimizcha, dual ta'lim tizimida talabalarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradigan, yuqori intellektual ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlashning muhim integrativ va uzluksizlik omillari quyidagilardan iborat:

– talabalarni yangi o'quv muhiti sharoitlariga moslashtirish omili;

– dual ta'limda o'quv faoliyatini ishlab chiqarish korxonasida tashkil etish, bunda o'quv faoliyatini rivojlantirishni hisobga olish omili;

– talabalarning qobiliyatlarini nazariy bilimlarning izchilligi orqali amaliy ko'nikmalarga aylantirish omili;

– yangi bilimlarning eski bilan bog'lanishi va muayyan davriy o'quv faoliyatini tomonidan ko'nikmalarni tizimlashtirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish omili;

– har bir talabaning qobiliyatiga qarab konstruktiv grafik ko'nikmalarni shakllantirishni individuallashtirish omili;

– o'qituvchi tomonidan talabalarning optimal natijalariga erishishida har birining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning turli metodlar va vositalaridan moslashuvchan foydalanish omili;

– konstruktiv-grafik ko'nikmalarni shakllantirishda o'quv faoliyatini faollashtirish omili;

– o'quv materialini ijodiy va uslubiy tashkil etish, xususan, talabalarning retseptiv harakatlarini faollashtirish uchun asos sifatida "qo'llab-quvvatlash" tizimini aniqlash zarurati bilan bog'liq omil.

Shunday qilib, dual ta'lim fan dasturlari mazmunini fanlararo darajadagi tarkibni integratsiyalash nazariyasi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv shaxsning hayotiy va

kasbiy tajribasini hisobga olgan holda dual ta'lim mazmuni samaradorligining istiqbolli mexanizmini ishlab chiqishni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Алиев И.Т. Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимида математика фани узвийлигини таъминлашнинг педагогик асослари. Автореферат, Ташкент, 2007, 8 – 9-бетлар.
- (2). Волкова С.Р. Преемственность содержания образовательных программ в системе непрерывного образования. Материалы республиканской научно-практической конференции, Ташкент, 2006, с. 165 – 167.
- (3). Закиров А.К. Формы интеграции профессионального образования и производства. “Касб-хунар таълими”, научно-методический журнал, № 1, Ташкент, 2007, 28 с.
- (4). Мамутов У.Б. Касбий педагогик таълим тизими узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, Toshkent, 2006, 155 – 157-бетлар.
- (5). Орлова Т.А. Взаимосвязь курса астрономии с профессиональной подготовкой в профессиональных колледжах. “Касб-хунар таълими”, научно-методический журнал, № 1, Ташкент, 2007, 27 с.
- (6). Шарифбаева Х.Я., Бабаханова М.П., Зиятов А. Реализация преемственности в подготовке преподавателей для ССПО. Материалы республиканской научно-практической конференции, Ташкент, 2006, с. 163–164.
- (7). Шыналиева К.М. Факторы преемственности при обучении конструктивному рисунку. “Касб-хунар таълими”, научно-методический журнал, № 1, Ташкент, 2007, с. 29 – 30.
- (8). Юсупова М.С. Кичик мутахассисларни тайёрлаш жараёнида фанлараро алоқани таъминлаш технологияси (Технология обеспечения дуального образования в процессе подготовки младших специалистов). Автореферат, Ташкент, 2007, с. 5 – 6.

Ne'matov Mashxurbek Inomjon o'g'li (Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasida o'qituvchisi; mashhurnematov09@gmail.com; <https://orcid.org/0009-0002-2827-1753>)

TARIXIY-ETNOGRAFIK MATERIALLAR ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING ETNOPEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

***Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirishda tarixiy-etnografik materiallardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Tarixiy va zamonaviy etnografik materiallar o'rganilgan, milliy tarbiyaviy qadriyatlar va amaliyotlarni aks ettiruvchi madaniy an'analarni o'z ichiga olgan pedagogik jarayonlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning milliy merosni qadrlash, etnik va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish hamda tarixiy va zamonaviy madaniyatlar o'rtasidagi uzviylikni anglash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida maxsus dastur va metodik materiallar ishlab chiqildi. Natijalar ko'rsatdiki, tarixiy-etnografik materiallardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarda o'z madaniyatiga oid bilimlarni chuqurlashtirish va ularni amaliyotda qo'llash qobiliyatini oshiradi.*

***Kalit so'zlar:** etnopedagogik madaniyat, tarixiy-etnografik materiallar, bo'lajak o'qituvchilar, milliy tarbiya qadriyatlari, madaniy xilma-xillik, tarixiy meros, milliy madaniyat, pedagogik jarayonlar, tarix va zamonaviylik, o'quv dasturlari.*

РАЗВИТИЕ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИСТОРИКО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ

***Аннотация.** В данном исследовании обоснована необходимость использования историко-этнографических материалов в развитии этнопедагогической культуры будущих учителей. Были изучены исторические и современные этнографические материалы, подчеркнута важность педагогических процессов, в том числе культурных традиций, отражающих национальные образовательные ценности и практики. В ходе исследования были разработаны специальная программа и методические материалы, направленные на формирование у будущих учителей способностей ценить национальное наследие, уважать этническое и культурное разнообразие, понимать единство исторической и современной культур. Результаты показали, что использование историко-этнографических материалов повышает способность будущих учителей углублять знания о своей культуре и применять их на практике.*

***Ключевые слова:** этнопедагогическая культура, историко-этнографические материалы, будущие учителя, национальные образовательные ценности, культурное разнообразие, историческое наследие, национальная культура, педагогические процессы, история и современность, образовательные программы.*

DEVELOPMENT OF ETHNOPEDAGOGICAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS ON THE BASE OF HISTORICAL ETHNOGRAPHIC MATERIALS

Annotation. *This study justifies the necessity of using historical ethnographic materials in developing prospective teachers' ethno-pedagogical culture. It explores historical and contemporary ethnographic materials, focusing on the significance of pedagogical processes that reflect national educational values and practices. The study developed a special program and methodological materials aimed at enhancing prospective teachers' appreciation for national heritage, respect for ethnic and cultural diversity, and understanding the continuity between historical and contemporary cultures. The findings indicate that utilizing historical ethnographic materials enhances prospective teachers' knowledge of their own culture and their ability to apply it in practice.*

Key words: *ethno-pedagogical culture, historical ethnographic materials, prospective teachers, national educational values, cultural diversity, historical heritage, national culture, pedagogical processes, history and modernity, educational programs.*

Kirish. Jahonda qadriyatli paradigma ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilib, ta'limning insonparvar yo'nalganligiga ustuvorlik berish, tarixiy-etnografik materiallar asosida talaba-yoshlarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida erkin shaxsni tarbiyalash g'oyasi yetakchi indikator sifatida tan olingan. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning muhim yo'nalishi sifatida insoniyatning o'tmishi, buguni va kelajagiga qadriyatli yo'nalganlikni tarkib toptirish, aksiologik potensialni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishda tarixiy-madaniy merosdan samarali foydalanishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, ayniqsa, muhim dolzarblik kasb etadi. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan [1]. Bunda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Har bir xalqning tarixi va madaniy merosi, milliy o'zlik va ong shakllanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbek xalqining boy tarixi va madaniyati hamisha o'zining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xalqining tarixiy va madaniy merosini o'rganish va uni yosh avlodga o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash zaruriyati dolzarblik kasb etadi. Tarixiy-etnografik materiallardan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish esa bu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tarixiy-etnografik materiallar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirishning usul va yo'llarini o'rganishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- tarixiy-etnografik materiallarning mazmuni va ahamiyatini o'rganish;
- bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash;
- etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishda tarixiy-etnografik materiallardan foydalanishning amaliy usullarini ishlab chiqish;
- bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini shakllantirishga oid tavsiyalarni ishlab chiqish.

Asosiy tushunchalar. Tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar va terminlarni aniqlashtirish lozim. Bunda quyidagilar tushunchalar ko'rib chiqiladi.

Etnopedagogik madaniyat. Bu tushuncha bo'lajak o'qituvchilarning milliy qadriyatlar, an'analar, va madaniy merosni o'rganish va ta'lim jarayonida qo'llash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Tarixiy-etnografik materiallar. O'zbek xalqining tarixiy va madaniy merosini aks ettiruvchi asarlar, yozma va og'zaki manbalar, folklor va xalq an'analari kabi ma'lumotlar.

Ushbu tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish masalasini yangi nazariy va amaliy nuqtayi nazardan yondashishni talab etadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda tarixiy-etnografik materiallardan samarali foydalanish orqali o'qituvchilarni milliy madaniyat va qadriyatlar asosida tarbiyalashga oid yangi yondashuvlar taklif etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Etnopedagogik madaniyat tushunchasi o'qituvchining ta'lim jarayonida xalq an'analari, urf-odatlarini va qadriyatlarini o'rgatish usullarini o'z ichiga oladi. Bu haqda ko'plab adabiyotlarda turli yondashuvlar va ta'riflar berilgan. Masalan, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi milliy pedagogik qadriyatlarni o'qitish jarayonida alohida urg'u beradi, ularning yosh avlodni tarbiyalashda ahamiyatini ta'kidlaydi.

B.Mirzayeva (2017) o'z tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarning milliy ongini shakllantirishda etnopedagogik madaniyatning ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tadi. U o'quvchilarni tarixiy va etnografik materiallar asosida tarbiyalashda etnopedagogik madaniyatning roli haqida bahs yuritadi va bu borada yangi usullarni taklif qiladi.

Tarixiy-etnografik materiallarning o'rni. G.M.Usmonova (2020) tarixiy etnografik materiallarning xalq tarixi va madaniyatini o'rganishda muhimligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, bu materiallar bo'lajak o'qituvchilarga milliy madaniyatni o'rganish va o'rgatishda katta yordam beradi.

M.V.Karimov (2019) xalq og'zaki ijodi, xalq qo'shiqlari va rivoyatlari, odatlar va marosimlarni o'z ichiga olgan tarixiy-etnografik materiallarni chuqur o'rganish orqali bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalashning innovatsion yondashuvlarini taklif qiladi. Bu yondashuvlar orqali o'qituvchilarni xalq madaniyatini ta'lim jarayonida qo'llashga o'rgatish mumkin.

Etnopedagogik madaniyatni shakllantirishda tarixiy yondashuv. E.M.Saidov (2021) milliy tarbiya va ta'lim jarayonida tarixiy materiallardan foydalanish bo'yicha turli metodlarni tavsiya etadi. U bo'lajak o'qituvchilar uchun maxsus kurslar va dasturlarni yaratish kerakligini urg'ulaydi.

T.Y.Islomov (2018) esa tarixiy va madaniy materiallar asosida yaratilgan o'quv dasturlari orqali o'qituvchilarning etnopedagogik bilimlarini mustahkamlash mumkinligini ko'rsatadi. Bu borada zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanish hamda amaliy mashg'ulotlar orqali bilimlarni mustahkamlash zaruriyati haqida so'z yuritadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi. Tarixiy taqqoslash metodi: Bu metod orqali turli tarixiy davrlardagi etnopedagogik madaniyat o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar tahlil qilindi.

Etnografik kuzatish. Ushbu metod orqali xalq an'analari, urf-odatlarini va qadriyatlarining ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganildi. Bo'lajak o'qituvchilar tomonidan turli tarixiy-etnografik materiallardan foydalanish tajribasi kuzatildi.

Intervyu va so'rovnomalar. Bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyat haqidagi tushunchalari va bilimlarini aniqlash uchun intervyu va so'rovnomalar o'tkazildi. Bu usul orqali o'qituvchilarning milliy qadriyatlarni o'rganish va o'rgatishdagi tajribalari tahlil qilindi.

Tadqiqotda turli yoshdagi va tajribadagi bo'lajak o'qituvchilar, shuningdek, tajribali pedagoglar ishtirok etdi. Ular turli tarixiy-etnografik materiallar asosida ta'lim jarayonida etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlarini baholashdi.

Tadqiqotda O'zbekistonning turli mintaqalaridan olingan tarixiy-etnografik materiallar, xalq og'zaki ijodi, xalq qo'shiqlari, rivoyatlar, odatlar va marosimlar haqida ma'lumotlar o'rganildi. Ushbu materiallar bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirishda asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Natija va muhokama. O'qituvchilarning tarbiyaviy va pedagogik bilimlarining chuqurlashishi o'z madaniyati va tarixini chuqur o'rganishi bo'lajak o'qituvchilar tarixiy va etnografik materiallar orqali o'z millatining madaniyati, tarixi va urf-odatlarini yaxshiroq o'rganadilar. Bu ularning tarbiyaviy va pedagogik ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Etnopedagogik metodlarni o'zlashtirishda ushbu yondashuv ularga an'anaviy va zamonaviy etnopedagogik metodlarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Natijada o'quvchilarning madaniy va milliy qadriyatlarini tushinishi va qadrlashi ortadi. Ta'lim sifatining oshishida integratsiyalashgan o'qitish. Tarixiy-etnografik materiallardan foydalanish orqali o'qituvchilar ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuvni qo'llashadi. Bu o'quvchilarni o'quv jarayoniga yanada qiziqish bilan jalb qiladi va ta'lim sifatini oshiradi. Shaxsiy rivojlanishda esa bo'lajak o'qituvchilar tarixiy-etnografik yondashuv orqali shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olishlari va ularni amalga oshirish uchun kerakli ko'nikmalarni shakllantirishlari mumkin.

Milliy o'ziga xoslikni saqlash va rivojlantirishda esa milliy merosning qadrlanishi, tarixiy-etnografik materiallar o'quvchilarda milliy o'ziga xoslik va merosni saqlash hissini rivojlantiradi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda milliy birlik va madaniy boylklarning qadrlanishiga olib keladi.

O'qituvchilar milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonlar orqali o'quvchilarga etkazish bilan turli madaniyatlar o'rtasida ko'priklar yaratadilar, bu esa jamiyatdagi totuvlikni mustahkamlaydi. Etnopedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy kompetensiyalar esa bo'lajak o'qituvchilar etnopedagogik kom-

petensiyalarini rivojlantirish orqali madaniyatlararo muloqot va madaniy merosni yetkazishdagi amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

Etnografik materiallar bilan ishlash ularga ijodkorlik va moslashuvchanlik ko'nikmalarini o'zlashtirish imkonini beradi, bu esa ta'lim jarayonida turli xil vaziyatlarga moslashishga yordam beradi.

Muhokamalar.

1. Yondashuvning afzalliklari.

Kontekstualizatsiya. Tarixiy-etnografik yondashuv ta'lim jarayonini madaniy va tarixiy kontekstda olib borish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning materialni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi va ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonining boyishi. O'qituvchilar milliy madaniyat va tarixga asoslangan darslarni o'tkazish orqali ta'lim jarayonini boyitadilar va o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradilar.

An'anaviy va zamonaviy bilimlarning uyg'unligi. Bu yondashuv an'anaviy va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirishga yordam beradi, bu esa o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshiradi.

2. Yondashuvning cheklovlari.

Material yetishmovchiligi. Ba'zi hududlarda etnografik materiallarning yetishmasligi yoki ulardan foydalanishdagi cheklovlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu o'qituvchilarning ishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Moslashish muammolari. Har bir o'qituvchi etnopedagogik metodlarni to'liq qabul qilishga tayyor bo'lmazligi yoki ularga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Metodologik murakkablik. Tarixiy-etnografik yondashuv metodologik murakkab bo'lib, uning to'g'ri qo'llanilishi uchun yetarli bilim va tajriba talab etiladi.

3. Takliflar.

Malaka oshirish kurslari. O'qituvchilar uchun etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Bu ularga etnografik materiallardan samarali foydalanishni o'rgatadi.

Materiallar bazasini kengaytirish. Tarixiy va etnografik materiallar bazasini kengaytirish orqali o'qituvchilarga zarur materiallarni taqdim etish.

Tadqiqot va tajribalar. Etnopedagogik yondashuvning samaradorligini o'rganish bo'yicha tadqiqot va tajribalarni kengaytirish, bu yondashuvning ta'limga ta'sirini tahlil qilish va takomillashtirish.

4. Kelajak uchun yo'nalishlar.

Raqamli platformalar. Tarixiy va etnografik materiallarni raqamli platformalarda taqdim etish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ularni o'rganish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish.

Madaniy merosni saqlash. Etnopedagogik yondashuv yordamida madaniy merosni saqlash va rivojlantirish bo'yicha yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish.

Ko'p madaniyatli ta'lim. Bo'lajak o'qituvchilarni ko'p madaniyatli ta'lim yo'nalishida tayyorlash, bu esa jamiyatda madaniy xilma-xillik va bag'rikenglikni rivojlantiradi.

Tarixiy-etnografik materiallar asosida bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish ta'lim tizimida muhim yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv o'qituvchilarning tarbiyaviy va pedagogik bilimlarini boyitish, ta'lim sifatini oshirish va milliy o'ziga xoslikni saqlashga yordam beradi. Kelajakda bu yo'nalishda tadqiqotlar va tajribalar o'tkazish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish va materiallar bazasini kengaytirish orqali bu yondashuvning samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa. Tarixiy-etnografik materiallar asosida bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keldi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish, ularga milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni ta'lim jarayonida qo'llash ko'nikmasini beradi. Bu, o'z navbatida, milliy va madaniy xotira saqlanishiga xizmat qiladi.

Etnografik materiallar bo'lajak o'qituvchilar uchun boy bilim manbasi bo'lib, ular orqali milliy madaniyat va qadriyatlar haqida keng tasavvurga ega bo'lishadi. Bu materiallar ularga ta'lim-tarbiya jarayonida xalqimizning boy merosini yosh avlodga etkazishda yordam beradi. Tadqiqot natijalari asosida tarixiy-etnografik materiallarni o'quv dasturlariga integratsiya qilish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun o'qituvchilarni mazkur materiallar bilan ishlashga o'rgatish va ular orasida xalq og'zaki ijodidan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Tarixiy-etnografik materiallar bilan ishlashda turli metod va usullar (masalan, tarixiy taqqoslash, tarbiyaviy o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar) o'z samarasini beradi. Bu usullar yordamida o'qituvchilar o'z fanini milliy qadriyatlar bilan boyitish imkoniga ega bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun maxsus etnopedagogik kurslar tashkil

etish, ularda milliy madaniyat va qadriyatlarni o'qitish usullariga e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, tarixiy-etnografik materiallardan samarali foydalanish uchun didaktik qo'llanmalar va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ushbu tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirishda tarixiy etnografik materiallarning ahamiyatini ta'kidlaydi va bu borada qator amaliy takliflarni ilgari suradi. Kelgusida yanada kengroq miqyosda tadqiqotlar olib borish, ushbu mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023, 06/23/107/0441-son.
- (2). Г.Н.Волков, Г.Д.Баубекова. Этнопедагогика. Тошкент, 2000, "Фан", дарслик, 192-бет.
- (3). Ne'matov M. (2023). O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etnopedagogika asoslarini takomillashtirish. "FarDU ilmiy xabarlar", 1(2), 311–313-betlar.
- (4). Ne'matov M. (2024). Maktab o'quvchilari jismoniy tarbiyasining zamonaviy muammolari. "Murakkab-texnik sport turlari o'quv-mashg'ulot jarayonlarini rivojlantirish muammolari". Respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plami, Chirchiq, 2024, 348 bet; 74–78-betlar.
- (5). LEPROSY. Новости образования: исследование в XXI веке. 1(2), с. 117–123.
- (6). Байджанов, Б.Х. (2020). Таълим жараёнида илгор хорижий тажрибаларни самарали қўллаш механизmlари. Science and Education, 1(2), p. 514 – 519.
- (7). Baydjanov, B.K. (2021). Pedagogical and psychological features of the development of information competence in future teachers. Theoretical & Applied Science, (7), p. 171 – 178.
- (8). Baydjanov, B.K. (2022). Methodology of Pedagogical Science and its Axiological Possibilities. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), p. 352 – 363.

**Sapayev Umidbek Abdullayevich (Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi, p.f.f.d. PhD;
umidbek.sapayev@inbox.ru)**

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ASOSIY OMILLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasasi talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari va uni shakllantirish mexanizmlari to'g'risida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini belgilab olishda bir qancha adabiyotlar tahlil qilingan bo'lib, talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun innovatsion ta'lim muhiti va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini keskin oshirishga imkon beruvchi mexanizmlarni yaratish zarurligining ilmiy asoslari tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** innovatsion faoliyat, ta'lim, innovatsion ta'lim muhiti, ta'limiy hamkorlik.*

Сапаев Умидбек Абдуллаевич (старший преподаватель Ургенчский государственный университет, д.ф.п.н. PhD; umidbek.sapayev@inbox.ru)

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВУЗАХ

***Аннотация.** В данной статье проведены научные исследования возможностей подготовки студентов технических вузов к инновационной деятельности и механизмам ее формирования. При определении направлений научных исследований был проанализирован ряд литературных источников, а также проанализированы научные обоснования необходимости создания инновационной образовательной среды и механизмов, позволяющих резко повысить показатели мастерства для подготовки студентов к инновационной деятельности.*

***Ключевые слова:** инновационная деятельность, образование, инновационная образовательная среда, образовательное сотрудничество.*

**Sapayev Umidbek Abdullayevich (Senior lecturer, Urganch State University, PhD;
umidbek.sapayev@inbox.ru)**

MAIN FACTORS OF PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE ACTIVITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

***Annotation.** In this article, scientific studies were conducted on the possibilities of preparing students of technical higher education institutions for innovative activities and the mechanisms of its formation. In determining the directions of scientific research, a number of literatures were analyzed, and the scientific basis of the need to create an innovative educational environment and mechanisms that allow for a sharp increase in mastery indicators to prepare students for innovative activities were analyzed.*

Key words: *innovative activity, education, innovative educational environment, educational cooperation.*

Kirish (Introduction). Talabalarda noan'anaviy texnik tafakkur tarzini va metakognitiv qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek, talabalarni innovatsion faoliyatga jalb etish natijasida ta'lim olishning amaliy jihatlari kuchaytirish. Jumladan, texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanilayotgan bo'lajak soha vakillarining texnik-innovatsion bilimdonligi, ko'nikma va malakalarining kognitiv jihatlari-ga va kreativ imkoniyatlariga hamohang tarzda shakllantirishning innovatsion mexanizmlarini yaratish, oliy ta'lim olishning mazmun-mohiyatini innovatsion ta'lim muhitiga moslashtirish natijasida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanmoq-da [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Amerikalik olimlar C.M.Christensen, M.B.Horn, L.Caldera va L.Soareshlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlari natijasida universitetda innovatsion faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan yaratgan yangi innovatsiyalarni rag'batlantirish siyosatini olib borilishi kutilayotgan natijani oshig'i bilan amalga oshirilishiga va ijobiy tomonga o'sishiga olib kelishi mumkinligi to'g'risidagi ilmiy xulosalarga kelishgan [98].

Rossiyalik olim R.I.Azarova xuddi shu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib bordi va universitetlarning innovatsion faoliyatini turli jihatlari o'rgandi [19]. U "Innovatsion faoliyat" atamasiga –"zamonaviy islohotlar sharoitida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan maqsadlarga to'liq erishish uchun shart-sharoitlarni yaratish jarayoni" deb ta'rif beradi.

K.A.Shelton va T.Arciszewskilarning ilmiy tadqiqotlari natijasida innovatsiyalarni vujudga kelishi va uni rivojlanishiga imkon beruvchi universitetlarning ichki va tashqi omillarini o'rganishgan [93]. Tadqiqotchilarning ilmiy xulosalariga tayangan holda universitetda yaratilgan innovatsiyalar jamiyat hayoti uchun muhim va davlatga to'laqonli xizmat qilishi, insonlarning kundalik hayotiy masalalarini juda oson va qulay usullarda bartaraf qilishi, yaratilgan innovatsiyalar nafaqat shu kun uchun, balki kelajak uchun ham xizmat qilishi eng muhim omillar sifatida ta'kidlashadi.

A.N.Kovtunova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida innovatsion faoliyat modellariga turlicha yondashuvlarni o'rganish maqsadida Ural davlat ijtimoiy ta'lim instituti va Pedagogika universitetida ilmiy tadqiqotlarni olib bordi [42]. U innovatsion faoliyatning maqsadi, vazifalari, yo'nalishlari, ta'lim faoliyati, uning universitetdagi asosiy ishtirokchilari aniqlash, innovatsiyalar amaliyotini amalga oshirish va asosiy e'tiborini oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatining turli jihatlari iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini o'rganadi.

Amerikalik olimlar D.Brewer va W.G.Tierneylar universitetlarda innovatsion faoliyat olib borayotgan mutaxassislar va ilmiy izlanuvchilarning innovatsion faoliyatlarining natijadorligini oshirish yo'nalishida ularga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlarni yaratilib berilishi, kelgusida yangi ishlab chiqarish kompaniyalarni vujudga kelishiga asos bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tishadi [23].

K.I.Sofronova tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarining jamiyat hayotidagi muhim ahamiyatli tomonlarini yoritib berdi. U universitetning xo'jalik yurituvchi subyektlar tizimidagi o'rni va rolini alohida ko'rsatib berib, ilmiy kuzatishlari va olingan natijalariga asosan oliy o'quv yurtlari endi iste'molchilarga ta'lim xizmatlarini ishlab chiqaruvchi va turli konsaltin xizmatlarini ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlari emas, balki intellektual mahsulotlar bozorlariga yuqori texnologiyali tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari sifatida kirib kelayotgani haqida gapiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning metodologikasosini texnika oliy ta'lim muassasasini talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha yangi mexanizmlarni shakllantirish va ularni amalga oshirishda qo'llaniladigan metodlar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-metodologik tahlil, pedagogik kuzatuv, tasniflash, suhbat, statistik tahlil, umumlashtirish kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Universitetlardagi innovatsion faoliyatlarni boshqa tomondan M.S.Chvanova o'zining ilmiy tadqiqotlarida ko'rib chiqdi [101]. Uning takidlashicha, innovatsion faoliyatning dastlabki bosqichi kasb-hunar ta'lim sohasi bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro ijtimoiy hamkorlik o'rnatish va bunga asosan esa ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni teng huquqlik asosida hal qilishda deb baholaydi. M.S.Chvanovanning ilmiy izlanishlari natijasiga asosan ijtimoiy va innovatsion faoliyatni takomillashtirish uchun oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy sheriklik assotsiatsiyasini yaratish zarurligi haqida ilmiy xulosalariga keladi. Ijtimoiy hamkorlikning asosiy shakli, tadqiqotchining fikricha, hayotiy

ahamiyatga ega innovatsion loyihalarni ishlab chiquvchi ilmiy xodimlar, tadqiqotchilar va talaba-yoshlarning innovatsion faoliyatini turli ishlab chiqarish korxonalar, tashkilotlar va boshqa tarmoqlar bilan hamkorlikda rivojlanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, M.S.Chvanova universitetlarning ijtimoiy hamkorlikdagi tutgan o'rni va funksional ro'li sifatida ta'lim muassasasining ijtimoiy resurs va innovatsion ta'lim faoliyatini birlashtirish yo'nalishlari sifatida, shuningdek, turli ishlab chiqarish sohalari bilan o'zaro tuzilgan shartnomalar asosida ilmiy tadqiqot va kasbiy hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish instituti sifatida ham qaralishi mumkinligi to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini tushuntirib o'tadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari avvalam bor mahalliy hududning imkoniyatlarni hisobga olgan bo'lishi va ilmiy asoslari chuqur o'rganilgan bo'lishi zarur hisoblaniladi. Bu esa talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda va ularni hayotiy ahamiyatini oshiradi. Hayotiy zarur bo'lgan innovatsiyalarni shakllantirish bosqichlarida jamiyat va innovatsiyalarni yaratuvchilarning mafaatdorligini nazarda tutuvchi mexanizmlarni yaratish, shuningdek, texnika oliy ta'lim muassasalarida zamonning har qanday o'zgarishlariga moslashuvchan yangi innovatsiyalarni yarata oladigan mutaxassislarni yetishtirishdagi ta'lim jarayonlarining pedagogik omillariga qaratilgan e'tibor juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). U.A.Sapayev. Factors and educational opportunities of forming the culture of innovative activity of the students of technical higher educational institution. ACADEMIA, An International Multidisciplinary Research Jurnal (Double Blind Refereed & Peer reviewed Jurnal). Vol.13, Issue 1, January 2023. ISSN 2249-7137 Impact factor SJIF 2022: 8.252. doi:10.5958/2249-7137.2022.00613.9

(2). Christensen C.M., M.B.Horn, L.Caldera and L.Soaes. 2011. Disrupting college: How disruptive innovation can deliver quality and affordability to postsecondary education. Centre for American Progress and Innosight Institute. <https://www.americanprogress.org/issues/economy/reports/2011/02/08/9034/disrupting-college/> (Accessed 3 February 2017), pp. 72.

(3). Азадова П.И. Подходы к организации инновационной деятельности в вузе как условие совершенствования качества образования (на примере регионального вуза). Экономика. Статистика и информатика. 2011, №1, с. 3–7.

(4). Shelton K.A. and Arciszewsk T. 2007. Formal innovation criteria. International Journal of Computer Applications in Technology IJCAT, 30(1/2).

(5). Ковтунова А.Н. Организация инновационной деятельности в вузе. Педагогическое образование в вузе 2011, № 2, с. 164 – 169.

(6). Brewer, D. and W.G.Tierney. 2010. Barriers to innovation in U.S. higher education. Paper presented at the conference on Higher Education Innovation at the American Enterprise Institute. The Promise of Innovation in Higher Education, June. <http://www.aei.org/event/100218>.

(7). Софронова К.И. Интеграция региональной инновационной инфраструктуры с научно-инновационной деятельностью вуза. Экономические науки, 2009. № 10, с. 16–22.

(8). Софронова К.И. Роль и место вуза в современной экономической, национальной и региональной инновационных системах. Экономическое образование. 2011, № 2, с. 24–30.

(9). Хванова М.С. Социальное партнёрство -один из механизмов совершенствования социально-инновационной деятельности вуза. Образовательные технологии и общество. 2012, № 3, с. 581 – 601.

Xolboeva Gulxayo Xolboevna (O'zbekiston–Finlyandiya Pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat va sport” kefedrasi dotsenti, PhD, O'zbekiston Respublikasi, Samarqand shahar;

Gulxayoxolboevna@gmail.com; UDK: 796:338:89:28:078)

ZAMONAVIY BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARI KASBIY SALOHİYATINI KO'P BOSQICHLI PROFILLASH MODELI ASOSIDA OSHIRISH

***Annotatsiya.** Ijtimoiy sohaning har qanday sohasi singari, jismoniy tarbiya va sport ham moliyaviy xarajatlarni talab etadi, ammo olingan ijtimoiy ta'sir orqali sport sohasida ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarini ko'p marta qoplaydi. Jismoniy tarbiya va sport xarajatlari–bu mamlakat mehnat resurslari sifatini belgilaydigan inson salomatligiga investitsiyalarni kiritadi. Ammo bugungi kunda jismoniy tarbiya tizimi va uni tashkil etuvchi sohaning samaradorligi juda ko'p jarayonlarni talab qilmoqda. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida «jismoniy madaniyat» sohasining ishlashi va yanada rivojlanishi qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini, raqobat kurashining innovatsion vositalarini, bozor aloqalarini doimiy ravishda izlashni o'z ichiga oladi.*

Kalit soʻzlar: bozor iqtisodiyoti, konstruktiv-texnologik, talaba, model, intellektualizm, profillash, tendensiya, kreativizm, sportni boshqarish.

ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА СПЕЦИАЛИСТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ МНОГОУРОВНЕВОГО ПРОФИЛИРОВАНИЯ

Аннотация. Как и любая отрасль социальной сферы, физическая культура и спорт требуют финансовых затрат, но за счет полученного социального воздействия во много раз компенсируют затраты на производство в сфере спорта. Расходы на физкультуру и спорт—это инвестиции в здоровье человека, от которых зависит качество трудовых ресурсов страны. Однако сегодня эффективность системы физического воспитания и составляющей ее сферы требует большого количества процессов. Функционирование и дальнейшее развитие сферы «физическая культура» в условиях современной рыночной экономики предполагает постоянный поиск дополнительных источников финансирования, инновационных средств конкурентной борьбы, рыночных связей.

Ключевые слова: рыночная экономика, конструктивно-технологический, студент, модель, интеллектуализм, профилирование, тренд, креативизм, спортивный менеджмент.

INCREASING THE PROFESSIONAL POTENTIAL OF PHYSICAL CULTURE SPECIALISTS IN THE CONDITIONS OF A MODERN MARKET ECONOMY ON THE BASIS OF A MULTIDISCIPLINARY PROFILING MODEL

Annotation. Like any area of the social sphere, physical education and sports require financial costs, but through the social influence obtained, it covers the costs spent on production in the field of sports many times. Physical education and sports expenses—this is the investment in human health, which determines the quality of the country's labor resources. However, today the effectiveness of the physical education system and the sphere that constitutes it requires a lot of processes. The functioning and further development of the field of “Physical Culture” in the conditions of a modern market economy involves the constant search for additional sources of financing, innovative means of competitive struggle, market relations.

Keywords: market economy, constructional-technological, student, modell, intellectualism, trend, creativism, sport management.

Kirish. Respublikamizda barcha sohalar qatori, “Jismoniy madaniyat” sohasi mutaxassislarining, jalb qilingan davlat va shaxs muammolarini samarali hal qilish, kasbiy-karyera faoliyat sharoitida shaxsiy ehtiyojlarni amalga oshirishni taʼminlash qobiliyati butun tizimning samarali faoliyatining asosidir. Shu sababli «jismoniy madaniyat» sohasining asosiy vazifalari va kelajakdagi sanoat mutaxassisi egallashi zarur boʻlgan faoliyat yoʻnalishlari aniqlanishi kerak. Shunday qilib, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, yangi Oʻzbekistonning qurilishi jismoniy madaniyatning ijtimoiy holatini tizimli ravishda oʻzgartirishni talab qiladi, bu esa, oʻz navbatida, jismoniy tarbiya va sport tizimidagi faoliyat uchun yangi kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish, shuningdek, “jismoniy madaniyat” sanoatining muammolarini hal qilish zarurligini anglatdi. Jismoniy tarbiya va sport taʼlimning zamonaviy tarmoqlari inqirozdan amaliy chiqish bosqichida boʻlib, aniq oʻz vazifalariga ega boʻlishi va ularni inqiroz sharoitida qoʻllanilganidan boshqa yondashuvlar hisobiga amalga oshirishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan oliy taʼlim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligi masalalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida oʻrganishga boʻlgan urinish K.D.Yarashev, Gʻulomov, R.X.Nabiulin, G.Z.Kamilova, E.Maxxmudov, V.V.Abramova, G.D.Buxarova, N.V.Mosina, A.I.Rublev va boshqalarning tadqiqotlarida oʻz aksini topgan. V.I.Baydenko, I.V.Gladkaya, N.Y.Erofeeva, N.F.Efremova, I.A.Zimnyayalarning tadqiqotlari sport marketingi kompetensiyalarni, ularning mohiyati va tuzilishini aniqlashning munozarali masalalariga bagʻishlangan.

V.A.Semirekov, T.V.Nesterenko, L.Y.Petrovalar ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish ishlarini tashkil qilish, yirik sport tadbirlarini tashkil etish hamda ommaviy sportga yoshlarni jalb qilish samarali ekanligini tadqiqot ishlarida oʻtkazilgan tajribalari orqali asoslab berishgan.

Tadqiqotning maqsadi. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini integral va protsessual loyihalash konsepsiyasi tendensiyalarini modernizatsiyalash samaradorligini qoʻllash boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

1. «Jismoniy tarbiya» tarmogʻi xizmatlari bozorida raqobatning tuzilishi va shartlarini aniqlash.

2. Jismoniy tarbiya va «jismoniy madaniyat «tarmog'ini boshqarish sohasidagi faoliyat tizimining samaradorligini ta'minlash shartlarini asoslash, «jismoniy madaniyat «sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonida hisobga olinishi kerak bo'lgan tizimni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash.

3. Mavjud jismoniy tarbiya tizimi va sohasi, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi oliy kasb-hunar ta'limi tizimining bitiruvchilarning zamonaviy sharoitlarga moslashish ehtimolini rivojlantirishda past samaradorligining sabablarini aniqlash va nazariy-mantiqiy asoslarini taqdim etish.

4. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida «jismoniy tarbiya «sohasining bo'lajak xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning uslubiy yondashuvlari va asosiy yo'nalishlarini asoslash.

5. Kelajakdagi jismoniy tarbiya va sport xodimlarini zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosini samarali hal etishni mazmunli va protsessual qo'llab-quvvatlashning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning predmetini jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarni jismoniy tarbiya va sport menejmenti boshqaruv faoliyatiga tayyorgarlash vositalari va usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik tajriba, o'quv jarayoni hujjatlarini nazariy tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa-so'rovnoma, boshqaruv qobiliyatini aniqlash usullari, aqliy qobiliyat strukturasi pedagogik testdan o'tkazish, matematik statistika kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat. Jismoniy madaniyat sohasidagi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan jismoniy ta'limi sohasidagi oliy ta'limni protsessual modernizatsiya qilishning yangi yo'nalishini shakllantiradi. «Jismoniy madaniyat «tarmog'ining ta'lim xizmatlari bozorida raqobat tuzilishi va shartlarini, «jismoniy madaniyat «tarmog'ining samaradorligi va boshqaruvini ta'minlash shartlarini nazariy va mantiqiy asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik tajriba, o'quv jarayoni hujjatlarini nazariy tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa-so'rovnoma, boshqaruv qobiliyatini aniqlash usullari, aqliy qobiliyat strukturasi pedagogik testdan o'tkazish, sotsiologik taxlillar, matematik statistika kabi usullardan foydalanilgan.

Bugungi kunda kasbiy tayyorgarlik tizimida ta'lim mazmunining milliy-mintaqaviy tarkibiy qismini amalga oshirish yondashuvlari va tamoyillarini, uning davlat bilan integrativ o'zaro ta'sirini aniqlash masalasi hal qilinmagan. Ilmiy va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu komponent faqat milliy-mintaqaviy xususiyatlarni aks ettiruvchi fanlarni yoki ma'lumotlar intizomiga avtomatik ravishda kiritish sifatida tushuniladi [4;7-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qiyosiy pedagogik eksperimentlarni o'tkazishning umumiy yondashuvlari asosida o'z-o'zini sinovdan o'tkazish amalga oshirildi, sifat va o'rtacha baholash mezonlari bo'yicha joriy yutuqlar aniqlandi, talabalarning qoldiq bilimlari aniqlandi. Keyin guruh ko'rsatkichlarini tenglashtirish uchun rotatsiya amalga oshirildi va eksperimental va nazorat guruhlarini ajratildi. Natijada bilim sifati, o'rtacha baholash va qoldiq bilimlar mezonlari bo'yicha ikkita bir hil guruh olinadi

O'qituvchilarning fikriga ko'ra, talabalarning asosiy fikri shundan iboratki, kasb bo'yicha fikrlar ular uchun qiziqarli bo'lib tuyuladi, ammo bu ularning hayotini tashkil qilishda dominant bo'lmaydi.

Nazorat guruhida dominant fikr quyidagicha: kasb ish bilan bog'liq, shuning uchun qilingan sa'y-harakatlarning miqdori va sifati birgalikda ish haqi bo'lishi kerak. Ehtimol, professional komponentning barqarorligi o'rtasidagi nomuvofiqlik ixtiyoriy komponent va kasbiy qiziqishning mos kelmasligiga olib keladi. Bu yerda eksperimental guruh vakillari uchun u $6,6 \pm 3,2$ ballga, nazorat guruhi uchun esa $8,3 \pm 2,7$ ga teng edi. Farqlar $P < 0,01$ da ishonchli. Kasbiy faoliyatga moyillik, kasbiy qiziqishning hissiy va intellektual tarkibiy qismlarining kattaligi, shuningdek, guruhlarining kasbiy qiziqish ko'rsatkichi mos keladi ($P < 0,05$), bu bizga eksperimental va nazorat guruhlarining kasbiy faoliyatning asosiy tizimli xususiyatlariga ko'ra taxminiy bir xilligi faktini tasdiqlashga imkon beradi.

1-jadval

Eksperiment ishtirokchilari bo'lgan talabalarning tajribaning dastlabki bosqichidagi kasbiy faoliyatga nisbati ko'rsatkichlari (ekspert xulosasi)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar		Farqlarning ishonchliligi	
	Eksperimental	Nazorat	Tajriba	P
Kasbiy qiziqishning barqarorligi	$3,1 \pm 0,8$	$3,6 \pm 1,1$	2,17	$< 0,05$

Kasbiy faoliyatga moyillik	2,9 ± 1,4	3,1 ± 0,9	0,89	>0,05
Kasbiy qiziqish	7,3 ± 2,2	7,5 ± 2,4	1,12	>0,05
– hissiy komponent;	8,3 ± 1,4	8,0 ± 1,3	1,07	>0,05
– aqlli komponent;	6,3 ± 2,2	6,7 ± 2,4	0,84	>0,05
– ixtiyoriy komponent.	6,7 ± 3,2	8,4 ± 2,7	3,01	<0,01

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish har bir guruhda talabalarning uchta kichik guruhini shartli ravishda ajratish imkonini beradi (2-jadval). Birinchi kichik guruh tanlangan kasbdan qoniqish, to'g'ri tanlovga ishonch va kasbga ijobiy hissiy munosabat, kasbiy qiziqishning doimiy namoyon bo'lishi, ishda yuqori natijalarga erishish istagi, kasbni protsessual egallashga motivlarning yo'nalishi bilan tavsiflanadi.

2-jadval

Tajriba ishtirokchilarining kasbiy qiziqishning barqarorligiga qarab taqsimlanishi (%)

Guruh	Tajriba bosqichi	Kasbga munosabat		
		Qiziqish	Etarlicha barqaror qiziqish	Barqaror bo'lmagan qiziqish
Eksperimental	Boshlang'ich	38,1	48,2	13,1
	Oxirgi	45,6	51,8	2,6
Nazorat	Boshlang'ich	38,0	46,3	15,7
	Oxirgi	40,1	48,0	11,9

Dastlabki bosqichda eksperimental ishtirokchilarning 38,4 foizida va nazorat guruhining 37,0 foizida barqaror kasbiy qiziqish aniqlandi.

Ikkinchi guruh tanlangan kasbdan qoniqishning yetarli emasligi va unga nisbatan noaniq munosabat, tanlangan kasbdagi istiqbollarning noaniqligi hamda kasbni egallashda kognitiv faoliyatning etarli darajada namoyon bo'lmashligi bilan tavsiflanadi. Eksperimental guruhda talabalarning ushbu toifasi dastlabki bosqichda 48,3%, nazorat guruhida 48%ni tashkil etdi. Ushbu holat jismoniy tarbiya universitetlarida marketing va shaxsga yo'naltirilgan ta'limga ko'proq e'tibor berish zarurligini yana bir bor ta'kidlaydi.

«Jismoniy tarbiya» tarmoq maqomlarining kelajakdagi ishlarini bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining mazmuni va o'tkazilishini globallashtirish va mintaqalashtirishning birligi va kurash tamoyilini hisobga olgan holda qurish maqsadga muvofiqdir, shu bilan birga, vaqt va makonni oliy ta'limi tizimi faoliyatining tashqi tizim shakllantiruvchi vositalari va omillari sifatida hisobga olish kerak, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy faoliyatning mazmuni va samaradorligini belgilovchi jismoniy tarbiya va sportning bo'lajak xodimlarini kasbiy tayyorlash jarayonini tashkil etish shaxsiy va davlat-ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olish va amalga oshirishga asoslangan bo'lishi kerak. Kelajak mutaxassislarini sohaning maqsadi, vazifalari va ularni hal qilish shartlarini tushunish uchun shaxsga yo'naltirilgan va gumanistik yo'naltirilgan tizimli tayyorlashni ta'minlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, kelajakdagi jismoniy tarbiya xodimining o'zi uchun shaxsiy javobgarligini shakllantirish lozim [6;8-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassis aholini o'qitish va tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositalaridan samarali foydalanish, uni sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzini rivojlantirish, sportchilarni yuqori sport natijalariga tayyorlash masalalarida malakali bo'lishi kerak. Jismoniy tarbiya va sport tizimi infratuzilmasini rivojlantirish hamda jismoniy tarbiya sport faoliyatini moliyaviy ta'minlashni takomillashtirish (jismoniy tarbiya va sport sohasi infratuzilmasini yaratish va rivojlantirishning innovatsion xususiyatini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, sport obyektlaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlash, sport obektlarini jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun zarur sport asbob-uskunalari va inventarlari bilan jihozlashni takomillashtirish, korxonalarini modernizatsiya qilish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun tovarlar ishlab chiqarish, kichik tadbirkorlik va xususiy-davlat korxonalarini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi «PF-5368-farmoni. 2018-yil 5-mart.

(2). 2019–2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi 2019-yil 14-fevral. <https://lex.uz/docs/-4200883>

(3). Menejment of (2021) sport «Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6–7 years through initial gymnastics classes». Eurasian Journal of Sport Science: Vol.1, Iss.2, Article 1. Available at:

(4). Z.T.G‘ulomov, R.X.Nabiulin, G.Z.Kamilova. Sport menejmenti. Toshkent, “Turon Iqbol”, 2015.

(5). Махмудов Е.А., Аблаева Е.С., Тимашева А.Р. Экономика и менеджмент в спорте. Методическое пособие, UzGIFK, с. 2008.

(6). Shomurodov X.S. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport faoliyatida tadbirkorlik. “Tafakkur qanoti”, 2014.

(7). Юнусов Т.Т. Организация управления физкультурным движением в Республике Узбекистан. UzGIFK, 1995.

(8). Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. Darslik, Toshkent, “Ibn Sino” nashriyoti, 2002; Xolboyeva G.X. Methods of development of physical qualities in gymnastics for 5–7 years old». Holboyeva G.H. Theory and methodology of physical education. Textbook Samarqand state university edition. 2020, p. 56–59.

**Ismoilov Dilmurod Xamidjonovich (O‘zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘qituvchisi),
Xudayberganov Otabek Erkinovich (Ma‘mun universiteti professori v.b.)
BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINING VOLLEYBOL VOSITASI
YORDAMIDA KASBIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

***Annotatsiya.** Maqolada talabalarni voleybolga o‘rgatishning aniq vazifalari va shart-sharoitlari, shuningdek, ma‘lum kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda voleybol mashg‘ulotlarining imkoniyatlaridan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** jismoniy madaniyat, voleybol, mashg‘ulot usullari, kasbiy faoliyat, kasbiy ko‘nikmalar, irodali sifatlar.*

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ
ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ С ПОМОЩЬЮ ВОЛЕЙБОЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ**

***Аннотация.** В статье рассматриваются конкретные задачи и условия обучения студентов игре в волейбол, а также вопросы использования возможностей занятий волейболом в формировании определенных профессиональных умений.*

***Ключевые слова:** физическая культура, волейбол, методика обучения, профессиональная деятельность, профессиональные умения, волевые качества.*

**FORMING THE PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION
SPECIALISTS WITH THE HELP OF VOLLEYBALL TOOLS**

***Annotation.** The article discusses about specific tasks and conditions for teaching students to play volley-ball, as well as issues of using the opportunities of volleyball classes in the formation of certain professional skills.*

***Key words:** physical education, volleyball, teaching methods, professional activity, professional skills, volitional qualities.*

Kirish. Dunyoda hozirgi vaqtda global raqobat shart-sharoitlari barcha sohalarda, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasida, ta‘limning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish – jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy ta‘limiga bo‘lgan talablarini oshirish, shuningdek, turli darajalar ularning faoliyatini chuqur o‘rganishni taqazo etmoqda.

Jahon sport fanida oliy o‘quv yurtlari tizimida jismoniy tarbiya bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda ta‘lim jarayonini takomillashtirishning nazariy va uslubiy-texnologik jihatdan ta‘minlashning aniq yo‘llarini izlab topishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish Konsepsiyasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish ularning bo‘lajak kasbiy faoliyatining asosiy turlarini inobatga olgan holda ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Ushbu vazifani amalga oshirish jismoniy tarbiya mutaxassislarini oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlash tizimida ta‘lim jarayonini nazariy va uslubiy-texnologik jihatdan ta‘minlashning aniq yo‘llarini izlab topish zaruriyatini belgilab beradi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi ularning oliy ta‘lim muassasasida butun o‘qish davri davomida fanlar majmuasini o‘zlashtirish va fanlarga tayyorlash jarayonida amalga oshiriladi. Bu fanlarning ahamiyati katta, chunki kasbiy mahoratning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar xuddi shu fanlarda o‘zining aniq aksini topa oladi. Bu borada pedagogika

oliy ta'lim muassasalarining jismoniy madaniyat fakultetlarida sport turi bo'yicha "Sport mahoratini oshirish" (SMO) fani muhim rol o'ynaydi.

SMO bo'yicha ta'lim jarayoni "Jismoniy tarbiya" mutaxassisligi, "Jismoniy tarbiya o'qituvchisi" malakasi bo'yicha oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartida belgilangan jismoniy tarbiya va sport o'qituvchisi kasbiy mahoratining asosiy tarkiblarini shakllantirishga, ya'ni, harakat faoliyatiga o'rgatish texnologiyasini o'zlashtirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish; kasbiy harakat ko'nikmalarini egallash, sport yutuqlari darajasini oshirishga qaratilgan.

Sport-pedagogik ko'nikmalar darajasi pedagog kasbiy mahoratining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarni egallashi ularda kasb bo'yicha real jismoniy tarbiya va sport faoliyati sharoitlarida amaliyotga yo'naltirilgan vazifalarni unumli hal etishga tayyorlikni paydo qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonini loyihalash va amalga oshirishda nafaqat bilim va ko'nikmalarining shakllantirish, balki bo'lajak kasbiy faoliyat subyekti shaxsining shakllantirilishi zarurligiga urg'u beriladi.

Demak, kasbiy-pedagogik faoliyat sifatini oshirishga bo'lgan obyektiv mavjud, talablar hamda bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida ularning takomillashuvi jarayonida kasbiy ko'nikmalarini samarali shakllantirish, shu maqsadda sport o'yinlari, jumladan, voleybolning imkoniyatlaridan foydalanish muammosining etarlicha ishlab chiqilmaganligi orasida ziddiyatlar kuzatilmoqda, aynan shu mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi. Tadqiqotning maqsadi oliy pedagogik ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. voleybol vositalari va muammoli o'qitish tamoyillari asosida talabalarning kasbiy ko'nikma va shaxsiy sifatlarini shakllantirish uslubiyatini ishlab chiqish va asoslash;

• ishlab chiqilgan uslubiyatning bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy ko'nikmalari va shaxsiy sifatlarining shakllanishiga ta'sirini tajribada sinab ko'rish va baholash.

Tadqiqot obyekti. "Sport mahoratini oshirish" fani bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Jismoniy madaniyat fakultetlarida sport pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha o'quv va sport faoliyati mazmuni va ularning tashkil etilishi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy pedagogik ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslash muammosiga A.N.Abdiyev, S.I.Balandin, A.A.Gladishev, I.M.Zalyaletdinova, D.A.Zubkov, O.A.Krivko, E.F.Orexov, T.A.Polivaev, N.A.Xudayberdiyeva va boshqalar ishlar olib borishgan [2,3,4,5,6,7,8,9,10].

Mazkur ishlarda jismoniy tarbiya o'qituvchisi va murabbiy faoliyatiga bo'lgan kasbiy tayyorgarlik mohiyati va mazmuni ochib berilgan, pedagogika oliy o'quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlik mazmuni hamda jarayoni takomillashtirishga ilmiy asoslangan yondoshuvlar taklif qilinadi. Biroq kasbiy tayyorgarlikning sport ixtisosligi vositalari yordamida shakllantirish masalalari kam tadbiriq qilinganligicha qolmoqda.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonining turli bosqichlarida usullar majmuasidan foydalanildi, jumladan: jismoniy tarbiya ta'limi mazmuniga oid maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, hujjatli materiallarni tahlil qilish, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, tajriba ma'lumotlarini qayta ishlashning statistik usullari.

Tadqiqotning natijalari. Oliy o'quv yurtlari talabalarining o'quv mashg'ulotlarida kasbiy tayyorgarligi jarayonida voleybolni o'z ichiga olgan tajriba va amaliyotni o'rganish hamda bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan vositalar, tashkiliy-uslubiy texnikalar tizimini ishlab chiqish maqsadida dasturlar, o'quv rejaları va uslubiy ishlanmalar o'rganildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash sifatini sport ixtisosligi vositalari yordamida oshirish kam o'rganilgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ularning o'quv faoliyati natijadorligini belgilab beruvchi ustuvor ko'nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarini shakllantirish, harakat va texnik tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Kasbiy-pedagogik faoliyat sifatini oshirishga bo'lgan obyektiv mavjud, talablar hamda bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida ularning takomillashuvi jarayonida kasbiy ko'nikmalarini samarali shakllantirish, shu maqsadda sport o'yinlari, jumladan, voleybolning imkoniyatlaridan foydalanish muammosining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi orasida ziddiyatlar kuzatilmoqda, aynan shu mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi

Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining voleybol vositalari yordamida kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan uslubiyati samaradorligini o'rganish maqsadida Urganch davlat universiteti bazasida jismoniy madaniyat fakulteti talabalarining tayyorgarligi jarayonida pedagogik tajriba

o'tkazildi. Tajriba uchta bosqichda o'tkazildi. Uning davomiyligi 2 yilni tashkil etdi. Har bir ta'lim bosqichida bittadan nazorat va bittadan tajriba guruhi aniqlab olindi, bu guruhlar tayyorgarlikning dastlabgi darajasi bo'yicha bir-biridan ishonchli ($R \leq 0,05$) farq qilmadi.

Nazorat guruhi talabalari uchun o'quv rejasida voleybolni boshlang'ich o'rgatish bo'yicha an'anaviy uslubiyatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, unga talabalar sportining o'ziga xosligini hisobga oluvchi o'zgartirishlar kiritildi. Tajriba guruhidagi mashg'ulotlarni rejalashtirish nazorat guruhi mashg'ulotlari o'quv rejasidan farq qilmadi, chunki har ikki guruh uchun bu bosqichdagi asosiy vazifa – voleybolni boshlang'ich o'rgatish edi. Ishimizning mavzusiga muvofiq tajriba guruhi talabalari o'quv rejasiga tadqiqotimiz mavzusi – kasbiy ko'nikmalarni hosil qilish hisobga oluvchi o'zgartirishlar kiritildi.

Voleybolni o'qitishning pedagogik ko'nikmalarini shakllantirish bilan uyg'unlashtirish maqsadida voleybolga o'rgatishning birinchi o'quv yilining ikkinchi semestridan boshlab nazorat va tajriba guruhlarida pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha maxsus vazifalar va mashqlardan foydalanildi, tajriba guruhida esa yana pedagogik yo'nalish elementlariga ega muammoli o'qitish uslublari qo'llanildi. Ularning mohiyati mashg'ulot o'yinlari sharoitlarida shug'ullanuvchilar oldiga harakat vazifalarini qo'yishdan iborat.

Ushbu tajribani o'tkazishda ikkita vazifa qo'yildi:

1) muammoli o'qitish uslublaridan foydalangan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning talabalar pedagogik ko'nikmalarining shakllanishiga ta'sirini aniqlash;

2) muammoli o'qitish uslublarining tanlangan sport turi va ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatga ta'sirini aniqlash.

Tajribaviy uslubiyat murabbiy-o'qituvchi faoliyati to'g'risidagi nazariy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, kasbiy ko'nikmalarining mohiyati va ahamiyati, shuningdek, ularni shakllantirish xususiyatlari ochib berildi. Talabalarga doimiy ravshda ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan vazifalar taklif qilib borildi.

Birinchi yil ta'lim oluvchi guruh uchun soatlarning namunaviy taqsimoti 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval

Birinchi yil ta'lim oluvchi guruh uchun soatlarning namunaviy taqsimoti

T/r	Ta'lim jarayonining mazmuni	Tayyorgarlik davri					Musobaqa davri				O'tish davri			Umumiy soat
		IX	X	XI	XII	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1	Nazariy mashg'ulotlar voleybolning rivojlanish tarixi	1												1
2	Jismoniy tarbiyaning tabiiy-ilmiy asoslari	1												1
3	Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik		1											1
4	Voleybol texnikasi		1											1
5	Dam olish va mehnat tartibida jismoniy tarbiya va sport			1										1
6	Voleybol mashg'ulotlari jarayonida tibbiy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish			1										1
7	Voleybolchilarning psixik sifatlari va psixologik tayyorgarlik				1								t	1
8	Voleybol taktikasi				1									1
9.	Musobaqalar va hakamlik	1												1
	Jami soatlar	3	2	2	2									9
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1.	Amaliy mashg'ulotlar umumiy jismoniy tayyorgarlik	6	9	4	6	9	4	6	6	4	4			58

2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	4	5	4	5	4	5	5	5	5	5	4	1	46
3.	Texnika va taktikani o'rganish va takomillashtirish	10	12	14	14	12	13	13	13	9	8			118
4.	Musobaqalarda ishtirok etish													
5.	Nazorat me'yorlarini topshirish	3				3				3				9
	Jami	23	26	22	25	28	22	24	24	21	16			231
	Umumiy	26	28	24	26	29	22	24	24	21	16			240

Ikkinchi yil ta'lim olayotgan guruh uchun soatlar taqsimoti 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ikkinchi yil ta'lim oluvchi guruh uchun soatlarning namunaviy taqsimoti

T\r	Ta'lim jarayonining mazmuni	Tayyorgarlik davri					Musobaqa davri					O'tish davri			Umumiy soatlar
		IX	X	XI	XII	I	II	III	IY	Y	YI	YII	YIII		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
1.	Nazariy mashg'ulot umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik	1											1		
2.	Voleybol texnikasi		1											1	
3.	Psixologik tayyorgarlik va o'z-o'zini boshqarish			1										1	
4.	Musobaqalarga tayyorgarlikni rejalashtirish				1									1	
5.	Voleybol taktikasi					1								1	
6.	Voleybolni o'rgatish uslubiyati						1							1	
7.	Harakat tayyorgarligi							I						1	
	Jami soatlar	1	1	1	1	1	1	1						7	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
1.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	6	8	6	4	10	6	6	4	4	6			60	
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	4	6	4	6	6	4	4	6	6	4			50	
3.	Texnika va taktikani o'rganish va takomillashtirish	12	14	12	14	10	12	12	12	14	4			116	
4.	Musobaqalarda ishtirok etish														
5.	Nazorat me'yorlarini topshirish	2				2					2			6	
	Jami	24	28	22	24	28	22	22	22	24	16			232	
	Umumiy	25	29	23	25	29	23	23	23	24	18			240	

Taklif etilgan vazifalarning bajarilishi talabalarni muayyan vazifalarni hal etayotgan murabbiy-o'qituvchi o'rniga qo'yishni nazarda tutgan edi. Kasbiy ko'nikmalarni egallash bosqichlariga muvofiq taklif qilinayotgan vazifalarning muntazam va izchil bajarilishiga alohida ahamiya qaratildi. Ajratib olingan us-tuvor ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini muntazam nazorat qilib borishni tashkil etadi.

Tadqiqotlardan olingan natijalar, umuman, voleybolning ham, muammoli o'qitish uslublarining ham 1-o'quv yili talabalariga kasbiy ko'nikmalarini hosil qilishga ijobiy ta'sir etganligidan darak beradi. Ular ko'p hollarda tahsil oluvchilar oldiga odatiy pedagogik vazifalarni qo'ydi. Jadvalda ko'rinib turibdiki, nazorat guruhidagi ekspert baholar 12%ga, tajriba guruhida 24%ga o'sgan.


Ikkinchi o'quv yilida ham xuddi o'sha shug'ullanuvchilar kontingenti bilan voleybol vositalari yordamida pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish masalasini o'rganish davom etirildi. Mashg'ulotlar ishlab chiqilgan rejaga binoan o'tkazildi. Muammoli o'qitish uslublarining qo'llanilishi ijobiy natija berganligini inobatga olib, bu uslublardan nazorat guruhi talabalarini bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda foydalanishga qaror qildik.

Muammoli o'qitish uslublarini qo'llagan holda ko'nikmalarni shakllantirish uslubiyati birinchi bosqichdagidek saqlab qolindi. Birinchi yilga nisbatan eng istiqbolli ko'nikmalarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotga muvofiq avval shakllantirilgan 8 ta ko'nikmalarga sportchilarda mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish ko'nikmasi qo'shildi, mashqlarni murakkablik darajasi o'sib borishiga qarab joylashtirish ko'nikmasi esa yanada murakkabroq ko'nikma – mashqni namoyish qilishni to'g'ri bajarish ko'nikmasi bilan almashtiriladi, chunki namoyish qilishni bajarishda bajarilayotgan harakatning asosiy texnik jihatlariga va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan hatolarga diqqatni qaratish zarur bo'ladi.

Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, birinchi o'quv yilida ishlab chiqilgan sinovdan o'tkazilgan pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish uslubiyati voleybolga o'rgatishning ikkinchi yilida ham o'z samaradorligini tasdiqladi, sobiq nazorat guhida muammoli o'qitish uslublarining qo'llanilishi esa unga tajriba guruhi natijalariga yaqinlashib olishga imkon beradi.

Jismoniy tarbiyaga ixtisoslashmagan fakultetlarning 1-o'quv yili talabalarida jismoniy tayyorgarlik darajasi jismoniy madaniyat fakulteti talabalariga qaraganda ancha past bo'lganligi sababli, umumiy jismoniy tayyorgarlikka mashg'ulotlarning umumiy vaqtiga nisbatan 15%ga ko'proq vaqt ajratildi.

Maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlilik, jasurlik, chidamlilik va o'zini qo'lga olish, mustaqillik hamda tashabbuskorlik kabi irodaviy sifatlarni shakllantirish jismoniy madaniyat fakultetlarinig ikkinchi o'quv yili talabalari uchun qo'llanilgan uslubiyatga o'xshash uslubiyat bo'yicha amalga oshirildi. Samaradorlik pedagogik kuzatuv uslubi orqali aniqlandi, natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Irodaviy sifatlarning o'sib borish darajasi (ballar).

A –tajribadan oldin; B – tajribadan keyin

- 1-qat'iyatlilik va tirishqoqlik; 4-chidamlilik va o'zini qo'lga ola bilish;
 2 –maqsadga intiluvchanlik; 5-jur'at va jasorat;
 3-mustaqillik va tashabbuskorlik.

1-rasmda ko'rinib turganidek, irodaviy sifatlarning o'sib borish darajasi quyidagicha bo'ldi: maqsadga intiluvchanlik – 75,4%; qat'iyatlilik va tirishqoqlik – 41,0%; jur'at va jasurlik – 46,2%; chidamlilik va o'zini qo'lga ola bilish – 82,3%; mustaqillik va tashabbuskorlik – 60,4%.

Boshqa mutaxassisliklar fakultetlari talabalari bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar yakunlari asosida shular aniqlandiki, jismoniy madaniyat fakulteti uchun voleybolga boshlang'ich o'rgatish uslubiyatiga kiritilgan o'zgarishlar boshqa fakultetlar talabalari bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarda o'z samaradorligini tasdiqladi. Voleybolga boshlang'ich o'rgatish bosqichida texnik-taktik ko'nikmalarni hosil qilish bilan bir vaqtda shakllantirish mumkin, chunki voleybol bilan ushbu sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Xulosalar. Ekspert baholash voleybolning ham, muammoli o'qitish uslublarining ham kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga ijobiy ta'sir etganligidan darak beradi. Ular tahsil olayotgan talaba oldiga ko'p hollarda odatiy pedagogik vaziyatlarni qo'yyadi. Birinchi o'quv yilida ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish uslubiyati voleybolga o'qitishning ikkinchi yilida ham o'z samaradorligini tasdiqladi, nazorat guhida muammoli o'qitish uslublaridan foydalanish natijalar bo'yicha tajriba guruhiga etib olish imkonini berdi. Talabalarning matanot va o'zini qo'lga ola bilishni mustaqil baholashlari natijalardan ko'rinib turibdiki, matonat hamda o'zini qo'lga ola bilish tuzilmasi yaxshi tamonga o'zgan: irodaviy sifatlarning yuqori darajada namoyon bo'lishi 30%ga o'sgan va ustunlik qilgan, yuqori darajada irodaviy sifatlarga ega sportchilar soni 40%gacha oshgan, past darajadagi irodaviy sifatlarga ega sportchilar soni 45%dan 15%gacha kamaygan. Spuningdek, individual yondashuvni talab qiluvchi qat'iyatlilik va tirishqoqlikni mustaqil baholash ko'rsatkichlarining yuqori darajasi muhim natija bo'lib, ular mos ravshda 8,5 va 64,3%ga o'sgan.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqilgan uslubiyatning samaradorligi nazariy jihatdan asoslangan va amalda tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги. ПФ-5924-фармони, 24.01.2020.
- (2). Абдиев А.Н. Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. Автореф.дис....д-ра пед наук., Тошкент, 2004, 56-бет.
- (3). Баландин С.И.. Междисциплинарный подход в подготовке кадров для области физической культуры и спорта. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, СПб., 2012, 24 с.
- (4). Гладышев А.А. Формирование индивидуальной образовательной траектории студентов физкультурно-спортивного профиля на основе компетентностного подхода. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, Нижневартовск, 2015, 20 с.
- (5). Залялетдинова И.М. Развитие социально-профессиональной мобильности бакалавра физической культуры. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, Ур.гос. ун-т физ. культуры, Челябинск, 2016, 23 с.
- (6). Зубков, Д.А. Психолого-педагогическое сопровождение профессионального становления будущих специалистов по физической культуре и спорту. Дис. канд. пед. наук, СПб, 2012, 187 с.
- (7). Кривко, О.А. Формирование профессиональной компетентности педагога-тренера по спорту в процессе обучения в вузе. Автореф. дис. ... канд. пед. наук, Барнаул, 2013, 21 с.
- (8). Орехов Е.Ф. Модернизация высшего профессионального образования в отрасли физической культуры и спорта в современных социокультурных условиях. Автореф.дисс....д-ра пед.наук, Калининград, 2012, с.43.
- (9). Поливаев, А.Г. Качество подготовки физкультурных кадров для общеобразовательной школы в педагогическом вузе: проблемы и перспективую. "Омский научный вестник", 2014, № 3, с. 167–170.
- (10). Худайбердиева Н.А. "Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида педагог кадрлар тизимини бошқаришда инновацион фаолиятни ривожлантириш механизмини яратиш". Т., Илмий техника ахбороти – пресс нашриёти, 2018, 148-бет.

Mamatova Dilnoza Bekpo'latovna (O'zDJTU, PhD)

CHET TILLARINI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

***Annotatsiya.** Maqolada sun'iy intellektning tobora keng tarqalishi, bu ovozli yordamchilar va neyron tarmoqlarning tobora ommalashib borayotgani, shuningdek, chet tillarini o'rganish bo'yicha o'quv dasturlari misolida yaxshi namoyon bo'lmoqda. Maqolada o'quv dasturlarining tahlili yoritildi va darslarga sun'iy intellektni kiritish metodologiyasi taklif qilindi.*

***Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, o'quv dasturi, chet tili, interfeys, arkada.*

Маматова Дилноза Бекпулатовна (УзГУМЯ, PhD)

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

***Аннотация.** Статья хорошо иллюстрирует растущее распространение искусственного интеллекта, растущую популярность голосовых помощников и нейронных сетей, а также примеров программ обучения иностранным языкам. В статье был освещен анализ учебных программ и предложена методика внедрения искусственного интеллекта в уроки.*

***Ключевые слова:** искусственный интеллект, обучающее ПО, иностранный язык, интерфейс, arkada.*

Mamatova Dilnoza Bekplatovna (UzSWLU, PhD)

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE STUDY OF FOREIGN LANGUAGES

***Annotation.** The article illustrates well the growing spread of artificial intelligence, the growing popularity of voice assistants and neural networks, as well as examples of foreign language teaching programs. The article highlighted the analysis of educational programs and proposed a methodology for introducing artificial intelligence into lessons.*

***Keywords:** artificial intelligence, educational software, foreign language, intrface, arcade.*

Kirish. Hozirgi kunda sun'iy intellekt turli sohalarida tobora keng tarqalmoqda. Vaqin kelajakda bu odamlarning kundalik hayotini soddalashtirishi va uni yanada qulayroq qilishi mumkin. Rivojlanishning keyingi bosqichi chet tillarini o'qitish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'lishi taxmin qilinmoqda. Ular har qanday joyda va istalgan vaqtda o'rganishga imkon beradi. Hozirda tijorat va notijorat tashkilotlar mutlaqo boshqa texnik usullardan foydalanadigan (va birlashtiradigan) dasturlarni ishlab chiq-

moqdalar. Ushbu maqolada muallif sun'iy intellekt nazariy ma'lumotlarni taqdim etish, o'rganilgan materialni birlashtirish, shuningdek, chet tillarini o'yin shaklida mashq qilish orqali chet tillarini o'rganishda qanday yordam berishini ko'rsatadi [1].

Tez suratlarda o'sayotgan texnologik taraqqiyot sharoitida ta'lim modernizatsiyani talab qilmoqdadi. Bu, ayniqsa, chet tillarini o'rganish sohasiga taalluqlidir, chunki so'nggi yillarda ularning ahamiyati va talabi juda oshdi. Shuni ta'kidlash mumkin, ushbu sohada sun'iy intellektdan (bundan buyon matnda SI deb yuritiladi) foydalanish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Masalan, Google ingliz tilini o'rganishda yordam beradigan Sementic o'yinini targ'ib qildi, unda foydalanuvchiga so'zlarni birlashtirish yoki ixtiro qilishda SI bilan raqobatlashish taklif etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ayni paytda sun'iy intellektning o'zi jadal rivojlanmoqda. SI tizimlari endi yetarlicha yuqori sifatli matn, audio va tasvirlarni yaratishi mumkin [4;44-b]. Ushbu maqola mavzusi kontekstida tizim tabiiy tillarni qanchalik yaxshi tushunishini bilish biz uchun muhimdir. Bu savolga hali aniq javob yo'q. Yuqorida aytib o'tilgan Semantic, odatda, turli xil tabiiy tillar bilan ishlash uchun ishlatiladigan to'liq o'qitiladigan End-to-End algoritmini qo'llaydi. Ya'ni, neyron tarmoq mustaqil ravishda leksemalar bilan ishlash modellarini yaratadi. Dastlab, neyron tarmoq tabiiy tillardan misollar yordamida o'qitilgan, bu yerda hamma uchun jumalar, iboralar yoki so'zlar tarjima, ma'no yoki boshqa semantik aloqa oldindan berilgan, masalan, implikasiya yoki savol-javob juftligi [2].

Hozirgi vaqtda eng katta va eng ilg'or til modeli GPT-3 hisoblanadi. U Amerika tadqiqotlari tomonidan taqdim etilgan Open air kompaniyasi tomonidan 2020-yil iyul oyida. GPT-3 175 milliard parametrga ega va 570 gigabayt matnda o'qitilgan. Taqqoslash uchun uning oldingi GP-2 1,5 milliard parametr bilan 100 baravar kichikroq edi. Bu kattalashtirish kutilmagan xatti-harakatlarga olib keladi: GPT-3 aniq o'qitilmagan vazifalarni ham bajarishi mumkin [4;65-b.]. Biroq bunday muhim yutuqlarga qaramay, sun'iy intellektning mazmunli dialog yaratish qobiliyati hali ham insonlarnikidan juda uzoqdir. Garchi SI oddiy til shakllanishining ma'nosini tushunishi, hatto javob berishi mumkin ularning so'zlariga ko'ra, u savollarni o'z talqinining so'zma-so'zligi bilan cheklangan. Kompyuter so'zlarning ta'rifini bilishi mumkin, ammo ularning ma'nosini kengroq kontekstda tushunmaydi [4].

Ya'ni, SI inson ega bo'lgan so'zga ijodiy munosabatda bo'la olmaydi. So'zga ijodiy munosabat eng muhimlaridan biridir, suhbatni aniq va aqlli olib borishga, suhbatdoshni yorqin fikr bilan ajablantirishga imkon beradigan mahorat bu odamlarga xosdir. Bu so'zlarning shakllanish yo'li, imlo modellari, stilistik kodlar, ritorik algoritmlardir. Bularning barchasi "so'z hissi"ni tashkil etadi, bu odamni o'z so'zining yaratuvchisiga aylantiradi, bu esa olingan bilim va ko'nikmalarni to'playdi adabiy (publisistik) matn bilan aloqa qilish demakdir [8;173–174-b.].

Shu bilan birga, u haqiqiy suhbatdoshga nisbatan bir qator afzalliklarga ega, ulardan biri javob berish tezligi. Bu his o'zaro ta'sirning spontanligi va teskari dinamikaga asoslangan virtual aqliy hujum yoki "kibersturm"ni amalga oshirish umumiy fikrlarni samarali to'plash, odam bilan o'zaro aloqada turli xil kechikishlar bo'lishi mumkin anglatadi [6;157-b.]. Ammo shuni unutmaslik lozimki, SI va uning asosida yaratilgan botlar faqat oddiy suhbatni qo'llab-quvvatlashi va faqat to'g'ri tanlangan kalit so'zlar doirasida munozara olib borishi mumkin [6;157-b.]. Umuman olganda, zamonaviy Botlarni intellektual deb atash qiyin. Ularni yaratish uchun ilg'or texnologiyalar qo'llanilishiga qaramay, mashinani o'rganish va NLP, ularning barchasi faqat ular uchun yaratilgan yuqori ixtisoslashgan vazifalarni bajarishga qodir [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Shuni ta'kidlash lozimki, SI haqiqiy suhbatdoshni almashtirishga urinmaydigan 2022-yil mart oyida foydalanuvchilarga taqdim etilgan Speak Lab ilovasi til gapirish klublari uchun maxsus yaratilgan. Ushbu ilovada faqat turli xil tadbirlar bo'yicha tavsiyalar berish uchun ishlatiladi. Tavsiyalar, o'z navbatida, foydalanuvchining til darajasi va sevimli mashg'ulotlariga asoslanadi. Yuqoridagilarni sarhisob qilsak, chet tillarini o'rganishda sun'iy intellektning roli bugungi kunda juda muhim, shu bilan birga, o'sishda davom etayotganini ta'kidlashimiz mumkin. SI bor chet tillarini o'qitish va o'qitishda katta imkoniyatlar mavjud. Biroq, hozirgi vaqtda uning ushbu sohadagi faoliyati cheklangan. Shuning uchun uni faqat eng samarali bo'lgan vazifalarda qo'llash va uni chet tillarini o'qitishda inson resursini to'liq almashtirishga urinmaslik tavsiya etiladi.

Dialog funksiyasi bilan nutq interfeysi – bu simulatsiya qilishga urinish qisman ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan virtual o'qituvchi bilan tildagi o'zaro munosabatlar sun'iy o'rnatishdir. Ushbu dialog tizimlari tabiiy tilda intuitiv muloqot qilish uchun mo'ljallangan oddiy chatbotlar prinsipi asosida ishlaydi. U oldindan belgilangan kalit so'zlar bilan tekshiriladi. Agar to'g'ri kalit so'z ishlatilgan bo'lsa, virtual o'qituvchi mos, oldindan tuzilgan javobni tanlaydi va beradi. Ma'lumotni kiritish va chiqarish yozma yoki ovoqli shaklda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, Duolingo til o'rganish ilovasining ingliz tilidagi versi-

yasi yozma ma'lumotlarni kiritishga javob beradigan chatbot bilan ishlaydi. Shuningdek, Duolingo GPT-4-ni o'z xizmatiga birlashtirdi, bu sizga to'g'ridan to'g'ri ilovada turli mavzularda neyron tarmoq bilan aloqa qilish imkonini beradi. Muammo shundaki, aksariyat tizimlar javob beradi faqat oddiy kalit so'zlar uchun va grammatikani baholashda kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligi yoki vaziyatga mos darajada yetarliligi bilan qiyinchiliklarga duch keladi,. Bu interaktiv-o'quv stemlari oldindan aytib beradigan dialoglar bilan aniq belgilangan faqatgina bunday sharoitda ular o'quv mazmunini yetkazishlari, savollar berishlari va oldindan belgilangan fikr-mulohazalarni taqdim etishlari mumkin [1].

Agentlik tizimlariga ega virtual ta'lim muhiti imo-ishoralar va yuz ifodalarni o'z ichiga olgan puxta ishlab chiqilgan avatarlarga ega dialog tizimlari eng ilg'or ishlanmalarni ifodalaydi. Chet tilini o'rganish bilan bog'liq muammo shundaki, agentlik tizimi bilan o'zaro ta'sir faqat ishlamay ishlaydi, agar talabalar tizim ishlab chiquvchilari oldindan ko'ra olgan savol-javoblarni kiritsalar. Dastur ssenariylaridan tashqari, chatbotlar va agent tizimlari bilan dialoglar beqaror, nomuvofiq, buzilishlarga moyil va chet tilini o'rganuvchilar uchun namuna bo'la olmaydi [1].

Tahlil va natijalar. Katta ma'lumotlarni tahlil qilish so'nggi paytlarda SI samaradorligi katta hajmdagi saqlash imkoniyatlari tufayli keskin oshdi. Algoritmalar va statistik modellar sifatida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash chet tillarini o'qitishda, masalan, tarjimalarni amalga oshirishda va tuzishda muvaffaqiyatli ishlatilishi mumkin, asosan, matn korpuslariga asoslangan lug'atlarda. Chet tili muzlatilgan mavhum tizim sifatida emas, balki uning hayotda qanday ishlashi bilan o'rganiladi. Ma'lumki, ma'lumotni qayta ishlash uchun siz har doim ham va'da qilgan narsani qidirmaydigan va bermaydigan berilgan algoritimga tayanishingiz kerak. Katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish Watson (IBM) kabi kognitiv xizmatlar va superkompyuterlarni takomillashtirishga yordam beradi, shuning uchun har bir dialog qayd etiladi. Ammo ma'lumotlarni himoya qilish nuqtayi nazaridan, bu juda qizil bayroq va yaqin kelajakda sinfda buni e'tiborsiz qoldirish imkonsiz bo'lib qoladi [1].

Chet tilini o'rganish uchun sun'iy intellektdan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri bu o'rganish usulini o'zgartirishdir. Sun'iy intellektdan foydalanadigan ilovalar o'zlarining bilim darajalariga asoslanib, foydalanuvchilarni o'qitish uchun to'g'ri tarkibga mos keladigan tarzda ishlab chiqilgan. Masalan, Duolingo ilovasi foydalanuvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun dastlabki sinovlarni o'tkazadi. Ushbu ilovalar o'quv jarayonini uchta oddiy bosqichga ajratadi. U ma'lumotlar va raqamlarni o'lchaydi, so'ngra ushbu natijalarga moslashadi va nihoyat shaxsiylashtirilgan ma'lumotlarni taqdim etadi [3]. Ikkinchi afzallik vaqtini tejash. Qisqartma mavjud, ip – "faol ishtirok etish va amaliyot" degan ma'noni anglatuvchi APP deb nomlangan tillarni o'rganishda foydalaniladi. Ushbu ilovalar shunday dasturlashtirilganki, o'rganish har bir foydalanuvchi uchun qulay formatda taqdim etiladi [3]. Siz chet tilini nafaqat tanish usulda, balki yangi texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellekt yordamida ham mashq qilishingiz mumkin. Bunday o'yinlardan biri Semantris o'yini – sun'iy intellektga qarshi o'yin. Bunda qiyinchilik darajalaridan birini tanlash mumkin [2].

Arja rejimining mohiyati. O'yinchining oldida ingliz tilidagi so'zlar ustuni, bittasi ta'kidlangan. Uning vazifasi tizimning assotsiatsiyalari reytingida ustundagi boshqa barcha so'zlarga qaraganda yuqori bo'lgan bunday assotsiatsiyani ishlab chiqishdir [2]. Yana biri g'isht, bu yerda siz ham uyushmalar bilan tanishishingiz kerak, ammo o'yin tartibi biroq o'zgaradi. O'yinchi so'zni yozadi va o'yin o'zi o'yin maydonidagi qaysi assotsiatsiya unga yaqinroq ekanligini o'ylaydi. Uyushma tanlanganida, o'yin ushbu so'z bilan blokni va uning yonidagi bir xil rangdagi barcha bloklarni olib tashlaydi [2]. Arkada asosiy qiymat – bu tezlik. Yangi so'zlar doimo yuqoridan tushadi, shuning uchun uyushmalar bir necha soniya ichida tezda ixtiro qilinishi kerak. Qizig'i shundaki, o'yin qiyinchilik darajasini hisobga oladi. Dastlab, elementary darajasida o'rganilgan oddiy so'zlar mavjud bo'ladi. Ammo qanchalik uzoq bo'lsa, shunchalik qiyin bo'ladi. Bir yarim daqiqadan so'ng semantik maydon oshadi va iboralar murakkablashadi. Murakkablikni qo'shadigan narsa shundaki, siz bitta ildizli so'zlardan foydalana olmaysiz. O'rganish nuqtai nazaridan, bu faollashtirishning ajoyib namunasi, ya'ni passiv lug'at. Ichida o'yin konsentratsiyasining lahzalari miya "normal rejimda" odam shunchaki o'ylamaydigan uyushmalarni topadi. Bundan tashqari, o'yin ona tili darajasiga qadar har qanday bilim darajasi uchun foydali bo'ladi [2]. 'G'isht' rejimi uyushmalar haqida o'ylashga qaratilgan. Biror kishi kirish satrida so'zni yozadi va tizim o'yin maydonida o'zi bilan eng yaqin assotsiatsiyani mustaqil ravishda tanlaydi. Ya'ni, o'yinchi sun'iy intellekt qaysi so'zni tanlashini oldindan bilmaydi. Blok minorasi yuqori chegaraga yaqinlashganda, to'g'ri g'ishtlarni "urish" muhimdir. Shuning uchun, siz maydondagi barcha so'zlarni birdaniga hisobga olishingiz kerak. Ma'lum bo'lishicha, o'yinchi maydondagi barcha so'zlarning ma'nosini tushunishi va o'ylashga harakat qilishi kerak bir so'zga yaqin,

ammo boshqalardan uzoq bo'lgan birlashma. O'yinchi strategik fikrlashi kerak, chunki nafaqat bloklarni olib tashlash, balki keyingi harakatda ularning qanday tushishini aniq baholash ham muhimdir [2].

Xulosa. Ilovalardan foydalanishning tobora ommalashib borayotgani aniqlandi chet tillarini o'rganish uchun sun'iy intellekt bilan, so'z boyligini oshirish qimmatli qog'ozlar, nutq ko'nikmalarini takomillashtirish. O'yinlardan foydalanishning mashhur emasligi qayd etildi chet tillarini o'rganish vositasi sifatida sun'iy intellektga qarshi o'yinlarda o'rganilgan materialni sinfda mashq qilish uchun foydalanish g'oyasi taklif etiladi. Ammo, Semantris–1–bu ingliz tilini o'rganishni darslar uchun qo'shimcha vosita sifatida diversifikatsiya qilish uchun ajoyib imkoniyat. Semantrisdan foydalanish o'qituvchi bilan mashg'ulotlar, grammatik mashg'ulotlar va yangi so'zlarni o'rganish zaruratini bekor qilmaydi. Xulosa shuki, yaqin kelajakda o'qituvchilarni sun'iy intellekt bilan to'liq almashtirish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Официальный интернет-портал Института имени Гёте [электронный ресурс]. Институт им. Гёте, Москва, 2016. <https://www.goethe.de/ins/ru/ru/index.html>. Дата доступа: 13.02.2016.

(2). Официальный информационный интернет-портал Habr [электронный ресурс]. Москва, 2006, <https://habr.com/ru/all/>. Дата доступа 26.05.2006.

(3). Портал знаний в области искусственного интеллекта Neuronus [электронный ресурс]. Москва, 2013, <https://habr.com/ru/all/>. Дата доступа 23.05.2013.

(4). Daniel Zhang, Saurabh Mishra, Erik Brynjolfsson, John Etchemendy, Deep Ganguli, Barbara Grosz, Terah Lyons, James Manyika, Juan Carlos Niebles, Michael Sellitto, Yoav Shoham, Jack Clark, and Raymond Perrault, "The AI Index 2021 Annual Report", AI Index Steering Committee, Human-Centered AI Institute, Stanford University, Stanford, CA, March 2021, p. 110.

(5). Semantris от Google: как ИИ помогает учить английский играючи [электронный ресурс]. Сообщество IT-специалистов Хабр [официальный сайт]. URL: <https://habr.com/ru/company/englishdom/blog/520618/> (дата обращения: 02.02.2022).

(6). Есионова Е.Ю. Искусственный интеллект как альтернативный ресурс для изучения иностранного языка. Гуманитарные и социальные науки. 2019, № 3.

(7). Искусственный интеллект и язык [электронный ресурс]. Бюро переводов Prima Vista [официальный сайт]. URL: <https://www.primavista.ru/blog/2016/03/22/iskusstvennyiy-intellekt-i-yazyik> (дата обращения: 01.02.2022).

(8). Мурашов А.А., Шматко Н.А. Двусмысленность: речевая ошибка и «языковая игра». Уральский филологический вестник. Серия: язык. система. личность: лингвистика креатива. 2016. № 2; Перспективы чат-ботов в 2020 году [электронный ресурс]. Проект HUB [официальный сайт]. URL: <https://yandex.ru/turbo/hub.forklog.com/s/perspektivychat-botov-v-2020-godu> (дата обращения: 04.02.2022).

Tilegenov Askarboy Tulegenovich (O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

Qoraqalpog'iston filiali direktori, professor)

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA YOSHLARDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida yoshlarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari o'rganilib chiqilgan va bu bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarda milliy g'oyani shakllantirishning yo'llari ko'rsatilib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy axborot texnologiyalari, milliy g'oya, didaktik imkoniyatlar, sharqona ta'lim-tarbiya, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy jarayon, xalqi mentaliteti, yoshlarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish.*

Тилегенов Аскарбой Тулегенович (директор Каракалпакского филиала научно-исследовательского института педагогических наук Узбекистана, профессор)

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ У МОЛОДЕЖИ СРЕДСТВАМИ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

***Аннотация.** В данной статье изучаются дидактические возможности формирования идеи национальной независимости у молодежи с помощью современных информационных технологий и даются рекомендации. Также в статье показаны пути формирования национальной идеи среди молодежи.*

***Ключевые слова:** современные информационные технологии, национальная идея, дидактические возможности, восточное образование и воспитание, идейно-политический, учебно-воспи-*

тательный процесс, менталитет народа, формирование идеи национальной независимости у молодежи.

Tilegenov Askarboy Tulegenovich (Director of the Karakalpak Branch of the Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan, Professor)

DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMING THE IDEA OF NATIONAL INDEPENDENCE AMONG YOUNG PEOPLE BY MEANS OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES

Annotation. *This article examines the didactic possibilities of forming the idea of national independence among young people with the help of modern information technologies and makes recommendations. The article also shows ways to form a national idea among young people.*

Key words: *modern information technologies, national idea, didactic opportunities, oriental education and upbringing, ideological, political, educational process, mentality of the people, formation of the idea of national independence among young people.*

Kirish (Introduction). Oliy ta'lim tizimi modernizatsiyasi ta'lim muassasalari faoliyati jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirishga qaratilgan harakat bir qator xorij ta'lim tajribasidagi (differentsial, integrativ va masofaviy ta'lim) innovatsiyalarni mujassam etgan holda o'ziga xos, konseptual negizda, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etishga qaratilgan. Chunki ularning barchasi mohiyati, mazmuni, tabiati, shakli va ko'lamiga ko'ra tizimlilik xarakteriga ega bo'lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, yechimi topiladi. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya ishida ham tizimli yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutadi.

Alohida e'tirof etib o'tish lozimki, ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat to-bora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mut-laqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida yoshlarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, albatta, o'zbek xalqi mentaliteti bilan ham bevosita bog'liqdir. Bunda milliy mentalitetimizga xos bo'lgan quyidagi jihatlarni alohida qayd etish lozim bo'ladi:

- sharqona ta'lim-tarbiya;
- vazminlik, sabr-toqat va qanoat;
- xokisorlik, kamtarinlik va halimlik;
- mehr-oqibat, sadoqat, vafodorlik;
- haqiqat, adolat va odillik;
- minnatdorlik, qanoat va sofdillik;
- mehnat, yaratuvchanlik va bunyodkorlik va h.k.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Adabiyotlar tahliliga ko'ra aytishimiz mumkinki, milliy istiqlol g'oyasining xalq og'zaki ijodidagi talqini o'zining ma'lum bir tadrijiy bosqich-lariga egadir. Chunki yoshlarda milliy istiqlol g'oyasi zamirida yo'g'rilgan milliy iftixor va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish sohasi ijtimoiy-ma'naviy jihatdan juda qadimgi ildizlariga egadir. Buni esa qu-yidagilarda kuzatish mumkin bo'ladi:

•qadimgi ta'lim-tarbiya va vatanga sadoqat, xalqparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga oid qarashlar (“Avesta” va O'rxun-Enasoy bitiklaridagi qarashlar);

•o'rta asrlardagi qarashlar (Quroni karim, Hadisu sharifga oid tafsirlar, kalom, fiqh, tasavvufga oid ta'limotlar, mumtoz adabiyot vakillari, qomusiy allomalar, buyuk davlat allomalari ilgari surgan fikrlar);

•yangi davrgi oid qarashlar (jadidlar va sho'ro davrining ilg'or o'zbek pedagoglari bildirib o'tgan fikrlar);

•mustaqillik davridagi qarashlar (ta'lim, tarbiya, psixologiya, ma'naviyatga va mafkuraga oid qarashlar).

Aytish o'rinliki, agar qadimgi qarashlarda insonga xos donolik – donishmandlik g'oyalari ustivor bo'lsa, o'rta asrlar qarashlarida komil inson g'oyasi ustivorligi kuzatiladi. Jadidlar qarashlarida esa, dastav-val, savodli inson asosiy o'rin egallaganligi kuzatiladi. Sho'rolar davrida esa kommunizm quruvchisini g'oyaviy tarbiyalashdan kelib chiqadigan sinfiy xarakterdagi shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad sifatida belgi-langani edi. Mustaqillik davrida esa barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ustivor yo'nalish sifatida shakl-landi.

Demak, xalq og'zaki ijodi asosida yoshlarga milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishning tarixiy ildiz-lariga nazar tashlash, ta'lim tizimini modernizatsiyalash, globallashuv jarayonlarida axborotlarning tez es-ki-rayotgan jadal oqimlari sharoitida yoshlarning intellekti, dunyoqarashi, saviyasi, madaniy darajasi, ma-horati va kreativ qobiliyatlariga nisbatan talablarning ortib borayotganligi jamiyat oldiga har bir pedagogda

zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali didaktik tizimni loyihalashtirish tarbiyaviy faoliyat mazmunini ro'yobga chiqarishga qulay sharoitlarni yaratish muammosini qo'ymoqda. Chunki bunday ehtiyoj barkamol shaxsni rivojlantirishning muhim sharti bo'lishi bilan birga zaruriy belgisi hamdir.

Shundan kelib chiqib, yoshlarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlarda bilish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday texnologiyalar sirasiga muammoli-izlanish, evristik izlanish, dialog, bahs-munozara, ilustrativ-tushuntirish kabilar kiradi. Mazkur texnologiyalarning xarakteridan kelib chiqqan holda mashg'ulotlarning tarkibi hamda unda foydalaniladigan materiallar tanlanadi.


Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tajriba-sinov jarayonida ta'limning qator innovatsion texnologiyalaridan fanlarning hamda mavzularning ijtimoiy-madaniy xarakteridan kelib chiqqan holda foydalandik. Ular: tabaqalashtirigan ta'lim texnologiyalari; o'yin texnologiyasi; bekatlar bo'yicha o'qitish texnologiyasi; multimedia texnologiyasi; keys texnologiyasi; loyihalar uslubi; onlayn ta'lim texnologiyasi; teatrlashtirilgan darslar; seminar tipidagi darslar; ma'ruza va bahs-munozara mashg'ulotlari; evristik izlanish xarakteridagi mashg'ulotlar; konferensiya tipidagi mashg'ulotlar; integratsiyalashgan darslar; Veb-kvest texnologiyasi; interaktiv o'quv texnologiyasi; hamkorlikka o'rgatish texnologiyasi; rivojlantiruvchi texnologiya va boshqalar.

Shuningdek, mazkur mashg'ulotlarda juftliklarda ishlash, yakka tartibda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, jamoaviy munozara metodlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zamonaviy axborot texnologiyalar vositasida ta'limiy tarbiyaviy faoliyat jarayonini tashkil etish yo'llari ham turli-tumandir. Har bir professor-o'qituvchi ushbu vaziyatlarni o'zining kasbiy mahorati, bilim darajasi va mashg'ulotlarning mazmunidan kelib chiqqan holda turlicha yondashadi. Talabalarni ishchan muloqotga jalb etish, tadqiqotchilikka undash, dialogga asoslangan muammoli-izlanuvchan vaziyatlarni hosil qilish shular jumlasidandir. Mazkur vaziyatlarda talabalar jarayonning asosiy subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishlari kerak. Ular o'z oldilariga aniq maqsadlarni qo'ya olishlari va ushbu maqsadlarga erishish yo'llarini izlashlari lozim.

Shuningdek, talabalar professor-o'qituvchilar tomonidan ular oldiga qo'yilgan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarini mustaqil yechishga intilishlari muhim ahamiyatga ega. Talabalar o'zlarining kreativ yondashuvlaridan kelib chiqib faoliyatlarini natijalarini tahlil, tashxis, nazorat qila olishlari va munosib baholay olishlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Professor-o'qituvchilar talabalarda mavzu mohiyatini mustaqil egallashga nisbatan rag'bat uyg'ota olishlari zarur.

Izlanuvchilikka asoslangan mashg'ulotlarda asosiy o'rinni qo'yilgan muammoni echishga qaratilgan vaziyatlar va mazkur muammoni optimal echish yo'llarining talabalar tomonidan o'zlashtirilishi egallaydi. Shuning uchun ham bunday mashg'ulotlarni tashkil etish orqali professor-o'qituvchilar talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlanishlari uchun qulay pedagogik muhit yaratadilar.



Ta'lim-tarbiya mazmuniga o'tmish ajdodlarimiz o'g'itlari, xalqimiz milliy qadriyatlaridan foydalanib, milliy istiqloq g'oyasini singdirishda integrativ ta'lim shaklidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bizning fikrimizcha, o'rganilayotgan dostonning ba'zi bir jihat va xususiyatlarini lavhalar (fragment) shaklida, mantiqan bog'langan va tizimlashtirilgan ma'lumotlar yordamida milliy qadriyatlar, ma'naviy asoslarni tiklash, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari", deb belgilangan milliy g'oyani, Uchinchi Renessansni ro'yobga chiqarish maqsadlari bilan hamohang tarzda talabalarga yetkazish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Integrativ ta'lim metodi yordamida o'quv jarayonini amalga oshirishga tayyorlash ikkita o'zaro aloqador bo'lgan, chambarchas bog'langan bosqichni o'z ichiga oladi: 1) noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanib "Talabalarda milliy istiqloq g'oyasini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish" mavzusidagi dars namunasini loyihalashtirish;

2) mazkur mavzu asosida tashkil etiladigan o'quv jarayonini loyihalashtirishda bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlash.

Mazkur loyihalarda darsning ta'limiy, rivojlantiruvchi hamda tarbiyaviy vazifalarini echishning optimal yo'llarini izlab topish va qo'llash nazarda tutiladi. Bunday loyihalarni tuzishda ta'lim jarayonida mavzu doirasida tashkil etiladigan darslar va darsdan tashqari vaziyatlarni hisobga olish lozim. Ushbu tizimda asosiy didaktik maqsaddan kelib chiqqan holda turli tipdagi va ko'rinishdagi innovatsion ta'lim metodlaridan foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda, talabalar bilan amalga oshiriladigan mavzu doirasidagi darsdan tashqari ta'limiy jarayonlar loyihasini ham tuzish mumkin. Integrativ ta'lim metodi yordamida dars va darsdan tashqari faoliyat jarayonini loyihalashning samarali jihatlari shundaki, o'qituvchining o'quv faoliyat jarayonini qanchalik aniq tasavvur etishi loyiha modelida o'z ifodasini topadi. Mazkur loyihalarda talabalar nimani qat'iy o'zlashtirishlari zarurligi, qaysi axborotlar bilan tanishishlari lozimligi, nimani bajara olishlari nazarda tutilishi, nimani anglashlari muhimligi kabi holatlar aniq ifodalab beriladi.

Biz ilmiy izlanishlarimiz jarayonida oldimizga quyilgan ta'lim samaradorligini muvaffaqiyatli, aniq tashkil etilgan o'quv mavzulariga asoslangan loyihalar asosida tashkil etishga jiddiy ahamiyat qaratdik. Chunki muayyan mavzuga asoslangan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalari sirasiga tadqiqotchilik, mustaqil izlanish, vaziyatlarni loyihalashtira olish, modelashtirish, konstruksiyalash usullaridan foydalanilgani tarbiyaviy ta'limiy faoliyatning didaktik samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Bu usullar talabalarning dunyoqarashi, ilmiy tafakkurlari va tasavvurlarini kengaytirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur holatni quyidagicha tasvirlash mumkin:

Mavzuga asoslangan dars loyihasining tarkibi.

Darsning tartib raqamlari. 1, 2, 3, 4-dars kabi.

I. O'tiladigan mavzuning nomi.

Shu mavzuda o'tiladigan darsning maqsadi va tadrijiy tizimi.

Darsning turi.

Darsda amal qilinadigan umumiy metodlar majmuyi. Jumladan, reproduktiv yoki mahsuldor metodlar alohida-alohida tavsiflangan holda beriladi.

Darsda qo'llaniladigan texnik vositalar hamda foydalaniladigan axborot manbalari.

Mazkur turkumdagi darslarda tashkil etiladigan nazorat ishlarining turlari.

II. O'quv jarayonini dolzarblashtirish.

Darsda talabalarga taqdim etiladigan bilimlar, tushunchalar, dalillar va harakat usullari.

Mustaqil ish turlari.

III. Talabalarda shakllantiriladigan yangi tushunchalar va harakat usullari.

Yangi tushunchalar va harakat usullari.

Asosiy va ikkinchi darajali muammolar.

Mustaqil ish turlari.

IV. Amaliyotda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar.

Mustaqil ish turlari.

Fanlararo aloqadorlik imkoniyatlari.

V. Uy vazifasi.

Takrorlash.

Mustaqil ish turlari.

Mazkur talablar asosida darsning didaktik tarkibini ham loyihalashtirish imkoniyati vujudga keladi. Uning qismlari talabalarga taqdim etiladigan bilimlarning elementlari, harakat usullari, mustaqil ish turlari, o'qitish mazmuni va usullarini o'zida mujassamlashtiradi. Biroq loyihalar qat'iy qolipga ega bo'lishi mumkin emas. O'qituvchining ijodkorlik asosida yondashishi natijasida loyihalar takomillashib murakkab ko'rinish kasb etib boradi. O'quv jarayonini loyihalashtirishga qo'yilgan mazkur talablar o'qituvchilarning ijodiy izlanishlari uchun yo'naltiruvchilik vazifasini o'taydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida yoshlarda milliy istiqloq g'oyasini singdirishda ular uchun maroqli bo'lgan texnologik ta'sir mexanizmlarini mavzu mohiyatidan kelib chiqib, ishlab chiqish samaradorlik kafolatidir. Shunga ko'ra, texnologik harakat qonuni zahirida oddiy texnologik o'zaro ta'sir, texnopedagogik fenomenning rivojlantirishning zaruriy shart-sharoitlari va poydevori bo'lgan dastlabki elementlar yoki boshlang'ich shakllaridan foydalangan holda texnologiyaning quyidagi muhim belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin.

–**predmetlilik** (xalq og'zaki ijodi, milliy istiqloq g'oyasi nazariyasiga oid barcha atama, tushuncha, kategoriya va ta'kidlar bir predmetli yoki muayyan sohaga taalluqli bo'lishi kerak);

–**bir-biriga moslik yoki to'liqlik** (o'rganilayotgan ob'ekt tili, uning asosiy tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari, modellari va hokozolar);

–**aniqlik** (obyekt ma'nosini ikki aspektida: empirik va semantik jihatdan ochib beradi);

–**tekshiruvchanlik** (nazariyaning real obyektga moslik darajasini tekshiradi);

–**haqqoniylik** (pedagogik texnologiya nazariyasining asosiy ta'kidlari ishonchli bo'lishi zarur);

–**tizimlilik** (texnopedagogik qonunlarni tabaqalashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi aloqalari yordamida yagona tizimga birlashtirish).

Yuqorida qayd etilgan jihatlarga tayangan holda, ta'lim jarayoni tashkil etilsa, mustaqil dunyoqarash, sog'lom fikrlash, izlanuvchanlik, yangilikka intiluvchan yosh avlod vakillarini tarbiyalashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Qosimova Z.X. Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (oliy o'quv yurtlari ma'naviy-ma'rifiy ishlari misolida). Pedagogika fan. nomz. ...diss., T., 2004, 245 bet.

(2). Qurbanboyev Q.Q. Talabalar ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. nomz. ...diss., T., 1998, 241 bet.

(3). Quronov M. Biz anglayotgan haqiqat. T., "Ma'naviyat", 2008, 152-bet.

(4). Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz... T., "Ma'naviyat", 2014, 315-bet.

(5). Quronov M. Milliy tarbiya. T., "Ma'naviyat", 2007, 240 bet.

(6). Quronov M. Ezgu g'oyalar ro'yobi. T., «Ma'naviyat», 2011, 160 bet.

(7). Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped. fan. dokt. ...diss., T., 1998, 316 bet.

(8). Quronov M., Mustafayev Sh. G'oyaviy-estetik tarbiya. "Ommaviy madaniyat ta'siriga qarshi kurashning pedagogik omili". "SamDU ilmiy axboratnomasi", 2013, № 2, 65–68-betlar.

(9). Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. T., "Akademika", 2008, 14-bet.

Ягьяева Эльвина Бахтияровна (докторант Ферганского государственного университета, преподаватель английского языка; eyagyaeva@mail.ru, e.yagyaeva@pf.fdu.uz;

ORCID ID 0000-0001-8087-7459; UDK:378.147.88)

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО МЕТОДА

Аннотация. В статье рассматриваются методические рекомендации по организации самостоятельной работы студентов в процессе обучения английскому языку на основе индивидуально-дифференцированного метода. Проводится анализ существующей литературы и методов, представлены рекомендации по применению данного метода. Сделаны выводы об эффективности использования индивидуально-дифференцированного метода для организации самостоятельной работы студентов при обучении английскому языку в контексте высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: самостоятельная работа студентов, индивидуально-дифференцированный метод, обучение английскому языку, методические рекомендации, организация самостоятельной работы

INDIVIDUAL TABAQALASHTIRILGAN USUL ASOSIDA INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Annatsiya. Maqolada individual tabaqalashtirilgan usul asosida ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ko'rib chiqiladi. Mavjud adabiyotlar va usullarni tahlil qilish amalga oshirildi, ushbu usuldan foydalanish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi. O'zbekiston oliy ta'lim kontekstida ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish uchun individual tabaqalashtirilgan usuldan foydalanish samaradorligi to'g'risida xulosalar chiqarildi.

Kalit so'zlar: talabalarining mustaqil ishi, individual tabaqalashtirilgan usul, ingliz tilini o'qitish, uslubiy tavsiyalar, mustaqil ishlarni tashkil etish.

METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS ON THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH ON THE BASIS OF AN INDIVIDUALLY DIFFERENTIATED METHOD

Annotation. The article discusses methodological recommendations for the organization of independent work of students in the process of teaching English on the basis of an individually differentiated method. The analysis of the existing literature and methods is carried out, recommendations for the use of this method are presented. Conclusions are drawn about the effectiveness of using an individually differentiated method for organizing independent work of students in teaching English in the context of higher education in Uzbekistan.

Keywords: independent work of students, individually differentiated method, English language teaching, methodological recommendations, organization of independent work.

Введение. Самостоятельная работа студентов является важным компонентом образовательного процесса в высших учебных заведениях Узбекистана. В условиях интеграции страны в мировое образовательное пространство и растущей потребности в специалистах, владеющих английским языком, эффективная организация самостоятельной работы при обучении английскому языку приобретает особую значимость. Одним из перспективных подходов к решению данной задачи является применение индивидуально-дифференцированного метода, который предполагает учет индивидуальных особенностей и потребностей студентов, а также дифференциацию учебного материала и заданий в соответствии с уровнем подготовки и способностями обучающихся [1].

Обзор методов и литературы. Проблема организации самостоятельной работы студентов в процессе обучения иностранному языку нашла отражение в работах узбекских исследователей. Так, А.А.Абдувахобов [2] подчеркивает необходимость развития навыков самостоятельной работы у студентов для повышения эффективности обучения английскому языку. М.Х.Рахимова [3] отмечает важность использования интерактивных методов и технологий для организации самостоятельной работы студентов.

Индивидуально-дифференцированный метод как один из подходов к организации самостоятельной работы студентов также находит отражение в научных публикациях узбекских авторов. Н.Х.Рашидов [4] рассматривает возможности применения данного метода в контексте обучения английскому языку в вузах Узбекистана. Ш.С.Сайфуллаева [5] отмечает эффективность индивидуально-дифференцированного подхода для развития коммуникативной компетенции студентов.

Вместе с тем, несмотря на наличие исследований, посвященных проблеме организации самостоятельной работы студентов и применению индивидуально-дифференцированного метода, разработка конкретных методических рекомендаций с учетом специфики высшего образования Узбекистана требует дальнейшего изучения.

Результаты. На основе анализа существующих подходов и с учетом особенностей обучения английскому языку в вузах Узбекистана были разработаны следующие методические рекомендации по организации самостоятельной работы студентов на основе индивидуально-дифференцированного метода:

Проведение диагностики индивидуальных особенностей и уровня подготовки студентов. Рекомендуется использовать тестирование, анкетирование, беседы для выявления языкового уровня, стиля обучения, мотивации и интересов студентов. Полученные данные служат основой для дифференциации заданий и материалов.

Разработка дифференцированных заданий и материалов в соответствии с уровнем подготовки и индивидуальными особенностями студентов. Задания могут различаться по уровню сложности, объему, тематике, формату выполнения (письменные, устные, онлайн и т.д.). При подборе материалов необходимо учитывать их актуальность, аутентичность, соответствие интересам и потребностям студентов.

Применение различных форм и методов самостоятельной работы. Целесообразно сочетать индивидуальные, парные и групповые формы работы, использовать интерактивные методы (проектная деятельность, кейс-метод, ролевые игры и др.), внедрять современные технологии (онлайн-платформы, мобильные приложения и т.д.). Важно обеспечить разнообразие видов деятельности для поддержания мотивации студентов.

Обеспечение поддержки и обратной связи со стороны преподавателя. Рекомендуется проводить регулярные консультации, предоставлять комментарии и рекомендации по выполнению заданий, использовать различные каналы коммуникации (очные встречи, онлайн-форумы, электронная почта и др.). Конструктивная обратная связь способствует повышению эффективности самостоятельной работы студентов.

Осуществление мониторинга и оценки результатов самостоятельной работы. Необходимо регулярно отслеживать прогресс студентов, использовать различные формы контроля (тесты, опросы, портфолио и др.), учитывать самооценку студентов. Мониторинг и оценка позволяют своевременно выявлять проблемы и вносить коррективы в процесс организации самостоятельной работы.

Анализ и обсуждение. Представленные методические рекомендации по организации самостоятельной работы студентов на основе индивидуально-дифференцированного метода направлены на повышение эффективности обучения английскому языку в вузах Узбекистана. Анализ предложенных рекомендаций позволяет выделить ряд преимуществ данного подхода.

Во-первых, индивидуально-дифференцированный метод учитывает индивидуальные особенности и потребности студентов, что способствует повышению мотивации и вовлеченности обучающихся в процесс самостоятельной работы [6]. Дифференциация заданий и материалов в соответствии с уровнем подготовки и интересами студентов позволяет создать оптимальные условия для развития языковых навыков и коммуникативной компетенции [7].

Во-вторых, применение различных форм и методов самостоятельной работы, включая интерактивные и технологические решения, способствует разнообразию учебной деятельности и поддержанию интереса студентов к изучению английского языка [8]. Сочетание индивидуальных, парных и групповых форм работы позволяет развивать не только языковые навыки, но и навыки сотрудничества, коммуникации и критического мышления [9].

В-третьих, обеспечение регулярной поддержки и обратной связи со стороны преподавателя является важным фактором эффективности самостоятельной работы студентов. Своевременные консультации, комментарии и рекомендации помогают студентам преодолевать трудности, корректировать ошибки и достигать поставленных целей обучения [10].

Вместе с тем, реализация индивидуально-дифференцированного метода в организации самостоятельной работы студентов требует от преподавателей значительных временных и трудовых затрат на разработку дифференцированных заданий и материалов, проведение диагностики, мониторинг и оценку результатов. Это необходимо учитывать при планировании учебного процесса и распределении нагрузки преподавателей.

Кроме того, эффективность предложенных рекомендаций может зависеть от ряда факторов, таких как уровень подготовки студентов, их мотивация и готовность к самостоятельной работе, доступность необходимых ресурсов и технологий. Поэтому при внедрении индивидуально-дифференцированного метода необходимо учитывать специфику конкретной учебной ситуации и адаптировать рекомендации в соответствии с потребностями и возможностями студентов и вуза.

В целом, представленные методические рекомендации могут служить основой для совершенствования процесса организации самостоятельной работы студентов при обучении английскому языку в вузах Узбекистана. Дальнейшие исследования и практический опыт применения индивидуально-дифференцированного метода позволят расширить и уточнить предложенные рекомендации, а также разработать конкретные методические материалы и ресурсы для их реализации.

Выводы. Таким образом, индивидуально-дифференцированный метод является эффективным подходом к организации самостоятельной работы студентов в процессе обучения английскому языку в вузах Узбекистана. Представленные методические рекомендации, включающие диагности-

ку индивидуальных особенностей студентов, разработку дифференцированных заданий и материалов, применение различных форм и методов самостоятельной работы, обеспечение поддержки и обратной связи, мониторинг и оценку результатов, могут быть использованы преподавателями английского языка для повышения эффективности самостоятельной работы студентов.

Дальнейшие исследования могут быть направлены на изучение специфики применения индивидуально-дифференцированного метода в условиях дистанционного и смешанного обучения, разработку конкретных методических материалов и ресурсов с учетом потребностей студентов узбекских вузов, а также на изучение возможностей интеграции данного метода с другими подходами и технологиями обучения английскому языку.

Список использованной литературы

- (1). Унт, И.Э. Индивидуализация и дифференциация обучения [текст]. М., «Педагогика», 1990, 192 с.
- (2). Абдувахобов, А.А. Самостоятельная работа студентов как важный фактор повышения эффективности обучения английскому языку [текст]. «Молодой ученый», 2016, № 10, с. 1120–1122.
- (3). Рахимова, М.Х. Интерактивные методы организации самостоятельной работы студентов при обучении английскому языку [текст]. «Вестник науки и образования», 2019, № 19-2, с. 48–51.
- (4). Рашидов, Н.Х. Индивидуально-дифференцированный подход в обучении английскому языку студентов вузов Узбекистана [текст]. «Педагогическое образование и наука», 2020, № 2, с. 145–149.
2. Normal elementlarni ajratuvchi optimal gipertekslilik qurishda tayanch vektorlar usulidagi anomal xatoni kamaytirish uchun dual optimallashtirish masalasining matematik modeli yaratildi.
3. Tayanch vektorlar (TVM) modelining to‘g‘ri tasniflash ishonchlilik koeffitsiyentini hisoblash usuli taklif etildi va berilgan korpus uchun hisoblab chiqildi.

4. O‘zbek tilidagi matnlarni sentimental tahlil qilishda tayanch vektorlar usuli (TVM) bilan qaror qabul qilish boshqa usullar (logistik regressiya, rekurrent va konvolutsion neyron tarmoq modellari) bilan taqqoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] .Barbierato E, Gatti A. The Challenges of Machine Learning: A Critical Review. Electronics. 2024; 13(2), p. 416–446.
- [2] .Lagemann K., Lagemann, C., Taschler, B., Mukherjee, S. DL of causal structures in high dimensions under data limitations. Nat. Mach. Intell. 2023, 5, p. 1306–1316.
- [3] .Sanatbek Gayratovich Matlatipov, Jaloliddin Rajabov, Elmurod Kuriyozov and Mersaid Aripov. 2024. ABSA: Aspect-Based Sentiment Analysis for the Uzbek Language. In Proceedings of the 3rd Annual Meeting of the Special Interest Group on Under-resourced Languages @ LREC-COLING 2024, p. 394–403.
- [4] .Y.Chen and S.Skiena, «Building Sentiment Lexicons for All Major Languages», Proceedings of the 52nd Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (Volume 2: Short Papers), pp. 383–389, 6, 2014.
- [5] .Stagner Ross, “The Cross-Out Technique as a Method in Public Opinion Analysis”. The Journal of Social Psychology, vol. 11, № 1, pp. 79–90, 2, 1940.
- [6] .I.Rabbimov, I.Mporas, V.Simaki and S.Kobilov. “Investigating the Effect of Emoji in Opinion Classification of Uzbek Movie Review Comments”, Cham, 2020.
- [7] .Kushal Dave, Steve Lawrence, and David M. Pennock. Mining the peanut gallery: opinion extraction and semantic classification of product reviews. In Proceedings of the 12th international conference on World Wide Web (WWW '03). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 2003, p. 519–528.
- [8] .Matlatipov, S., Tukeyev, U., Aripov, M. (2020). Towards the Uzbek Language Endings as a Language Resource. In: Hernes, M., Wojtkiewicz, K., Szczerbicki, E. (eds) Advances in Computational Collective Intelligence. ICCCI 2020. Communications in Computer and Information Science, vol 1287. Springer, Cham, pp. 729–740.

Begniyazova Qumar Allambergenovna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “Jurnalistika” kafedrasida dotsenti)

JURNALISTIKADA ELEKTRON GIPERMATN TUSHUNCHASI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI

Annotatsiya. Maqolada internet jurnalistika sohasida keng qo‘llanilayotgan va uning ajralmas qisimiga aylangan gipermatnning o‘ziga xos xususiyatlari, uning turlari haqida so‘z bo‘radi. Ayniqsa, uning elektron turlari bo‘yicha keltirilgan dalillar nazariy asoslar bilan mustahkamlangan. Xususan, elektron gipermatnning zanjirli, klasterli, iyerarxik turlari ajratib olib o‘rganilgan. Har biri bo‘yicha aniq nazariy tezislarni keltirilgan.

Kalit so‘zlar: gipermatn, elektron gipermatn, zanjirli, ierarxik, klasterli, paradigma, jurnalistik gipermatn, internet nashrlar.

Бегниязова Кумар Алламбергеновна (доцент кафедры Журналистики Каракалпакского государственного университета им. Бердака)

ПОНЯТИЕ ЭЛЕКТРОННОГО ГИПЕРТЕКСТА В ЖУРНАЛИСТИКЕ И ЕГО КЛАССИФИКАЦИЯ

Аннотация. В статье будет рассказано об особенностях гипертекста, его видах, которые широко используются в сфере интернет-журналистики и стали ее неотъемлемой частью. В частности, доказательства, представленные в отношении его электронных типов, подкреплены теоретическими обоснованиями. В частности, были выделены и изучены цепные, кластерные, иерархические типы электронного гипертекста. По каждому из них даны конкретные теоретические тезисы.

Ключевые слова: гипертекст, электронный гипертекст, цепной, иерархический, кластерный, парадигма, журналистский гипертекст, интернет-публикации.

Begniyazova Qumar Allambergenovna (Associate Professor, Department of Journalism, Karakalpak State University named after Berdakh)

THE CONCEPT OF ELECTRONIC HYPERTEXT IN JOURNALISM AND ITS CLASSIFICATION

Annotation. The article discusses about the peculiarities of hypertext, its types, which are widely used in the field of internet journalism and have become an integral part of it. In particular, the arguments presented on its electronic types are reinforced by theoretical foundations. In particular, the chain,

clustered, hierarchical types of electronic hypertext have been isolated and studied. Specific theoretical theses are presented on each.

Keywords: *hypertext, electronic hypertext, chain, hierarchical, clustered, paradigm, journalistic hypertext, internet publications.*

Kirish. Elektron gipermatn konsepsiyasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Uning atama sifatida paydo bo'lishi 1965-yilga to'g'ri keladi. Bu davr kompyuter texnologiyalarining rivojlanish darajasini yozma matnni aks ettirishning yangi ko'rinishlarini orqali oldindan gipoteza qilish imkonini beradigan vaqt edi. Eng, dastlab, ushbu tushunchani amerikalik matematik va filosof T.Nelson monitor ekranida yozma matnni taqdim etish uslublarining biriga havola berish maqsadida qo'llagan. Bunday matn kichik qismlardan iborat bo'lishi kerak edi. T.Nelson g'oyasining lakonizmiga qaramay, eng asosiy natijalarga erishildi, ya'ni u yozma matnni internetda taqdim qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Loyiha muallifi fikricha, "gipermatn ketma-ket bo'lmagan yozuv, aniqroq aytganda, auditoriyaga tanlash imkoniyatini beradigan tarmoqlangan matn"dir [1]. Uning yordamida katta matn yaratilib, audi-toriya unga o'z munosabati, fikrlar oqimiga qarab turli yo'llarni tanlash imkoniyatiga ega. Elektron matn yaratishning amaliy muammolarini hal etishda T.Nelson o'zining tabiati texnik emas, aksincha, ijodiy g'oyalarga amal qiladigan jihatni kashf etganligi bilan ahamiyatli. Mazkur loyiha nomi "Xanadu" [2] deb atalib, u "sehrli o'rin" degan ma'noni anglatadi. O'sha davrda gipermatn bo'yicha boshqa-da tadqiqotlar olib borilgan. Ammo ularning aksariyati uni ijodiy jihatdan emas, aksincha texnik, fizik va lingvistik nuqtayi nazardan baholagan. Shunday bo'lsa ham, bugungi kunda gipermatnni jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya, lingvistik nuqtai nazardan modellashtirishga bo'lgan harakatlar juda ko'p ekanligini aytib o'tish joiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy jurnalistikada gipermatn atamasi bir vaqtning o'zida bir nechta terminologik paradigmalarga ega bo'lib, uni qo'llash amaliyoti "aloqa uslubi" [3] sifatida ham qaraladi. Atamadan foydalanishga oid holat murakkab bo'lib, u ma'lum bir dasturlar bilan qo'llab-quvvatlanadigan texnologiyalarga ham asoslangan. L.G.Ovanesbekovning fikriga aytganda, "dasturlovchi nuqtai nazardan gipermatnning mazmuni shundan iboratki, u bir nechta texnologiyalarning gibridi" [4] bo'lib hisoblanadi. U interaktiv interfeysning ham bir uslubi. Makon, zamon masofasidagi matnlarni bog'lash hodisasi shu kunga qadar imkonsiz deya hisoblangan edi. Unda matnlararo giper-matnlik bir matn ichida emas, bir nechta matnlararo yuz beradigan hodisaga aylanadi. Demak, elektron gipermatnda bo'lsa ushbu holat internet segmentida yuz beradi.

Yo'qarida ta'kidlangandek, elektron gipermatnning yaratilishi kompyuter va internet bilan bevosita bog'liq. Uning nomidan ma'lumki, bunday gipermatn faqat chiziqli bo'lmagan ma'lumotlararo aloqani ta'minlaydi. Shunday ekan, uning tabiati faqat elektron tarzidagi ma'lumotlar va xabarlar uchun mo'ljallangan. Bu haqda V.P.Rudnev o'zining "XX asr madaniyati entsiklopediya lug'ati"da atab ko'rsatadi: "gipermatn taqdirga o'xshaydi: bir kishi ko'chada xursand kayfiyatda, bir yaxshi narsani kutib tur, birdaniga qandaydir bir tugma bosildi (keling, bu tugmani kim va nimaga bosdi degan ma'nosiz, chalg'ituvchi savolni bermaylik) va uning taqdiri butunlay o'zgarib ketdi. U boshqacha hayot kechira boshladi, xuddi u dunyoni tark atayotgandek. Ammo so'ngra kimdir yana tugmani bosti va uni shu muammo, shu ko'cha, shu fikrlarga qaytaradi. Bu "Ayubning hikoyasi". Gipermatn matn mazmunini shu singari metaforik giperbolizatsiyaga asoslantiradi" [5]. Ya'ni gipermatn ma'lum bir model bo'lib, Yer sayyora konsepsiyasiga ko'proq o'xshab ketadi. Bir biriga bog'langan matnlar bo'lsa, makonlararo tarmoqlanadi. "Ayubning hikoyasi" gipermatn konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, asosiy matn boshqa manzil va vaqtdagi materiallarga o'tib, tarkibidagi havolalar orqali qaytadan ushbu matnga qaytib keladi.

Zamonaviy ilmiy paradigma doirasida elektron gipermatn tushunchasi o'ziga xos xususiyatlariga qarab tadqiqotchilar tomonidan har xil tasniflangan:

a) aniq matn konstruksiyasi sifatida (Gromov, 1992, 1993; Subbotin, 1993, 1994; Hartung, Breido, 1996; Wiesel, 1999; Derrida, 2000; Kuper, 2000, Bart, 2001; Baranov, 2011; Dedova, 2003; Kalmikov, Koxanova, 2005). Bu yerda asosiy e'tibor gipermatnning matn komponentiga qaratilgan. Masalan, O.V. Baranov gipermatn haqida Guttenberg konsepsiyasida shakllangan oddiy matnga qarama-qarshi bo'lgan matnning yangi turi sifatida baho bersa, V.P.Rudnev uni bir vaqtning o'zida matnlarning birligi va ko'pligini tashkil etuvchi matnlar iyerarxiyasi degan nazariyani taklif etadi;

b) axborotni yetkazishning maxsus uslubi sifatida (Conklin, 1987; Subbotin, 1993; Ovanesbekov, 1993; Ageev, 1994; Shutkin, 1995; Foltz, 1996; Wiesel, 1999; Chardin, 1999; Ryabov, 2001; Uzilevskiy, 1998, 1999 va boshqalar). Unda tadqiqotchilar gipermatnni ko'p o'lehamli tarmoq sifatida ko'rib chiqadi. Gipermatnni ma'lumotlarining bog'langan tugunlar tarmog'i ko'rinishida taklif etish uslubi tariqasida o'ranganadi;

d) tizimli konstruktiv proektsiya sifatida (Ageev, 2002; Nesterov, 1995; Polikaxin, Savin, 1993; Potapova, 2005). Bunda asosiy ahamiyat axborot tizimidagi strukturaviy o'ziga xosliklar va texnik amalga oshirishning algoritmgiga asoslanadi;

e) materiallarning o'zaro birikish jarayoni sifatida (Zikova E., Ilina I., Kalmikov A.). Unda zamon va makon masofasidagi matnlarning bir biri bilan bog'liqligi nazarda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda jurnalistikada gipermatn masalasiga oid ba'zi ilmiy mehnatlar bor. Masalan, A.Kalmikovning "Ommaviy kommunikatsiyalar tizimidagi jurnalistik gipermatn" [6] maqolasida "jurnalist gipermatni" tushunchasi ko'rib chiqilgan. Ammo muallif tomonidan keltirilgan elektron gipermatnning ta'rifi u haqidagi nazariyani to'la shakllantirmaydi. Fikrimizcha, gipermatn – bu giperhavolalar tizimi bilan birlashtirilgan potentsial cheksiz matnlar to'plamida iborat bo'lib, maqolalarning makon va zamon masofasida birlashish hodisasi. Biz elektron gipermatnni jurnalistlar tomonidan taklif etilgan xabarni yanada kengaytirish maqsadida elektron kommunikatsiyada qo'llaniladigan gipermatnlik munosabatlarning o'z oldiga bir turi sifatida tushunamiz. Bunda asosiy matnga xos jurnalistik materiallarga havolalar qo'llaniladi. Nashrning axboriy maydonini kengaytiruvchi havolalar, ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha fikrlar, qo'shimcha multimedaviy ma'lumotlarga yo'llanma beriladi.

Tahlil va natijalar. Gipermatnli havolalar internet jurnalistikada keng tarqalgan. Shuning uchun ba'zi tadqiqotchilar uni onlayn medianing o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlaydi. Elektron gipermatn internet medianing eng ahamiyatli xususiyati hisoblanib, uni giperhavolalar yordamida matn oqimini tashkil-lashtirishga asoslangan.

Biz elektron gipermatnni internet jurnalistikada asosiy yettita nuqtayi nazarda ko'rib chiqish ahamiyatli deb hisoblaymiz:

- 1) sayt maqsadini belgilovchi asos sifatida;
- 2) axborot manbasi sifatida;
- 3) veb-dizayn yechimlarining texnik elementlarining biri sifatida;
- 4) mazmunning xarakteristikasi sifatida;
- 5) xabarni kengaytiruvchi va to'ldiruvchi xizmat turi sifatida;
- 6) mazmunlararo birlashish hodisasi sifatida;
- 7) makon va zamon masofasidagi matnlararo aloqa sifatida.

Gipermatn saytning maqsadini belgilovchi asosiy factor. Agar veb-sayt multimedaviy kontentlar tarqatish bilan shug'illansa, albatda multimedaviy elementlarni bir-biri bilan bog'lash xizmatiga bo'lgan talab ortadi. Natijada saytda giperhavolalar orqali boshqa manzilda bog'langan materiallar soni ko'payadi. Shuning uchun elektron gipermatn saytlarda material yaratish funksiyasini bajaradi. Masalan, www.qalampir.uz saytining 2023-yil 13-yanvarida e'lon qilingan "Karib dengiziga qulagan Gollivud aktyori va qizlarning jasadi topildi" materialiga «www.gazeta.ru» havola sifatida berilgan, ya'ni, 4-yanvarda dengizga samolyot qulashi oxibatida vafot etgan aktyor Kristian Oliver va uning ikki qizining o'limi haqidagi xabar Rossiyaning www.gazeta.ru saytida chop etilgan Alina Odaevaning "**Актер Кристиан Оливер погиб в авиакатастрофе с двумя дочерьми. Их тела достали моряки**" maqolasiga birikkan. Mazkur maqola esa "Daily Mail"ning "Hollywood actor Christian Oliver, 51, who appeared in Speed Racer is revealed as victim of Caribbean plane crash that also killed his daughters aged 10 and 12 and pilot" maqolasiga bog'langan. Demak, bu yerda saytning ushbu materialni berishdagi maqsadi dunyoda bo'layotgan hodisalarni auditoriyaga yetkazishdan iborat. Shundan kelib chiqib, gipermatn dunyo xabarlarini makon va vaqt birligida o'zaro birlashtirgan hodisaga aylanadi.

Gipermatnning yana bir muhim xususiyati uning axborot bazasi sifatidagi xizmati bo'lib, uning bir nechta xabarni bir biri bilan biriktirib, bir vaqtning o'zida mavzuga oid axboriy bazani yaratishda katta ahamiyatga ega. Tarmoqlangan matnlar to'plami auditoriyaga xabarning kengaytirilgan ko'rinishini o'qish yoki o'zaro taqqoslab, tahlil qilishga imkon yaratadi. 2024-yil 20-yanvarda www.rost24.uz saytida "Daryo qirg'oqlarini qazish taqiqlanmoqda" xabari e'lon qilingan. Jurnalist 2024-yil 1-maydan respublika kamidagi daryo va suv havzalari qirg'oqlarini qazish taqiqlanishi haqida ma'lumot bergan. Ikki bir-birini to'ldiruvchi ma'lumot bir butun axboriy bazani tashkil etadi.

Gipermatn haqida keyingi nuqtayi nazar ancha keng tarqalgan bo'lib, bu bevosita tarkibida havolasi bo'lgan matnning veb-dizayn yechimlari texnik elementlarining biri sifatida qaralishiga borib taqaladi. Bunda gipermatn saytning dizaynini tashkil etish vazifasini bajaradi. Masalan, saytga havolalar orqali multimedaviy, interaktiv xizmatlarni bog'lash yoki boshqa interaktivlikni biriktirish mumkin.

Veb-dizayn yechimi sifatida havolalarda ikki asosiy tendensiyani ajratib olishimiz mumkin:

–matnning «tana»siga joylashtirilgan havolalar (bunday havolalar grafik elementlardan foydalanilgan tarzda ajratiladi);

–asosiy materialning tashqarisida yoki qoshida joylashgan menyudagi havolalar.

Gipermatn tarkibning tavsifini ham aniqlaydi. Shu bilan birga, u xabarni kengaytiradi va o‘quvchi-ga interaktiv imkoniyatlarni taqdim etadi. Aslida, gipermatn har bir kontent elementining o‘ziga xos kontekstini kengaytirishga imkon yaratadi, shuning uchun auditoriyaga nima sodir bo‘layotganligining ma’nosini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va ma’lumotlar oqimini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. U taklif etilayotgan yoki tegishli mavzular bo‘yicha internet nashrlariga havolalar yordamida mazmun jihatdan maydonni cheksiz kengaytirish xususiyatiga ega.

Hozirgi kunda elektron gipermatnning quyida ko‘rsatib o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin:

1. Struktura dispersiyasi. Ma’lumotlar kichik o‘rnatilgan bo‘laklar ko‘rinishida ko‘rsatiladi va siz ushbu tizim yordamida xohlagan havola orqali axborotga «kirish»ingiz mumkin.

2. Gipermatnning chiziqli emasligi. Auditoriya matnni yaratishda o‘zining o‘quv yo‘lini o‘zi tanlaydi. Bu holat chiziqli matnning “muntazam”ligini “eritib” yuvoradi.

3. Idroking uzviyligi. Giperhavolani faollashtirishda foydalanish pozitsiyasining sakrashi, kutilmagan harakati.

4. Geterojenlik (rangbaranglik) va multimedia, ya’ni, foydalanuvchiga ta’sir etishning barcha ko‘rinishlaridan foydalanish.

Shundan kelib chiqib, elektron gipermatnni murakkab tashkil etilgan hodisa, bir butunlikning prinsipial tarzda chiziqli bo‘lmagan turi, giperbog‘lanish mexanizmlari yordamida axboriy birliklarning o‘zaro ta’siri, eng asosiysi, elektron makonda axboriy massivga kirish uslubi deya qarashimiz ham mumkin.

Bugungi kunda elektron gipermatnning turlari bo‘yicha klassifikasiyalar turfa xil. Ba’zi lingvistlar uni “monokod, polikod” [7] deb ikkiga bo‘lib o‘rgansa, lingvistik nuqtayi nazardan u “ichki, tashqi, meta” [8] singari turlarga ajratilgan. Fikrimizcha, elektron gipermatn elementlarning tabiati bo‘yicha “zanjirli”, “klasterli” va “iyerarxik” bo‘lib uchga bo‘linadi:


a) **zanjirli gipermatn.** U gipermatnni ma’lumotlar qatori vazifasini bajaradigan elementlar o‘rtasida rivojlangan o‘tish tizimi bo‘lib hisoblanadi. Unda havolalar ketma-ket ko‘rinishda biriktirilib, “original” matnga boshqa havola birikib, ikkinchi kontekstga yana boshqa manzildagi matn biriktiriladi, ya’ni, u quyidagi ko‘rinishda tarmoqlanish xususiyatini o‘zida saqlab qoladi:



1-rasm. Zanjirli gipermatn.

www.daryo.uz saytining 2024-yil 22-yanvarda e’lon qilingan “Frantsiyada 75 kishi migratsiya siyosatiga narozilik bildirib chiqdi (video)” materialini zanjirli gipermatnga yaqqol misol sifatida keltirishimiz mumkin. Matn www.france24.com saytidagi “Tens of thousands of protesters across France call on Macron not to sign immigration law” maqolasiga biriktirilgan. Inglizcha ushbu kontent www.radiofrance.fr nashriga havola bergan. Bir material o‘zaro birikkan ikki kontentni o‘z ichiga olib, ular ketma-ket tarmoqlangan. Demak, zanjirli gipermatn auditoriyaga o‘zaro birikkan matnlar to‘plami bilan munasabat o‘rnatish imkonini beradi;

b) **klasterli gipermatn.** Bu asosiy matnga bir vaqtning o‘zida biriktirilgan bir nechta havolalar to‘plamidir. Bunda kontekst har xil makon va vaqt masofasidagi boshqa matnlar bilan bog‘lanadi. Natijada asosiy matn daraxt kabi yig‘ilib, klaster ko‘rinishini aks ettiradi.



2-rasm. Klasterli gipermatn.

2024-yil 22-yanvarda www.gazeta.uz saytida “Ombudsman rossiyalik hamkasbiga qarata zo‘ravonlik holati bo‘yicha murojaat yo‘lladi” xabari chop etilgan. Materialni tahlil qilsak, matnda mavzuga oid uchta havola berish amaliyoti qo‘llanilgan:


22.01.2024. Ombudsman.uz: “Rossiyadagi migrantlar huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha Ombudsman murojaat yo‘lladi”.

20.01.2024. ura.news: “**Омбудсмен Мерзлякова проверит инцидент с облавой на мигрантов в Екатеринбурге. Фото, видео**”.

20.01.2024. mfa.gov.kg: “Информационное сообщение от 20 января т.г.”.

Bir gina materialda mavzuga oid uchta matnning biriktirilishi gipermatn komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlini yuzaga keltirgan;

d) **iyerarxik gipermatn**. Bunday gipermatn turi bir matn ichida emas, balki nomidan ko‘rinib turgandek, bir biriga tarmoqlangan matnlar o‘rtasida yuz beradigan hodisa. R.Bartning fikricha, “...har bir matn boshqa matnlarga nisbatan intertekstual” hisoblanadi (9). Bunda “original” matn boshqa manbaga havola beradi, shu maqolada yana ikkinchi kontekstga, so‘ngra uchinshi ma‘lumotga yo‘nalish beriladi. Bunday o‘rish dinamikasi bir tarmoqdan tarqalib yoyiladi.



3-rasm. Iyerarxik gipermatn.

Gipermatn chegaralarining iyerarxik tarzda tarmoqlanishi rasmda aks ettirilgan ko‘rinishda hosil bo‘ladi. Bunda havolalarning tarqalish protsesi cheksiz bo‘lib, bir nechta manbalar o‘zaro birikib assosiativ gipermatnni tashkil etadi. Masalan, www.gazeta.uz saytining 2024-yil 22-yanvar sanasidagi sahifasida «Rossiyalik produsser Tina Kandelakiga Qozog‘istonga kirish taqiqlanadi» maqolasi e‘lon qilingan. Unda iyerarxik gipermatnga xos quyidagi xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin:

Birinchi tarmoq hodisasi. 22.01.2024. orda.kz: “Такое не прощают” – Тине Канделаки зап-ретят везжат в Казакстан”.

16.01.2024. tikandelaki.ru: “В Казакстане медленно, но, верно продолжают вытеснят русский язык на государственном уровне”.

15.01.2024. dntreadonme.uz: “Дерусификация шагает по Казахстану – Минтранс республики предлагает переименоват ряд железнодорожных станций, заменив русские названия на великодержавные казахские”.

09.01.2024. legalacc.egov.kz: “О переименовании некоторых железнодорожных станций и разездов и изменении транскрипции названий некоторых железнодорожных станций”.

Mazkur matnga biriktirilgan havolaning birinchi tarqalish ierarxiyasi. Xuddi shu materialdagi ikkinchi tarqalish holatini ko‘rib chiqamiz:

Ikkinchi tarmoqlanish hodisasi. 09.01.2024. orda.kz: “В ряде регионов Казахстана переименоуют вокзал”.

09.01.2024. legalacc.egov.kz: “О переименовании некоторых железнодорожных станций и разездов и изменении транскрипции названий некоторых железнодорожных станций”.

Uchinchi matnlararo aloqa tartibida tashqi, ichki havola turlaridan keng tarzda foydalanilgan. Uning ierarxik konnektivligi quyidagicha:

Ushinchi tarmoqlanish hodisasi. 17.01.2024. tikandelaki.ru: “С интересом и грустью наблюдаю за реакцией представителей Казахстана на мой вчерашний пост о вытеснении русского языка”.

16.01.2024. tikandelaki.ru: “В Казакстане медленно, но, верно продолжают вытеснят русский язык на государственном уровне”.

15.01.2024. dntreadonme.uz: “Дерусификация шагает по Казахстану – Минтранс республики предлагает переименовать ряд железнодорожных станций, заменив русские названия на великодержавные казахские”.

17. 06.2023. nur.kz: “Токаев предложил прекратить присваивать объектам имена некоторых советских деятелей”.

Havolalar orqali asosiy matnga bog‘langan matnlar iyerarxik tarzda aks ettirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yo‘qarida atab o‘tilgan, elektron matnning ushbu tarzda uch xil turi internet jurnalistikada keng qo‘llaniladigan klassifikatsiyaga aylanmoqda. O‘zbek segmentidagi kontentlarda “zanjirli”, “klasterli” gipermatn namunalarini ko‘proq kuzatishimiz mumkin. “Iyerarxik” gipermatnli materiallar kam uchrashadigan kuzatiladi. Biz 2021–2024-yillar kesimida obyekt sifatida tanlangan internet nashrlarida ko‘p foydalanilgan elektron gipermatnning turlarini bir jadvalda umumlashtirishga harakat qilamiz:

№	Sayt nomi	Elektron gipermatn turlari	Dasturiy gipermatn
1	www.kun.uz	zanjirli, klasterli	
2	www.daryo.uz	zanjirli, klasterli	
3	www.qalampir.uz	zanjirli, klasterli	dasturiy
4	www.gazeta.uz	zanjirli, klasterli, iyerarxik	
5	www.kknews.uz		dasturiy
6	www.kruz.uz	Zanjirli	dasturiy
7	www.kar24.uz	Zanjirli	dasturiy
8	www.karone.uz	Zanjirli	dasturiy

Qoraqalpoq internet jurnalistikasida bu holat umuman o‘zgacha, ya’ni, hududdagi yetakchi saytlarda ko‘proq “zanjirli” gipermatnli kontentlar joylashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin. “Klasterli” va “iyerarxik” turdagi maqolalar deyarli yozilmagan. O‘z navbatida, ushbu holat qoraqalpoq segmentidagi saytlarda uchrashadigan internet jurnalistikadagi yangi tendensiyalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq muammolardan bi-ri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, gipermatnning axborotni assotiativ taqdim etish uslubi sifatida rivojlanishi voqeani anglash borasidagi xizmatda katta reformaga aylanmoqda. Axboriy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan internet gipermatnli materiallarning bir butunligini tashkil etishning prinsipial ravishda chiziq bo‘lmagan turi hisoblanib, vaqt va makon masofasidagi matnlarning o‘zaro havolalar orqali tarmoqlangan hodisasi hisoblanadi. Elektron gipermatnning strukturaviy disperslik, chiqizli bo‘lmagan ko‘rinish, idrokning muntazamligi va geterojenlik, multimediviylik kabi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Shu singari o‘ziga xos xarakteristikalar uning dasturiy gipermatn-dan farqlarni belgilaydi. Bundan tashqari, elektron gipermatn bo‘yicha tadqiqotchilar keltirgan ilmiy tezislarda asosida ham amaliyotda qo‘llaniladigan turlardan kelib chiqib, uning uch xil tipi ajratib olindi: *a) zanjirli; b) klasterli; d) ierarxik.* Ular bir-biridan tarmoqlanish va matnlararo birikish ko‘rinishlariga qarab ajraladi.

Internetning global hajmda kengayishi va uning turfa xil sohalarga kirib borishining jadallashuvi gipermatnning jamiyat talablariga oid holatda rivojlanib, inson kommunikatsiyasining asosiy hodisasiga aylanayotganligi bilan baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Чилингир Е.Ю. Гипертекст в литературе, журналистике и ПИАРЕ. Социокультурный аспект. URL, <https://cyberleninka.ru/article/n/gipertekst-v-literature-zhurnalistike-i-piare-sotsiokulturnyy-aspekt>
- (2). Nelson T.H. A file structure for the complex, the changing and indeterminate. ACM 20th Nationale Conference. Cleveland; Ohio, 1965. URL: <https://vestnik.journ.msu.ru/books/2020/3/vozmozhnosti-giperteksta-dlya-zhanra-zhurnalistskogo-rassledovaniya-na-primere-elektronnogo-izdaniya/#:~:text=%D0%>
- (3). Купер И.П. Гипертекст как способ коммуникации. «Социологический журнал», М., 2000, №½, с. 36.
- (4). Ованесбеков Л.Г. Технология построения гипертекстов. Дисс. ... канд. физмат, наук, М., 1993.
- (5). Руднев В.П. Энциклопедический словарь культуры XX века. Ключевые понятия и тексты. М., 2001.
- (6). Калмыков А.А. Гипертекст журналистики в системе массовых коммуникаций [электронный ресурс]. 2004.
- (7). Мыгаль М.С., Карпенко И.И. Журналистский гипертекст в системе массмедийной интернет коммуникации. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zhurnalistskiy-gipertekst-v-sisteme-massmediynoy-internet-kommunikatsii>

(8). URL: <https://kruz.uz/uz/news/show/358>

(9). Дедова О.В. Теория гипертекста и гипертекстовые практики в Рунета. Московский государственный университет им. М.В.Ломоносова. М., 2008.

Sattorova Maftuna Shavkatovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD); Uzbekistan smaftuna484@gmail.com; ORCID ID: 0009-0001-1989-2593)

BADIY MATNDA LINGVOKULTUREMALARNING O'RNI VA VAZIFALARI

Annotatsiya. Tildagi madaniy belgilar (lingvokulturemalar)ni o'rganish va tadqiq etish tilshunoslikning shu bugunga qadar erishgan yutuqlari samarasidir. Lingvokulturologiya sohasiga qiziqishning tobora ortib borayotgani fanning yuksalayotgan kelajagini belgilaydi. Shu bilan birgalikda, fanning nazariy-metodologik asosi endigina shakllanmoqda va rivojlanish bosqichlari davom etmoqda. Frazеologizm va paremiyalar, maqol va idiomalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida tadqiq etilmoqda. Ushbu maqolada lingvokulturemalarning badiiy matndagi o'rni va badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinib, adabiy asarning mohiyatini kengaytirish hamda personajlarning til va xulq-atvor tarzlari orqali ularning ijtimoiy pozitsiyalari va madaniy darajalarini ifodalashdagi ahamiyati o'rganiladi. Tadqiqod obyekti sifatida tanlangan A.Obidjon va R.Kiplingning she'rlari tahlili orqali lingvokulturemalarning vazifalari yanada kengroq ochib beriladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, estetik vazifa, identifikatsiya, lingvokulturologiya, lingvokulturema, lingvokulturologik konsept, madaniy kontekst, metafora, mental tabiat, shartlilik, nutq birligi.

Сатторова Мафтуна Шавкатовна (преподаватель Бухарского государственного педагогического института, докторант-исследователь Бухарского государственного университета Узбекистан; smaftuna484@gmail.comж ИО: 0009-0001-1989-2593)

РОЛЬ И ЗАДАЧИ ЛИНГВОКУЛЬТУРЕМЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация. Изучение и исследование лингвокультурем является результатом достижений языкознания до сегодняшнего дня. Растущий интерес к области лингвокультурологии определяет будущее науки. При этом теоретическая и методологическая основа науки только формируется и продолжают этапы развития. Фразеологизмы и паремии, пословицы и фразеологизмы изучаются как основные единицы, отражающие культурные знаки в языке. В данной статье анализируется роль лингвокультуремы в художественном тексте и её художественно-эстетические задачи, изучается важность раскрытия сущности литературного произведения и выражения своей социальной позиции и культурного уровня через язык и поведение персонажей. Через анализ стихотворений А.Обиджона и Р.Киплинга, выбранных в качестве объекта исследования, задачи лингвокультуремы раскрываются шире.

Ключевые слова: художественный текст, эстетическая задача, идентификация, лингвокультурология, лингвокультурема, лингвокультурный концепт, культурный контекст, метафора, ментальная особенность, обусловленность, речевая единица.

Sattorova Maftuna Shavkatovna (Teacher, Bukhara State Pedagogical Institute Doctorate Researcher (PhD), Bukhara State University, Uzbekistan; smaftuna484@gmail.com; ORCID ID: 0009-0001-1989-2593)

THE ROLE AND TASKS OF LINGVOCULTUREMAS IN THE LITERARY TEXT

Annotation. The study and research of linguoculturemes is the result of the achievements of linguistics until today. The growing interest in the field of linguoculturology studies determines the future of the science. At the same time, the theoretical and methodological basis of the science is just being formed and the stages of development continue. Phraseologisms and paremies, proverbs and idioms are being studied as basic units that reflect cultural signs in language. In this article, the role of linguoculturemes in the literary text and the artistic-aesthetic tasks are analyzed, the importance of expanding the essence of the literary work and expressing their social positions and cultural levels through the language and behavior of the characters is studied. Through the analysis of the poems of A. Obidjon and R. Kipling, selected as the object of research, the tasks of linguoculturemes are revealed more broadly.

Key words: literary text, aesthetic task, identification, linguoculturology, linguocultureme, linguocultural concept, cultural context, metaphor, aesthetic task, mental nature, conditionality, speech unit.

Kirish. Lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy tushunchalaridan biri – bu lingvokulturema. Fandagi til va madaniyatning uzviy bog'liqligiga asoslangan til birliklariga nisbatan "lingvokulturema" atamasi ishlatiladi. Lingvokulturemalar xalqning o'ziga xos madaniyatini uning til birliklari orqali aks ettiruvchi li-soniy hodisa bo'lib, milliy qadriyatlarni tilda ifodalash vositasi hisoblanadi va o'zida lingvistik va madaniy

belgilarni mujassamlantiradi. Ular lingvistik va badiiy-estetik tabiat kasb etib, boshqa til hodisalari orasida alohida ajralib turadi.

1. Madaniy kontekstni aks ettirish. Lingvokulturemalar badiiy matnda muayyan madaniyatni aks ettiradi. Masalan, milliy, diniy yoki tarixiy kontekstlarga oid soʻz va iboralar matnning mazmunini boyitadi va uni oʻqishga yordam beradi. Rus adabiyotida “dusha” (ruh) kabi soʻzlar rus madaniyatining ruhiy aspektlarini koʻrsatadi, bu esa oʻquvchiga madaniy qatlamni tushunishga imkon beradi.

2. Semantik yuk. Lingvokulturemalar maʼlum bir madaniyatda maxsus maʼno va koʻrsatkichlarga ega boʻlishi mumkin. Masalan, “xuddi kishi” ifodasi oʻzbek madaniyatida hurmat va insoniylikning ramzi sifatida ishlatiladi, badiiy matnda esa bu ifoda orqali xarakterlar va ularning oʻzaro munosabatlari tasvirlanadi.

3. Sotsiolingvistik xususiyatlar. Badiiy matnlarda lingvokulturemalar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlarining xususiyatlarini koʻrsatadi. Adabiy asarda personajlarning til va xulq-atvor tarzlarini orqali ularning ijtimoiy pozitsiyalari va madaniy darajalari ifodalanadi. Masalan, muayyan davr yoki muhitga xos til uslublari personajlarning psixologik holatini va ijtimoiy muhitini koʻrsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. V.Maslovaning fikricha, “lingvokulturologik birliklarni ifodalovchi lingvomadaniy birliklar lingvokulturemalardir”. V.V.Vorobyev talqiniga koʻra, “Lingvokulturema – bu lingvistik va ekstralingvistik (tushuncha yoki predmet) mazmun dialektik birligini tashkil etgan kompleks birlikdir”. Odatiy belgi – maʼnoga kulturemaning tildan tashqari mazmuni, yaʼni madaniy tushuncha komponenti ham qoʻshiladi. Sliskin fikriga koʻra, “lingvokulturologik konsept” – bu til, anglash va madaniyatni kompleks oʻrganishga yoʻnaltirilgan shartli mental birlikdir. Uning quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud: a) mavjudlikning kompleksligi; b) mental tabiat; d) ahamiyatlilik; e) shartlilik va mavhumlik; f) oʻzgaruvchanlik; g) til vakili ongi orqali chegaralanish; h) uch komponentli struktura; i) koʻp murojaat qilish; j) koʻp vaznli; k) metodologik ochiqlik, koʻp klassifikatsiyalilik. Tilda madaniyatning oʻziga xos tomonlari namoyon boʻlishini V.fon Humboldt (XIX asr) ilmiy aniqlab, turli til shakllarida tafakkur usulidagi farqni va voqelikni tushunishdagi oʻziga xoslikni asosladi.

V.V.Vorobyevning fikricha, lingvokulturemalar: 1) konnotativ maʼnoga ega va belgi-funksiyaga aylangan; 2) bir nechta konnotativ maʼnolarda ifoda etilishi mumkin; 3) qabul qiluvchi (oʻquvchi yoki tinglovchi)ning ongida faollashishi yoki faollashmasligi mumkin; 4) ular paydo boʻlgan gʻoyaviy kontekst mavjud ekan, faol “yashashda davom etadi” [6;52-b.]. Lingvokulturemaning tuzilishi boshqa til birliklariga qaraganda ancha murakkab: u oʻzida ham lisoniy taassurot, ham tildan tashqari muhitni (situatsiya, realiya) namoyon etadi. Shunday qilib, tilni yaxshi biladigan kishida har qanday soʻzga madaniy oreol hamrohlik qiladi, busiz matnni toʻgʻri interpretatsiya qilish mushkul va baʼzi hollarda umuman ilojsiz. Til birliklarini madaniylashtirish jarayoni u yoki bu millat doirasida madaniy assotsiatsiyalar tarmoqlari majmuasi yaratilishiga olib keladi. Oʻ.Q.Yusupov lingvokulturemani quyidagicha talqin etishni tavsiya etadi: “Lingvokulturema oʻz semantikasida madaniyatning biror boʻlagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligidir. Ular soʻz (tub, yasama, qoʻshma va murakkab soʻzlar), soʻz birikmalari, iboralar, gap, paremiya, murakkab sintaktik butunlik, matn va hokazolar boʻlishi mumkin” [7;50–61-b.].

Bugungi kunda tadqiqotchilar lingvokulturemaning quyidagi xususiyatlarini aniqladilar: 1) lingvokulturema atash maʼnosini ifodalaydi; 2) lingvokulturemalar tuzilishi jihatidan xilma-xil: soʻzdan tortib butun matn shaklida ham boʻlishi mumkin; 3) lingvokulturemalar oʻz manbaya, kelib chiqish xususiyatlariga koʻra oʻxshash va farqli jihatlarga ega [6;301-b.].

Lingvokulturemalarni tasniflashda rus tilshunosi V.A.Maslovaning hissasi beqiyos. U lingvokulturemalarni 9 xil turga ajratadi: 1) tilning ekvivalentsiz lugʻat qatlami – realiyalar (milliy liboslar, taomlar, marosim va bayramlar, anʼanalar, ayrim buyum nomlarini oʻz ichiga oladi) va lakunalar; 2) mifologemalar – arxetiplar, afsonaviy qahramonlar, obrazlar, marosim va udumlar, rituallar; 3) tilning paremiologik fondi (maqollar va hikmatli soʻzlarni oʻz ichiga oladi); 4) tilning frazeologik fondi; 5) etalonlar, stereotiplar, simvollar; 6) metafora va obrazlar (timsollar); 7) turli tillarning stilistik qatlamlari (adabiy/noadabiy shakllar va h.k.); 8) nutqiy axloq va feʼl-atvor; 9) nutq etiketi [3;6–18-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvokulturema – bu til va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni ifodalovchi tushuncha boʻlib, u badiiy matnlarda muhim rol oʻynaydi. Badiiy matn, insoniyatning madaniy va estetik, tajribalari hamda tarixiy hayot yoʻllarini ifodalaydigan maxsus til shaklidir. Lingvokulturemalarining badiiy matndagi roli bu matnlarning madaniy kontekstini, muloqot usullarini va oʻziga xos dunyoqarashni qanday aks ettirishini tushunishga yordam beradi. Lingvokulturemalar, yaʼni til va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik, badiiy matnlarni oʻqish va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnlarda,

asosan, muallifning fikrlarini, hissiyotlarini va madaniy kontekstini ifodalashda lingvokulturemalardan foydalaniladi.

Madaniy kontekstni ifodalash. Lingvokulturemalar badiiy matnda muallifning yashab turgan davri, joyi va madaniyati haqida ma'lumot beradi. Bu o'quvchiga asarning kontekstini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Qahramonlar va ularning xarakterlari. Badiiy asarda qahramonlarning tilida va harakatlarida lingvokulturemalar ko'pincha ularning shaxsiyati, ijtimoiy mavqei va madaniyati haqida ma'lumot beradi.

Emotsional ta'sir. Lingvokulturemalar badiiy matnning hissiy yukini oshiradi. Ular orqali muallif o'quvchida ma'lum bir hissiyotlarni uyg'otishi mumkin, masalan, nostalgiya (o'tmishdagi baxtli hayot davri yoki joyini sog'inish), qiziqish yoki qayg'u.

Til va uslub. Lingvokulturemalar badiiy asarning til va uslubini boyitadi. Ular orqali muallif o'z fikrlarini yanada rang-barang va qiziqarli tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Badiiy matnda lingvokulturema bir qancha vazifalarni bajaradi:

- shakllantiruvchi – matnni rasmiy va mazmunli shakllantirish, uning yaxlitligi, tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligi, tugallanganligi;

- bog'lovchi – matnlar orasida bog'lanish hosil qilish, bir matnda boshqa matnga ishora qilish orqali o'zaro muloqot – dialoglilikni ta'minlash;

- jamlovchi – ma'lumotlarni saqlash, yuborish, lingvomadaniy qadriyatlar, ko'nikma va malakalarni jamlash va aks ettirish;

- obrazli, ramziy fikrlashni talab qiladigan estetik qobiliyat, ma'noni tushunish, lingvokulturemaning mohiyatini idrok qilish, uning metaforik hususiyatini anglashdan estetik zavq olish;

- yashirin (parolli), o'quvchidan muallifga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy guruhga oid madaniy ma'lumotlarni "o'z" va "begona" turlarga ajratish, yashirin ma'lumotlarni (kodlarni tushunish);

- pragmatik, muallifning xohish-istaklari va maqsadlarini ochib berilishi va o'quvchi tomonidan xolis baholanishi, qabul qilinishi, perlokatsion ta'sirning izchilligi;

- lingvokulturemani moslashtirishda o'yin ta'siri;

- baholash, lingvokulturema orqali muallifning voqea-hodisa, belgi va timsol (obraz)larni baholash imkoniyati bilan bog'liq;

- hissiy-ifodaviy, o'quvchilarning his-tuyg'ulariga murojaat qilish [1;18-24].

Tahlil va natijalar. Anvar Obidjon o'zbek adabiyotida yangicha va o'ziga xos ovozi bilan ajralib turadigan shoirlardan biridir. Uning she'rlarida lingvokulturemalar, ya'ni, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlar va turmush tarzini aks ettiradi. "Tug'ilgan kun", "Qishloq", "O'zbekiston" kabi she'rlar madaniy kontekst, milliy identifikatsiya va shaxsiy hissiyotlarni ifodalashda lingvokulturemalarning qanday ahamiyatga ega ekanligini tahlillar orqali o'rganib chiqamiz.

Anvar Obidjonning "Tug'ilgan kun" she'rida milliy urf-odatlar va shaxsiy tajribalar aks etadi. She'rda tug'ilgan kunni nishonlashda o'zbek milliy qadriyatlari va turmush tarzining ko'rinishlari taqdim etiladi [4;116-b.].

Bugun mening tug'ilgan kunim,

Bo'lsa-da, ko'pdan kutilgan,

Yetti yildan bir marta,

O'tgan kunlarni hisoblab.

Ushbu misolda "yetti yildan bir marta" iborasi milliy urf-odatlar va an'analarga ishora qiladi. O'zbek madaniyatida tug'ilgan kun kabi shaxsiy bayramlar, ko'pincha, milliy an'analarga mos tarzda nishonlanadi, bu esa she'rning madaniy kontekstini boyitadi.

"Qishloq" she'ri Anvar Obidjonning o'zbek qishloq hayotini tasvirlashdagi uslubi va lingvokulturemalari bilan mashhurdir. She'rda qishloq hayoti va uning o'ziga xos xususiyatlari tasvirlanadi [4;137–140].

Qishloqning tuprog'i, havaslangan,

Qancha yo'qotdi, qancha topgan,

Ko'plab hayotlar, yoshlar o'sgan,

Qishloq – yuragimning qismati

Bu misolda "qishloq", "tuproq", "yurak" kabi so'zlar orqali O'zbekistonning qishloq hayoti va tabiiy go'zalligi, shuningdek, shaxsiy hissiyotlar ifodalanadi. "Qishloq" va "tuproq" kabi iboralar o'zbek madaniyatida kuchli o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi va she'rning madaniy qatlamini oshiradi.

“O‘zbekiston” she’ri Anvar Obidjonning milliy identifikatsiya va vatanparvarlik hissiyotlarini aks ettiradi. She’rda O‘zbekistonning tarixi, madaniyati va xalqning qadr-qimmatini ta’riflanadi.

*O‘zbekiston – dilimning makoni,
Yurtimning bag‘rida yong‘in bor,
Birovlar yolg‘iz qolmaydi,
Bu yerda barchamiz bir to‘plam.*

Ushbu misolda “O‘zbekiston”, “dilimning makoni”, “yurtim” kabi iboralar orqali shoirning milliy g‘urur va vatanparvarlik hissiyotlari aks ettiriladi. Bu so‘zlar O‘zbekistonning madaniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatini tasvirlaydi va lingvokulturmalar orqali o‘zbek xalqining milliy identifikatsiyasini ifodalab beradi [4;150–155-b.].

Rudyard Kipling she’rlarida lingvokulturmalar (lingvokultural birliklar) muhim rol o‘ynaydi. Uning she’rlarida lingvokulturmalar madaniy kontekst va tarixiy ma’no bilan bog‘liq bo‘lib, ularning badiiy matnda hissiyotlarni va ijtimoiy masalalarni ifodalashdagi juda muhim ahamiyatini ko‘rish mumkin. Kipling, Buyuk Britaniya imperiyasining yirik yozuvchisi sifatida, o‘z she’rlarida britan madaniyatining xususiyatlarini, koloniya davridagi ijtimoiy va tarixiy voqealarni aks ettirgan. Quyida Kiplingning she’rlaridan misollar keltirib, lingvokulturmalarining xususiyatlari va vazifalarini ko‘rib chiqamiz.

Rudyard Kiplingning “If–” she’ri, o‘zida kuchli ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni mujassam etadi. Ushbu she’r, insonning hayotdagi qiyinchiliklarga qanday munosabatda bo‘lishi kerakligi haqida maslahatlar beradi. She’rda berilgan tavsiyalar, o‘z-o‘zini tarbiyalash, sabr-toqat, va mustaqil fikrlash kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

*If you can trust yourself when all men doubt you,
But make allowance for their doubting too;
If you can wait and not be tired by waiting,
Or being lied about, don’t deal in lies,
Or being hated, don’t give way to hating,
And yet don’t look too good, nor talk too wise;*

Bu she’rdagi “trust yourself,” “waiting,” “being lied about” kabi iboralar ingliz madaniyatining erkaklar uchun belgilangan ideal xususiyatlarini aks ettiradi. Kipling ushbu she’rda kuchli ijtimoiy va madaniy me’yorlarni taqdim etadi. She’rda inson hayotida turli qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsizliklar va sinovlar bo‘lishi tabiiy ekanligi ta’kidlanadi. Kipling, bu vaziyatlarda sabrli bo‘lish va o‘z maqsadlariga erishish uchun kurashish zarurligini bildiradi. She’rda o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z fikrlariga ishonish, va boshqalar bilan muomala qilishda adolatli bo‘lish muhimligi ta’kidlanadi. Kipling, insonning o‘zini qanday tutishi va boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishi, uning shaxsiyati va hayotidagi muvaffaqiyatga ta’sir qiladi.

Kiplingning “The White Man’s Burden” she’ri kolonializm haqidagi turfa xil qarashlarini aks ettiradi. “The White Man’s Burden” iborasi britan imperiyasining o‘z madaniyatini boshqalarga tarqatish majburiyatini tasvirlaydi.

*Take up the White Man's burden–
Send forth the best ye breed–
Go bind your sons to exile
To serve your captives’ need;*

Bu she’rda “White Man's burden” atamasi ingliz madaniyatida koloniya davlatlarining rivojlanmagan xalqlarga yordam berish majburiyatini ham aks ettiradi. Bu ibora imperiya ideologiyasini va madaniyatning hukmronligini ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, lingvokulturmalar lingvomadaniyatshunoslikning asosiy birligi bo‘lib, murakkab, fanlararo xususiyatlarni namoyon etadi, tarkibida nafaqat lisoniy, balki madaniy axborot saqlashi va tilda turli xil birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Lingvokulturemaning tuzilishi o‘zga til birliklariga qaraganda ancha murakkab: u o‘zida ham lisoniy taassurot, ham tildan tashqari muhitni (situatsiya, realiya) namoyon etadi. Shunday qilib, tilni yaxshi biladigan kishida har qanday so‘zga madaniy oreol hamrohlik qiladi, busiz matnni to‘g‘ri interpretatsiya qilish mushkul va ba’zi hollarda umuman iloj-sizdir. Lingvokulturmalar badiiy matnlarning madaniy va estetik qirralarini ochib beradi, ular orqali matnlarning mazmuni, personajlari va ularning o‘zaro munosabatlari yanada yaxshiroq tushuniladi. Badiiy asarlar til va madaniyat o‘rtasidagi chuqur aloqani ko‘rsatadi va madaniy an’analarni saqlash, identifikatsiyani mustahkamlash va matnni tushunishni yaxshilash kabi vazifalarni bajaradi. Shuning uchun, lingvokulturmalarini tahlil qilish badiiy matnlarning yanada chuqurroq anglanishiga yordam beradi va ularning madaniy qiymatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Горушкина А.В. Лингвокультуреми в структуре современного поэтического дискурса сетевого автора Али Кудряшевой. Функциональный аспект изучения. Автореферат, Череповец, 2019.
- (2). Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. М., "Наследие", 1992.
- Maslova V.A. Человек в зеркале сравнения //http://www.gumer.info/biblioter-Burs/Linguist/maslova/06/php.
- (3). Solijonov Y. Anvar Obidjon. Poetik olami. Monografiya, Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2022, 216 bet. (Solijonov Y. Anvar Obidjon. Poetic world. Monograph).
- (4). Темигазина З.К. Лингвистическая аксиология: оценочные высказывания в русском языке. Москва "Flinta", 2015, 247 bet; ISBN 978- 5-9765-2118-6
- (5). Воробьев В.В. Лингвокультурология. Москва, Российский ун-т Дружбы народов, 2008, 336 с. ил., табл.; 22 см.; ISBN 978-5-209-02717-1
- (6). Yusupov O'.Q. Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim istilohlar. Filologiya masalalari, T., 2011.

Sattorova Shahlo Shavkat qizi (Buxoro davlat universiteti doktoranti (PhD);

shahlosattorova1610@gmail.com; ORCID ID: 0009-0008-6830-8200)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MODALLIK KATEGORIYASINING UMUMIY TAHLILI

***Annotatsiya.** Modallik – bu tilshunoslikda biror harakatning yoki holatning maqsadi, imkoniyati yoki majburiyatini ifodalovchi grammatik kategoriya. Modallik, ko'pincha, fe'l yordamida bildiriladi va u inson fikrlash tizimini aks ettiradi. Ingliz tilida "must", "might", "can", "should" kabi modallar keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek tilida ham shunga o'xshash so'zlar mavjud: "kerak", "mumkin", "lozim" va hokazo. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida modallik kategoriyasining lingvokulturologik xususiyatlari ochib beriladi. Qiyosiy tahlillar davomida ingliz va o'zbek ertaklaridan keltirilgan misollar orqali fikrlar dalillanadi. Ikki tildagi modallik kategoriyasining o'xshash hamda farqli jihatlarini yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** pragmatik tahlil, modalli konkretlash, sintaktik struktura, kontekst tahlil, korpus tadqiqot, ehtimoliy modallik, lingvokulturologik ma'no.*

ОБЩИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ МОДАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

***Аннотация.** Модальность – грамматическая категория в лингвистике, выражающая цель, возможность или обязательность действия или ситуации. Модальность часто выражается с помощью глагола и отражает систему мышления человека. Если в английском языке распространены такие модальные глаголы, как «must», «might», «can», «should», то в узбекском языке есть аналогичные слова: «kerak», «mumkin», «lozim» и так далее. В данной статье раскрываются лингвокультурные особенности категории модальности в английском и узбекском языках. В ходе сравнительного анализа идеи доказываются на примерах из английских и узбекских сказок. Выделены сходные и разные аспекты категории модальности в двух языках.*

***Ключевые слова:** прагматический анализ, модальная конкретизация, синтаксическая структура, контекстный анализ, корпусное исследование, возможная модальность, лингвокультурное значение.*

GENERAL ANALYSIS OF MODALITY CATEGORY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

***Annotation.** Modality is a grammatical category in linguistics, that expresses the purpose, possibility or obligation of an action or situation. Modality is often expressed using a verb and it reflects a person's thought system. If modals such as "must", "might", "can", "should" are common in English, there are similar words in Uzbek: "kerak", "mumkin", "lozim" and so on. This article reveals the linguistic and cultural characteristics of the modality category in English and Uzbek languages. In the course of comparative analysis, the ideas are proved through examples from English and Uzbek fairy tales. Similar and different aspects of the category of modality in two languages are highlighted.*

***Keywords.** pragmatic analysis, modal concretization, syntactic structure, context analysis, corpus research, possible modality, linguocultural meaning.*

Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti, PhD A.A.Ikramova taqrizi ostida

***Kirish.** Modallik kategoriyasi – tilshunoslikda so'zlar va iboralar ma'nosini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Modallik, asosan, gapdagi subyektning harakatga nisbatan munosabatini ifodalaydi. Bu munosabatlar qatoriga ishonch, ehtimollik, zarurat va boshqa holatlar kiradi. Modallik – bu gapda ifodalangan fikrning haqiqiyliги, ehtimolliги yoki zarurati haqida ma'lumot beruvchi grammatik kategoriyadir. Modallik*

turli xil tillarda turlicha ifodalanishi mumkin: modal fe'llar, modal so'zlar (masalan, "mumkin", "zarur", "lozim") va boshqa grammatik vositalar orqali. Modal mantiq muammosi uzoq qadimda vujudga kelgan. Modallik, ya'ni, so'zlayotgan shaxs nuqtayi nazaridan ularning nutqi voqelikka munosabati qanday bo'lishi haqida Arastuga qadar birinchi bo'lib "eng mashhur, balki birinchi ham bo'lgan" Abderalik Protagor fikr bildirgan. Uning "Munozara ilmi" asari saqlanib qolmagan, biroq yetti asrdan so'ng Diogen Laertskiy o'zining "Mashhur faylasuflarning hayoti, ta'limi va hikmatlari" qomusiy to'plamida (milodiy II va III asrlar) "Protagor nutqni to'rtta tur – iltimos, savol, javob, buyruq"ga bo'lgani va "ularni nutq tarmoqlari" deb ataganini eslatib o'tgan. Zamonaviy lingvopragmatika nuqtai-nazaridan Protagor ko'rsatgan "tarmoqlar" so'zlayotgan shaxs u yoki bu iborani gapirayotgan shaxs xabar qiladigan maqsad bo'yicha farqlanadigan nutq harakatlarining keng modal sinflariga muvofiq keladi. Bu Charlz Pirsning semiotikasidagi "pragmatika" atamasi paydo bo'lganga va zamonaviy tarixda til muloqotlarini o'rganish shiddatli rivojlanganga qadar ancha oldinroq lingvistik pragmatikaga asos solgan. Professor N.B.Mechkovskayaning ta'kidlashicha, "aloqa (kommunikatsiya) va tilni o'rganish tarixida nutqning turli xilligi va variantligi, muloqotning turli maqsadlari, usullari va uslublarning mavjudlik g'oyasining o'zi juda muhim bo'lib hisoblanadi". Shu tarzda, inson tilning leksikasi va grammatikasiga e'tibor qaratganga qadar, uni muloqot jarayonining o'zi qiziqtirib qolgan, nutq yordamida turli muloqot maqsadlari (illokutsiyalar) ifodalanishi haqidagi savol paydo bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili. K.G.Pankratova o'zining "Modallik va uning turlari" nomli asarida "modallik tushunchasi chuqur tahlil qilingan bo'lib, turli xil modallik turlari (ehtimoliy modallik, zaruriyat modalligi) ko'rib chiqilgan" degan fikrni keltiradi. L.V.Shcherba esa "Til va psixologiya" asarida "til orqali inson fikrlarini qanday ifodalash mumkinligi, modallik kategoriyasi orqali esa shu fikrlarga munosabatni ifodalash mumkinligi" haqida fikr yuritadi. Rus tilshunosi S.A.Kolesov "Modallikka oid masalalar" maqolasida rus tilidagi modallik sistemasi va uning o'ziga xos jihatlari tahlil qilgan. Bu tahlillar esa turli tillarda modallik kategoriyasini vazifasi va vositalarini qiyosiy o'rganish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan tilshunoslarning fikridan kelib chiqqan holda modallik kategoriyasini og'zaki hamda yozma nutqda fikrga munosabatni ifodalash uchun teng qamrovda foydalanilishini ko'rish mumkin. Bu munosabat faqat obyektiv yoki subyektiv xususiyatga ega bo'libgina qolmay, balki madaniy hamda pragmatik ma'nolarga ham egadir.

Aristotel modallikni uning mohiyatini va imkoniyatlarini aniqlash orqali tushuntirgan. U modallikni mavjudlikning turli darajalari sifatida ko'rgan. Modallik deb yozadi Azim Hojiyev (lotincha modus–mayl) so'zlovchining ifodalayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik-semantik kategoriya. Fikr mazmuni real yoki noreal va shu kabi tarzda tasavvur etilishi mumkin. Modallik so'z, morfema, yuklama va intonatsiya orqali ifodalanishi mumkin. Masalan: **Eng:** *She can write* (can modal verb means the ability to do something) – **Uzb:** *U yoza oladi* (ol-yordamida yasalgan qodirlik farmoni). **Eng:** *He comes, certainly* (certainly modal word means strong belief) – **Uzb:** *U keladi, albatta* (albatta modal so'zi qat'iy ishonchni bildiradi) [1;55–56-b.].

Modallik tushunchasiga nisbatan kengroq yondashuv A.A.Ivinning asarlarida keltirilgan: "Modallik – bu u yoki bu nuqtai-nazardan aytilgan iborada belgilangan aloqaning baholanishi". Modalli konkretlash (aniqlashtirish) ko'p hollarda "zarur", "ehtimol", "isbotlanadigan", "inkor etiladigan", "majburiy", "ruxsat etilgan", "yaxshi", "yomon" kabi tushunchalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda XX asrning o'rtalaridan universitetlarda fan qatoriga qo'shilgan modal mantiq rivojlanishda va yangi modal tushunchalar va ma'nolar bilan boyishda davom etmoqda: "Oxirgi o'n yillikda modal mantiq shiddat bilan rivojlanmoqda, shu jumladan, yangidan yangi modal tushunchalarni o'z ichiga olmoqda. Uni asoslash usullari takomillashtirilgan bo'lib, bu modal mantiqqa yangi kuch baxsh etdi va uni zamonaviy mantiqiy tadqiqotlar markaziga qo'ydi". Mantiqqa bag'ishlangan turli asarlarda berilgan modallik turlarining tarkibi va guruhlari xilma-xil. "Mantiq lug'ati" mualliflari ta'kidlaganidek, "modal baholarning turli xil mumkin bo'lgan xillari ichidan u (ya'ni modal mantiq) kam sonni, eng qiziqclarini o'z ichiga oladi". Ushbu maqolada kundalik muloqotda muntazam ishtirok etadigan modallik turlari ko'rib chiqiladi: bilish (aletik va epistemik), deontik, aksiologik, metatillik, teleologik modalliklar [2;120–125-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Modallik kategoriyasini o'rganishda ko'p hollarda korpus tadqiqotlari qo'llaniladi; bu usul yordamida turli kontekstlarda modallar qanday ishlatilishini aniqlash mumkin. Modalarni tadqiq qilishda pragmatik yondashuv ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u so'zlashuv jarayonidagi ijtimoiy kontekstni hisobga olishga yordam beradi.

Modallik kategoriyasi lingvistikada muhim o'rin tutadi va u tilning semantik va sintaktik jihatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Modallik, odatda, biror narsaning mumkinligi, zarurati yoki ehtimolini ifodalov-

chi tushunchadir. Nazariy asoslar metodi orqali modallikni o'rganishda quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. Modallik fe'llari. Modallik kategoriyasini o'rganishda modallik fe'llarining (masalan, "qolish", "bajarmoq", "xohlamok") roli muhimdir. Ushbu fe'llar yordamida gapdagi sub'ektning niyatlari va ehtimollikni aniqlash mumkin. Misol: "*U buni qilishni xohlaydi*" (bu yerda "xohlaydi" modallik ifodalaydi).

2. Modallik so'zlari. Modallikni ifodalovchi so'zlar yoki iboralar (masalan, "mumkin", "zarur", "kerak") orqali gaplarning ma'nosini o'zgartirish. Masalan, *Bu ishni qilish kerak* (bu yerda "kerak" zaruratni bildiradi).

3. Sintaktik struktura. Modallik kategoriyasining sintaktik jihatlari ham muhimdir. Masalan, modallik fe'lidan foydalanish orqali turli xil sintaktik strukturalarni yaratish mumkin. Masalan, *U buni qila oladi* (bu yerda modallik fe'li yordamida imkoniyat ifodalanmoqda).

4. Semantik tahlil. Modallikka oid gaplarni semantik tahlil qilish orqali ularning ma'nosini chuqurroq tushunish. Masalan, *Agar vaqtim bo'lsa, men kelaman* (bu gapda shartli modallik mavjud).

5. Pragmatik kontekst. Modallik kategoriyasini pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish ham muhimdir, chunki modallikka bog'liq ifodalar kontekstga qarab turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, Biror kishi *Men buni qilmasam bo'lmaydi* desa, bu uning majburiyatini bildiradi [3; 36-48-b.].

Bu misollar yordamida biz modallikka oid nazariy asoslarni chuqurroq tushunishimiz mumkin. Har bir misolda modallikka oid turli jihatlar ko'rib chiqilgan bo'lib, bu sohaga oid tadqiqotlarimiz uchun foydali bo'lishi aniq.

Tahlil va natijalar. Ehtimoliy modallik. Ehtimol yoki imkoniyatni anglatadi (masalan, *U kelishi mumkin*). Zaruriyat modalligi: Biror ishni qilish yoki qilmaslik zaruratini bildiradi (masalan, *Seni ko'rishim kerak*).

Xohish modali. Subyektning xohishini yoki niyatini aks ettiradi (masalan, *Men buni qilishni xohlayman*).

Ingliz ertaklarida modallik ko'pincha qahramonlarning niyatlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, *The Three Little Pigs* (Uch kichkina cho'chqa) ertagida cho'chqalar o'z uylarini qurishda qanday qilib mustahkamlikka erishish uchun harakat qilishlari haqida gapiriladi. Bu yerda *must* modal fe'lidan foydalaniladi, chunki cho'chqalarning omon qolishi ularning qarorlariga bog'liq. Bundan tashqari, ingliz ertaklarida kelajakdagi imkoniyatlarni ifodalovchi modal so'zlar ham uchraydi. Misol uchun, *If you work hard enough, you might succeed* (Agar siz yetarlicha mehnat qilsangiz, muvaffaqiyatga erishishingiz mumkin) jumlasidagi *might* so'zi kelajakdagi ehtimollikni bildiradi.

O'zbek ertaklarida ham modallik katta ahamiyatga ega. Masalan, *Qora oilaning qizi* ertagida qahramonning kuchli orzulari va ularga erishish yo'lidagi majburiyatlari haqida so'z boradi. Bu yerda *kerak* so'zi yordamida qahramonning maqsadlariga erishishi uchun nima qilish kerakligi ta'kidlanadi. O'zbek tilidagi modallar ko'pincha aniq vaziyatlarda qahramonlarga maslahat berishda yoki ularga yo'l ko'rsatishda ishlatiladi. Misol uchun: *Sening yordaming kerak* deganda *kerak* so'zi orqali qahramonning vazifasini anglatib turiladi.

Ingliz va o'zbek ertaklaridagi modallik kategoriyasining asosiy farqi shundaki, ingliz tilidagi modal fe'llar aniqroq formaga ega bo'lib, ular orqali ehtimollik yoki majburiyatlarni ochiq-oydin ifodalash mumkin. O'zbek tilida esa bu tushunchalar ko'proq kontekstga bog'liq holda amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ingliz ertaklaridagi individualizm ruhiyati bilan solishtirganda, o'zbek ertaklaridagi jamoaviylik ballari juda kuchli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu jamoaviylik modallar orqali ifoda etilib, qahramonlarning bir-birlariga bo'lgan mas'uliyatlarini ochib beradi.

Xulosa va takliflar. Modallik kategoriyasi tildagi muhim jihatlardan biri bo'lib, u kommunikatsiyada aniqlik va aniq fikrlarni ifodalashda yordam beradi. O'zbek tilidagi modallarni o'rganish nafaqat sintaksis va morfologiya nuqtayi nazaridan, balki semantika va pragmatika jihatidan ham qiziqarli bo'lishi mumkin. Ingliz va o'zbek ertaklaridagi modallik kategoriyasi har ikki madaniyatni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Modallar orqali hikoya ichidagi xarakterlarning niyatlari, imkoniyatlari va majburiyatlari muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu tahlil bizga nafaqat adabiyot nuqtai nazaridan, balki madaniy kontekstni anglashimizga ham xizmat qiladi. Ertaklarda mavjud bo'lgan bu elementlarni chuqurroq o'rganish urf-odatlarining boyligini ochib berishi mumkin.

Ingliz ertaklari modallik kategoriyasi yordamida nafaqat o'zaro munosabatlarni va xarakterlarning qarorlarini yoritadi, balki madaniy qadriyatlarni ham namoyon etadi. Ushbu ikki element bir-birini to'ldirib turibdi va hikoyalarning chuqurligini oshirishga xizmat qiladi. Ertaklarning mazmuni orqali biz inson tabiatini va jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarni yaxshiroq anglashimiz mumkin. O'zbek ertaklaridagi modallik

kategoriyasi nafaqat hikoyaning tuzilishi uchun muhim ahamiyatga ega, balki u xalqning madaniyati, qadriyatlar va tarbiyasini ham aks ettiradi. Bu asarlar orqali insonlarning hayotdagi turli imkoniyatlari va tanlovlari haqida chuqur fikr yuritishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1985, 55-bet.
- (2). J.A.Yoqubov. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari. T., "Fan", 2005, 224-bet.
- (3). V.Z.Panfilov. The category of modality and its role in the constitutional structure of sentences. Issues of Linguistics, 1977, p. 36–48.
- (4). M.K.Halliday. System and function in language: Selected papers. Ed.ByG. R.Kress London. Oxford Univ. Press. 1976, p. 197.
- (5). Sattorova Shahlo Shavkat qizi. (2022). Modallik ma'nolarining lingvistik asoslari. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/127>
- (6). Sattorova Shahlo Shavkat qizi. (2022). Importance of Modality in Learning Process. Spanish Journal of Innovation and Integrity. Volume, 07, 2022, <http://sjii.indexedresearch.org>

**Rahmonova Surayyo Ne'matovna (Boysun tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimi;
E-mail: Surayvorahmonova80@gmail.com)**

O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATIDA MERONIM (PARTONIM)NING GENETIK-ETIMOLOGIK TASNIFI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada meronim (partonim)larning genetik-etimologik tasnifi, ularning kelib chiqish manbalari haqida so'z yuritilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da berilgan meronim (partonim)larning turli tillar asosida shakllanganligi borasidagi ma'lumotlar dalillangan.*

***Kalit so'zlar:** meronim, partonim, genetik-etimologik tasnif, o'zbek tilining izohli lug'ati, turli tillardan o'zlashish.*

Rahmonova Сурайё Нематовна (сотрудник отдела дошкольного и школьного образования Байсунского района; Surayvorahmonova80@gmail.com)

ГЕНЕТИКО-ЭТИМОЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ МЕРОНИМА (ПАРТОНИМА) В ТОЛКОВОМ СЛОВАРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

***Аннотация.** В данной статье рассматривается генетико-этимологическая классификация меронимов (партонимов), источники их происхождения. Доказаны сведения об образовании меронимов (партонимов), приведенные в «Толковом словаре узбекского языка» на основе разных языков.*

***Ключевые слова:** мероним, партоним, генетико-этимологическая классификация, толковый словарь узбекского языка, заимствования из разных языков.*

Rahmanova Surayyo Nematovna (Boysun district pre-school and school education department employee E-mail: Surayvorahmonova80@gmail.com)

GENETIC-ETYMOLOGY CLASSIFICATION OF MERONYM (PARTONYM) IN THE EXPLANATORY DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE

***Annotation.** This article discusses the genetic-etymological classification of meronyms (partonyms), their sources of origin. Information on the formation of meronyms (partonyms) given in the "Annotated Dictionary of the Uzbek Language" based on different languages is proven.*

***Key words:** meronym, partonym, genetic-etymological classification, explanatory dictionary of the Uzbek language, borrowing from different languages.*

Kirish (Introduction). Leksikografiya qadimgi yunonchadan olingan so'z bo'lib, "leksika" va "grafiya", so'z va yozuv demakdir va lingvistikaning ushbu bo'limi lug'at tuzish, lug'atshunoslik haqidagi fandi [1;19-b.]. Leksikografiya lug'atlarni tuzish, yozish yoki tahrirlashni o'z ichiga olgan ilmiy intizomdir. Garchi u tilshunoslikning kichik bir bo'limi hisoblansada u lug'at tuzishga asoslangan mustaqil sohadir. Demak, leksikologiyada nafaqat lug'atlar, ularning turlari tadqiq etiladi, balki unda lug'atlarni shakllantirish ishlari ham olib boriladi.

I.R.Galperin leksikografiyani hamma narsani o'z ichiga olishi lozim bo'lgan, o'z qudratini, qadrini, nutqda qo'llanish qobiliyatini yo'qotmagan tilda yashovchi, so'nggi vaqtlarda tug'ilgan hayotiy va barqaror bo'lib chiqqan barcha narsalarni aks ettira olish xususiyatiga ega bo'lish kerak, deb ta'kidlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ayrim leksikograflar ushbu sohani amaliy va nazariy yo'nalishga ajratadilar. Nazariy leksikografiya lug'at yozuvlarini mamlakatning muayyan tarixiy

kontekstda (davrdan), uning madaniyatini, bir tilning (lugʻatning) boshqa bir tilga taʼsirini oʻrganadi. Leksikografiya uchun adabiyotning, sanʼatning, madaniyatning va ilm-fanning rivoji, ularning rivojlanish prinsiplari va tarixiy jihatlari qamrab olish qonuniyat hisoblanadi. Lugʻatlarning turlari, ularning tasnifi, tasvirlash obyekti, til leksemalarining koʻrsatilishi, lugʻat yozuvining taqdim etilishi lugʻatning muhim tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, ular oʻzaro bogʻliqlik va qarama-qarshilik asosida lugʻatlar tipologiyasini tashkil etadi va bir-biriga moslashadi, bir-birini bogʻlab turadi. Bunday lugʻatlarning turlari toʻrtga boʻlinadi: lingvistik, psixologik, sotsiologik va semiotik. Amaliy leksikografiya lugʻatlarni tuzish, yozish va tahrirlash sanʼatidir [2;64-b.].

Charlz Braun amaliy leksikografiyaga quyidagicha taʼrif beradi: “Amaliy leksikografiya bu toʻgʻri lugʻatlarni yaratishdir. Yaʼni, bu jihat nazariy leksikografiyadan olingan barcha maʼlumotlarni amalda qoʻllaydi. Buning uchun u amaliy lingvistikadan foydalanadi [3;81-b.].

Leksikografiya, yaʼni, lugʻatshunoslikning bir necha tarmoqlari roʻyxati ham keltirib oʻtiladi. Jumladan: muallif leksikografiyasi, ikki tilli leksikografiya, ensiklopedik leksikografiya, maxsus leksikografiya, tezaurus leksikografiyasi.

Leksikografiya lugʻatlar tipologiyasini ham ishlab chiqadi. Monolingual leksikografiya (tushuntirish va izohlashga asoslangan lugʻatlar), ikki tilli leksikografiya (tarjima lugʻatlari), taʼlim leksikografiyasi (til oʻrganish uchun lugʻatlar), ilmiy-texnikaviy leksikografiya (terminologik lugʻatlar) kabi turlarga tavsiflanadi [4;72-b.].

Leksikografiya sohasining rivojlanishida izohli lugʻatlarning ham oʻrni beqiyosdir. Izohli lugʻatlar lingvistik lugʻat turlaridan hisoblanib, bu turdagi lugʻatlarda har bir soʻzning (bosh soʻzning) maʼnosi koʻp maʼnoli boʻlsa, maʼnolari belgilanadi. Bu maʼnolar izohlanadi, yaʼni, tushuntiriladi, tavsif yoʻli bilan qayd etiladi. Izohli lugʻatlarga muayyan soʻz ishtirokida hosil boʻlgan iboralarni ham kiritish mumkin. Lingvistik lugʻatlarning boshqa turlari hisoblanmish terminologik lugʻatlar, tarjima lugʻatlarda ham mavjud lugʻaviy birliklarning, soʻz va turgʻun birikmalarning maʼnosi belgilanishi qayd etilishi va izohlanishi mumkin. Ana shu jihatlari bilan ularni ham izohli lugʻatlar tarkibiga kiritishimiz mumkin. Ular odatda lingvistik lugʻatning qaysi turiga mansubligiga va izohli ekanligiga koʻra nomlanadi. Masalan, “Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati”, “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” kabi.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati” besh jildli lugʻat hisoblanib, u 1981-yilda chop etilgan ikki jildli izohli lugʻatga asoslangan boʻlib, 2006–2008-yillarda “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyotida bosilib chiqqan.

Lugʻatda hozirgi oʻzbek tilida keng qoʻllaniladigan 80 000 soʻz va soʻz birikmalari, fan, texnika, sanʼat, madaniyat sohalariga oid atamalar, ayrim shevaga oid hamda tarixiy va eskicha soʻzlar kiritilgan. Izohli lugʻat Abduvahob Madvaliyev tahriri ostida tayyorlangan. 2020-yilda “Oʻzbekiston” nashriyoti davlat unitar korxonasida toʻldirilgan ikkinchi nashri eʼlon qilingan. Ushbu izohli lugʻatda turli soha soʻzlari bilan bir qatorda, meronim/partonim maʼnoli soʻzlar ham izohlangan boʻlib, biz uni quyidagi jihatlarda koʻrishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bizga maʼlumki, oʻzbek tili oʻzining koʻp asrlilik tarixiy taraqqiyoti davomida bir qator tillardan soʻz oʻzlashtirishi barobarida, ichki manbalar hisobiga boyib, takomillashib borgan. Oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi soʻzlarni tahlil etar ekanmiz, biz unda tojik, arab, rus, ingliz, fraznsuz, italyan, nemis, ingliz, ispan kabi qardosh va qardosh boʻlmagan tillardean soʻz oʻzlash-tirganligining guvohi boʻlishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Oʻzbek tilining 5 jildlik izohli lugʻatidagi meronim (partonim)larning genetik-etimologik tahlilini olib borishimiz jarayonida biz ularni quyidagi tillar asosida shakllanganligining guvohi boʻldik.

1. Arab tilidan oʻzlashgan meronimlar: avrat (tananing shariatga muvofiq bекitib yuriladigan qismi), ayvon–qasr oldi ochiq bino, aruz–vazn, astar, ashyo, aʼzo, bayt–sheʼriy parcha, bashara–boshning old qismi, yuz, baqbaqa.

2. Fransuz tilidan oʻzlashgan meronimlar: abajur (abat–jour–yorugʻlikni qaytaruvchi), balkon–koʻp qavatli uylardagi maydon, ballon–bosh shar maʼnosini bildiruvchi mashina gʻildiragi, bandaj–metal halqa, bandak–paranjining ikki yengi, basseyn.

3. Fors tilidan oʻzlashgan meronimlar: abzal–ot-ulovni minish yoki aravaga qoʻshish uchun zarur boʻladigan asboblarning majmui, abroʻ (qosh), avra–astar, afsoba, badan, balansir–ikki yelkali richag, band–qurol-asboblarning qoʻl bilan ushlanuvchi qismi, barra–qoʻzichoqning junli terisi, baxya–chokning oʻzi, bix–oʻsimlik ildizi, bod–shish, yalligʻlanish, bozi–bilak, qoʻl (uy va beshik bilan bogʻliq meronim), bolish–divanning suyanadigan qismi, bolor.

4. Lotin tilidan o‘zlashgan meronimlar: antenna (kema machtasidagi ko‘ndalang yog‘och), apparat fiziol. Ma‘lum vazifani bajaruvchi a‘zolar majmuyi, armatura–apparat, mashina, inshoot va sh.k.larning yordamchi qismlari majmuyi.

5. Yunon tilidan o‘zlashgan meronimlar: aorta–yurakning chap qorinchasidan boshlanadigan eng katta tomir, baza–ustun, kolonning asosi, pastki yo‘g‘on tayanch qismi.

6. Rus tilidan o‘zlashgan meronimlar: bagajnik–yukxona, boek. 1. Otish qurollarining o‘q chaq-natadigan qismi, 2. Bug‘ bolg‘asi qismi.

7. Italyan tilidan o‘zlashgan meronimlar: ballon–pallone to‘p, koptok ma‘nosini bildiruvchi g‘il-dirak, bashnya–qal‘a.

8. O‘zbek tiliga mansub meronimlar: barmoq.

9. Ingliz tilidan o‘zlashgan meronimlar: boks–yuqumli kasalligi bor bemorlar maxsus xonasi.

10. Nemis tilidan o‘zlashgan meronimlar: bolt.

11. Shevaga mansub meronimlar: baqa–tegirmonning metall qismi, baqay–boldir suyagi, baqaloq-hayvonlarning tuyuq va ilik o‘rtasidagi bo‘g‘ini, bebilchak, belak–chaqaloq belanadigan mato.

12. Neytral so‘z: Bet-1. odam boshining old qismi, yuzning chakkasi, biror buyumning yuzasi, sahi-fa, chet sohil, temir asbobning tig‘i, beshik asbob, biqin, bolaxona, bostirma, boshog‘-1. Bug‘doy to‘pguli, 2. Kamonning uchi.

13. Etnografiya bilan bog‘liq so‘z: beshik–belik.

14. Tibbiyot bilan bog‘liq meronimlar: boylam–cho‘ziluvchan to‘qimali tuzilma.

15. Anatomicaga oid so‘z: 1. Boldir–oyoqning tizza va to‘piq orasidagi qismi, oyoqning mushak go‘shiti kabi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, o‘zbek tili lug‘at qatlami turli tillardan o‘zlashgan so‘zlar hamda o‘z ichki imkoniyatlari asosida shakllangan so‘zlari hisobiga boyitilgan bo‘lib, ushbu so‘zlar tarkibida meronym (partonim) so‘zlar ham katta qismni tashkil etadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi meronim (partonim)larni tahlil qilish jarayonida ular turli sohaga aloqador so‘zlar ekanligi aniqlandi va dunyo tilshunos-olimlari nuqtayi nazariga e‘tibor qilgan holda ularning genetik-etimologik tasnifini yanada kengroq yoritishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘.F.Olimjon qizi, Ashirboyev Samixon. Leksikografiya tarixiga bir nazar. Maqola. “O‘zbekistonda fan-lararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali, 14-son, 2022.

(2). S.S.Sharipov. Leksikografiya (Tarjima leksikografiyasi) rivojlanishining asosiy jihatlari. Maqola. International journal of word art. Volume 3, 2022.

(3). I.Xidirova, G.Rabbimqulova, G.Abdurahmonova. Amaliy leksikografiya. Maqola. International scientific journal “Modern Science and research”. Volume 2, Issue 5.

(4). Berdiyeva Barno Turdialiyevna. Lug‘at turlari va ularning inson hayotidagi o‘rni. Maqola. Interdiscipli-nary conference of young scholars in Social Sciences. USA. 26–28th February.

Xamroyeva Shaxzoda Ikromovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti; E-mail: shkhamroeva@gmail.com)

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIKDA MUALLIF MUSHOHADASINING MOHIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy asar tuzilishidagi voqealar rivojiga ta‘sir ko‘rsatmaydigan, asar kompozitsiyasidagi sujetdan tashqari element hisoblangan muallif mushohadasining o‘rganilish ta-rixi, taraqqiyot bosqichlari, shuningdek, tadqiqot obyektini keng o‘rganish uchun turli tillar kesimidagi adabiyotshunoslikda keng qo‘llanilayotgan atamalar hamda zamonaviy tilshunoslikda muallif obrazini ifo-da etadigan terminlarga oid fikr-mulohazalar, qarashlar qiyosiy aspektda o‘rganilganib, tahlilga tortil-gan.

Kalit so‘zlar: muallif obrazi, lison shaxsi, muallif uslubi, muallif mushohadasi, sentensiya, apofeg-ma, izoh, muallifning chekinishi.

СУТЬ АВТОРСКОГО НАБЛЮДЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ И ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается история изучения авторского размышле-ния, этапы развитие, а также термины, которые широко используются в литературоведении на

разных языках для широкого изучения объекта исследования, и в современном языкознании и анализируются взгляды и мнения о терминах, выражающих образ автора в сравнительном аспекте.

Ключевые слова: образ автора, языковая личность, авторский стиль, авторские размышления, комментарий, апофема, комментарий, авторское отступление.

AUTHOR'S MEDIATION IN MODERN LINGUISTICS AND LITERATURE

Annotation. In this article, the history of the study of the author's mediation, the stages of its development, as well as the terms that are widely used in literary studies in different languages for a wide study of our research object, the approach about the terms expressing the image of the author are studied and analyzed in a comparative aspect.

Key words: author's image, author's style, author's mediation, comment, apothegm, commentary, author's digression.

Kirish (Introduction). XX asrning boshlarida olimlarning diqqat markazida badiiy asar kompozitsion tuzilmasining ajralmas bo'lagi hisoblangan muallif obrazi tushunchasi ko'plab ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida qaralgan. Muallif lison shaxsi, muallif nutqi, muallif uslubi va muallif obrazi tushunchalari badiiy asarlarni o'rganishda markaziy muammolardan biriga aylandi [18, 21, 22, 23, 24]. Muallif obrazi badiiy asar tuzilishida mavjud bo'lgan, voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatmaydigan, ko'pincha, syujet bilan zaif yoki sof rasmiy aloqaga ega bo'lgan asar kompozitsiyasidagi sujetdan tashqari elementlarda ham namoyon bo'ladi. Aynan mana shu badiiy asar elementlari muallifning mulohazalarini ifodalab asar mazmunining yanada chuqur ochib berilishida muhim rol o'ynaydi. Badiiy asar voqealar rivojida muallif obrazining ishtiroki yaqqol namoyon bo'lishi yoki aksincha yashirin tarzda namoyon bo'lishi asarning janriga, yozilgan davriga, g'oyaviy-estetik mazmuniga va muallif individual ijodiy yondashuviga bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Lisoniy hodisalarni keng ko'lamda tadqiq etuvchi matn lingvistikasi sohasining rivoji bilan badiiy matn va uning alohida komponentlari tahlili muhim ahamiyat kasb etdi. Bir qator olimlar, xususan, R.Bogrand, W.Dressler, T.Van Dijk, I.Galperin, O.Moskalskaya, Z.To'rayeva, V.Kuxarenko, D.Ashurova, N.Mahmudov, Sh.Safarov va boshqalarning asarlari badiiy matnni tadqiqot qilish negizini shakllantirdi, yaxlit asar kategoriyalari, til unsurlari, funksiyalari va ixchamlashtirilgan matn modeli tamoyillarini yoritdi hamda uni batafsil o'rganish uchun asos yaratdi. Shuningdek, so'nggi o'n yillikda ushbu tamoyillar muallif obrazini tilshunoshlar tomonidan tahlil qilishda keng foydalanilmoqda (N.S.Bolotnova, E.A.Goncharova, I.A.Shirova, E.I.Orlova va boshqalar), olamning lisoniy tasviri (G.N.Musagitova), badiiy asarning predmet-obyekt sifatida tashkil topishi (N.B.Antsiferova, N.M.Godenko), badiiy asarning subyektivligi (A.V.Popova), matnning lisoniy tarkibi (N.Y.Chugunova), muallif modalligi (E.T.Gorbunova, O.A.Trapeznikova). Tadqiqotchilar matnning lingvistik va kompozitsion tizimida ifodalangan muallif obrazi kategoriyasini stilistik matnning tuzilishini belgilaydigan va uning yaxlitligi va birligiga erishishni ta'minlaydigan markaziy kategoriyalaridan biri deb hisoblaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu mavzuni yoritishda qiyosiy, qiyosiy tarixiy, germeneytik kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ma'lumki, muallif obrazi estetik-adabiy kategoriyadir. Biroq uning mohiyatini aniqlash va idrok etish stilistika va kognitiv stilistika nuqtai nazaridan eng to'liq ko'rinadi, chunki muallif obrazi ko'pincha akademik V.Vinogradovning XX asrning 20–40-yillarida yaratilgan tadqiqot ishlarida bayon etilgan tushunchaga muvofiq talqin qilinadi. Uning ta'biri bilan aytganda "muallif obrazi" yozuvchi intensiyasi va yozuvchi xayolotidagi shaxsiyat va qahramonlar qiyofasi o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatlar shaklidir" [40;203-b.]. Shunday ekan, e'tiborga molik jihat shuki muallif obrazi singari lingvistik, kognitiv voqelik shakllari hamda badiiy timsollar, xarakterlar va uslublarning yangi zamonaviy lingvistik yo'nalishlar nigohida qaytadan shakllanish jarayoni natijasiga tadqiqotlar qaratilishi kerak, degan yondashuv o'rinaldir.

Shuni aytish mumkinki, muallif obrazi orqali subyektiv muallif modalligi, matn yaxlitligi, izchilligi, informativligi kabi matn kategoriyalari orqali matn tahlili amalga oshiriladi. G.G.Burkitboyeva bu holatni so'nggi paytlarda "matn"ning empirik tushunchasida o'sish kuzatilgani va uning mantiqiy hajmi va mazmuni kengayganligi" bilan izohlaydi [56;91-b.]. Bu borada muallifning mushohadasi, butun badiiy matn va muallif obrazini birlashtirgan parametrlar tizimini ko'rib chiqish tadqiqot obyekti uchun dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, badiiy matn tadqiqotining tizimli-struktur paradigmasi doirasida muallif obrazi kategoriyasini o'rganish katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu kategoriya bugungi kunda ham matn lingvistikasida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "Muallif obrazi" tushunchasi so'nggi o'n yillikdagi matn nazariyasi va badiiy diskursga oid adabiyotlarda asosiy o'rinlardan birini egallaydi [57;4–5-b.].

Fikrimizcha, muallif obrazi tushunchasining butun mavjud xilma-xilligi, ko'p qirrali tuzilishi esa butun asar kompozitsiyasining kaliti bo'lib, ma'lum bir muallifning badiiy asar tizimi birligi hisoblanib, uni individual badiiy uslub deb ham atash mumkin. Agarda individual badiiy uslubning stilistik doirasidagi natijalari kognitiv aspektida ko'rib chiqilsa, yangi mazmun kasb etadi. Zero, kognitiv nuqtai nazardan, "muallif uslubi – bu badiiy matnda [o'quvchiga] uzatiladigan dunyoni anglash, fikrlash usulidir" [44;96-b.]. Shunday qilib, uslubni anglash badiiy matni idrok etishning yuqori darajasi, so'z va umuman til faktlariga chuqurroq, teran munosabat va muallif ijodiga e'tibor bilan munosabatda bo'lish demakdir. Shuning uchun muallif obrazini kognitiv stilistika nuqtayi nazaridan aniqlash biz uchun eng istiqbolli vazifa sifatida ko'rinadi. Muallif obrazi va badiiy asarning boshqa elementlari (masalan, muallifning mushohadasi) o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rib chiqish, bizningcha, matn tilshunosligi va kognitiv fan kategoriyalarini bilishni talab qiladi.

Badiiy asarlarda muallif mushohadalarining katta o'rni borligini ko'plab adabiyotshunos olimlar (M.B.Xrapchenko, Y.M.Lotman, Y.N.Tynyakov, T.I.Silman va boshqalar) qayd etib, ularni muallifning o'zini-o'zi ifodalashning eng muhim vositasi, lirik ovozi deb hisoblaganlar. Lirik qahramonning badiiy asar sujetida ishtiroki bevosita bo'lib, muallif diskursiv shaxsi mulohazasi aks etgan fragment kiritilishi muallif mushohadasidagi ijobiy yoki salbiy modallik orqali ifodalanadi.

Adabiyotshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarda muallif mulohazalarini aks ettiradigan qator badiiy tushunchalarning umumiy turlari tasnifi mavjuddir. Tanlangan tadqiqot obyektni keng o'rganish uchun turli tillar kesimidagi adabiyotshunoslikda keng qo'llanilayotgan "author's digression", "remarka", "sentensiya", "apof(t) egma", "hriya" "lirik chekinish", "muallif chekinishi" singari atamalar, zamonaviy tilshunoslikda muallif obrazini ifoda etadigan "authors mediation" "muallif lison va diskursiv shaxsi" kabi terminlar xususiyatlarini mujassamlashtirgan "muallif mushohadasi" terminidan foydalanamiz.

Yuqorida sanab o'tilgan atamalar tavsifi va muallif mushohadasi bilan bog'liqlik farqli va mashtarak xususiyatlariga alohida to'xtalamiz. Muallif tomonidan kiritiladigan asar sujeti, voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatmaydigan shunday elementlardan biri muallif remarkasidi [1]. Remarka dramatik asar kompozitsiyasida uchraydi va asarda voqea kechayotgan joy, vaqt, sahnadagi dastlabki holat kabilar haqida ma'lumotlar bergani sabab muhim g'oyaviy-estetik ahamiyatga ega deyinish mumkin. Zero, ular shunchaki sahnalashtiruvchi rejissyor mo'ljallangan yo'riqnoma bo'lib qolmay, balki, eng avval, o'quvchiga sodir bo'lajak voqea mohiyatiga kirish, ishtirok etuvchilar haqidagi (ijtimoiy maqomi, turmush tarzi, fe'li) ilk tasavvurlarini konkretlashtirishda yordam berishga xizmat qiladi. Jahon adabiyotshunosligida ushbu tushuncha remarka (ba'zan muallif remarkasi) tarzida qo'llanib, o'zbek adabiyotshunosligida D.Quronov tomonidan muallif qaydlari deb ifodalanadi. Qolaversa, olimlar ta'kidlaganidek, muallif remarkasi badiiy asarga birovning nutqini kiritish va sharhlashda qo'llaniladi. Badiiy matndagi remarkaning ajralib turadigan xususiyati uning to'liq emasligi, qisqaligi, personajlar nutqiga ma'no qo'shishidir [2].

Jahon adabiyotining dastlabki asarlarida sentensiyalar, apotek (t)egmalar, xriya va lirik chekinishlarning mavjudligi so'z san'atkorining antik nazariyasini rivojlantirishga ma'lum hissa qo'shdi. Muallif bilan bog'liq muammoni hal qilish, shuningdek, muallif shaxsiyatining nisbatan eksplisit ko'rinishini ifodalovchi matn birliklarini o'rganish an'anasi Aristotelga borib taqaladi [16;173-b.]. Yigirmanchi asrda muallif muammolari va matnning mualliflik kategoriyalarini ishlab chiqishda poetika va estetika vakillari (M.M. Baxtin) [17;63-b.], tilshunoslik (V.V.Vinogradov) [18;7-b.], til falsafasi (L.Vitgenshteyn) [19;187-b.], ger-menevtika (M.Xaydeger, G.I.Bogin) [20;5-b.] sezilarli hissa qo'shdilar.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga nazar solsak, sujetdan tashqari til birligi hisoblangan "muallif mushohadasi" termining birlamchi kelib chiqishini, ushbu elementning birlamchi kelib chiqish ildizi mumtoz adabiyotdagi "begona bayt" tushunchasiga borib taqaladi. Adabiyotshunoslik ilmidan ma'lumki, g'azalda oxirgi bayt (maqta'dan oldin ba'zan keyin keladigan baytda lirik chekinish qilib, "begona bayt" deb ataladigan qo'shmisra kiritish mumkin. "Begona bayt"ning sujetdan tashqari elementlarga o'xshash sababi shundaki, u g'azalning oldin kelgan baytlaridagi umumiy tasvir yoki bayonga bevosita bog'lanmasligi, nisbatan erkinroq fikr-mulohazani ifodalashi mumkin. Shoir "begona bayt"da ham oldingi baytlar umumiy ma'no-mazmuni imkon bergan darajada, qaysidir ma'noda ulardan kelib chiqib lirik chekinish qiladi. Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda, asosan, o'zbek epik asarlarda uchraydigan muallif mushohadasining dastlabki ko'rinishi mumtoz lirik adabiyotiga borib taqaladi.

Yuqoridagi nazmda ishlatilayotgan "begona bayt" termini o'rniga nasriy asarlarda "muallif chekinishi" keng qo'llanadi. Bu borada adabiyotshunos olim D.Quronov o'zining "Adabiyotshunoslik lug'ati"da ushbu hodisaga muallif chekinishlari yoki avtor chekinishlari tarzida izoh berib o'tgan. Uning fikriga qaraganda, muallif chekinishlari epik asarlarning matniy unsurlaridan biri bo'lib, sujet voqealari bayoni (rivo-

ya)ni to'xtatib, muallifning o'quvchiga bevosita murojaat qilishi yoki falsafiy, publististik, lirik, adabiyot-tanqidiy va shu kabi masalalarda mushohadaga berilishidir [3]. Shuningdek, bir qator adabiyotshunos olimlar (D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva)ning fikriga ko'ra, an'anaviy tarzda qo'llanadigan lirik chekinish atamasi mazkur tushunchaning bir qisminigina qamrab oladi. Ya'ni, lirik chekinishlar ham mohiyatan muallif chekinishining bir ko'rinishi sifatida qaraladi.

Demak, badiiy adabiyotda muallifga ishora qiladigan muallif remarkasi va muallif kommentariyasi hamda muallif sentensiyasi, muallif apofegmasi, muallif xriyasi kabi atamalar qo'llanilsa, lingvistik tahlil obyekti sifatida qaralganda esa muallif mulohazasi, muallif chekinishi yoki muallif mushohadasi singari iboralar bilan ifodalanishi mumkin. Rus tadqiqotchisi I.R.Galperin lingvistik "author's mediation" terminini qo'llagan bo'lsa, rus adabiyotlarida ushbu atama авторские размышления (muallif mushohadasi), рассуждение (muallif mulohazasi) и отступления (muallif chekinishi) tarzida namoyon bo'ladi. Ushbu atamalar bir-biriga juda yaqin tursa-da, lingvistik tadqiqotlarda "авторские размышления", ya'ni, "muallif mushohadasi" atamasi muallifning fikrlarini ifodalashga qaratilganligi sababli "muallif chekinishi"ga qaraganda adekvat hisoblanadi. Muallif mushohadasi badiiy diskursda eng muhim vazifani bajaradi, ya'ni, asarning g'oyaviy-falsafiy mohiyatiga chuqurroq kirib borishga yordam beradi va muallif nuqtai nazarini ifodalaydi [4].

Ushbu adabiy hodisani lingvistik jihatdan o'zbek tilida muallif mushohadasi yoki muallif mulohazasi singari iboralar bilan ifodalash mumkin. O'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qilsak, ushbu terminlar arabcha mulohaza – kuzatish, nazorat; izoh; fikr bildirish; tanbeh, mulohaza qilmoq – fikran muhokama yuritish, o'ylash, andisha qilmoq [5] ma'nolarini anglatadi, mushohada – kuzatishdan o'tkazib fikr yuritish, o'ylab ko'rib xulosalarga kelish singari ifodalanadi [6]. Shunday qilib, muallif mushohadasi, muallif mulohazasi terminlari bir-biriga nihoyatda yaqin tursa-da, ular orasida nozik ma'no farqlari borligining guvohi bo'ldik. Zero, mushohada muallifning aynan faylasufona o'y-xayollari, kitobxonni o'ylantiradigan muallifning ichki dunyosini nisbatan keng aks ettiruvchi termin deyish mumkin.

Filologiya fanlari doktori N.Z.Normurodovning fikriga ko'ra, muallif mushohadasi mustaqil funksional-semantik turdagi kichik shaklli matn bo'lib, u avtosemantik, nisbiy struktur-semantik mustaqil, konseptual ahamiyatga ega, muallif modalligi va intensiyasini aks ettirishi va badiiy asarning kuchli pozitsiyasida joylashishi bilan xarakterlanadi [7].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, ishimizning amaliy qismini tahlili jarayonida muallif mushohadasining quyidagi kognitiv-madaniy aspektini ilgari suramiz:

- muallif mushohadasi polifunksional hosila bo'lib, birlamchi va ikkilamchi funksiyalar birlashuvi bilan xarakterlanadi;

- muallifning mushohadasi – muallifning konseptosferasini tashkil etuvchi bir qator madaniy konseptlarni birlashtirgan freym-mental konstruktsiya sifatida qaraladi;

- uslubiy vositalarning konvergentsiyasida namoyon bo'ladigan, uslubiy markerlanish bilan xarakterlanadigan muallif mushohadasi, konseptual ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni aks ettirish, taqdim etish usullaridan biri sifatida qaraladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ingliz va o'zbek tillarida badiiy matnda muallif obraziga ishora qiluvchi terminlar xilma-xilligi adabiyotshunoslikda ("author's digression", "remarka", "sentensiya", "apof(t) egma", "hriya" "lirik chekinish", "muallif chekinishi") va lingvistikada ("authors mediation"–"muallif lison va diskursiv shaxsi") turlicha terminlar muqobili borligi bilan xarakterlanadi:

a) yuqoridagi tadqiqot natijalarimizdan kelib chiqib, biz "muallif mushohadasi" termini muallifning fikrlari, o'y-xayollarini ifodalashga qaratilgan lingvistik tadqiqot obyekti sifatida adekvat deb hisoblaymiz;

b) muallif mushohadasining kognitiv voqelanishi polifunksionallikda, avtosemantiklikda, strukturaviy-semantik mustaqillikda, stilistik markerlanganlikda ifodalanadi.

d) muallif mushohadasi – lingvokulturema sifatida milliy-madaniy dunyo manzarasini ifodalaydigan madaniy birlik tarzida xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Adabiyotshunoslik lug'ati. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, 247-bet.
- (2). Кукуева Г.В. Авторская ремарка как средство выражения авторской стратегии в диалоге с читателем. Текст: структура и функционирование. Вып. 5, Барнаул, 2001, 67 с.
- (3). Adabiyotshunoslik lug'ati. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, 184-bet.

- (4). N.Z.Normurodova. Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Dissert., 47-bet.
- (5). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 80.000ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi, 2-nashr, 635-bet.
- (6). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 80.000ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi, 2-nashr, 658-bet.
- (7). N.Z.Normurodova. Вербальная экспликация антропоцентризма В англоязычном художественном дискурсе, 46-bet.
- (8). Виноградов В.В. Наука о языке художественной литературы. Исследования по литературоведению и стилистике. 1960, с. 5–45.
- (9). Литературный энциклопедический словарь. В.М.Кожевникова, П.А.Николаева. “Советская энциклопедия”, 1987.
- (10). Энциклопедический словарь юного литературоведа. И.И.Новикова, Е.А.Шисковский. Педагогика “Пресс”, 1998.
- (11). Гончарова Е.А. Пути лингвостилистического выражения категории автора в художественном тексте. Изд. Томск унив-та, 1984, 150 с.
- (12). Васильева А.Н. Художественной речь: курс по стилистике для филологов. “Наука”, 1983, 256 с.

Mamarasulov Umidjon G‘ulomjonovich (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi bosh mutaxassisi; u.mamarasulov@gmail.com)
E.M.REMARK ROMANLARIDA SO‘Z TAKRORI BILAN BOG‘LIQ BADIY TASVIR
VOSITALARI VA ULARNING O‘ZBEK VA RUS TILLARIDAGI TARJIMADA
IFODALANISHI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada muallif E.M.Remark romanlarining rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalarida so‘z takrori bilan bog‘liq badiiy tasvir vositalarinining aks etishini misollarda ko‘rib chiqadi. Tadqiqotchi anafora, epifora, simplok, epiflok, anadiploza va kikkos badiiy tasvir vositalarining nazariy asoslari bo‘yicha yurtimiz va jahon tilshunos va tarjimashunos olimlarining ilmiy qarashlarini o‘rganib, mazkur tushunchalar bo‘yicha o‘zining xulosalarini keltirib o‘tadi. Keltirilgan nazariy ma‘lumotlarni E. M.Remark romanlarining rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalaridan olingan misollar bilan asoslaydi. Asl matn va tarjima qilingan tillar matnidagi misollarni morfologik jihatdan tahlil qiladi. Ba‘zi o‘rinlarda asl matnda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarining o‘zbek tilidagi talqinlari maqola muallifi tomonidan taqdim etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** badiiy tasvir vositasi, takror, takrir, anafora, epifora, anadiplozis, badiiy tarjima, umumiy va xususiy ma‘no.*

Умиджон Гуломжонович Мамарасулов (главный эксперт Агентства оценивания знаний и компетенций при Министерстве высшего образования, науки и инноваций;
u.mamarasulov@gmail.com)

СРЕДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ, СВЯЗАННЫЕ С ПОВТОРОМ
СЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Э.М.РЕМАРКА, И ИХ ПЕРЕДАЧА В ПЕРЕВОДАХ НА
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

***Аннотация.** Автор данной статьи рассматривает использование средств художественной выразительности, связанных с повтором слов в произведениях Э.М.Ремарка, и передачу этих средств в переводах данных произведений на русском и узбекском языках. Исследователь изучает научные точки зрения отечественных и зарубежных учёных о теоретических основах таких художественных выразительных средств, как анафора, эпифора, симплек, эпифлок, анадиплоз, и киклос, и приводит свои выводы. А также обосновывает теоретические знания примерами из произведений Э.М.Ремарка. Автор статьи проводит морфологический анализ приведённых примеров. В некоторых случаях даёт свои варианты перевода на узбекский язык.*

***Ключевые слова:** средства художественной выразительности, повторение, такрир, анафора, эпифора, анадиплозис, художественный перевод, общий и собственный смысл.*

Umidjon G‘ulomjonovich. Mamarasulov (chief expert of Agency for assessment of knowledge and competences under ministry of higher education, science and innovation; u.mamarasulov@gmail.com)
MEANS OF ARTISTIC EXPRESSION ASSOCIATED WITH THE REPETITION OF WORDS
IN THE NOVELS OF ERICH MARIA REMARQUE, AND THE TRANSFER OF THESE
MEANS IN TRANSLATIONS OF THESE NOVELS IN RUSSIAN AND UZBEK

***Annotation.** The author of this article examines the use of means of artistic expression associated with the repetition of words in the novels of Erich Maria Remarque, and the transfer of these means in translations of these novels in Russian and Uzbek. The researcher studies the scientific points of view of*

local and foreign scientists on the theoretical foundations of such means of artistic expression as anaphora, epiphora, symplos, anadiplosis, cyclos and presents his conclusions. He also substantiates theoretic knowledge with examples from Remarque's novels. The author of the article conducts a morphological analysis of the examples given. In some cases, it gives its own translation options into Uzbek.

Keywords: means of artistic expression, repetition, anaphora, epiphora, anadiplosis, artistic translation, sense of the word.

Kirish. Badiiy tasvir va ifoda vositalari tushunchasi badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalarining umumiy nomi [8; 49-b.] hisoblanadi. Ular orasida so'z takrori bilan bog'liq bir qator badiiy tasvir va ifoda vositalari mavjud bo'lib, ular, asosan, matndagi nutqning ekspressiv bo'yoqdorligini, asar qahramonining ichki ruhiy holati, uning asar voqealarida ifodalanayotgan g'oyaga nisbatan munosabatini ifodalash orqali o'quvchiga ma'lum bo'lmagan qirralarini yoritish uchun xizmat qiladi. Mazkur maqolada nemis tilida ifodalangan shu turkumdagi badiiy tasvir va ifoda vositalari xususida fikr yuritilib, ularning rus va o'zbek tillarida ifodalanishi tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur maqolani yozish asnosida yurtimiz va dunyo ilm-fan arboblarning mavzuga doir bir qator adabiyotlari ko'rib chiqildi va zarur hollarda ulardan iqtiboslar keltirildi. G'.Salomov, D.Quronov, A.Hojiahmedov, N.Naer, G.Pan, M.G.Sushko-Bezdeneynih kabi olimlarning ilmiy asarlari, Z.Jumaniyozov, Z.Sodiqov, S.Nazarov, Y.Egamova kabi filologlarning dissertatsiyalari shular jumlasidandir. Badiiy tasvir va ifoda vositalarining shakli tarkibidagi so'zlarni tahlil qilishda esa nemis tilidagi bir tilli izohli lug'at hamda o'zbek tilining izohli lug'atidan foydalanildi. Taniqli tilshunos Naer o'zining "Nemis tili stilistikasi" nomli kitobida takrorning turlariga to'xtalar ekan, uning so'zma-so'z takror hamda stilistik takror kabi turlarini keltirib o'tadi [5;179-b.]. G.V.Pan esa so'z takrori bilan bog'liq ifoda vositalari qatoriga anafora, epifora, simplok, kiklos va anadiplozis kabilarni kiritgan [7;241–242-b.]. Sushko-Bezdeneynix so'z takrorining sintaktik darajadagi turlaridan anafora, epifora va sintaktik parallelizmni sanab o'tgan [4;71-b.]. Keltirib o'tilgan turlarning bir-biridan farqlanishida takrorlanib kelayotgan so'zning gapdagi o'rni asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda nazariy, tahliliy-sintetik, qiyoslash-taqqoslash, analogiya metodlaridan foydalanildi. Bunda asl matnda ifodalangan so'z takrori bilan bog'liq badiiy tasvir va ifoda vositalari aniqlanib, ularning rus va o'zbek tillaridagi tarjimasida qanday ifodalanganligi qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. So'z takrori bilan bog'liq badiiy tasvir vositalarining ifoda xususiyatlaridan taniqli nemis yozuvchisi Erix Maria Remark o'z romanlarida keng foydalangan. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarining o'ziga xos qurboniga aylangan adibning hayot kechinmalari bir qator romanlarida aks etgan. Uning bevosita urush voqealarida ishtiroki paytidagi, tinchlik va osuda hayotning bebaho ekanligini o'quvchiga uqtirish g'oyalari bilan yo'g'rilgan romanlari tufayli ta'qib qilinib, quvg'inda yurgan davrlaridagi ruhiy kechinmalari asar qahramonlari nutqi vositasida millionlab o'quvchilarning qalbiga kirib borgan. Ana shu kechinmalarning ekspressiv bo'yoqdorligi yozuvchi romanlarida qo'llangan bir qator badiiy tasvir vositalari, jumladan so'z takrorlari yordamida maromiga yetkazilgan. "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" (Im Westen nichts neues) romani qahramoni Paul Boymer tilidan aytilgan ushbu jumalarga to'xtalsak:

Ach Mutter, Mutter! Für dich bin ich ein Kind, warum kann ich nicht den Kopf in deinen Schoß legen und weinen? [...].

Ach Mutter, Mutter! Warum nehme ich dich nicht in meine Arme und wir sterben [...].

Ach Mutter, Mutter! Laß uns aufstehen und fortgehen, zurück durch die Jahre, bis all dies Elend nicht mehr auf uns liegt, zurück zu dir und mir allein, Mutter! [...].

Ach Mutter, Mutter, wie kann man es begreifen, dass ich weg muss von dir, wer hat denn anders ein Recht auf mich als du?[11;185-b.].

Ах мама, мама! Для тебя я ребенок – почему я не могу положить голову тебе на колени и поплакать?

Ах, мама, мама! Почему я не обниму тебя и не умру вместе с тобой.

Ах, мама, мама! Давай встанем и уйдем, назад сквозь годы, пока вся эта беда не свалится с наших плеч, назад, только к тебе и ко мне, мама!

Ах, мама, мама, уму непостижимо, что я должен уйти от тебя, ведь кто ещё имеет право на меня, как не ты? [10;174–176-b.].

Eh, oyi, oyi! Siz uchun haliyam go'dakman, – nima uchun tizzangizga bosh qo'yib yig'layolmayman?

Eh, oyi, oyi! Nima uchun bag'ringizga qaytadan singib, siz bilan birga jon berolmayman, oyijon?

Eh, oyi, oyi! Keling, o'rnimizdan turaylik-da, o'tmishimizga qaytaylik, to boshimizdan kulfat arimaguncha ketaveraylik, ketaveraylik...

Eh, oyi, oyi, oyi! sizni tashlab ketayotganim insofdanmi – menda sizdan boshqa kimning haq-huquqibor? [9;161–162-b.].

